¹⁰ Алимова С. Сохраняя историческую память. Правда Востока №104 19.05.2020 г.

¹¹ Рузиев Ш.Р. Ўзбекистонда тарихий-маданий туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. дисс. на соиск.учёной степени PhD, Самарканд: СамИСИ, 2019 год. –С. 69.

¹² <https://www.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=77635&p=attachment>

Traveler в номинации «Гастрономический туризм» Узбекистан уверенно занял 1-е место¹³. По мнению президента Международного этногастрономического центра Леонида Гелибтермана, «люди часто воспринимают туризм только как культуру, но туризм – это каждое одиннадцатое рабочее место в мире, гастрономический туризм – это 4 млрд. долларов США в день»¹⁴. По мнению специалистов, «...гастрономический туризм – это самый динамично развивающийся сегмент, он даёт рост от 7 до 12% ежегодно»¹⁵.

Кроме того, «работа, проделанная в Узбекистане по превращению туризма в один из стратегических секторов экономики, отражена в различных рейтингах и номинациях. В частности, в последние годы Узбекистан был признан лучшим туристическим направлением в мире изданием «The Guardian», самой быстрорастущей страной в глазах Wanderlust и лучшим развивающимся туристическим направлением, согласно Grandvoyage. В результате последовательно реализуемых мер, Узбекистан поднялся на 10 позиций (22 места) в Глобальном индексе мусульманского туризма, составленном Crescent Rating.

Список литературы:

1. <https://www.lex.uz> Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4095 «О мерах по ускоренному развитию туристской отрасли» от 05.01.2019 г.
2. <https://www.lex.uz> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в республике Узбекистан» от 05.01.2019 г.
3. <https://www.lex.uz> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5781 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма в Республике Узбекистан» от 13.08.2019 г.
4. <https://www.lex.uz> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 355 «Об утверждении положения о порядке сертификации туроператорских и гостиничных услуг» от 05.06.2017 г.
5. <https://www.lex.uz> Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5054 «Об организации деятельности Министерства туризма и спорта» от 06.04.2021 г.
6. В.А Государственное регулирование туристской деятельности: понятие и принципы. Вестник КарГУ, 2008, <https://articlekz.com/article/5096>
7. Махмудов С.Х. Самарканд вилояти тарихий-маданий туристик салохиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш. дисс. на соиск. учёной степени PhD, Самарканд, 2022
8. Алимova С. Сохраняя историческую память. Правда Востока №104 19.05.2020 г.
9. Рузиев Ш.Р. Ўзбекистонда тарихий-маданий туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. дисс. на соиск. учёной степени PhD, Самарканд: СамИСИ, 2019 год. –С. 69.
10. Мусин Т., Тен М., Туризм и рестораны в ракурсе налоговых ожиданий. Экономическое обозрение №11 (227) 2018 Стр.46-53

Кроме того, Всемирная туристская организация оценила Узбекистан на 4-е место в списке быстрорастущих стран в сфере туризма»¹⁶. С целью популяризации туристического потенциала страны среди мирового сообщества в 2019 году страну посетили более 160 представителей 30 СМИ из США, Японии, Германии, Италии, Китая, Индонезии, России и др. стран. В том же году на площади Сибуя в Токио был показан видеоролик, продвигающий потенциал туризма в Узбекистане, создана специальная платформа «Silk Road Project»¹⁷ для продвижения туристического потенциала стран Шелкового пути и перспективных региональных турпродуктов и маршрутов.

Вывод. В целом, неотъемлемым направлением проведения культурной политики должно быть создание и популяризация новых, инновационных брендов, которые послужат развитию туризма в республике. Систематическое проведение культурных мероприятий и фестивалей во всех регионах, приведет к социально-экономическому развитию регионов, а также позволит координировать организационные и межотраслевые отношения между субъектами туристской деятельности.

11. «Прогнозные параметры развития туризма на 2020-2022 годы». Информационно-аналитическая записка, г. Ташкент 2019 год. ИПМИ.
12. <https://www.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=77635&p=attachment>
13. Ахмед, Акбар С. Открытие ислама: осмысление мусульманской истории и общества. Рутледж, 2015.
14. Бобоерова, Гульчехра и Нодира Азимова. «Общественный туризм в Узбекистане: Опыт и перспективы». Планирование и развитие туризма 17, вып. 3 (2020): 343-361.
15. Фарманфармаян, Роксана. Война и мир в Каджарской Персии: последствия прошлого и настоящего. Рутледж, 2019.
16. Худойкулов, Азизбек и Гульноза Юлдашева. «Оценка качества туристических услуг в Узбекистане». Журнал критических обзоров 7, вып. 1 (2020): 1237–1243.
17. Куролова, Дильфуза. «Сохранение исторических памятников и традиционных ремесел в Узбекистане: проблемы и перспективы». Устойчивое развитие туризма в Узбекистане: перспективы и вызовы, стр. 107-122. Спрингер, Чам, 2021 г.
18. Шидловский, Дж. Пол. «Бухарский проект: сохранение исламского наследия Центральной Азии». Журнал Всемирного фонда памятников 21, вып. 1 (2020): 76-89.
19. Правительство Узбекистана. Государственная программа развития туризма в Республике Узбекистан. Ташкент, 2019.
20. Юсупова, Саида. «Стратегии развития туризма в Узбекистане: критический обзор». Центральноазиатский обзор 39, вып. 4 (2020): 555-570.
21. Арипов, Эльдор и Наргиза Худайбергенова. «Проблемы и возможности развития культурного туризма в Узбекистане». Анализ туризма 25, вып. 5 (2020): 693-705.

¹³ Мусин Т., Тен М., Туризм и рестораны в ракурсе налоговых ожиданий. Экономическое обозрение №11 (227) 2018 Стр.46-53

¹⁴ Там же

¹⁵ Там же

¹⁶ «Прогнозные параметры развития туризма на 2020-2022 годы». Информационно-аналитическая записка, г. Ташкент 2019 год. ИПМИ.

¹⁷ Там же



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLANISHIDA XORIJIY TAJRIBA

Boburmirzo Xursanaliev

Qo'qon universiteti Ilmiy
tadqiqotlar departamenti boshlig'i
email: boburmirzo04@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 5

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.899>

**KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/
keywords**

Iqtisodiyot, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, tartibga solish, tadqiqot, daromad, tashkiliy iqtisodiy mexanizm, yalpi ichki maxsulot, bozor iqtisodiyoti.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi rivojlanayotgan zamonda qanchalik muhim ekanligi haqida so'z boradi. Kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solinishi tadbirkorlik faoliyatiga qaydarajada ahamiyatli ekanligiga oid birqancha xorij adabiyotlari ustida tahlil o'tkazildi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi kichik biznes va tadbirkorlikni tartibga solish va uni rivojlantirishda xorij tajribalarini tadbiq etish bo'lib, ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tadqiqot metodining qiyoslama usulidan foydalanildi. Tadqiqotni yoritib borishda ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Ikkilamchi mamba ma'lumotlari xalqaro darajada tan olingan baza va jurnallar, maqolalar, ilmiy maqolalar veb-sayt ma'lumotlari hamda rasmiy hujjatlardan to'plandi. Xorijning eng rivojlangan davlatlarida tadbirkorlikni tartibga solishda ularga yaratilgan erkinliklar va shart-sharoitlari ustida tahlil olib borildi. O'zbekistondagi tartibga solish jarayoniga taqqoslandi. Maqola yakunida tadqiqotning xulosalari va bu sohada tadqiqot olib boruvchilar uchun tavsiyalari berib o'tildi.

Kirish. Ma'lumki, xususiy tadbirkorlikning kichik va o'rta biznes shakli bugungi rivojlangan davlatlar tajribasida o'zining yuksak va muvaffaqiyatli natijalari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, ayrim davlatlarda uning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Jahon iqtisodiy integratsiya sharoitida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar va tizimli islohotlarni amalga oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning omili sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)ning ahamiyati ortib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "Xitoyda ish bilan band aholining 81,4 foizi, yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 54,3 foizi, Yaponiyada ish bilan band aholining mos ravishda 70,8 foizi, yalpi ichki mahsulotning 67,0 foizi, AQSHda ish bilan band aholining 50,6 foizi, yalpi ichki mahsulotning 53,1 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda"¹ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyotdagi sog'lom raqobat muhiti uchun qulay imkoniyatlarni yaratish davlat byudjeti tushumlarini ortib borishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham barcha rivojlangan davlatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini har qanday sharoitda ham qo'llab-quvvatlashga intiladilar. Xorijiy davlatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorligining iqtisodiy ko'rsatkichlari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori bo'lgan. Bizning ushbu tadqiqotni amalga oshirishimizdan asosiy maqsadimiz O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishda rivojlangan davlatlarning bu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarini o'rganib chiqib, ularning tajribasidan o'tgan amaliy ishlarni O'zbekistonga ham tadbiq etishdir.

Bugungi kunda barcha televideniya va ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistonni Yangi O'zbekiston deya sharaf bilan atayotganimiz bejizga emas. Chunki 5-6 yil avval ushbu yangi nom zamirida amalga oshirilayotgan islohotlar insonlarda yangi sohalarga qiziqish uyg'otish, har bir inson o'zi qiziqqan yo'nalishda yangiliklar yaratish, eng asosiysi, har bir inson uchun tadbirkorlikda o'z omadini sinab ko'rish imkonini bermoqda. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz", deb barcha tadbirkorlarga ruh va ertangi kuniga ishonch berdi.

2016 yil 5 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan, "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo'l

qo'yilmaslikni eng muhim ustuvor yo'nalish va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustahkamlaydi"².

Keyingi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohalarini va tarmoqlarida chuqur islohotlar amalga oshirilmog'da. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan³. Ushbu vazifalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi maqsadlariga erishish yangi, sifatli faoliyat ko'rsatadigan tizimni yaratishni talab qiladi. Davlat boshqaruvi, davlat boshqaruvi organlari va organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini tashkil etish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat bosqichma-bosqich sharoitida moslashuvchan iqtisodiy boshqaruvi tizimini shakllantirish, davlat korxonalarining faoliyatiga aralashuvini kamaytirish mamlakatning to'liq bozor munosabatlariga silliq o'tishini ta'minlaydi. Shu maqsadda respublikada milliy iqtisodiyotni boshqarish konsepsiyasi ishlab chiqilmog'da. 2021-yil 16 - iyun kuni O'zbekiston simpoziumlari saroyida Savdo-sanoat palatasining navbatdagi qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda adliya vaziri R.Davletov ishtirok etib, Tadbirkorlik kodeksi, tadbirkorlikka oid qonunchilikdagi muammolar tahlili va ularning yechimlari to'g'risida nutq so'zlandi. U qurultoyda ikkita masalani ko'tarib chiqdi. Birinchisi, Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilayotgan Tadbirkorlik kodeksi, ikkinchi masala esa umuman tadbirkorlikka oid qonunchilikdagi muammolar tahlili va ularning yechimlari haqida edi. "Hamma bitta narsani tushunishi kerakki, tadbirkorlikning asosiy mohiyati - bu foyda olish, samaradorlik va olingan foydani yana investitsiya qilishdan iborat. Ya'ni tadbirkor foydani qancha ko'p olsa, shuncha ko'p investitsiya qiladi va bu mamlakatning o'sishiga xizmat qiladi. Demak, tadbirkorning o'sishidan davlat manfaatdor" deya ta'kidladi adliya vaziri R.Davletov.

Adabiyotlar tahlili. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va qullab-quvvatlash tizimining shakllanish bosqichlari Rossiya iqtisodchisi V.N.Bykova dissertatsiyasi tadqiqotida bevosida 4 davrga ajratildi. Dastlabki davr, xorij davlatlarida 1929-1938-yilgi inqirozga qarshi choralarini ishlab-chiqilganidan song, turli mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash vositalari shakllandi. Ikkinchi davr XX asrning ikkinchi yarmiga tug'ri kelib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari Yaponiya, AQSH, G'arbiy Yevropada boshlangan. Bu davrda kichik biznesni rivojlantirishga vakolatli davlat organlari, davlat apparati va maxsus boshqaruvi organlari shakllantirilib, kichik biznesni qullab-quvvatlovchi davlat infratuzilmasi yaratildi⁴. Bir qator rossiyalik olimlardan O.V.Gleba va V.S. Shpekalar kichik va o'rta korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muammoli jixatlarini o'rgangan

¹ S. B. Sattorova. F. B. Shakirova Kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash nazariyasi. Scientific Journal Impact Factor

² <https://president.uz/oz/1>

³ Rashid Khudoyarov Senior Lecturer, Improving economic governance in a market economy. Department of Economics, Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan Named After Mirzo Ulugbekfile:///C:/Users/User.AD.114/Downloads/1333.pdf

holda, quyidagi fikrlari ilgari surilgan. “Kichik va oʻrta biznesning innovatsion faoliyatini qoʻllab-quvvatlash nuqtai nazaridan shuni takidlash kerakki, ushbu tadbirkorlik subyektlarining rivojlangan mamlakatlarda faoliyat kursatishi ularning muvaffaqiyoti innovatsiyalar bilan chambarchas bogʻligini koʻrsatadi”. Demak, kichik biznes boshqaruvida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, ayniqsa raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida oʻta dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Fikrimizning isboti sifatida iqtisodchi E.I.Levinaning qarashlarini keltirish oʻrinli. “Kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning rivojlanishi bilan iqtisodiyot demonopolizatsiyasi, yangi ish oʻrinlarining paydo boʻlishi, hududlarda bozorlarning shakllanishi, va innovatsion faoliyatning rivojlanishini taʼminlaydi”⁴

Shahzoda Hatamova oʻzining “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznesni boshqarish tashkiliy mexanizmini takomillashtirish” maqolasida: “Oʻzbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini bosqichma-bosqich, tizimli va uzluksiz ravishda takomillashtirib borish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bugungi holati, ularning faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimi bilan bogʻliq muammolarini ijobiy hale tib boorish mumkin”⁴ ligini takidlaydi.

Jon Lester oʻzining “Kichik biznesni qoʻllab-quvvatlovchi siyosat aralashuvi: asoslar, natijalar va tavsiyalar” nomli maqolasida Kichik biznes va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha federal tashabbuslarni uchta keng guruhga boʻlish mumkinligini takidlab oʻtdi. Bular moliyalashtirish dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash va tadbirkorlar uchun ayniqsa foydali boʻlgan soliq choralaridir⁵. JL Polo-Otero oʻzining “Tadbirkorlik qoidalarini yangi tadbirkorlikni yuzaga keltiradimi?” nomli maqolasida “biznesni tartibga solish tadbirkorlikning umumiy hajmiga emas, balki uning rasmiy va norasmiy korxonalar oʻrtasida taqsimlanishiga taʼsir qilishini umumlashtiradilar; qoidalar qanchalik ogʻir boʻlsa, ular shunchalik norasmiydir.” degan edi. Bundan koʻrinadiki tadqiqotchi olim oltmish uchta mamlakatda biznesni tartibga solish hamda tadbirkorlik hajmi oʻrtasidagi munosabatlar oʻrganib chiqib, biznesni yuritishning Jahon banki tomonidan oʻlchanadigan biznes qoidalarini sifatida tushuniladigan biznesni boshlashning maʼmuriy murakkabliklari tadbirkorlikning umumiy hajmi emas, davlat roʻyxatidan oʻtgan tadbirkorlik darajalari bilan jiddiy bogʻliq emasligini isbotlagan⁶.

Andre Van Stel “Biznes qoidalarining yangi va yosh tadbirkorlik faoliyatiga taʼsiri” nomli maqolasida “Biz mehnat bozoriga kirishdan koʻra, yangi va yosh biznes darajasiga kuchli taʼsir koʻrsatadigan qoidalar ekanligini aniqladik. Bu hayratlanarli, negaki yangi paydo boʻlgan tadbirkorlarga - biznes boshlashni oʻylayotganlarga biznes tashkil etilgandan keyin paydo boʻladigan omillardan koʻra darhol ustuvorliklarga koʻproq taʼsir qilishi kutilgan” deya oʻz qarashlarini takidlab oʻtgan. Ushbu maqolada tadqiqotchi olimlar 39 ta davlatning tartibga solish va tadbirkorlik oʻrtasidagi munosabatlarni yangi ikki tenglamali model yordamida oʻrganib chiqishgan. Biz uning tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga keldiki, tadbirkor oʻz faoliyatini boshlaganidan soʻng, u davlat

tartib qoidalari xaqida oʻylab bosh qotirgandan koʻra, oʻz biznesi rivoj uchun bosh qotirgani afzalroq ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Tadqiqotchi olim Aliyu Alhaji Jibrilla Nigeriyaning hukumat aralashuvining kichik biznesga taʼsirini oʻrganib chiqdi. Tadqiqotning empirik tekshiruvini oʻrganish uchun muhim boʻlgan uchta asosiy yoʻnalishdan foydalanilgan, yaʼni: SSE operatorlarining davlat aralashuvi toʻgʻrisidagi idroki, bu aralashuvlarning ularga tegishligi hamda ushbu aralashuvlarning mavjudligi. Maʼlumotlar intervyu va anketa orqali toʻplangan. Datadan olingan natijalarni tavsiflash hamda tahlil qilish uchun foiz va Chi-kvadrat usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotdan olingan xulosa shundan iboratki, SSE operatorlarining aksariyati tadqiqot hududida bunday aralashuvlar mavjudligini bilishmaydi. Hukumat aralashuvi samaradorligini oshirish uchun aholini sezgilarlashtirish va xabardorligini oshirish boʻyicha saʼy-harakatlarni birgalikda olib borish tavsiya etilgan. Hukumat aralashuvining oʻrganilayotgan hududdagi SSElarga taʼsirini taʼminlash, ogʻir garovni olib tashlash, xabardorlikni yaratish va respondentlar taʼkidlaganidek, barcha SSE operatorlari uchun teng imkoniyatlarni taʼminlash uchun, shuningdek, sxemani toʻgʻri sezgilarlashtirish zarur deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ushbu tadqiqotimizning natijalarini olish maqsadida tadqiqot metodologiyasining qiyosiy tahlil usulidan foydalandik. Qiyosiy tahlil usuli bu bir yoki bir nechta hodisalarni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyishning tizimli protsedurasi boʻlib, ular orqali ular oʻrtasida oʻxshashlik va farqlarni oʻrganishga intilishadi. Natijada, muammoning aniqlanishiga yoki bu haqda bilimlarning yaxshilanishiga olib keladigan maʼlumotlarga ega boʻladi.

Biz tadqiqot oʻtkazish jarayonida maʼlumotlar yigʻish uchun ikkilamchi maʼlumotlardan foydalandik. Ikkilamchi maʼlumotlar bazasidan foydalanilganda bizning amalga oshirishimiz koʻzda tutilgan tadqiqot mamlakatimiz iqtisodiyoti koʻrsatkichlarini soʻngi oʻn yillik maʼlumotlaridan foydalandik. Shuningdek maʼlumotlar bazasini shakllantirishda xorijiy olimlarning tadqiqotlaridan foydalandik. Ushbu maʼlumotlarni shakllantirish maqsadida biz dastlab tadqiqotimiz uchun zarur boʻlgan maʼlumotlarni turli maʼlumotlar bazasi, mamlakatimizdagi davlat idoralari maʼlumotlariga tayangan holda amalga oshiramiz. Xususan, biz maʼlumotlar bazasini shakllantirishda Jahon Rivojlanish Indikatori yaʼni Jahon banki tomonidan tashkil etilgan koʻrsatkichlardan foydalandik.

Tadqiqot natijalari. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes har tomonlama qoʻllab-quvvatlashning puxta ishlab chiqilgan tizimi mavjud boʻlib, bu tizim iqtisodiyotning globallashuvi, jahon moliyaviy-iqtisodiy muhitining barkaror taraqqiy etishini taʼminlaydi. Bu islohotlar natijasida, umumiy xisob-kitoblarga koʻra rivojlangan davlatlarga tadbirkorlik subʼektlari jami korxonalar sonining 90 foizdan ziyodini tashkil etib, mexnatga layoqatlik aholining 50 foizdan ortigʻini ish bilan taminlamoqda.

Bunday holat esa davlat tomonidan kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash mexanizmining toʻlaqonli rivojlanganligini anglatadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar kichik biznes korxonalarining keng koʻlamli rivojlanishi va ularning innovatsion faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash yuzasidan bir qator chora- tadbirlar ishlab chiqilgan

1-jadval

Jahon tajribasida kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari¹⁴.

Asosiy xususiyatlar	Asosiy xususiyatlarning qaysi davlatlarga xos ekanligi
Yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarish xarajatlarini 50 foizgacha Toʻgʻridan-toʻgʻri moliyalashtiradi. (subsidiyalar, zayom)	Fransiya, AQSH va boshqa mamlakatlar
Foizsiz ssudalar taqdim etiladi	Shvetsiya
Dotatsiyalar beriladi, kichik biznesga kreditlar ajratishda venchur fondlaridan samarali foydalanadi	Amalda barcha rivojlangan mamlakatlar
Innovatsiyon loyihalarni ishlab chiqishga joriy etishini qoʻllab quvvatlash maqsadida venchur moliyalashtirish fondlari tashkil etadi.	AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Shvetsariya, Niderlandiya
Yakka tartibdagi kashfiyotchilar uchun davlat bojlari pasaytiriladi	Avstriya, Germaniya, AQSH, Yaponiya
Kashfiyotlar energiyani tejashga qaratilgan boʻlsa, davlat bojlarini toʻlashda ozod etiladi.	Avstriya
Mahalliy ishlab chiqaruvchilar soliqqa tortishdan ozod etiladi, soliqlar faqatgina eksport qilishda solinadi	Xitoy
Yosh tadbirkorlarni qoʻllab quvvatlash (bozorga chiqishda, sheriklar topishda axborot bilan tekin taminlashda, imtiyozli narxda ijaraga bino va inshootlar, kerakli asbob uskunalar taqdim etish)ga aloxida eʼtibor qaratiladi	Buyuk Britaniya, Italiya
Tadbirkorlarga faoliyatining dastlabki ikki yilida foizsiz kreditlar beriladi, keyingi yillarda esa juda past stavkalarda yillik foizlar undiriladi	Germaniya
Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari boʻyicha patentlar olishda bojlardan ozod etiladi.	Niderlandiya, Yaponiya, Germaniya
Kichik biznesning sugʻurta qilinmagan zararlarini qoplash uchun yordam puli beriladi. Davlat bank kreditlarini olishda kafil sifatida qatnashadi.	AQSH

⁴ Maxmudova D. Davlat tomonidan kichik biznesni tartibga solish va qoʻllab quvvatlashda xorij tajribasi. International scientific journal volume 1 issue 7. (<https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-tomonidan-kichik-biznesni-tartibga-solish-va-llab-quvvatlashda-horizh-tajribasi/viewer>)

⁵ Shahzoda Hatamova. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznesni boshqarish tashkiliy mexanizmini takomillashtirish”. https://zenodo.org/record/6333622#_Y-8PoXZByUK
⁶ John Lester. Policy Interventions Favouing Small Business: Rationales, Results and Recommendations. University of Calgary. [The School of Public Policy Publications](http://www.spp.ca/pubs/PolicyInterventionsFavouingSmallBusiness.pdf)

Jadvalni tahlili shuni ko'rsatdiki, kichik biznes innovatsion takomillashtirish masalasi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bundan ancha yillar oldin strategik vazifa sifatida maqsad qilingan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida bu davlatning siyosati va ko'magiga muxtoj bo'lib, uning innovatsion faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash muhim vazifalardan ekanligini xoriji tajribasi yaqqol isbotlaydi.

Jahon tajribasida kichik biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash amaliyotiga e'tibor qaratsak, sohani qo'llab-quvvatlash prinsipida davlat paternalizmi prinsipini alohida ko'rsatish mumkin. Buning mohiyati shundaki kichik biznesni qo'llab - quvvatlash uch xil yondashuv modeli orqali amalga oshiriladi.

Birinchi model proteksionistik modeli bo'lib, unda rivojlangan davlatlarning iqtisodiy inqirozdan chiqishdagi tajribasi va amaliyotini, kichik biznesni qo'llab - quvvatlashning maqsadli dasturlarini o'zida aks ettiradi. Kichik biznesning eng rivojlangan vatani Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega samarali tadbirlar qatorida "Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi" va "Kichik biznes texnologiyalari transferti dasturi" kabi dasturlar orqali soha qo'llab-quvvatlanadi. Ikkinchi model mazkur modelning aksi bo'lib, unda proteksionistik usullarini qo'llamaydigan yondashuvdir. Jahon tajribasida bunga misol qilib Fransiyadagi kichik biznesni qo'llab - quvvatlashga yo'naltirilgan yirik ko'lami dasturlar qabul qilinmasligini ko'rsatib o'tish mumkin. Uchinchi modelda ikkala model birlashadi. Jumladan, Buyuk Britaniyada bunday yondashuvni kuzatish mumkin. Buyondashuvdada darajasida e'lon qilingan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash chora - tadbirlari proteksionistik bo'lmagan usullar yordamida amalga oshiriladi¹⁵.

O'zbekistonda ham kichik biznes faoliyatida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Hususan, kichik biznes boshqaruvini takomillashtirishda

davlatning tartibga solish va qo'llab-quvvatlash choralari tizimi negizida bir qator qonun va qonun osti xujjatlar o'z samarasini berib, sohaning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. YaIM xajmini 2030 yilga borib 2 barobarga ko'paytirish maqsadini amalga oshirishda ham kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish markaziy o'ringa chiqdi. Shunisi diqqatga sazovorki, oxirgi uch yilda (2018-2021) soliqlar turi 16 tadan 9 taga qisqartirildi va 5 yil ichida mamlakatimizda yosh tadbirkorlar soni 5 barobar

ko'payib, ularning soni 500 mingdan oshdi¹⁶. Tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imtiyoz va qulayliklarga qaramasdan, soxada yechilishi zarur bo'lgan muammolar xaligacha mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining kichik biznesdagi va xususiy tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta'minlanmagan ko'plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Ammo O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida bir qancha qarorlar qabul qilingan.

2-jadval

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari¹⁸.

Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash	
Soliq va boj imtiyozlari	Budjetdan ajratmalar
Yakka tartibdagi kashfiyotchilar uchun davlat bojlari pasaytiriladi	Foizsiz ssudalar taqdim etiladi
Mahalliy ishlab chiqaruvchilar soliqqa tortishdan ozod etiladi, soliqlar faqatgina eksport qilishda solinadi	Dotatsiyalar beriladi, kichik biznesga kreditlar ajratishda venchur fondlaridan samarali foydalanadi
Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha patentlar olishda bojlardan ozod etiladi.	Yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarish xarajatlarini 50 foizgacha To'g'ridan-to'g'ri moliyalashtiradi (subsidiyalar, zayom)
Kashfiyotlar energiyani tejashiga qaratilgan bo'lsa, davlat bojlarini to'lashda ozod etiladi.	Innovatsiyon loyihalarni ishlab chiqishga joriy etishini qo'llab quvvatlash maqsadida venchur moliyalashtirish fondlari tashkil etadi

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish, eksport shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini hamda umuman bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish va liberallashtirish kabilar kiradi.

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi, ya'ni unga muvofiq, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi.

O'zbekistondagi kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlashga oid qonun va qarorlar hamda amalga oshirilgan chora tadbirlarni o'rganib chiqib, yuqorida keltirilgan xorij tajribasini tahlil qilgan holda quyidagi jadvalni ishlab chiqdik.

Yuqoridagi jadval tahlillari natijasidan shuni ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash muhim vazifalardan biri xisoblanadi. Shuningdek, davlat paternalizmi (otalikka oluvchi) prinsipini alohida ko'rsatish mumkin.

Kichik biznesning eng rivojlangan vatani Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega samarali tadbirlar qatorida "Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi" va "Kichik biznes texnologiyalari transferti dasturi" kabi dasturlar orqali soha qo'llab-quvvatlanadi¹⁹. Tajribadan shuni ko'rish mumkinki AQSHda bo'lgan bu tajribalar ham bizga namuna bo'la oladi.

Xulosa va takliflar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab quvvatlashda dunyoning eng

rivojlangan davlatlari tajribalari ustida tahlil o'tkazdik. Bizning asosiy maqsadimiz O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab quvvatlashda rivojlangan davlatlarning ushbu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarini o'rganib chiqib, ularning tajribasida sinalgan tartib qoidalarini O'zbekistonga ham tadbiriq etishni o'z ichiga oladi. Ushbu o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, xorijiy davlatlar kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda birqancha imtiyozlar joriy etgan. Bular sarasiga mahalliy ishlab chiqaruvchilar soliqqa tortishidan ozod etilishi, soliqlar faqatgina eksport qilishda solinishi va tadbirkorliklarga faoliyatining dastlabki ikki yilida foizsiz kreditlar berilishi, keyingi yillarda esa juda past stavkalarda yillik foizlar undirilishi, yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqarish xarajatlarini 50 foizgacha to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishi (subsidiyalar, zayom), foizsiz ssudalar taqdim etilishi dotatsiyalar berilishi kiradi. Biz bu tadqiqotni o'tkazish jarayonida kichik biznes va tadbirkorlikka davlatning aralashuvi tadbirkorlarni rasmiy faoliyat olib borishidan ko'ra ko'proq norasmiy faoliyat olib borishga yoki tadbirkorlik faoliyatini butunlay tugatishga majbur etishini ko'rdik. Shuning uchun davlat idoralari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda tadbirkorlarga qo'yilayotgan talablar kamaytirib, ularga tadbirkorlik faoliyatining boshlang'ich davrida foizsiz kreditlar, soliqlardan ozod etish, foizsiz ssudalar, dotatsiyalar berish kabi bir qancha shart-sharoitlar yaratib bersa, tadbirkorlar norasmiy faoliyat olib borishdan ko'ra ko'proq rasmiy faoliyat olib bora boshlaydilar. Yuqorida keltirilgan xorij tajribasini taxlil qilgan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Kichik biznes subyektlarining yangi faoliyatlarini davlat budjetidan moliyaviy qo'llash orqali ularning raqobat bardoshligini oshirish (AQSH);

- Yangi biznes boshlamochi bo'lgan tadbirkorning biznes

loyihalariga ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy tomonlama ko'mak chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- Jahon tajribasida kichik biznes boshqaruvini takomillashtirishda yuqori natijalar ko'rsatib kelayotgan konsalting markazlari faoliyatini O'zbekistonda ham muntazam takomillashtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aliyu Alhaji Jibrilla. 2013. Impact of Government Interventions on Small Scale Entreprises in Mubi North Local Government Area, Adamawa State, Nigeria. Department of economics, Adamawa State University, Mubi, Nigeria. Journal of Economics and Sustainable Development www.iiste.org ISSN 2222-1700 (Paper) ISSN 2222-2855 (Online).
2. Andre Van Stel. 09.02.2007. The Effect of Business Regulations on Nascent and Young Business Entrepreneurship.
3. Gulnoz Iskandarovna. 2022. Methodology of comparative analysis. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", No 1 (42),180-189
4. John Lester. Policy Interventions Favouring Small Business: Rationales, Results and Recommendations. University of Calgary.[The School of Public Policy Publications](https://www.scribd.com/document/401111111/Policy-Interventions-Favouring-Small-Business-Rationales-Results-and-Recommendations)
5. José Luis Polo-Otero. Are the business regulations creating new entrepreneurship? Contaduría y Administración 65 (2), 2020, 1-21.
6. Liang Tan va Boon-Chye Li. Small and Medium Enterprises in Singapore and the New Economy. LEE, Boon Chye and TAN, Wee Liang. Small and Medium Enterprises in Singapore and the New Economy. (2002). The Role of SMEs in National Economies in East Asia. 374-369. Research Collection Lee Kong Chian School Of Business.
7. Maxmudova D. Davlat tomonidan kichik biznesni tartibga solish va qo'llab quvvatlashda xorij tajribasi. International scientific journal volume I issue 7.
8. Morris Wright. 03.06.2023. Qiyosiy tadqiqot usuli: xususiyatlari, bosqichlari. (<https://uz.warbletoncouncil.org/metodo-comparativo-15644>)
9. Rashid Khudoyarov Senior Lecturer, Improving economic

- Barcha viloyatlar kesimida kichik va o'rta biznesni yuritish malakalari berish va tadbirkorlik madaniyatini tarbiyalash bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan muassasalar tashkil qilinishiga erishish va ularning faoliyatini takomillashtirish kerak.

governance in a market economy. Department of Economics, Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan Named After Mirzo Ulugbekfile:///C:/Users/User.AD.114/Downloads/1333.pdf

10. S. B. Sattorova. F. B. Shakirova Kichik biznes faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash nazariyasi. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63) Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>

11. Sh.Mirziyoyev. "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent shahri, 2016-yil 5-oktabr.

12. Shahzoda Hatamova. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida kichik biznesni boshqarish tashkiliy mexanizmini takomillashtirish". <https://doi.org/10.5281/zenodo.6333622>

13. Farhod o'g'li, X. B. (2024). KICHIK BIZNESNI YIRIK BIZNESGA TRANSFORMATSIYASI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 4(1), 83-86.

14. Farhod o'g'li, X. B. (2024). TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA BIZNES XAJMINI BAHOLASH YO'NALISHLARI. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbqiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 28(1), 23-27.

15. Farhod o'g'li, X. B. (2024). Biznes yuritishning me'yoriy-xuquqiy asoslari va institutsional sharoitlari. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 4(2), 126-130.



KIMYO KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA BIZNESNI BOSHQARISH MODELLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna

Farg'ona politexnika instituti

Menagement kafedrasini ilmiy darajali katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tel: +998 91 326 45 88

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p>Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil Jurnal soni: 10 Maqola raqami: 6 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.900 KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</p>	<p>Bugungi dunyoda tobora ko'proq korxonalar raqobatdosh tahdidlar bilan birga paydo bo'ladigan, o'zgaruvchan va doimiy rivojlanayotgan yangi texnologiyalar bilan atrof-muhitni tushunishga intilmoqda. Bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun, birinchi navbatda, tashkilotda biznes jarayonlari qanday tashkil etilganligini va ular tashqi muhit sharoitlarining o'zgarishiga qanchalik moslashuvchan bo'lishi mumkinligini tushunish kerak. Biznes jarayonini korxonaga aylantirish uchun uni moliyaviy, texnologik va inson resurslari bilan ifodalash, shuningdek ularni tezda boshqarish lozim. Biznes-jarayonlarni boshqarish korxonaga takomillashtirish, yangi texnologiyalar ustidan nazoratni ta'minlash imkoniyatini beradi, shuningdek, biznes jarayonlarini optimallashtirish usullaridan foydalangan holda samarali ishlab chiqarish tsikllarini o'zlashtirish jarayonida integratsiya qilish imkoniyatini beradi.</p> <p>Maqolada kimyo sanoati korxonalarida boshqaruv modellari tuzilishi, tarkibiy qismlariga xos xususiyatlar, xorijiy boshqaruv modellari, ularning ahamiyatli jihatlari, boshqaruv jarayonlarini tashkil etish bosqichlari yoritilgan. Boshqaruv modellari takomillashtirish masalalarining ahamiyati tavsiflab berilgan.</p>

Kirish. Jahonda aholi turmush sharoitini oshirishda kimyo sanoatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kimyo sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlashda biznesni boshqarish modellarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon kimyo sanoati korxonalarida biznesni boshqarish modellarini rivojlanish evolyutsiyasi, konseptual asoslari, tarkibiy qismlari, ishlab chiqish bosqichlari, klassifikatsiyasi, boshqaruv mexanizmlari bo'yicha tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash kerakki, sanoat korxonalarida biznesni boshqarish modellarini baholash usullari, restrukturalizatsiya qilish yo'nalishlari hamda raqobatda ustunlikni ta'minlovchi modellar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda amaliyot shuni ko'rsatadiki, korxonalar ko'pincha biznes modellarini ishlab chiqish haqida faqat investitsiyalar kerak bo'lganda o'ylashadi. Hozirgi vaqtda biznes investitsiya bozorida bir qator muammolar mavjud. Pulni sarmoya qilishga tayyor investorlar bor, lekin yaxshi ishlab chiqilgan g'oyalar juda kam. Ko'pgina startap kompaniyalar potensial investorlarga o'z bizneslari g'oyasini tom ma'noda tushuntirishga harakat qilishadi. Eng yaxshi holatda, ular qo'pol, ko'pincha juda optimistik biznes-rejaga ega. Bu yondashuv ishlamaydi.

Biznes modeli potensial investorga biznes konsepsiyasini aniq ko'rsatish uchun javob beradi. Asosiy marketing savollariga javob berish orqali biznes g'oyani "sotish" ga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish mumkin. Investor, shuningdek, kelajakdagi biznes haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish darajasini qadrlaydi.

Biznes jarayonining asosiy elementi - bu tashkiliy boshqaruv tuzilmasining tavsifi. Uning qismlari murakkab munosabatlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ulardagi o'zgarishlar qolganlarning barchasini qayta ko'rib chiqish bilan belgilanadi.

Model – (lotincha modulus – o'lchov, namuna, me'yor) – a) keng ma'noda – modellashtirilgan ob'ektning har qanday aqliy yoki ramziy tasviri (asl). Model haqiqatning soddalashtirilgan tasviridir. Biznes – (inglizcha biznes, korxonaga – biznes, tadbirkorlik faoliyati) – tadbirkorlik faoliyati, daromad yoki boshqa moddiy manfaat keltiruvchi biznes. Biznes modeli (Aleksandr Ostervaldga ko'ra) tashkilot qanday qilib

yaratishi, mijozlarga yetkazib berish va qiymatni - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qiymat shakllarini olishini mantiqiy tavsiflaydi.

Demak, biznes modeli firma strategiyasining ayrim jihatlarning mavhum ifodasidir. U kompaniya o'z mijozlari va egalari (investorlarga) qanday qilib muvaffaqiyatli tarzda qiymat yetkazib berishini tushunish uchun zarur bo'lgan muhim tafsilotlarni bayon qiladi.

Har bir kompaniyaning strategiyasi o'ziga xosdir, chunki resurslar takrorlanmaydi (ayniqsa, inson resurslari). Ammo turli korxonalarining biznes modeli mutlaqo bir xil bo'lishi mumkin. Biznes modelini ishlab chiqish jarayoni biznes strategiyasining bir qismidir.

Adabiyotlar tahlili. Sanoat korxonalarida biznesni boshqarish modellarini ishlab chiqish va rivojlantirish masalalari G.Hamel, K.Prahalad, G.Booch, J.Rumbaugh, I.Jacobson, C.Burmester, D.Luttgens, F.Piller, M.Rappa, B.Mahadevan, A.Afuah, Ch.Tucci kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Biznes modeli tushunchasi bo'yicha turlicha nuqtai-nazar bo'lganligi sababli yagona ta'rif ishlab chiqilmagan. Ch.Kim, R.Moboranlar (2013) "Biznes modeli - bu kompaniya turli mezonlar bo'yicha iste'molchi ehtiyojlarini qanday qondirishini aks ettiruvchi qiymat egri chizig'i" deb ta'riflashgan bo'lsa,¹ G.Chesboro (2008) "Biznes modeli - bu kompaniya uchun qiymat yaratish va foyda olish maqsadida foydalanadigan vosita²" sifatida yondashgan.

B.Mahadevan fikricha³ biznes modeli biznes uchun juda muhim bo'lgan uchta oqim konfiguratsiyasidan iborat. Birinchidan, biznes sheriklari va xaridorlar uchun qiymat taklifini aniqlaydigan qiymat oqimi. Ikkinchidan, daromadlar oqimi, bu biznes uchun daromad olishni ta'minlash uchun rejadir. Uchinchidan, biznes uchun ta'minot zanjirini loyihalash bilan bog'liq turli xil masalalarni hal qiladigan logistik oqim.

A.Afuah va L.Tucci (2001) aksincha⁴, biznes modeli bir qator savollarga javoblarni o'z ichiga olishi kerakligini tushuntiradi: xaridorlarga mahsulotning qanday qiymatini taklif qilish kerak, qanday qilib narxni belgilash zarur, buning uchun kimdan haq olish, qanday strategiyalar qo'llash, qiymatni taqdim etishni o'z zimmasiga olish, qiymatni qanday ta'minlash va qiymatni ta'minlashdan qandaydir ustunlikni saqlab qolish.

Sanoat korxonalarida biznesni boshqarish modellari umumiy muammolari MDH olimlaridan V.Kotelnikov, G.Chesboro,

¹ Чан Ким У., Моборн Р. Стратегия голубого океана. – М: Манн, Иванов и Фербер, 2013. – 304 с.

² Чесборо Г. Открытые бизнес-модели: IP – менеджмент. – М.: Поколение, 2008. – 352 с.

³ Mahadevan B. (2000). Business models for Internet-based e-commerce: An anatomy. California Management Review, 42(4), 55–69.

⁴ Allan Afuah, Christopher L. Tucci. Internet Business Models and Strategies: Text and Cases. Irwin/McGraw-Hill, 2001, 358 p.

B.Kovalenko, K.Amangeldiyev, YE.Moreva, O.Tretyak, D.Klimanov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda I.Djalolova, R.Tursunov, N.Yo'ldoshev, D.Sobirjonova, Sh.To'laganova, N.Maxmudov, D.Akobirova, M.Ikramov, A.Qo'chqorov kabi olimlar biznesni boshqarish modellarini ba'zi jihatlarini tadqiq etishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tizimli va statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, grafik talqin, taqqoslash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasini quyidagicha shakllantirish mumkin: asosiy ishlab chiqarish biznes-jarayonlarini modellashtirish korxonada boshqaruv jarayonining narxini sezilarli darajada soddalashtiradi va kamaytiradi.

Tadqiqot natijalari. Bugungi pandemiya sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida turgan eng asosiy masala optimal usul asosida korxonaning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikka erishishda zamonaviy texnika-texnologiyalar, xodimlarning mehnat salohiyati bilan bir qatorda biznes modellarini qo'llash talab etilmoqda.

Biznesni modellashtirish bu korxonani muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Sanoat korxonalarini biznes modellarini ishlab chiqishda mutaxassisdan korxonaga haqida puxta bilim, kreativ fikrlash, rivojlantiruvchi strategiyani tuzish kabi qobiliyatlar talab etiladi.

Sanoat korxonalarida biznes modeli konsepsiyasi korxonaga foydasiga va mijozga ya'ni ichki va tashqi omillarga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanishi lozim. Birinchi yondashuvda korxonaga ichki muhitidagi biznes jarayonlar, texnika – texnologiyalar, xodimlarning mehnat salohiyati e'tiborga olinsa, ikkinchi yondashuvda aksincha korxonaga iste'molchilari ya'ni tashqi muhit omillariga e'tibor qaratiladi.

1-jadval

"Biznes modeli" atamasi mohiyatining ta'riflari

Yondoshuv	Ta'rif
Qiymatga yo'naltirish - mijoz	Biznes modeli korxonaga mahsulotni qanday ishlab chiqarishni, mijozlarga yetkazib berishni, shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qiymat shakllarini qanday yaratishni mantiqiy ravishda tavsiflaydi. ⁵ Biznes modeli bu korxonaning xaridorlar uchun qiymat yaratish va undan foyda olish usulidir. ⁶
Ichki biznes jarayonlariga yo'naltirish	Biznes modeli - bu korxonani biznes jarayonidagi eng muhim parametrlarini o'zida jamlagan yoki tasvirlagan ko'rinishidir. ⁷
	Korxonaning biznes modeli - bu foyda olish va raqobatbardosh bo'lish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan korxonaning barcha muhim xususiyatlarini aniq namoyish eta oladigan shakl hisoblanadi. ⁸
	Biznes model - bu yagona tizim ichida kompaniyalardagi ichki va tashqi muhitni belgilaydigan tegishli model elementlari to'plamidir. ⁹

Fikrimizcha, korxonaning biznes modeli bu raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi boshqarish jarayonini tashkil etishda grafik va matnli tavsiflardan foydalanish hisoblanadi.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarida iste'molchilarning o'sib borayotgan talablarini uzoq vaqt davomida qondirish, yangi bozorlarni egallash kabi masalalarga samarali biznes modelni ishlab chiqish orqali erishiladi. Biznesni boshqarish modeli korxonani innovatsion va strategik boshqaruv tizimini loyihalash vositasi sifatida yaqin yillarda paydo bo'ldi. Biznesni modellashtirish dastlab 70-yillarda yirik loyihalarni boshqarishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'lganida ishlab chiqildi.

Biznesni modellashtirish mavzusidagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki ko'pgina mualliflar biznes modeli tushunchasini turlicha yo'nalishlarda talqin etishgan. Ba'zi tadqiqotchilar biznes modelini mavhum tushuncha sifatida ifodalaganlar, buning asosida korxonaga o'z faoliyatini amalga oshiradigan qiymatni yaratish, sotish va mijozlarga yetkazib berish usullarini eng umumiy shaklda tavsiflash uchun foydalanadilar.¹⁰

Yana ba'zilar biznes konsepsiyasiga urg'u berishgan ya'ni murakkab biznes jarayonini bartaraf etish maqsadida maqbul boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Biznes modeli korxonani tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini qamrab olishga, asosiy ishlarga diqqatni jamlashga, korxonaga faoliyatini muntazam nazorat qilishda aniqlanmaydigan muammolar va o'zaro bog'liqliklarni, qarama-qarshiliklarni va alternativlarni aniqlashga imkon beradi. Korxonaga biznes modeli bilan ishlash nazariya jihatdan uning faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

Biznesni boshqarish modeli tomonidan hal qilinadigan vazifalar:

- Xodimlar e'tiboriga yetkazilishi mumkin bo'lgan biznesning mantiqiy va ichki konsepsiyasini, korxonaga faoliyatini tashkil etish tamoyillarini taqdim etish;

- Noyob kombinatsiyalarda ishlab chiqilishi va ishlatilishi mumkin bo'lgan biznes modelining muhim tarkibiy qismlarining tuzilishini shakllantirish;

- Korxonaning maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy tendensiyalarni aniqlash;

Investorlarni qiziqitirish, shuningdek zarur manbaalarni olish uchun boshqa manbaalardan foydalanish maqsadida biznesning iqtisodiy jozibadorligini ko'rsatish;

Korxonaga faoliyatini boshqarish, korxonaga menejrlari tomonidan ko'rib chiqilgan ayrim strategik va taktik qarorlarni baholash mezonlarini aniqlash uchun haqiqiy asos yaratish;

Tashqi ishbilarmonlik muhitida yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda korxonaga strategik yo'nalishlarini aniqlash.

Biznesni boshqarish modeli keng ko'lami vazifalar doirasida qo'llaniladi, bularga biznes mantig'ini tushunish, korxonani tashqi o'zgarishlarga moslashish shaklini loyihalash, strategik rejalashtirish va biznesni modellashtirish, biznesni tashkil etish va yuritish mantig'iga oid yagona aloqa makonini yaratish kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, biznesni modellashtirishning zamonaviy amaliyoti biznesning barcha sohalarida qo'llaniladi va undan tashqariga chiqadi. Shunday qilib, ijtimoiy va ekologik loyihalarni tashkil qilishda biznes modellari ko'rib chiqiladi, ushbu konsepsiyaning asosligi va amaliyotga yo'naltirilganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Biznesni boshqarish modellarini maxalliy sanoat korxonalarida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa qishloq xo'jaligini rivojlanishiga xissa qo'shib kelayotgan kimyo sanoati korxonalarida biznesni boshqarish modellarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ma'lumki kimyo sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar sirasiga kiradi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib mineral o'g'itlar chiqaruvchi korxonalarini qurish orqali tashkil topgan. Respublikaning zamonaviy kimyo sanoati tarixi Shorsuv oltin gugurt koni 1932 yilda ishga tushirilishi bilan boshlanadi. 1940 yilda kimyo sanoatining eng yirik korxonasi — Chirchiq elektrkimyo kombinati (bugungi kunda «Maksam-Chirchiq» AJ) mahsulot bera boshladi. 1962 yilda Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi (bugungi kunda «Farg'onaazot» AJ) ishga tushirildi. 1964 yilda Navoiy kimyo kombinati (bugungi kunda «Navoiyazot» AJ) mahsulot bera boshladi. 1969 yilda Olmaliq kimyo zavodi (bugungi kunda «Ammofos» AJ) ishga tushirildi. Hozirgi vaqtda «Maksam-Chirchiq», «Navoiyazot» va «Farg'onaazot» aksiyadorlik jamiyatlarida azotli o'g'itlar ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfati ishlab chiqaradilar. «Ammofos», «Samarqankimyo» va «Qo'qon superfosfat zavodi» aksiyadorlik jamiyatlari fosforli o'g'itlar ammofos,

Business Psychology and Organizational Behavior emerge as critical disciplines for understanding the intricacies of human behavior in the workplace. Business psychology, also known as industrial-organizational psychology, is concerned with using psychological theories to improve well-being and productivity in corporate contexts. A larger field, organizational behavior, investigates how individuals and groups behave inside companies, drawing on concepts from management, sociology, anthropology, and psychology.

Conclusion. As these sectors acquire significance in an era of rapid technology breakthroughs and varied workforces, they act as navigational aids for businesses navigating the ever-changing global environment. The interdisciplinary character of Business Psychology and Organizational Behavior deepens analysis but presents obstacles in merging disparate ideas and approaches. When researching persons in

professional contexts, researchers must contend with quantifying subjective conceptions, adjusting to dynamic organizational situations, and resolving ethical concerns.

The issues extend to the globalization of organizations, where cultural variety impacts behavior greatly, necessitating frameworks that are culturally sensitive as well as generally relevant. The changing nature of leadership roles need sophisticated research for optimal organizational outcomes, adding another degree of complexity. Managing these complications necessitates a planned strategy. Mixed-methods research methodologies, multidisciplinary cooperation, and an ethical commitment provide avenues to a more thorough knowledge. It is critical to be able to adapt research methodologies to changing circumstances, to be culturally sensitive, and to prioritize employee well-being. Leadership development programs that recognize the changing nature of leadership positions help to ensure successful organizational management.

In summary, studying Business Psychology and Organizational Behavior is a practical need for firms seeking to prosper in the twenty-first century. Researchers, practitioners, and leaders must solve issues, embrace novel approaches, and develop a working atmosphere that supports both productivity and the well-being of its members. Finally, understanding the complicated dance between organizational structures and the human mind uncovers the secrets to long-term success in today's changing corporate environment.

Reference:

1. Adams, J.S. (1963). Towards an understanding of inequity. *Journal of Abnormal and Social Psychology*, 67, 422-436.
2. Aguinis, H., & Kraiger, K. (2009). Benefits of training and development for individuals and teams, organizations and society. *Annual Review of Psychology*, 60, 451-474.
3. Allen, R.S., & Montgomery, K.A. (2001). Applying an organizational approach to creating diversity. *Organizational Dynamics*, 30, 149-161
4. Baron, R.S. (2005). So right is wrong: Group think and the ubiquitous nature of polarised group decision making. In M.P. Zana (Ed.), *Advances in experimental social psychology*, 37, 219-253.
5. Barrick, M.R., Mount, M.K., & Li, N. (2013). The theory of purposeful work behavior: The role of personality, higher order goals and job characteristics. *Academy of Management Review*, 38, 132-153.
6. Christensen, L.J., Mackey, A., & Whetten, D. (2014). Taking responsibility for corporate social responsibility: The role of leaders in creating, implementing, sustaining or avoiding socially responsible firm behaviors. *Academy of Management Perspectives*, 28, 164-178.
7. Qodirjon o'g'li B. T., Nazarali o'g'li M. S. FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 8. – C. 32-35.
8. Nazarali o'g'li M. S. SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES (SMES) IN ASIAN NATIONS CAN BENEFIT FROM

FINTECH'S EFFICIENT SOLUTIONS //World Economics and Finance Bulletin. – 2023. – T. 23. – C. 122-124.

9. Otto M. et al. THE ROLE OF DIGITAL FINANCE AND TECHNOLOGICAL INNOVATION IN THE GROWTH OF THE GREEN ECONOMY //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – T. 7. – C. 19-22.

10. Melibaeva Gulxon Nazrullaevna. (2023). AN OVERVIEW OF THE FUNCTION OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN EMPLOYEE PERFORMANCE AND MOTIVATION. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 117–121. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.850>

11. Musabekov Sherali Nazarali. (2023). GOOGLE HRM FUNKSIYALARI HODIMLARGA QOYGAN TALABLARI VA YARATGAM SHAROITLARI HRM DAGI ISHLARINING TAXLILI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1422–1431.

12. Nazrullaevna, M. G. (2021). Management Mechanisms for Innovative Activities in Economic Systems. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2(11), 31-35.

13. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. *Intent Research Scientific Journal*, 2(3), 182–187. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/67>

¹⁰ Musabekov Sherali Nazarali. (2023). GOOGLE HRM FUNKSIYALARI HODIMLARGA QOYGAN TALABLARI VA YARATGAM SHAROITLARI HRM DAGI ISHLARINING TAXLILI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 1422–1431.



KORXONALARNI RIVOJLANTIRISH DASTURINI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA OSHIRISHDA INVESTITSIYALARNING ROLI

Mo'minova Kanizaxon Yo'ldashali qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

mominovakaniza@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 14

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.908>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

investitsiya, korxonalar, rivojlantirish dasturlari, innovatsiya, texnologiya, strategiya.

ANNOTATSIYA

Maqolada korxonalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda investitsiyalarning roli qandayligi, ularni bu jarayondagi ijobiy va salbiy tomonlari haqida so'z yuritiladi. Ushbu mavzu yuzasidan bir qator tadqiqotchilar tomonida olib borilgan ilmiy izlanishlar va ularning tahlili bayon qilinadi. Shuningdek tadqiqotni olib borish jarayonidagi Statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasining statistika portali statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan. Korxonalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda investitsiyalarning roli qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida O'zbekiston hududida faoliyat olib boruvchi korxonalar menejerlarning fikri o'rganilgan. Menejerlarni bu savollarga bergan javoblari maqolaning natijalar qismida bayon qilindi. Maqolaning ohirida muallif tomonidan korxonani rivojlantirishda investitsiyalarning rolini oshirish uchun bir nechta muhim tavsiyalar berib o'tilgan.

Kirish. O'tgan yillar davomida korxonalarining o'sishi va rivojlanishini rag'batlantirish uchun turli tashabbus va yondashuvlar qo'llanildi. XX asr boshlarida mamlakatlar sanoatlashtirishga e'tibor qarata boshlashdi, hukumatlar infratuzilma, ishlab chiqarish tarmoqlari va inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishga boshlashdi. Investitsiyalar tadbirkorlik sub'yektlarining o'sishini qo'llab-quvvatlash, innovatsiya va tadbirkorlikni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish uchun zarur moliyaviy resurslarni taqdim etadi. Korxonaning investitsiya faoliyati uning natijalari va rivojlanish maqsadlari bilan belgilanadi, shuningdek, uning ishlab chiqarish faoliyatining kelajakdagi imkoniyatlarini belgilaydi¹.

Individual darajada, investitsiyalar tadbirkorlarga o'z bizneslarini boshlash yoki kengaytirish uchun yordam beradi. Bu aholi va ularning oilalari uchun yangi ish o'rinlari, daromadlar va turmush darajasini oshirishga olib keladi.

Jamoa darajasida korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalar ijtimoiy hamjihatlikka va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi. Mahalliy tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali ushbu dasturlar iqtisodiy zarbalarga dosh berishga qodir bo'lgan barqaror jamoalarni shakllantirishga yordam beradi.

Milliy nuqtai nazardan, korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalar yanada kengroq iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik va o'rta korxonalar yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shmoqda.

Investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi nufuzli shaxslardan biri Bangladeshda Grameen bankiga asos solgan Muhammad Yunusdir. Yunus mikromoliyalash tushunchasini kiritdi, aholining kam ta'minlangan qatlamiga o'z biznesini boshlash imkoniyatini berish uchun kichik kreditlar beradi. Uning sa'y-harakatlari barqaror va inkluziv rivojlanishni yaratish uchun investitsiyalar salohiyatini namoyish etdi².

Korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalar o'z navbatida ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalarning ijobiy ta'siridan biri bu yangi ish o'rinlari yaratishdir. Investitsiyalar o'sish salohiyati yuqori bo'lgan sanoat va tarmoqlarga kiritilsa, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu nafaqat ishsizlik darajasini pasaytiradi, balki qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga ham hissa qo'shadi. Bundan tashqari, investitsiyalar innovatsiyalar va texnologiyalar transferini rag'batlantirishi mumkin. Korxonalar moliyalashtirilsa, ular tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritishlari, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishlari va mahsulot yoki xizmatlarini yaxshilashlari mumkin. Bu raqobatbardoshlik, mahsuldorlik va yangi bozorlarga kirish qobiliyatini oshirishga olib keladi.

Kiritilishi mumkin bo'lgan investitsiyalarning salbiy tomoni shundaki, investitsiyalar ba'zan ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan ko'ra foyda olishni birinchi o'ringa qo'yishi mumkin. Bu mehnatni ekspluatatsiya qilish yoki atrof-muhitning vaqt o'tishi bilan

yomonlashuvi kabi axloqsiz amaliyotlarga olib kelishi mumkin. Yana bir mumkin bo'lgan salbiy jihat - bu tashqi investitsiyalarga haddan tashqari ishonish xavfi hisoblanadi. Bunda rivojlanayotgan mamlakatlar xorijiy kapitalga qaram bo'lib qolishlari mumkin, bu esa ularni o'zgaruvchan global moliyaviy bozorlar oldida zaif holga keltiradi. Mahalliy investitsiya salohiyatini rivojlantirish va mahalliy investorlarning korxonalarni rivojlantirishga hissa qo'shishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Kemerovo davlat universiteti filiali Novokuznetsk instituti kafedra mudiri Nikolay Inokentievich Novikov hamda shu universitet o'qituvchisi Galina Vasilevna Novikova tomonidan yozilgan "Korxonani rivojlantirish dasturini amalga oshirishda investitsiyalarning roli va ularning shakllanishi" ushbu maqolada korxonalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda investitsiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi³.

Maqolada investitsiya jarayoni tadbirkorlik sub'yektlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi, ularning mablag'larini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan. Shuningdek, ular korxonalarining investitsiya faoliyati uchun amortizatsiya ajratmalarining rolini muhokama qiladi. Mualliflar tadqiqotlari davomida investitsiyalarni shakllantirish manbalarini taqdim etadilar va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalarni shakllantirishning asosiy manbai sifatida amortizatsiya fondining ahamiyatini ko'rib chiqadilar. Ularni fikricha "amortizatsiya siyosatini takomillashtirish maqsadida mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumning bir qismini uni bankdagi hisob raqamiga kelib tushgan paytdagi korxonaning markazlashgan amortizatsiya hisobiga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi. amortizatsiya mablag'larini bank hisobvarag'ida saqlash tartibi depozit hisobvarag'iga o'xshash bo'lishi kerak. Ushbu taklifni amalga oshirish mahsulot va xizmatlarni sotishdan olingan har bir rubldan hisoblangan amortizatsiya miqdoriga teng bo'lgan tegishli ulushni ushlab qolishni ta'minlaydi."

Maqolada ta'kidlanishicha, ko'pchilik sanoat korxonalari eskirgan uskunalar muammosiga duch kelmoqdalar, bu esa korxonalarining asosiy fondlari ishonchligining yuqori darajada eskirishiga va yomonlashishiga olib keladi. Mualliflar rivojlanayotgan korxonalar uchun investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya faoliyati jarayonida moliyaviy muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydilar⁴.

A.Zigunova va N.Shevkunovlar tomonidan yozilgan "Transporting iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimida korxonaning investitsiya siyosati" nomli maqolada korxonaning izchil rivojlanishi uchun moddiy bazani yaratish jarayonida transport va investitsiyalarning iqtisodiy xavfsizligining va o'zaro bog'liqligini o'rganadilar.

Mualliflarni fikricha, "Investitsiyalar moddiy-texnika bazasini yangilashga, ishlab chiqarish hajmini oshirishga va faoliyatning yangi turlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida korxonaning yuqori iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi." Maqolada

¹ Роль инвестиций и их формирование для реализации программы развития предприятия. Новиков Н.И.2014

² <https://www.britannica.com/topic/Grameen-Bank>

³ "Korxonani rivojlantirish dasturini amalga oshirishda investitsiyalarning roli va ularning shakllanishi" Galina Vasilevna Novikova

⁴ Роль инвестиций и их формирование для реализации программы развития предприятия. Новиков Н.И.2014

korxonadan tashqi manbalardan investitsiyalarni jalb qilishning turli usullari, masalan, banklardan kreditlar olish, garovga qo'yilgan kreditlash, biznes sheriklari va boshqa tashkilotlardan jalb qilingan mablag'lar, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik va boshqa vositalar orqali maqsadli moliyalashtirish imkoniyatlari haqida bayon qilingan.

Mualliflarning ta'kidlashicha, samarali investitsiya siyosati korxonaning strategik rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashning asosi hisoblanadi. Investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning turli usullari, shu jumladan statik va dinamik usullar tasvirlangan. Statik usullarda pul qiymatining vaqt o'tishi bilan o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinmaydi, dinamik usullar esa bu omillarni hisobga oladi. Mualliflar dinamik usullardan foydalanishni tavsiya etadilar, masalan, sof joriy qiymat, diskontlangan to'lov muddati, daromadning ichki darajasi va shu kabilar. Mualliflar korxonaning investitsiya siyosatini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, tashqi va ichki muhitni tahlil qilishni, investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini tanlashni va baholashning samarali usullaridan foydalanishni talab qiladi, degan xulosaga kelishadi⁵.

Tadqiqotchilar Gennadiy Aleksandrov va Galina Skvortsova tomonidan yozilgan "Korxonalarning investitsion jozibadorligi va sanoat mintaqalarining barqaror rivojlanishi" nomli maqolada barqaror rivojlanish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni muvozanatli hal etish zarurligini ta'kidlaydilar. Mualliflar maqolada korxonalarning investitsion jozibadorligiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ma'muriy, huquqiy, resurs, texnik, ijtimoiy va ekologik xarakterdagi cheklovlar va tahdidlarni diagnostika qilish va baholashning universal usulini taklif qiladilar. Shu bilan bir qatorda maqolada, ekologik, ijtimoiy va siyosiy muammolarning iqtisodiy ta'sirini baholash muammolari, shuningdek, keng ko'lamli migratsiya va mojarolar xavfi muhokama qilinadi.

Mualliflarning qayd etishicha, "barqaror rivojlanishga erishish uchun iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit sifatini muvozanatlash zarur. Investitsiyalarning ijobiy qaytishini ta'minlash uchun korxonalarda barqaror amaliyotlarni joriy etish muhimligi" ta'kidlanadi. Maqolada mintaqaviy darajada korxonalarning investitsion jozibadorligini belgilovchi omillarni diagnostika qilish va baholash metodologiyasi va usuli taklif qilingan. Mualliflar investitsiyalar hududni barqaror rivojlanishga o'tkazishga qaratilgan bo'lishi kerak, deb faraz qiladi va bu sohada adekvat investitsiya qarorlarini qabul qilish usulini taklif qiladi⁶.

Tadqiqot metodologiyasi. Korxonalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda investitsiyalarning roli haqida bir

qancha ilmiy tadqiqotchilarning tadqiqot materiallari o'rganildi va tahlil qilindi.

Statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasining statistika portali statistik ma'lumotlaridan foydalanildi hamda taqqoslash, qiyoslash va so'rovnomalar o'tkazish metodlaridan keng foydalanildi.

Korxonalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda investitsiyalarning roli qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida O'zbekiston hududida faoliyat olib boruvchi korxonalar menejerlarning fikri o'rganildi. Ularga quyidagi savollar bilan murojat qilindi.

1. Sizning biznesingiz qaysi turdagi investitsiyalarni (moliyaviy, moddiy, nomoddiy) eng ustuvor deb hisoblaydi?
 2. Investitsiya dasturlarini amalga oshirishda qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?
 3. Korxonani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishga sarmoya kiritishdan qanday foyda ko'rasiz?
 4. Korxonani rivojlantirish dasturlariga sarmoya kiritish qaroriga qanday omillar ta'sir qiladi?
 5. So'nggi yillarda korxonani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga kiritgan sarmoyalaringiz qanchalik muvaffaqiyatli bo'ldi?
- Anketa yopiq savollarni o'z ichiga oladi. So'rovdan to'plangan ma'lumotlar muallif tomonidan statistik dasturiy ta'minot yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Jahon tajribasidan ma'lumki, investitsiyalar iqtisodiyotga turlicha shaklda, ya'ni tadbirkorlikning bevosita investitsiyasi shaklida yoki kredit, moliyaviy investitsiya shakllarida qo'yilishi mumkin. Respublikamiz iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalarning aksariyat qismini hukumat kafolati asosida kiritilgan chet el kredit liniyalari tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga bevosita ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan, erkin, xususiy xorij kapitalini jalb etish samaralidir.⁷ Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to'g'risida xabarador qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PQ-4300 sonli "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

(1-jadval)

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (mlrd.so'm)⁸.

Klassifikator	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Jami
O'zbekiston Respublikasi	54,4	47,3	42	29,3	40,8	38	40,6	292,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	35,2	62,8	37,9	34,3	39,1	39,9	38	287,2
Andijon viloyati	67,6	65,6	47,8	38,2	47,6	37,4	36,1	340,3
Buxoro viloyati	39,5	20,6	35,5	28,9	38,3	31	32,6	226,4
Jizzax viloyati	62,9	55,4	44,3	22,5	20,9	32,2	33,4	271,6
Qashqadaryo viloyati	53,5	39,1	33,6	22,2	21,6	32,7	38,3	241
Navoiy viloyati	50	46,5	37,1	15,7	25,8	28,6	38,8	242,5
Namangan viloyati	50,9	49,9	29,7	29,4	41,9	36,7	38,4	276,9
Samarqand viloyati	76,3	68,4	57,5	38,5	53	41	32,5	367,2
Surxondaryo viloyati	58,7	50	34,9	15,7	23,7	29,4	33	245,4
Sirdaryo viloyati	41,2	38,7	34,9	20,4	29,9	19,6	10,8	195,5
Toshkent viloyati	58,6	51,4	51	38,6	51,6	45,4	46,5	343,1
Farg'ona viloyati	61,8	67,9	46,1	34,7	43,3	41,7	38	333,5
Xorazm viloyati	70,5	64,5	49,1	32,8	41,2	45,8	48,3	352,2
Toshkent shahri	56,1	52,8	49,7	36,6	54	44,7	55,1	349

⁵ Enterprise's investment policy in the system of ensuring economic security of transport. A. Ziginova, N. Shevkunov. 2020.

⁶ Investment attractiveness of enterprise and sustainable development of industrial region. G. Aleksandrov.

G. Skvortsova. 2021.

⁷ Ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligini oshirishda investitsiyalardan foydalanishning nazariy va iqtisodiy asoslari. Sh.Z. Safoevna, B.D. Olimovna.2022.

⁸ O'zbekiston Respublikasining statistika portali.

Yuqoridagi (1-jadvalda) O'zbekiston Respublikasiga 2016-2022-yillar mobaynida xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi haqida ma'lumotlar viloyatlar kesimida keltirib o'tilgan. Unga ko'ra 2016-2022-yillar oralig'ida Sirdaryo viloyatiga jami 195,5 mlrd.so'mlik,

Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo viloyatlariga 226-246 mlrd.so'mlik, Andijon, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shaharlarida 334-367 mlrd.so'mlik investitsiyalar kiritilgan.

(2-jadval)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (mlrd.so'm).

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	189,8	623,5	5496,2	6739,9	7659,4	5067
Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9735,5	7452	15112,2	15313,7	13781,3	13044,9
Ishlab chiqarish sanoati	2533,5	6003,9	28125,2	38845,5	36283,1	45376,7
Qurilish	12,1	91,4	3575,2	4100,6	5744	5336,3
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	10,2	260,1	529,9	725,6	1569,8	1665,5
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	7,1	23,9	134,1	451,7	251	201,3
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	99	139,5	1035,7	591,2	83,1	324,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,7	1005,5	1701,4	85,6	336,2	607,3
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	11,1	5,2	29,9	531	1970,5	460,1
Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	391,1	10546	16883,3	7139,6	12670,5	16651,8
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	277,4	855,7	1138,6	988,2	1615,4	2547,3
Axborot va aloqa	1490	430	1351,2	1765,4	2121,5	1505,8
Moliyaviy va sug`urta faoliyati	2,2	5,8	8,2	38,4	479	1182,5
Tashish va saqlash	1463,8	1654	3615,8	3192,5	6996,5	7135,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	23,7	8,2	1489,6	844,4	2301,9	537,4
Ugurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	68,4	615,2	2649,8	4232,8	3520,1	3010,7
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	174,4	167,9	665,2	2063,2	975	5331,2
Ta'lim	141,2	32	39,9	286,4	331	472,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	515,4	234,6	1855,8	1823,1	2681,9	3406


Yuqoridagi (2-jadvalda) O'zbekistondagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra 2017-2022-yillar oralig'ida eng kam ya'ni 1069-1303 mld.so'mlik investitsiyalar boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish hamda ta'lim sohasini rivojlantirish uchun jalb qilingan. Investitsiyalarni jalb qilish va kredit hajmi bo'yicha yuqori o'rinlarda turgan tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasiga 74439,6 mlrd.so'm, ishlab chiqarish sanoatiga 157167,9 mlrd.so'mlik investitsiya va kreditlar jalb qilingan⁹.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish uchun korxonalar va tashkilotlarga kiritilayotgan bunday ko'p miqdordagi investitsiyalar ularni faoliyatini takomillashtirishda qay darajada muvaffaqiyatli bo'lganligini aniqlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi 33 ta korxonalar tanlab olindi hamda korxonalar menejerlariga so'rovnomalar yuborildi. Anketa yopiq savollarni o'z ichiga oladi. So'rovdan to'plangan ma'lumotlar statistik dasturiy ta'minot yordamida tahlil qilinib, ulardan quyidagicha natijalar olindi.

⁹ O'zbekiston Respublikasining statistika portali.


Sizning biznesingiz qaysi turdagi investitsiyalarni (moliyaviy, moddiy, nomoddiy) eng ustuvor deb hisoblaydi? 33 ta so'rovnoma

- Moliyaviy investitsiyalar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalarga investitsiyalar)
- Moddiy investitsiyalar (uskunalar, ko'chmas mulk, boshqa moddiy aktivlarga investitsiyalar)
- Nomoddiy investitsiyalar (ilmiy-tadqiqot, kadrlar tayyorlash, brendingga investitsiyalar)
- Barcha turdagi investitsiyalar




Investitsiya dasturlarini amalga oshirishda qanday qiyinchiliklar duch kelasiz? 33 javob

- Moliyalashtirishning yetishmasligi
- Investitorlarni topish va jalb qilishdagi qiyinchilik
- Investitsiyalar bilan bog'liq yuqori risklar
- Investitsiyalarni samarasiz boshqarish




Korxonani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishga sarmoya kiritishdan qanday foyda ko'rasiz? 33 ta javob

- Raqobatbardoshlik va bozor ulushini oshirish
- Operatsion samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish
- Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish
- Mahsulot yoki xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar ehtiyojini qondirishni oshirish




Korxonani rivojlantirish dasturlariga sarmoya kiritish qaroriga qanday omillar ta'sir qiladi? 33 ta javob

- Korxonaning hozirgi moliyaviy holati
- Bozor tendentsiyalari va raqobat muhiti
- Texnologik innovatsiyalar va avtomatlashtirish imkoniyatlari
- Strategik maqsadlar va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari



So'nggi yillarda korxonani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga kiritgan sarmoyalaringiz qanchalik muvaffaqiyatli bo'ldi? 33 ta javob

- Ular bizning kutganimizdan oshib ketdi va sezilarli natijalarga erishdi.
- Ular juda muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi va belgilangan maqsadlarga erishishga olib keldi
- Ular qisman muvaffaqiyatli bo'ldi, lekin hamma loyihalar ham mo'ljallangan natijalarga erisha olmadi
- Ular muvaffaqiyatsiz bo'ldi va kutilgan daromad keltirmadi



10

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar korxonalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalar va texnologiyalar transferiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Korxonani rivojlantirish uchun kiritilgan investitsiyalar uni ishlab chiqarish faoliyatining kelajakdagi imkoniyatlarini belgilaydi. Korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalar ta'sirini individual, jamoa va milliy darajalarda ko'rish mumkin. Investitsiyalar tadbirkorlarga o'z bizneslarini boshlash va kengaytirish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda mamlakatda istiqomat qiluvchi aholini bandlik darajasini oshirishga va turmush faoliyatini yaxshilashga olib keladi. Korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalar o'z navbatida ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxonalarni rivojlantirish dasturlariga investitsiyalarning ijobiy ta'siridan biri bu yangi ish o'rinlari yaratishdir. Kiritilishi mumkin bo'lgan investitsiyalarning salbiy tomoni esa, investitsiyalar ba'zan ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan ko'ra foyda olishni birinchi o'ringa qo'yishidir. Bu mehnatni ekspluatatsiya qilish yoki atrof-muhitning vaqt o'tishi bilan yomonlashuvi kabi axloqsiz amaliyotlarga olib kelishi mumkin.

Korxonani rivojlantirishda investitsiyalarning rolini oshirish uchun aniq rivojlanish strategiyasi, investorlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, innovatsiyalarga sarmoya kiritish va sotish bozorlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb qilishdan oldin korxonani rivojlantirishning aniq strategiyasini ishlab chiqish kerak. U kelajak uchun maqsadlar, rejalar va prognozlarini o'z ichiga olishi kerak. Bu investorlarga biznes qanday imkoniyatlarni taqdim etishini va investitsiya orqali qanday natijalarga erishish mumkinligini tushunishga yordam beradi. Shuningdek investorlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish va hamkorlikning butun davri davomida ular bilan aloqani saqlab turish muhim hisoblanadi. Buning uchun investorlarga moliyaviy natijalar, maqsadlarga erishish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha rejalar haqida muntazam hisobot berish ishonchni saqlash va hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Korxonani raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsiyalar va texnologik rivojlanishga investitsiya kiritish darkor. Ishlab chiqarish faoliyati jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish, jarayonlarni avtomatlashtirish va innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, bu esa ko'proq

¹⁰ Statistika ko'rsatkichlar muallif tomonidan tayyorlandi.

investorlar e'tiborini jalb qiladi. Korxonani rivojlantirishda sotish bozorlarini kengaytirish imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak. Investitsiyalar marketing tadqiqotlari, yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, shuningdek, yangi mijozlar va sheriklarni jalb qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Savdo bozorlarini kengaytirish savdo hajmini oshirishga yordam beradi va korxonaning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Роль инвестиций и их формирование для реализации программы развития предприятия. Новиков Н.И.2014.
2. Enterprise's investment policy in the system of ensuring economic security of transport. A Zigunova , N Shevkunov. 2020.
3. Investment attractiveness of enterprise and sustainable development of industrial region. G. Aleksandrov, G. Skvortsova. 2021.

Foydalanilgan internet saytlari.

1. O'zbekiston Respublikasining statistika portali-
[https://.stat.uz](https://stat.uz)

Korxonani rivojlantirishda investitsiyalarni rolini oshirish bu doimiy jarayon hisoblanadi. Bu korxonani rahbari va menejerlaridan investor ishonchini saqlab qolish, taraqqiyotni namoyish etish va bozor sharoitlariga moslashish uchun doimiy harakat talab qiladi. Ushbu tavsialarni umumiy investitsiya strategiyaga kiritish orqali investitsiyalarning kompaniyani rivojlanishidagi rolini oshirish va uning uzoq muddatli muvaffaqiyat imkoniyatlarini yaratish mumkin.

4. Ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligini oshirishda investitsiyalardan foydalanishning nazariy va iqtisodiy asoslari. Sh.z. Safoevna, B.D. Olimovna. 2022
5. Investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati va uning xususiy sektordagi o'rni. R.X. Saidakbarov.2023.
6. Xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o'rni va ahamiyati. Mamatov Sirojiddin Asomiddinovich. 2021

2. So'rovnomani yaratish uchun statistik dasturiy ta'minot-
<https://docs.google.com>
3. O'zbekiston qonunchiligi-<https://lex.uz>



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA AXBOROT TIZIMLARINI JORIY ETISH MEKANIZMLARI

Nazarov Husanbek Avazbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti,
Oziq ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqqaro instituti o'qituvchisi
E-mail: xusanbeknazarov13@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil
Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil
Jurnal soni: 10
Maqola raqami: 15
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.909>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Logistika, logistika axborot tizimlari,
logistika axborot tizimi tashkiliy tuzilmasi,
logistika jarayonlari, transport, ombor
operatsiyalari, zaxirani boshqarish,
yuklarni tashish operatsiyalari, axborot
kommunikatsiya ta'minoti.

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada logistika axborot tizimlari tushunchasi, qishloq xo'jaligi korxonalarida logistika axborot tizimlarini joriy etish, logistika axborot tizimlari qanday asosiy vazifalarni bajarishi kerakligi, logistika axborot tizimining tashkiliy tuzilmasi, axborot logistika tizimlari qanday talablarga javob berishi, logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalarini harakatlarining asosiy yo'nalishlari hamda logistika axborot tizimi qanday imkoniyatlarni yaratishi keng yoritib berilgan.

Kirish. Logistika axborot tizimlari, bozor mexanizmining muhim qismi bo'lib, moddiy, moliyaviy va axborot oqimlaridan samarali foydalanish orqali bozor ishtirokchilari manfaatlarini amalga oshirish va uyg'unlashtirish uchun yaratilgan. Logistika axborot tizimlarini shakllantirish, boshqarish jarayonlari va ularning faoliyatining iqtisodiy mexanizmi ularni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Logistika axborot tizimlarini, bir tomondan asosiy logistika qoidalariga (izchillik, ratsionallik va aniq hisoblash) asoslangan korxonada axborot resurslarini boshqarish tizimi, ikkinchi tomondan logistika menejmentini qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi yoki funksional sohasi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ushbu ikki yondashuv qaramaqarshi emas va so'zning keng va tor ma'nosida axborot logistikasining ta'riflari sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy masalalar va vazifalarni hal etishda raqamlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ahamiyatini muhimligini e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risidagi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivoj, 2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5598-so, 2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish choratadbirlari to'g'risidagi qarori (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5598-so, 2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699 so, 2020) qarorlari qabul qilingan bo'lib, korxonalarda logistika axborot tizimlarini keng joriy etishga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalarni logistika axborot tizimiga joriy etish, AKTDan milliy iqtisodiyotimizning turli sohalarida foydalanish muammolari yetakchi iqtisodchi olimlar va mutaxassislar, iqtisodiy informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv axborot tizimlari sohasida bir qator iqtisodchi olimlarning fikrlari keltirilib o'tilgan.

I.I.Sidorov logistika axborot tizimlariga quyidagicha ta'rif keltirgan, logistika axborot tizimlari, birinchi navbatda, korxonani boshqarishga logistika yondashuviga asoslanadi, uning moddiy resurslar harakatining an'anaviy boshqaruvidan tubdan farqiyetkazib berish, ishlab chiqarish va sotish jara- yonining oqimga yo'naltirilgan ifodasidir (Istamovich S. B., 2023).

S.I.Kolesnikov fikriga ko'ra logistika menejmenti korxonada resurslari va ta'minot, ishlab chiqarish va marketing jarayonlarini taqdim etishga ma'lum tarkibiy yondashuvni talab qiladi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish siklining barcha bosqichlarida iste'molchi, ishlab chiqaruvchi va resurslar yetkazib beruvchini

bog'laydigan moddiy va axborot oqimlari tizimi sifatida qaralad (Istamovich S. B., 2023).

R.Ballou bergan ta'rifiga ko'ra logistika menejmentini joriy etish korxonaga ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotish jarayonida zarur bo'lgan barcha turdagi materiallar, butlovchi qismlar va tayyor mahsulotlar zaxiralarini sezilarli darajada qisqartirish, aylanma mablag'lar aylanmasini tezlashtirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. (Avazbek O'g'li, N. X, 2019)

O. Novikov fikricha korxonalariga logistika axborot tizimlarini joriy etishda dasturiy mahsulot- larni muvaffaqiyatli ishlashi, xodimlarni o'qitish va texnik xizmat ko'rsatish uchun katta miqdordagi xarajatlarni talab qiladi (Nazarov , 2023).

B.Sergeyev tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra ishlab chiqarishning aksariyat qismida logistika ti- zimlari korxonalar mavjud emas, ba'zi hollarda qayta qurishdan oldingi davrda yaratilgan zaxiralarni boshqarish tizimlari mavjud. Ushbu tizimlar logistikaning klassik kontseptsiyasiga asoslanadi. (Maxkamovich A. A., Avazbek O'g'li N. X. , 2023)

Z.Satskaya fikriga ko'ra logistika axborot tizimlarini joriy etishda korxonada axborot-logistika tizimi yopiq emas, u korxonaning tashqi muhiti va korxonaning umumiy axborot tizimi uchun yopiq hisoblanadi. (Сацкая З., 2000)

B.Plotnik ishlab chiqarishning aksariyat qismida logistika tizimlari korxonalar mavjud emas, Ba'zi hollarda qayta qurishdan oldingi davrda yaratilgan zaxiralarni boshqarish tizimlari mavjud. Ushbu tizimlar logistikaning klassik kontseptsiyasiga asoslanadi. (Плоткин Б.К, 1991)

M.Makarenko logistika tizimlarini rivojlantirish bosqichlaridan tashqari, logistika kontseptsiyasining o'zi evolutsiya bosqichlarini va logistika tizimlarining samaradorligi mezonlarini qayd etish kerak. Ma'lumki, logistika boshqaruvining iqtisodiy samarasi o'zaro kelishuvlardan foydalanishdan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil hamda ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda korxonalarda logistika axborot tizimlarini joriy qilish bo'yicha, logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha korxonalar harakatlarining asosiy yo'nalishlari, logistika axborot tizimlarini shakllantirish va boshqarish jarayonlari va ularning faoliyatidan kelib chiqib qishloq xo'jaligida axborot telekommunikatsiya mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Tahlil va natijalar

Birinchi holda, axborot logistikasi logistika menejmentining funksional sohasini yoki logistikaning umumiy nazariyasini ta'minlaydi. Uni o'rganish obyektini moddiy oqimlarga hamroh bo'lgan axborot oqimlari bo'lib, asosiy maqsad logistika tizimlarini kerakli vaqtda, kerakli hajmda, kerakli joyda va maqbul xarajatlar va ma'lumot bilan ta'minlashdir. Ikkinchi holda, axborot logistikasi – bu logistika

qoidalariga (ratsionallik, o'z vaqtida, aniq hisoblash) asoslangan holda butun tashkilotga ma'lumot beradigan tizim hisoblanadi.

Logistika axborot tizimlari quyidagi asosiy vazifalarni bajarishi kerak:

- logistika tizimining boshqaruv organlarini buyurtmaning harakati haqida doimiy ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashi kerak;
- korxonaning funksional bo'linmalari xodimlarini doimiy ravishda haqiqiy vaqtida ta'minot zanjiri bo'ylab mahsulotlarning harakati haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashi zarur;
- boshqaruv uchun investitsiya qilingan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash;
- korxonani strategik rejalashtirish uchun axborotlar bilan doimiy ta'minlash;
- iste'molchilar buyurtmalarini bajarish muddatlarini baholash imkoniyatini ta'minlash;
- korxonada resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatini ta'minlash;
- logistika biznes jarayonlarini optimallashtirish orqali korxonaning rentabelligini ta'minlash.

Logistika axborot tizimlari logistika jarayonlarini boshqarish uchun avtomatlashtirilgan axborotlar tizimlaridir.

Shunday qilib, logistika axborot tizimlarida dasturiy ta'minot – bu moddiy oqimlarni boshqarish, matnini qayta ishlash, ma'lumotlarini olish va texnik vositalarning ishlashini ta'minlaydigan dasturlar va dasturiy vositalar to'plami hisoblanadi. Logistika axborot tizimlari dasturiy yechimlarning eng yuqori darajadagi integratsiyasi bilan tavsiflanadi, bu ularni ishlab chiqish va amalga oshirishning o'ziga xos shartlarini belgilaydi. Shunga asosan, logistika sohasidagi axborot tizimini logistika tizimining ishlashini rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tahlil qilish uchun logistika menejmenti tomonidan foydalaniladigan axborot oqimi bilan birlashtirilgan odimlar, uskunalar va protseduralarni o'z ichiga olgan interaktiv tuzilma sifatida aniqlash mumkin. Shuningdek, jahonda aksariyat olimlar, mashhur marketolog F.Kotler fikriga ko'ra logistika axborot tizimining tashkiliy tuzilishi marketing axborot tizimlarining tuzilishiga o'xshashligiga qo'shiladilar.

Logistika axborot tizimlari alohida korxonada darajasida moddiy oqimlarni boshqarish maqsadida yaratilishi mumkin va mintaqalar, mamlakatlar va hatto mamlakatlar guruhlarida logistika jarayonlarini tashkil etishga hissa qo'shishi mumkin. Logistika axborot tizimi elektron hisoblash uskunalarini ishlatishni logistika menejerlarining harakatlari bilan o'zaro bog'laydigan va ular uchun mavjud bo'lgan to'g'ri ma'lumotlarni olishlarini ta'minlaydigan, logistika operatsiyalarini rejalashtirish va bajarish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirishga imkon beradigan tizim sifatida tavsiflanadi.

Funksional nuqtayi nazardan, logistika axborot tizimi to'rt darajali ierarxik tizim bo'lib, bu yerda birinchi bosqichda logistika axborot tizimi yordamida aniq operatsiyalar masalalari hal qilinadi, buyurtmalarni qabul qilish, mahsulotlarni jo'natish, mahsulotlarni hisobga olish, yuklarni jo'natishga tayyorlash, kiruvchi xomashyoni qabul qilish, ombor operatsiyalari va boshqalar. Ikkinchi darajada buxgalteriya hisobi va nazorat masalalari hal qilinadi, inventarizatsiyani boshqarish, ombor maydoni-ning mavjudligini hisobga olish, mahsulotlarni tashish jarayonini nazorat qilish, hisobvaraqlardagi

buxgalteriya operatsiyalari, hisobvaraqlardagi mablag'larning harakati masalalari va boshqalar. Uchinchi darajada tahliliy masalalar hal qilinadi, marketing operatsiyalarini qo'llabquvvatlash uchun logistikadan foydalanish (sotishni rag'batlantirish), buyurtmalar prognozi va ularni bajarish imkoniyatlari hamda moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan, logistika bilan bog'liq xarajatlar tahlil qilinadi.

Logistika axborot tizimi bu xodimlarni o'z ichiga olgan interaktiv tuzilma, uskunalar va protseduralar (texnologiyalar) ishlatiladigan axborot oqimi bilan birlashtirilgan logistika boshqaruvi tomonidan faoliyatni rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tahlil qilish tizimidir.

Axborot logistika tizimlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- o'lchovlilik (agar kerak bo'lsa, tizimning bitta foydalanuvchini ham, bir nechta foydalanuvchini ham qo'llab quvvatlash qobiliyati);
- tarqatish (tizimning korxonaning bir nechta geografik jihatdan ajratilgan bo'linmalari yoki bir biridan bir nechta uzoq ish joylari tomonidan hujjatlarini birgalikda qayta ishlashni ta'minlash qobiliyati);
- modullik (tizimning foydalanuvchilarga kompaniya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va murakkabligi asosida tizim funksiyalarini sozlash va tanlash qobiliyatini ta'minlash qobiliyati, ya'ni avtomatlashtirish tizimi moslashuvchan va bir biri bilan birlashtirilgan alohida modullardan iborat (sotish, omborxonalar, xaridlar, ishlab chiqarish, xodimlar, moliya, transport);
- ochiqlik (avtomatlashtirish tizimining boshqa axborot tizimlariga qo'shilish qobiliyati, yangi dasturlarni ishlab chiqish va boshqa tizimlar bilan integratsiya qilish uchun ochiq interfeyslarning mavjudligi).

Logistikada axborot tizimlarining o'ziga xos xususiyati bu teskari aloqaning mavjudligidir. Teskari aloqa bu boshqaruv obyektining holati haqidagi ma'lumotlarni boshqarish obyektiga uzatish jarayoni bo'lib, logistikada boshqaruv qarorlari ularning to'g'ri borishini ta'minlash uchun ma'lumotlar to'planadi va keyingi qarorlarni qabul qilish uchun tahlil qilinadi. Logistika sohasidagi axborot tizimlari teskari aloqa bo'lishi kerak, bu boshqaruv qarorlari natijalarining axborot tizimini rivojlantirishga ijobiy ta'siri bilan tavsiflanadi, ularning o'zgarishi, o'z navbatida, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati va samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarish va sotish tizimi, logistika boshqaruv organlari va ma'lumotlarni yig'ish, uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimi-ning umumiyliги yopiq boshqaruv tizimini tashkil etadi, bu unga tashqi va boshqaruv ta'sirlari kiritilishi bilan farq qiladi, ya'ni, boshqariladigan obyektidan boshqaruv moslamasiga keladi. Masalan, savdo hajmi va mijozlar haqida ma'lumot korxonada miqdori, nomenklaturasi va o'zgarishi to'g'risida logistika qarorlarini qabul qilish uchun ishlab chiqarilgan va yetkazib beriladigan mahsulotlarning sifati, bu esa o'z navbatida savdo hajmi oshishiga olib keladi. Bu avtomatik tartibga solish va boshqarish nazariyasida ma'lum bo'lgan tartibga solinadigan parametr bo'yicha teskari aloqa prinsipiga mos keladi.

Korxonalarda logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha korxonalar harakatlariga bevosita transport, ombor operatsiyalari, zaxirani boshqarish, yuklarni tashish operatsiyalari hamda axborot kommunikatsiya ta'minoti kiradi (1-jadval).

1-jadval

Logistika operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha korxonalar harakatlarining asosiy yo'nalishlari

Funksional yo'nalishlar	Harakatlar
Transport	- kompaniyaga yetkazib berishni tashkil etish; - xalqaro transportni tashkil etish; - tashuvchi kompaniyani tanlash; - transport turini tanlash; - jamoat transporti yoki kompaniya transportidan foydalanish.
Ombor operatsiyalari	- omborlarni boshqarish; - ombor operatsiyalarini rejalashtirish; - tarqatish markazini boshqarish; - markaz ishini rejalashtirish; - omborlar yoki markazlarning joylashishini tanlash.
Zaxirani boshqarish	materiallarni sotib olish (xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar); xomashyo zaxiralarini shakllantirish - tayyor mahsulot zaxiralarini saqlash; - ehtiyot qismlar va almashtirish; - zaxiralarini saqlash uchun ularga texnik xizmat ko'rsatish; - qaytarilgan yuk bilan ishlash.

Yuklarni tashish operatsiyalari	- qadoqlash va etiketlash ishlari; - yuklash va tushirish operatsiyalari; - yuk chiqindilaridan foydalanish.
Axborot-kommunikatsiya ta'minoti	- buyurtmalarni hisobga olish va qayta ishlash; - mahsulotlarga talab prognozi; - ta'minotni rejalashtirish.

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Raqamni kamaytirish, axborot oqimlarini soddalashtirish va shuning uchun logistika xarajatlarini kamaytirish usullaridan biri bu uchinchi tomon axborot tahlil markazlaridan foydalanishdir. Logistika markazlarini boshqaradigan bunday axborot-tahlil markazlari, qoida tariqasida internetga ulangan mahalliy tarmoqqa ulangan zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan, murakkab va yetarlicha rivojlangan dasturiy ta'minotga ega.

So'nggi yillarda internet global axborot tarmog'i logistika menejmenti uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, boshqa narsalar qatori, ta'sir ko'rsatadigan asosiy logistika funksiyalarini tezkor bajarilishini ta'minlaydi:

- tashish (avtomobillar parkini taqsimlash "bo'sh" yurishlarni bartaraf etish, parkni doimiy nazorat qilish);
- saqlash (o'z vaqtida texnika);
- yetkazib beruvchi va oluvchi o'rtasidagi aloqalarni saqlash, bu sizga kontragentlar omborlaridagi buyurtmalar holatini tezda kuzatib borish imkonini beradi.
- zaxiralarni saqlash (ularni yetkazib beruvchilarning yelkasida saqlash tashvishlarini o'zgartirish);
- buyurtma berish va yetkazib berish jarayonlari (buyurtmalarni topshirish va yetkazib berish usullarini soddalashtirish);
- mijozlar xizmati.

Shuningdek, kompyuter tizimlari bilan bir qatorda yoki ular bilan o'zaro aloqada biznesni boshqarishni osonlashtiradigan ofis uskunalarini sohasidagi jiddiy yutuqlarni eslatib o'tish kerak. Avvalo, ba'zan shaxsiy kommunikatorlar, shuningdek, ilmiy kalkulyatorlar deb ataladigan mobil telefonlarning so'nggi avlodini ta'kidlash lozim.

Mahsulotlarni reklama qilish va zaxiralarni saqlash jarayonlarini amalga oshirish, shuningdek, axborot logistika jarayonlarini amalga oshirish uchun turli xil texnik vositalardan foydalanish kerak. Ushbu vositalar, ulardan foydalanish usullari, shuningdek, ularning ishlashini ta'minlash tizimlari logistika jarayonlarining o'ziga xos infratuzilmasini tashkil qiladi. U barcha asosiy logistika funksiyalarini uzluksiz va tejamkor ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Logistika jarayonlarining axborot oqimlari ommaviy xarakter, operatsion ishlov berish zarurati (real vaqtda), boshqaruv jarayonida axborot va uning tashuvchilaridan ko'p foydalanish bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi tegishli axborotni qayta ishlash vositalari va texnologiyalaridan foydalanish uchun obyektiv sharoit yaratadi.

Sanoat korxonalarida logistikani yanada faol qo'llash imkonini beradi:

- hamkorlar bilan aloqalarni tashkil etish;
- kamaytirish hamda uzilishlar;
- ishlab chiqarish bo'yicha bozorga e'tibor qaratish;
- rahbarlarning mahsulot inventarizatsiya;
- sifatni yaxshilash uchun qo'shimcha mahsulotlar;
- ishlab chiqarish va omborxonadan foydalanishni yaxshilash;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi – Qishloq xo'jaligi transformatsiyasi 2030 - - matn: elektron.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5598-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 13-dekabr.
3. Korobeynikova, E.V. Digital Transformation Of Russian Economy: Challenges, Threats, Prospects. 2019. pp. 1418-1428.
4. Ashurmetova N.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy baholash tizimlarining tahlili // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil.
5. "Raqamli O'zbekiston –2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmon. 2020-yil 5-oktabr.

- har tomonlama hisobga olish, barcha tovarlar uchun transport xarajatlari.

Jumladan, nafaqat transport bo'linmalarining ishini yaxshilash, balki yetkazib berish, sotish va tashish bo'yicha ishlar majmuasini muvofiqlashtirish orqali ham erishiladi (Nazarov, 2023).

Xulosa va takliflar.

Hukumat darajasida logistika axborot tizimlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqib, unga ko'ra asosiy harakatlar transport va logistika, ulgurji va logistika markazlarini rivojlantirishga, ombor infratuzilmasini rivojlantirishga va ushbu sohada malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirish kerak.

Shunday qilib, mamlakatimizda logistikaning faol rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasiga e'tiborning kuchayishi, biznes tashkilotlaridagi tarkibiy o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi moddiy va tegishli oqimlarni doimiy ravishda kuzatib borish, logistika tushunchalarini ishlab chiqarishga joriy etish va korxonaning ichki va jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga sharoit yaratadi.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, logistika axborot tizimlari barcha logistika xarajatlarining 20 foizini tashkil qiladi, uskuna va uning ishlashi axborot tizimlarining ko'lami va murakkabligini oshirishga imkon beradi. Ko'p darajali avtomatlashtirilgan materiallar oqimini boshqarish tizimlarini yaratish bilan bog'liq katta xarajatlar, asosan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish sohasiga to'g'ri keladi. Bu axborot tizimining ko'p qirraliligini va uning yuqori darajadagi integratsiyasini ta'minlashi kerak bo'ladi. Har qanday logistika axborot tizimini qurish uchun asos foydalanuvchi uchun ma'lumotlarning to'liqligi va foydaliligi, axborotning aniqligi, maksimal qisqartirish hisobiga axborotni o'z vaqtida taqdim etish, tadbir va uning logistika axborot tizimida namoyish etilishi o'rtasidagi vaqt oralig'i, xarajatlarni kamaytirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlashga e'tibor qaratish, axborot tizimi tuzilishining moslashuvchanligi, agar kerak bo'lsa, qayta ko'rib chiqish va tuzatishga tayyorligini anglatadi hamda nafaqat tashkilot ichidagi foydalanuvchilar, balki undan tashqaridagi foydalanuvchilar (soliq inspeksiyasi, bo'xona organlari, ekspeditorklik kompaniyalari) o'rtasida ham ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydigan mos ma'lumotlar formati kabi prinsiplarga asoslanishi kerak.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, logistikadagi axborot tizimlari dasturiy yechimlarning eng yuqori darajadagi integratsiyasi bilan tavsiflanadi, bu ularni ishlab chiqish va amalga oshirishning o'ziga xos shartlarini belgilaydi. Shunga asoslanib, logistika sohasidagi axborot tizimini, logistika tizimining ishlashini rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va tahlil qilish uchun logistika menejmenti tomoni dan foydalaniladigan axborot oqimi bilan birlashtirilgan xodimlar, uskunalar va protseduralar (texnologiyalar) ni o'z ichiga olgan interaktiv tuzilma sifatida aniqlash

6. Istamovich S. B. Qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarni iqtisodiyotda foydalanishi //SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 205-208.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699 sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2020-yil 28-aprel.
8. Avazbek O'g'li, N. X. (2023). Multiservisli Tarmoqni Tezkor Boshqarish Usullari. O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 2(17), 611-615.
9. Nazarov X., Isomiddinov I. Raqamli Iqtisodiyotga O'tish Jarayonidagi Muammolar Va Yechimlar //Nashrlar. – 2023. – S. 366-369..
10. Maxkamovich A. A., Avazbek O'g'li N. X. Qishloq Xo'jaligi Tarmog'ini Zamonaviy Axborot Texnologiyalari Orqali Raqamlashtirish Va Innovatsiyalarni Jadallashtirish Istiqbollari //Qo'qon Universiteti Xabarnomasi. – 2023. – T. 9. – S. 26-30.

11. Сацкая З. Логистика логистике рознь //Специальное приложение к журналу «Эксперт»: Оборудование (рынок, предложение, цены). - 2000. - №7. - С.6-7.
12. Плоткин Б.К. Основы логистики: Учебное пособие. - Л.:ЛФЭИ, 1991. -54с.
13. Макаренко М.В., Канке А.А. Производственная логистика: Уч. Пособие. В 2-х ч. - Ч.1. - М.: Изд-во ГАУ им. С. Орджоникидзе, 1996. - 159с.
14. Информационные технологии и системы в логистике : курс лекций для студентов специальности 1-26 02 05
15. «Логистика». В 2 ч. Ч. 1. Информационные потоки и технологии в логистике / А. П. Гуменников. – Гомель : учреждение образования «Белорусский торгово-экономический университет потребительской кооперации», 2011. – 68 с.
16. www.review.uz.
17. www.agro.uz.



INTERNET BUYUMLARI ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAXOLASH

Raxmonov Nodirjon Raxmonjon o'g'li

Qo'qon universiteti tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIIYA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 16

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.910>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

raqamli texnologiyalar, IoT, ekotizimlar, biznes modellar, menejment, boshqaruv tizimlari, IoT dizaynlari.

Hozirgi paytda raqamli texnologiyalar, IoT, Big Data, 5G texnologiyasi, 3D printerlar, raqamlashtirish, sun'iy intellekt va shunga o'xshash texnologiyalar yaqin kelajakda kompaniyalarning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan, eng ko'p tilga olinadigan omillar hisoblanadi. Internet buyumlari to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatlarini tobora ko'proq avtomatlashtirish uchun xizmat qilmoqda. Maqoladagi o'rganilgan va tahlil qilingan aksariyat maqolalar asosan IoT bilan bog'liq texnologiyalarni joriy etishning amaliy jihatlariga e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqotlar natijasiga asoslanib, biz kelajakdagi tadqiqotlar uchun bir nechta yo'nalishlarni aniqlaymiz. Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar ishlab chiqarish, boshqaruv sohasidagi imkoniyatlar va muammolarni, yangi ishtirokchilar va hamkorlik qilish imkonsiz bo'lib tuyulgan manfaatdor tomonlar guruhlarini o'rnatadigan hamkorlikning innovatsion usullarini o'rganishi mumkin. Qolaversa, ushbu maqola raqamlashtirishning asosini tashkil etuvchi IoT muammolarini biznes muammosiga aylantirishga qaratilgan keng jabhali ishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20 dekabr 2022-yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida "Xususiy sektor va tadbirkorlikning rivojlanishi ortga qaytmas jarayonga aylandi. Aholimizning faolligi, zamonaviy texnologiya va kasb-hunarlariga intilishi oshib bormoqda. Iqtisodiyotimizda kundan-kunga yangi-yangi yo'nalish va sohalar yaratilmoqda. Bu borada xususiy tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi "qo'l boshqaruvi"dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish vaqti keldi" [Sh.M. Mirziyoyev 2022] – deb ta'kidlagani bejizga emas. Chindan ham kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarish, shu bilan birga, uzluksizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar, jumladan IoT texnologiyalarini to'g'ri qo'llash orqali ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligiga erishish mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonining 2.3 bandida sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish; korxonada ta'minotning barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish; innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish; ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish singari dolzarb masalalar belgilab qo'yilgan.

Raqamli texnologiyalar 2010 va 2020-yillardagi biznes inqiloblarining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, sensorlar, dronlar, kuchli kompyuterlar, bulutli hisoblashlar va mobil texnologiyalardagi texnologik yutuqlarga erishishga yordam berdi. Ushbu raqamli inqilobning eng muhim elementlaridan biri bu Internet buyumlari (IoT) bo'lib, u yerda aqlli sensorlar (ya'ni, hech narsaga ulanmagan harorat termometri kabi mustaqil sensorlardan farqli ravishda ulangan sensorlar) o'z ko'rsatkichlarini o'zgaruvchiga uzatishi mumkin. Sensorlardan olingan ma'lumotlarni sintez qiladigan va ularga ta'sir qiluvchi lokal yoki masofaviy ishlov berish birligiga yetkazishi mumkin. Sanoatda ishlatiladigan sensorlarning ko'p turlari mavjud, ammo eng keng tarqalganlari harorat va namlik, bosim, yorug'lik, harakat (masalan, giroskop), harakat detektorlari, oqim (suyuqlik yoki gaz), tasvirni tanib olish, havo yoki suv sifati va ovoz sensorlaridir. Sensorlar tomonidan berilgan ma'lumotlarga kechikish yoki muammo bo'lsa, bulutda markazlashtiriladi va u yerda qayta ishlanishi mumkin. Darhaqiqat, IoT ilgari "soqov" qurilmalarni "raqamli intellekt" bilan takomillashtiradi va shu bilan ko'plab yangi imkoniyatlar ochadi.

Internet buyumlari to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatlarini tobora

ko'proq avtomatlashtirmoqda. Datchiklar bilan internetga ulangan qurilmalar g'oyasi 1980-yillardan boshlab rivojlanib kelmoqda. Jumladan, savdo avtomatlarini internetga ulash g'oyasi paydo bo'ldi, lekin havo sharidagi harorat sensori Buyuk Britaniyaning Vulvich shahrida 20-asrdan ham oldinroq paydo bo'lgan. Biroq, 1980- yillardan boshlab, ayrim texnologiyalar juda yaxshi rivojlandi: chiplar o'lchami kichikroq bo'ldi va kamroq quvvat talab qiladi; protessorlarning ishlash tezligi kuchliroq bo'ldi va simsiz aloqa uchun RFID tarqaldi. Bundan tashqari, Internetga ulanishi mumkin bo'lgan qurilmalar sonini kengaytirish uchun qurilma identifikatorlarini kuzatish usuliga texnik o'zgartirish kiritildi [Ranger, 2020; Christou, 2019].

IoT dastlab Mashinadan Mashinaga (M2M) aloqa uchun ishlab chiqilgan bo'lsada, eng katta tijorat muvaffaqiyati aqlli iste'molchiga qaragan qurilmalar uchun bo'ldi. Ushbu muvaffaqiyat, ishlab chiqaruvchilarni avtomatlashtirish bilan birga, dunyoning barcha yirik iqtisodiyotlarida iqtisodiy qiymat yaratdi. Xalqaro ma'lumotlar korporatsiyasi (IDC) 2025 yilga kelib dunyoda 42 milliardgacha ulangan qurilmalar bo'lishini bashorat qilmoqda, bu yer yuzidagi har bir odamga oltita qurilmani bildiradi. Hozirgi vaqtda IoT qurilmalarining eng katta soni (2022) energiyani boshqarish va jismoniy xavfsizlik uchun kameralar yoki signallar uchun aqlli hisoblagichlarda qo'llaniladi, ammo eng tez o'sish sensorlar bilan ulangan binolar va avtomobillarda kutilmoqda. Uydagi ko'ngilochar (masalan, audio, aqlli ilovalar, aqlli uyni avtomatlashtirish), avtomobillar tuningi va sport yoki fitnes boshqa muhim sohalar hisoblanadi [Kambarov J va boshqalar 2020]. 2020 yilda IoT sarmoya kiritishda yetakchi bo'lgan tarmoqlar (diskret) ishlab chiqarish (119 milliard dollar), texnologik ishlab chiqarish (78 milliard dollar), transport (71 milliard dollar) va kommunal xizmatlar (61 milliard dollar) bo'ldi. IDC ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda sanoat bo'yicha dunyo bo'ylab IoTga sarflangan mablag' har yili 15% ga o'sib, qariyb 750 milliard dollari tashkil etdi va 2023-yilda 1 trillion dollardan oshishi kutilmoqda (IoT5.net).

IoT, ekotizimlar va biznes modellari. IoT an'anaviy qiymat zanjirlarini raqamli ekotizimlarga aylantiradi. "Avtonom boshqaruvchi transport vositalari" (ADV) atrofidagi ekotizim bunga misoldir. IoT tomonidan belgilangan tendentsiya sanoat qiymat zanjiridagi an'anaviy ishtirokchilarni ushbu ekotizimlarni tushunish va tizimda o'z o'rnini topish uchun bosim ostida qoldiradi. Masalan, ADV Bosch kabi an'anaviy OEM yetkazib beruvchilarini [Leiting va boshqalar 2022] avtomobil ishlab chiqaruvchilariga an'anaviy apparat yetkazib beruvchi sifatidagi rolini qayta ko'rib chiqishga chaqiradi. Bosch shunchaki OEM bo'lish o'rniga, o'zaro bog'langan ekotizimni boshqarishda faolroq rolni ko'rib chiqishi kerak, bunda an'anaviy avtomobil mijozlari yangi ishtirokchilar (ma'lumotlarni boshqarish startaplari) va abituriyentlarni diversifikatsiya qilish (Huawei kabi telekom va Alphabet kabi texnologiya gigantlari) kabi gigantlar maydonga kirish rolini o'ynaydi. Telekommunikatsiya kompaniyalari ADV ekotizimiga tartibga solinadigan muhitda harakatlanish bo'yicha o'zlarining uzoq

an'analarni olib kelishadi. Bundan tashqari, IoT - sof dasturiy ta'minot ekotizimlaridan farqli o'laroq - apparat va dasturiy ta'minotga kapital ko'p investitsiyalar talab qiladi, bu innovatsiyalarning uzoq muddatli tabiatiga nisbatan amortizatsiya qilinishi kerak. Alphabet va uning ko'plab sotib olingan ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot ishlab chiqish kompaniyalari kengayib borishi bilan ular Kaliforniya dasturiy ta'minotini va uning institutsional mantiqlarini ushbu yangi ekotizimga import qilishadi.

Ushbu o'zgarishlar sanoat tuzilmasida birja investorlari va hukumatlar kabi uchinchi tomonlarning rolini oshirish va mijozlarni ikkilamchi turkii sifatida ko'rsatish kabi katta o'zgarishlarga olib keldi [Bower, 1972]. Qimmatli qog'ozlar bozorlaridagi elektron savdolar va shunga mos ravishda ular keltirib chiqaradigan texnologik shov-shuvlar texnologiyalarni olish va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim etishi ko'rsatilgan [Van Lente, Spitters va Peine, 2013]. Qo'shma Shtatlardagi aksariyat raqamli kompaniyalar ushbu fond bozori to'liqlarida gullab-yashnadi va resurslarni safarbar qilish kuchiga tayandi. Raqamli kompaniyalar va kapital o'rtasidagi qattiq bog'liqlik ko'plab "yakka shoxlar" ni yaratdi, ammo bu raqamli kompaniyalarni an'anaviy sanoat korxonalaridan ajratib turadi. Bu yerda aksiyadorlar ko'pincha dividendlar asosida kompaniyaning sifati va potentsialini to'lanmagan kapitalning ulushi sifatida baholaydilar. AQSh dasturiy ta'minotining "yakka shoxlilar"ni fond bozorlari va baholariga tayanadi. Xitoy telekommunikatsiyalari lobbiatchilik va markazlashtirilgan innovatsiyalar bo'yicha bilimlarini olib keladi. Hukumat uzoq muddatli innovatsiyalarning asosiy drayveri ekanligi uzoq vaqtdan beri ma'lum [Kaufman va boshqalar, 2003].

IoT tomonidan olib borilgan inqilobiy o'zgarishlarga qaramay, ekotizimlarning ko'pchiligi raqamlashtirishni an'anaviy tushunishga asoslangan [Adner va Kapur, 2010]. To'g'ri, ekotizim adabiyoti akademik va jamoat amaliyotchisini platforma etakchiligi [Gawer va Cusumano, 2002], qo'shimchalar va tashkilotchilar [Adner va Kapur, 2010] va qiyinchiliklar [Xanna va Eisenhardt, 2018] kabi tushunchalar bilan tanishtirdi. Ekotizimlar bo'yicha adabiyotlar tizimidagi turli o'yinchilarning strategik qarorlarini talqin qilish uchun ta'sir ko'rsatadigan bo'lsada IoT ekotizimlari apparat va dasturiy ta'minot tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ko'pincha, dasturiy ta'minot sensorlar yoki ular taqdim etadigan boshqa qurilmalarga o'rnatiladi. Shuning uchun, (a) platforma boshqaruvchisi kim bo'lishi aniq emas; (b) qaysi foydalanuvchilar muammoni keltirib chiqaradi; yoki (c) taqqoslanadigan quvvat pozitsiyasi nima. Har bir an'anaviy apparat kompaniyasi o'z kompaniyasini ta'sir ko'rsatish sifatida ko'rsatishi mumkin, yangi kelganlar esa o'zlarini ta'sir ko'rsatish sifatida ko'rsatishlari mumkin [Baldwin, 2021].

Masalan, sensor yetkazib beruvchi sensorlarning sezgirligi va ishonchligini muammo sifatida ko'rib chiqadi, ma'lumotlarni boshqarish kompaniyasi esa algoritmlarni to'g'riligiga javobgar hisoblanadi va har biri mos ravishda yangi yechimlarni taqdim etishga harakat qiladi. Platforma rahbari tomonidan boshqariladigan, markazlashtirilgan ekotizimlarning an'anaviy qarashlari IoT ga asoslangan bunday tizimlarga mos kelmaydi. Bundan farqli ravishda, Furr va Shipilovning (2018) adaptiv ekotizimlarning kontseptualizatsiyasi, bunda bitta platforma rahbari ekotizimni boshqarmaydi, lekin odatda bir yoki bir nechta amaldorlar ekotizim rivojlanishini boshqarishi kerak [Staudenmayer va boshqalar, 2005].

IoTning tadqiqot natijalari ham murakkab, ham quvonarli. Ular turli fanlar va turli nuqtai nazardan tadqiqotchilar uchun imkoniyatlar yaratadi. Masalan, biz rivojlanayotgan IoT tizimida mas'uliyat va majburiyatlar qayta taqsimlaydigan boshqaruv tizimlarini bilishimiz kerak. Kognitiv o'zgarishlar odatda qo'zg'atadigan dissonansni hisobga olgan holda, kompaniyalar bunday o'zgarish jarayonini qanday boshqaradi? Boshqa tomondan, yangi va diversifikatsiya qiluvchi o'yinchilar yangi tarmoqlarni, yangi aloqa usullarini va baholashning yangi usullarini yaratganligi sababli, mavjud o'yinchilar va yangi ishtirokchilar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar ham tizimli empirik tadqiqotlarni talab qiladi. IoT dagi turli xil rivojlanishlar ekotizimlar va bunday ekotizimlarda barqaror bo'lgan yangi raqamli biznes modellari haqida nazariya qilish imkoniyatlarini taklif qiladi.

Ekotizimlar bo'yicha adabiyotlar ushbu ekotizimlarni markazlashtirilgan boshqariladigan hamkorlik sifatida ko'rib chiqishdan ularni organik ravishda rivojlanayotgan kooperativ kompaniyalar to'plami sifatida belgilashga qadar rivojlandi. Bunday "moslashuvchan" ekotizimlarni qanday boshqarish va qanday qilib qiymatni o'zlashtirish

mumkinligini tushunish uchun bizga ko'proq tadqiqotlar kerak [Furr va Shipilov, 2018].

Adabiyotlar tahlili. M.S.Delgosha, N.Hajihedari, M.Talafidaryani hammuallifligida chop etilgan "Discovering IoT implications in business and management: a computational thematic analysis" matn tahlili va mavzuni modellashtirishni IoT bo'yicha mavjud adabiyotlardan bilim olish va tushuntirish uchun sifati yondashuv bilan birlashtirgan innovatsion tushuntirish ketma-ket aralash usulini taklif qiladi. Biznes va menejment sohasida IoT tadqiqotlarining dolzarb tuzilishini yoritish uchun mualliflar 347 ta ilmiy maqoladan o'nta mavzuni tahlil qiladilar. Shuningdek, ular "issiq" va "sovuq" tadqiqot mavzularining vaqt o'tishi bilan taqsimlanishini ko'rsatish uchun mavzularning vaqtinchalik tendentsiyasini o'rgandilar. Maqolada tematik tahlilni qo'llash orqali yashiringan dolzarb masala ochib berilgan so'ngra, biznes va boshqaruv tadqiqotlarida IoT bo'yicha kelajakdagi yo'nalishlarni taklif qilib, tadqiqot bo'shliqlari aniqlangan.

"Challenges in the implementation of IoT projects and actions to overcome them" [Martens va boshqalar, 2021] nomli maqola IoT loyihalarini qo'llash va amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi 14 nafar mutaxassis va shu kasb egalari bilan o'tkazilgan suhbatlarni tahlil qiluvchi sifatli tadqiqotdir. Tadqiqot sakkizta asosiy amalga oshirish muammolarini aniqlaydi va ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mutaxassislar tomonidan bir nechta faoliyatni: IoT arxitekturasi; miqyoslilik, barqarorlik va ishonchlilik; xavfsizlik va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash; axborot, resurslar va loyihalarni boshqarish; odamlar va buyumlarning o'zaro ta'siri; IoT kontseptsiyasini standartlashtirish; texnologiyalar va jarayonlar haqidagi bilimlarni aniqladi. Mualliflar turli qiyinchiliklar, harakatlar o'rtasidagi munosabatlar va birgalikdagi hodisalar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqib, ular haqidagi ma'lumotlarni taqdim etdilar. Atrof-muhitga ta'sir qilish nazariyasiga asoslanib, maqola IoT loyihalarini amalga oshirishda amaliyotchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin bo'lgan IoT loyihalari kontekstiga xos muammolar va harakatlar doirasini ilgari suradi.

"Effect of Internet of Things on manufacturing performance: A hybrid multi-criteria decision-making and neuro-fuzzy approach" [Asadi va boshqalar, 2021] nomli maqolada esa, ishlab chiqarishda IoT qanday paydo bo'lganligi muhokama qilinadi, ammo uning afzalliklari transformatsion deb hisoblanishi mumkin. Bu mualliflarga texnologik, tashkiliy va atrof-muhit omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rib chiqish va ularning ishlashga ta'sirini aniqroq o'lchash imkonini beradigan gibrid "Anfis-Dematel" yondashuvidan foydalangan holda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida IoTni qabul qilishning hal qiluvchi omillarini o'rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologik kompetentsiya, idrok etilgan foyda, muvofiqlik va texnologiya infratuzilmasi eng muhim texnologik omillardir. Faoliyatni qo'llab-quvvatlashni, oldingi axborot texnologiyalari tajribasi, tashkilot hajmi va tashkiliy tayyorgarlik IoTni muvaffaqiyatli qabul qilishning muhim omillari hisoblanadi. Atrof-muhit omillari orasida IoTni amaliyotga qo'llashga tashqi AKT yordami, keyin esa hukumat qo'llab-quvvatlashi, raqobat bosimi va savdo hamkorlari bosimi ta'sir ko'rsatadi.

S.Park, E.Rosca, Agarwal hammuallifligida 2021-yilda chop etilgan "Driving social impact at the bottom of the Pyramid through the Internet-of-things enabled frugal innovations" nomli maqolada rivojlanishda Internet buyumlariga e'tibor qaratgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri oshirishda tejankor texnologiyaga asoslangan innovatsiyalarning rolini o'rganadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda IoT tejankor innovatsiyalarning jarayonli yondashuv va o'zgarish modeli nazariyasiga asoslanib, maqola quyi piramidali bozorlarda IoTning sog'liqni saqlash va energetika sohasidagi kichik korxonalar ta'sirini ko'plab amaliy tadqiqotlar yondashuvidan foydalangan holda baholaydi. Maqolada iqtisodiy jihatdan samarali innovatsion jarayonlar, natijalar va natijalarda IoT ning rolini yaxshiroq anglash uchun korxonalarining ikki turini ("provayderlar" va "yordamchilar") farqlashni taklif qiladi. Natijalar, shuningdek, IoT imkoniyatlari ularga yordam beradigan va sotuvchilarga mavjudlik va mahalliy (institutsional) cheklovlarni yengib o'tishga yordam beradiganlar uchun iqtisodiy jihatdan samarali innovatsiyalarning moliyaviy barqarorligini va kengaytirilishini qanday oshirishini ko'rsatadi. Va texnologiyaga asoslangan tejankor innovatsiyalar orqali jamiyatdagi o'zgarishlar jarayonini kontseptualashtirish uchun takliflar bilan ishlab chiqilgan asos taklif etiladi.

"Becoming a smart solution provider: Reconfiguring a product manufacturer's strategic capabilities and processes to facilitate business model innovation" [Huikkola va boshqalar, 2022] nomli maqolada oltita

global oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchisini bo'ylama tahlilini taqdim etdi (2010–2018). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqaruvchilar bir vaqtning o'zida innovatsion biznes modellari qabul qilishni rag'batlantirish uchun turli qayta tashkil etish usullaridan foydalanmoqda. Shuningdek, yangi raqamli imkoniyatlarni yaratish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchilari yangi raqamli bilimlarni yaratish va o'zlashtirish, shu bilan birga, yangi raqamli imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanish uchun yangi tashkiliy tuzilmalar, jarayonlar va tartiblarni yaratdilar. Keyinchalik, mahsulot ishlab chiqaruvchilar ko'p bilimlar talab qiladigan biznes xaridlarini amalga oshiradilar va ularning qo'shimcha imkoniyatlarini birlashtirish uchun dasturiy ta'minotga asoslangan firmalar va startaplar bilan ittifoq tuzadilar. Tadqiqot natijalari menejerlar bunday strategik o'zgarishlarni rejalashtirish va amalga oshirishda foydalanishlari mumkin bo'lgan qiziqarli imkoniyatlarni rivojlantirish usullarini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolada dolzarb ko'rilgan masalalarni tadqiq etish, atroflicha o'rganish, raqamlarni tahlil qilish, kuzatish, qiyoslash, Sanoat 4.0 talqini, uning harakatlantiruvchi kuchlari va to'siqlarini o'rganish tahlil natijalarini tizimlashtirgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, maqsadli rivojlantirish, kuzatish, qiyoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Asoslangan nazariya ma'lum bir hodisa to'g'risida har tomonlama tushuntirishlar ishlab chiqishga qaratilgan. Usul odatda muntazam ravishda to'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlarga asoslangan nazariyalarni yaratish uchun ishlatiladi. Strauss va Korbin fikriga ko'ra, "Asosli nazariyani o'rganishdagi maqsad hodisalarni tadqiqotning o'zi davomida rivojlanib boradigan nazariy asoslar asosida tushuntirishdir". Tarkibiy nazariya tushunchalarni aniqlash va ma'lumotlarni sifatli yig'ish asosida nazariyani yaratish uchun sistematik metodlardan foydalanadi. Asoslangan nazariya prinsiplariga muvofiq, biz nazariya to'yinaganlik darajasiga erishish uchun ma'lumotlarimizni takroriy ravishda to'pladik va tahlil qildik.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqotlar natijasiga asosan, biz kelajakdagi tadqiqotlar uchun bir nechta yo'nalishlarni aniqlaymiz. Ushbu yo'nalishlarning birinchisi IoT va kibernetika o'rtasidagi aloqani o'rganishga qaratilishi mumkin. IoT global ta'minot zanjirini yaratishda, ta'minot zanjiridagi har bir bo'g'in zaif bo'lishi mumkin va shu bilan kibernetika uchun duchor bo'lish xavfi yuqori bo'ladi [S.Boyson va boshqalar 2021].

O'rganish kerak bo'lgan ikkinchi muhim yo'nalish - IoT va ma'lumotlar maxfiylik muammolari o'rtasidagi munosabatlar hisoblanadi. IoT masofaviy va avtomatik ravishda ma'lumotlarni yig'ish va almashishni nazarda tutsa (sog'liqni saqlash sohasida), bu shaxslar yoki tashkilotlar uchun shaxsiy hayotdan voz kechish talablarini oshiradi. Darhaqiqat, sog'liqni saqlash sohasidagi ma'lumotlar omboridan olingan ma'lumotlar kelgusi yillar davomida salomatlik va samaradorlikni oshirishga katta yordam beradi. Biroq, bu daromad shaxsiy maxfiylikni yo'qotish evaziga kelishi kerakmi? Shu bilan bir qatorda, maxfiylikni himoya qilish uchun qanday qilib anonimlikning turli usullarini izlashimiz mumkin? – degan savollar paydo bo'lishi muqarrar.

Shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar IoT iqtisodiy kuchdagi tengsizlikka qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratish kerak [Wright va Clarysse, 2020]. Internet buyumlari orqali erishilgan asosiy samaradorlik shundan iboratki, endi mashinalar an'anaviy ravishda malakali shaxslar tomonidan bajariladigan vazifalarni bajarishi mumkin. Biroq, sanoatlar mehnat xarajatlarini kamaytirish orqali mahsuldorlik va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun ushbu texnologiyalardan foydalanilishi sababli, tarkibiy ishsizlik muammosi paydo bo'lishi mumkin [Jorj va boshqalar 2016]. Ba'zi sohalarda, ayniqsa, past malaka darajasiga ega bo'lgan ishchilar, tobora aqlli mashinalar tufayli ish qobiliyatining yanada pasayishiga duch kelishmoqda. Ushbu tarkibiy muammo, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy sinflar o'rtasidagi boylik farqining kengayishiga olib kelishi mumkin. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi tengsizlikni hisobga olmaganda, IoT yirik korporatsiyalar (Alphabet va boshqalar), kichik va o'rta kompaniyalar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini yanada o'zgartiradi.

Qolaversa, tadqiqotning qiziqarli yo'nalishi IoT va raqamli biznes modellari o'rtasidagi bog'liqlikdir. IoT markazlashtirilgan tarmoqni nazarda tutadi, unda dasturiy ta'minotni ishlab chiqadigan, apparat ishlab chiqaradigan va ma'lumotlarni boshqaradigan hamkorlar teng huquqli hamkorlik qilishlari kerak bo'ladi. Ulardan biri platforma yetakchisi sifatida ishlay olishi qiyin. Ushbu hamkorliklarning aksariyati xususiy sherikchilikning tijorat maqsadlariga mos kelmasligi mumkin

bo'lgan ijtimoiy maqsadlarni ifodalovchi davlat hamkorlarini ham o'z ichiga oladi. Misol uchun, dasturiy ta'minot kompaniyalarining asosi ko'rfaz hududida yoki Xitoyda joylashgan bo'lsa, an'anaviy apparat ishlab chiqaruvchilari boshqa geografik hududlarda joylashgan bo'ladi. Bu turli maqsadlar va madaniy qadriyatlarini joriy qiladi.

Shu singari, kashf qilishning istiqbolli yo'nalishi IoT va boshqa ilg'or texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. Masalan, IoT nanotexnologiya bilan birlashtirilganda [Balasu Bramaniam va Kangasharju, 2013], nano-miqyosdagi IoT tizimi nimani anglatadi? Xuddi shunday, IoT blockchain texnologiyasi bilan birlashtirilganda, natija ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va ma'lumotlar bilan hamkorlikni qanday o'zgartiradi [Lumi Neau 2021]? Tarqalgan restorant texnologiyasining kichik to'plami sifatida blokcheyn raqamli ma'lumotlarni kriptografik himoyalangan va markazlashtirilgan tarzda saqlashga imkon beradi. IoT qurilmalari blokcheyn texnologiyasi bilan birlashtirilganda, tarmoqning firma chegaralari bo'ylab axborot, jismoniy va moliyaviy oqimlarni yig'ish va raqamlashtirish qobiliyati o'zgarishi mumkin [Lacroix va boshqalar, 2022]. Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar bunday transformativiy olib kelgan imkoniyatlar va muammolarni, amaldagi institutlar, yangi ishtirokchilar va hamkorlik qilish imkonsiz bo'lib tuyulgan manfaatdor tomonlar guruhlari o'rtasidagi hamkorlikning innovatsion usullarini o'rganishi mumkin. IoT va tashkiliy dizayn metodologiyasi. IoT tashkiliy dizaynning yangi texnologik va ijtimoiy xususiyatlarini taqdim etmoqda, biz bu yerda tasvirlab beradigan dizaynning kamida uchta muhim jihati o'zgarishlarga to'xtalib o'tamiz.

Dizayn joylashuvi. IoT mijozlar, raqobatchilar va yetkazib beruvchilarni murakkab tarmoqqa bog'laganligi sababli [Staudenmayer va boshqalar 2005], taqsimlangan ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish, mahalliy va sinxron qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ko'p manfaatdor tomonlarning bunday hamkorligi xususiy dizayni emas, balki tarmoqqa asoslangan dizayni talab qilishi mumkin [Amit va Xan, 2017]. Shu bilan birga, mehnat taqsimoti va say-harakatlarni birlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonining ko'p qismi [Puranam va boshqalar, 2014] endi qaror qabul qiluvchilarni ko'p jihatdan chegaradan chiqarib, avtonom bo'lishiga olib keladi.

Dizaynning vaqtinchalikligi. Yaratuvchilarning ratsionalligi cheklanganligi sababli, tashkilotlarning ritmlari chiziqli yoki sikllik bo'lishi mumkin [Lefebvre, 2013]. Ya'ni, an'anaviy ravishda ma'lumot avval to'planishi va keyin tashkiliy ierarxiya bo'yicha jamlanishi yoki tarqalishi kerak [Brews va Tucci, 2004]. Keyin top-menejerlar fikr-mulohazalarni yaratadigan va kelajakdagi qarorlarini shakllantiradigan g'oyalarni ilgari suradilar. IoT polimorfik vaqtinchalik ritmi [Coletta va Kitchin, 2017] taqdim etadi, chunki uning infratuzilmasi va sensorlar, hisoblagichlar, transponderlar va aktuatorlarning tegishli tarmoqlari tashkiliy agentlarning (odamlar yoki mashinalar) xatti-harakatlarini o'lchash, kuzatish va tartibga solish uchun ishlatiladi. Ishlab ma'lumotlarini endi yig'ish va markazlashtirilgan qaror qabul qiluvchilarga (guruh) taqdim etish kerak emas. Boshqacha qilib aytganda, Internet buyumlari tashkilot dizayni va tashkilot hayotining "algoritmini" quvvatlantirishi mumkin.

Tashkiliy chegaralar. IoT bizni tashkilotlar chegaralari bilan bog'liq asosiy savollarga javoblarni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Firmalar tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha hamkorlar bilan hamkorlik qilishlari uchun muhim ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak [He va boshqalar 2021]. Masalan, Big Pharma an'anaviy ravishda bemor ma'lumotlariga intiyozli kirish huquqiga ega bo'lgan shifoxonalar bilan hamkorlik qiladi. Tibbiy uskunalarning keng tarqalishi va shaxsiy ma'lumotlar almashishning ortishi bilan firmalar tibbiy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda bemorlar bilan bevosita hamkorlik qilishlari mumkin. Xuddi shunday, tashkilot hodimlari boshqa sohalarda ham hamkorlik qilishadi. An'anaga ko'ra hamkorlik sheriklarning bir-birini to'ldiruvchi resurslari, ularning tashkiliy chegarasida o'zaro bog'langan. IoT bilan hamkorlik asosan "qatlamlar" bo'lishi mumkin - bir hamkor sensorli mashinalar kabi jismoniy infratuzilmani, ikkinchisi esa bulutli hisoblash yoki mashinani o'rganish algoritmlari kabi ma'lumotlarni saqlash yoki tahlil qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Ham ishtirokchilar, ham hamkorlik uslubidagi bu o'zgarishlar olimlar va menejerlarni hamkorlikni loyihalashda ishonch masalasini o'ylab ko'rishga undaydi [Puranam va Vanneste, 2009].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola raqamlashtirishning asosini tashkil etuvchi IoT muammolarini biznes muammosiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni yo'lga qo'yishni boshladi. Maqoladagi o'rganilgan, tahlil qilingan aksariyat

maqolalar asosan IoT bilan bog'liq texnologiyalarni joriy etishning amaliy jihatlarini bilan qiziqadigan professor-olimlar va biznes-model, ekotizim muammolarini asosiy texnologiyalar sifatida belgilab beruvchi professor-olimlari o'rtasidagi hamkorlik natijasidir. Ularga instrumental sifatida qaralgani bois texnologiyasiga asoslanganligi unchalik muhim

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20 dekabr 2022-yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
2. Ranger, S., 2020. What Is the IoT? Everything You Need to Know about the Internet of Things Right Now. ZDNet. <https://www.zdnet.com/article/what-is-the-internet-of-things-everything-you-need-to-know-about-the-iot-right-now/>.
3. Christou, L., 2019. History of IoT: from Idea to an Industry Approaching \$1tn. <https://www.verdict.co.uk/history-of-iot/>.
4. Leiting, A.-K., de Cuyper, L., Kauffmann, C., 2022. The Internet of Things: Changing Business Models while Staying True to Yourself. Technovation.
5. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
6. Van Lente, H., Spitters, C., Peine, A., 2013. Comparing technological hype cycles: towards a theory. Technol. Forecast. Soc. Change 80 (8), 1615–1628. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2012.12.004>.
7. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
8. Adner, R., Kapoor, R., 2010. Value creation in innovation ecosystems: how the structure of technological interdependence affects firm performance in new technology generations. Strat. Manag. J. 31 (3), 306–333. <https://doi.org/10.1002/smj.821>.
9. Raxmonov Nodirjon. (2022). O'ZBEKISTONDA SANOAT 4.0 DASTURINI RIVOJLANISHI CHARM POYAFZAL ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONA MISOLIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(2), 331–341. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/127>.
10. Rahmonov, N. (2022). EMPLOYMENT PROBLEMS AND SOLUTIONS OF EMPLOYMENT DURING THE CORONAVIRUS PANDEMIC. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000004)
11. Hannah, D.P., Eisenhardt, K.M., 2018. How firms navigate cooperation and competition in nascent ecosystems. Strat. Manag. J. 39 (12), 3163–3192. <https://doi.org/10.1002/smj.2750>.
12. Baldwin, C.Y., 2021. Design Rules, vol. 2. Harvard Business School (Chapter 16), Capturing Value by Controlling Bottlenecks in Open Platform Systems, Harvard Business School Research Paper Series, 20-054.
13. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
14. Staudenmayer, N., Tripsas, M., Tucci, C.L., 2005. Interfirm modularity and its implications for product development. J. Prod. Innovat. Manag. 22 (4), 303–321.
15. Furr, N., Shipilov, A., 2018. Building the right ecosystem for innovation. MIT Sloan Manag. Rev. 59 (4), 59–64.
16. Puranam, P., Alexy, O., Reitzig, M., 2014. What's "new" about new forms of organizing? Acad. Manag. Rev. 39 (2), 162–180. <https://doi.org/10.5465/amr.2011.0436>.
17. Rakhmonov, N. (2022). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL 4.0 PROGRAM IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF A LEATHER SHOE MANUFACTURING ENTERPRISE). Иктисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(6), 120–129. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss6/a13.
18. Brews, P.J., Tucci, C.L., 2004. Exploring the structural effects of internetworking. Strat. Manag. J. 25 (5), 429–451. <https://doi.org/10.1002/smj.386>.
19. Coletta, C., Kitchin, R., 2017. Algorithmic governance: regulating the 'heartbeat' of a city using the Internet of Things. Big Data & Society 4 (2). <https://doi.org/10.1177/2053951717742418>, 2053951717742418.
20. Rahmonov, N. (2022). O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNINING ZAMONAVIY YECHIMLARI. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000004).
21. Рахмонов Нодиржон, & Жўраев Асадбек. (2022). КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ТАҲЛИЛИ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(5), 101–109. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/386>. <https://doi.org/10.5465/amr.2009.35713271>.
22. Martens, C.D.P., da Silva, L.F., Silva, D.F., Martens, M.L., 2021. Challenges in the implementation of internet of things projects and actions to overcome them. Technovation, 102427. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2021.102427>.
23. Asadi, S., Nilashi, M., Iranmanesh, M., Hyun, S.S., Rezvani, A., 2021. Effect of Internet of Things on manufacturing performance: a hybrid multi-criteria decision-making and neuro-fuzzy approach. Technovation, 102426. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2021.102426>.
24. Park, S., Rosca, E., Agarwal, N., 2021. Driving social impact at the bottom of the Pyramid through the Internet-of-things enabled frugal innovations. Technovation, 102381. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2021.102381>.
25. Raxmonjon o'g'li, R. N. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ТИЗИМИ ВА ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. ҚО'ҚОН УНИВЕРСИТЕТИ ХАВАРНОМАСИ, 36-43.
26. Boyson, S., Corsi, T.M., Paraskevas, J.-P., 2021. Defending digital supply chains: evidence from a decade-long research program. Technovation, 102380. <https://doi.org/10.1016/j.technovation.2021.102380>.
27. George, G., Howard-Grenville, J., Joshi, A., Tihanyi, L., 2016. Understanding and tackling societal grand challenges through management research. Acad. Manag. J. 59 (6), 1880–1895. <https://doi.org/10.5465/amj.2016.4007>.
28. Otto, M., & Thornton, J. (2023). КИЧИК БИЗНЕС ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ: ҲОЛАТЛАР, УСЛУБЛАР ВА ТАҲЛИЛЛАР. ҚО'ҚОН УНИВЕРСИТЕТИ ХАВАРНОМАСИ, 178-183.
29. Wright, M., Clarysse, B., 2020. Technology entrepreneurship and shaping industries. Acad. Manag. Discov. 6 (3), 355–358.



BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rustamova Sayyora Xatamovna

Andijon davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrası

katta o'qituvchisi, i.f.f.d.(PhD)

Rustamova0302@mail.ru

+998912870005

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 17

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.911>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

boshqaruv qarorlari, boshqaruv samaradorligi, mehnat unumdorligi, tashkiliy samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, texnologik samaradorlik, prognozlashtirish, iqtisodiy matematik modellashtirish

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari ochib berilgan. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarining turli olimlar tomonidan o'rganilgan xulosalari taqdim etilgan. Maqolada boshqaruv qarorlarini qabul qilishning tafakkurga, ya'ni intuitsiyaga asoslangan usullariga urg'u berilgan. Bundan tashqari boshqaruv qarorlarini qabul qilishning 3C modeli taklif etilgan.

Kirish. Zamonaviy dunyoning shiddat bilan rivojlanishi hamda axborotlarning aniqligi, bir qator noaniqlik darajasining ortishi korxonalarini bozorda uzoq vaqt yashab qolishi uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini takomillashtirishga zaruriyat tug'dirmoqda. Boshqaruv qarorlari samaradorligi korxonaga rahbari yoki menejeri ish faoliyatini jabhalarida ko'rinadi: maqsadni to'g'ri belgilash, noaniqlik sharoitidagi muammolarga yechim topish, ishni to'g'ri rejalashtirish, ularni o'z ixtisosligi bo'yicha taqsimlash, tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshirish va boshqalar.

Boshqaruv qarorlari samaradorligini belgilashda eng asosiy mezon aholining turmush darajasi va sifatidagi o'zgarishlar, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aynan shu masalada quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tdi: "Asosiy vazifa –bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat....har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak". (III.Mirziyoyev., 2017) Shunday ekan har qaysi rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilayotib, vaziyat nuqtai-nazaridan barcha mezonlarni hisoblashi darkor.

Adabiyotlar tahlili. R.A.Fatxutdinov o'z zinnig tadqiqot ishida asosan boshqaruv qarorlari bo'yicha bir qator usullarni ajratib ko'rsatgan: boshqaruv qarorlarini tahlil qilish usuli (zanjirlarni almashirish usuli, kompyuter yordamida omillar tahlili, xarajatlarni funksional tahlili, resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, SWOT tahlilari, kompaniyaning moliyaviy holatini raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan tahlil qilish); boshqaruv qarorlarini bashorat qilish (ekstrapolyatsiya usullari, parametrik usullar, ekspert usullari, normativ, eksperimental va indeksli bashorat qilish usullari); boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash (Acaul A.H., Graхов В.П., Коваль О.С., Рыбнов Е.И., 2014), (boshqaruv tizimi tarkibiy qismlarining sifatini oshirish investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish).

Biz bir qator iqtisodchi olimlarning ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha fikr mulohazalarini tadqiq etganmiz. Jumladan, A.B. Тебекин, В.Б.Мантусов lar "Управление организацией: теоретико-методологические основы, функциональные задачи, технологии, прикладные аспекты применения" (Тебекин А.В., Мантусов В.Б., 2016) nomli monografiyasida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan vositalarni uchta usul orqali amalga oshirish kerakligini asoslagan: bular birinchi "ilgari ishlab chiqilgan qarorlarning empirik tahlili, shuningdek ularni ishlab chiqish usullari va shu asosda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalari asosida ishlab chiqish; ikkinchi nazariy va amaliy usul, har bir aniq boshqarish ob'ekti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tegishli sohalarida qarorlarni ishlab chiqish sohasidagi ishlanmalarni o'rganish; uchinchi aralash usul, shu jumladan empirik va nazariy tahlil, shuningdek, uni qo'llash vositalari va texnologiyalarini sintez qilish" (Тебекин А.В., Мантусов В.Б., 2016).

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini takomillashtirishga oid bir necha usullar o'rganilgan. Ushbu boshqaruv usullarini yoritishda qiyosiy va solishtirma tahlil, induksiya, deduksiya usullaridan foydalangan.

Tadqiqot natijalari. Qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiq holda bajarilishi asosan ishlab chiqarish jarayonida maxsus maqsadga yo'naltirilgan dasturlar, tarmoqli grafiklar, matritsali boshqaruv tizimi orqali amalga oshiriladi. Qarorlarni qabul qilish 3 ta guruhga bo'lib o'rganiladi:

1. Boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida bajaruvchilarga yetkazib berish;
2. Kadrlar va mehnat resurslarini optimal joylashtirish hamda tezkor holda jamg'armalarni shakllantirish;
3. Qarorlarning bajarilishini nazorat qilish. (Зиявитдинова Н.М., Уринов Й.М., Хайитов Ш.Н., 2012)

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda bir qator muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin: boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda bu usuldan foydalanish ijobiy natijalarga olib kelmoqda. (A. H. Acaul, B. П. Грахов, О. С. Коваль, Е. И. Рыбнов, 2014)

"Ierarxik tahlil usuli" orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish 3 pog'onada amalga oshiriladi: birinchi pog'onasida, ierarxik struktura tuzish bosqichi, ierarxiyada asosan 3ta pog'ona (cheklanmagan) keltirilib, ularning birinchisi boshqaruv qarorining samaradorligi (korxonaning asosiy maqsadi yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish), ikkinchisi boshqaruv qarorlarini samaradorlik turlari, ya'ni iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, texnologik, ijtimoiy va x.k. Muammoni yechish uchun tanlangan mezonlar, ierarxiyaning uchinchi pog'onasida qo'yilgan muammoga topilgan barcha muqobil variantlar (boshqaruv qarorlari) keltiriladi. Ikkinchi, ustunlikni aniqlash bosqichi, ierarxiyaning har bir pog'onasidagi elementlarni ustunlik darajasi, ya'ni muhimlik darajasiga qarab juftlik solishtirma tahlil(matematik asoslangan holda) orqali tartibga solinadi. Uchinchi, qaror qabul qilish bosqichi, muammoni yechimi bo'lishi mumkin bo'lgan muqobil variantlarni har biri ustunlik koeffitsiyenti hisoblanadi. Eng yuqori ustunlikka ega bo'lgan variant o'z navbatida yuqori samaradorlikka olib keladi deb baholansa, aksincha eng past ustunlikka ega variant past samaradorlikka olib keladi deb baholanadi.

Ushbu usul yordamida bir necha ob'ektdan bittasi, mezonlarga ko'ra eng yaxshisi (sifatli, samarali, kam tavakkalli, yuqori nafli va x.k.) tanlanadi.

Ushbu usuldan samarali foydalanishda tinglovchilar masalani aniq qo'ya bilishlari, yechish bosqichlarini bilishlari va MPRIORITY1.0 dasturidan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari ular tomonidan optimal qaror qabul qilish imkoniyatlarini yanada oshiradi. (Axpapov B.C., 2020)

Hozirgi paytda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashuvchi "Emperor 3.01", "MPRIORITY1.0", "Expert Choice" va "Mislitel Ekspres 2015" maxsus dasturlar mavjud bo'lib, ko'p mezonli qarorlar qabul qilishda foydalaniladi. (Xolov A.X., 2017)

Cherchman-Akof usuli (miqdoriy uchun ishlatiladi muqobil variantlarning qiyosiy afzalligini baholash va ekspert baholarini to'g'rilashga imkon beradi. Muqobil variantlarning taxminlari manfiy bo'lmagan sonlar deb taxmin qilinadi);

Lotereya usuli (imtiyozning kamayish tartibida buyurtma qilingan har qanday uchta alternativa a1, a2, a3 variantlari uchun, mutaxassis shunday ehtimollikni ko'rsatadi, a2 variant qaysi holatda bo'ladi lotereyaga arzimaydi, a1 variant p ehtimoli va opsiyasi bilan sodir bo'ladi a3 - ehtimollik bilan (1 - p)).

Ssenariylar usuli ham voqealar sodir bo'lishi ehtimoli va qabul qilingan qarorlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini baholashga imkon beradi. Tizimlar nazariyasi nuqtai nazaridan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonini "qora quti" modeli va "oq quti" modellari ishlab chiqilgan. (Xolov A.X., 2017)

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonining "qora quti" modelining vazifasi boshqaruv qarorini ishlab chiqishdir, ya'ni - bu tizim bo'lib, uning maqsadi boshqariladigan tizimning boshqaruv tomonini boshqarish harakatini shakllantirishdir. Ushbu model universal emas, chunki u ishlab chiqilgan qarorni to'g'rilashni ta'minlaydigan mulohazalarni o'z ichiga olmaydi va faqatgina kirish paytida qanday ma'lumot bo'lishi kerakligini va boshqaruv jarayoni qanday shaklda taqdim etilishi mumkinligini ko'rsatishga xizmat qiladi. (Тебекин А.В., Мантуров В.Б., 2016) Bu yerda qaror ishlab chiquvchi sub'ektlar, axborotlarni yig'ish jarayonida tahlil qilinadigan ob'ektlar (boshqaruv tashkiliy tuzilishi, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv dasturi va b.), hamda qaror ishlab chiqish jarayonidagi resurslar (mehnat resurslari, axborot, texnologiyalar va b) ko'rib chiqiladi.

Muammolarni hal qilish bo'yicha "oq quti" sxemasini amalga oshirishda nafaqat tashkilotning ichki resurslari, balki uning samarali rivojlanishini ta'minlashga imkon beradigan tashqi muhitning o'ziga xos manbai sifatida qulay imkoniyatlari ham ishtirok etishi mumkin. (Тебекин А.В., Мантуров В.Б., 2016) Qaror qabul qilishga ekspertlar, tahlilchilar jalb qilinsada, asosiy ma'suliyat qaror qabul qiluvchi shaxsda bo'ladi. Qarorni optimallashtirish uchun ko'plab variantlarni ishlab chiqish, bir necha resurslarni birgalikda o'rganish, ishlab chiqilgan qaror variantlariga baho berish imkoniyatini beradi. Boshqaruv qarorlarini samaradorligi ko'p hollarda muammoga ilmiy-amaliy asoslangan bo'lsagina yaxshi natija beradi.

Mashxur afsonaviy matematik Djon fon Neyman antagonistik o'yinlar nazariyasining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur nazariya Djon fon Neyman va Oskar Morgenshtern tomonidan ularning "Theory of Games and Economic Behavior" deb nomlangan va 1944-yilda asarida chop etilgan. O'yinlar nazariyasi - ziddiyatli vaziyatlarni matematik modellashtirish bilan shug'ullanadigan matematik ilmiy yo'nalish. Uning maqsadi-ziddiyatli vaziyat ishtirokchilari uchun ratsional strategiyalarni tanlash usullarini ishlab chiqish.

1994-yilda noantagonistik o'yinlar nazariyasini yaratgani uchun Nobel mukofotini qo'lga kiritgan mashxur olim Djon Neshning noantagonistik o'yindagi asosiy farazlari quyidagicha:

- o'yinchilar ratsional (oqilona) qarorlarni qabul qiladi;
- o'yinchilar strategik harakatlarni amalga oshirishadi, ya'ni raqibning yurishlarini payqagan holda qaror qabul qilishadi;
- statik o'yinlarda o'yinchilar bir vaqtda yurishadi, bunday vaziyatlarda vaqt rol o'ynamaydi;
- dinamik o'yinlarda o'yinchilar ketma-ket yurishadi, ya'ni bunday vaziyatlarda vaqt rol o'ynaydi;
- mukammal axborot sharoitidagi o'yinda o'yinchi raqibining shu paytgacha bo'lgan oldingi yurishlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;
- to'liq axborot sharoitidagi o'yinda o'yinchi raqibining yutuqlari funksiyasi (afzalliklari, yutuqlari) haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Antagonistik o'yin - har juftlik strategiyalarida yutuqlar yig'indisi nolga teng bo'lgan o'yin. (A.Худайназаров, 2016)

Klassik loyihalarni boshqarish tamoyillari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullariga quyidagilar kiradi:

- 1) Kritik yo'l usuli (Critical Path Method – CPM);
- 2) tarmoqni rejalashtirish usuli (PERT);
- 3) hayot sikli bosqichlari bo'yicha loyihani boshqarishga tizimli yondoshish usuli;
- 4) pilot loyiha usuli;
- 5) loyihaning hayot siklini boshqarish tizimini takomillashtirish usuli;
- 6) yangi mahsulotlarning hayot aylanish jarayonini takomillashtirish usuli;
- 7) SMPni takomillashtirish uchun "to'siqlar" nazariyasini qo'llashga asoslangan usul;
- 8) Agile Software Development – ASD (ASD) usuli;
- 9) (Project Management Body of Knowledge) bilimlar to'plamining usullari;
- 10) ishga tushirish usuli (start-up);
- 11) neytral (muvozanatli) yondashuv usullari.

Miqdoriy yoki tizimli tahlil usullarida aniq matematik hisob-kitoblar bilan ishlab chiqilgan modellar orqali muqobil variantlari berilgan mezonlariga ko'proq javob beruvchi yoki mos keluvchisini tanlash, ularni qiyosiy tahlil qilish, taqqoslash, muqobillari orasidan eng afzalini tanlashni nazarda tutadi, ya'ni hisob-kitoblarga asoslangan.

Yuqorida sanab o'tilgan usullarga albatta nazoratsiz erishib bo'lmaydi. Vazifani ijrochilarga taqdim etib, ulardan natija qanday bo'lganligini nazoratga olmagan rahbar alal oqibat keyingi qarorlarning ijrosiga putur yetkazib qo'yadi. Negaki nazoratning amalga oshirilmasligi ijrochilarda beparvolik va ma'suliyatsizlik kayfiyatlarini yuzaga chiqarishi turgan gap. Shuning uchun ham nazorat muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat funksiyasi deganda biz albatta "qamchilab, tirnoq tagidan kir qidirish" qabilida emas, chetga og'ishlarni o'z vaqtda bartaraf etishni nazarda tutaymiz. O'z vaqtda ijroning qayerida muammo yuzaga kelayotganini va unga qanday omil ta'sir ko'rsatayotganini anglash qarorning samaradorligini kafolatlaydi.

Boshqaruv faoliyatining samaradorligi ko'pincha qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liq korxonadagi butun savol va muammolar zanjiri ularning aniq yechimi boshqaruvchiga yuklangan, ishlab chiqarish, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy, marketing va huquqiy vazifalar qarorlarni to'g'ri qabul qilish hamda o'z vaqtda bajarilishiga bog'liq. Yechilayotgan muammolarning hammasi har qanday boshqaruvchi tomonidan hisobga olinadi va bu narsa uning boshqaruv uslubida hamda butun boshqaruv jarayonida aks etadi.


Qarorlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash rahbarning keyingi faoliyatidagi siljishlariga bog'liq. Bitta muammo bo'yicha bir necha qarorlar ishlab chiqiladi va ulardan bittasi amalda qo'llaniladi. Bu qarorlarning tasnifi muhim nazariy va hayotiy ahamiyatga ega.

Muvaffaqiyatli qarorning mezonlarini belgilashda ikki turdagi mezonlar - "biz qilishimiz kerak" va "biz istaymiz" tanlab olinadi. Ikkinchi holda istalgan maqsadlar ko'rib chiqiladi. Ikkinchi mezon ehtimol bo'lgan variantlar haqida o'ylashga majbur qiladi, bunda ideal bo'lganlari istisno qilinmaydi. (Семцов А.К. Хабюков В.И.)

Respublikamizda tadbirkorlik sohasida "Tartibga solish gilotinasi" usulini to'laqonli amalga oshirish, tadbirkorlarga g'ov bo'lib kelayotgan turli ma'muriy cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori samaradorlikka erishish va biznes yuritish muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhokama. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosan simulyatsiya modellashtirish masalalari orqali amalga oshirish mumkin. Shu sababli simulyatsiya modellashtirishga - bu haqiqiy tizimni simulyatsiya modeli bo'yicha o'rganishni maxsus simulyatsiya qiladigan matematik vositalar to'plami yordamida amalga oshiriladigan analogli modellashtirishning bir turi hisoblanadi. (Чуваев А.В., 2017)

Bu taklif etayotgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarida asosiy e'tibor korxonalarni kelgusi faoliyatini barqarorlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari alohida amalga oshiriligi asoslangan. Ushbu modelda tadqiqotchilarning ilmiy qarashlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini inglizcha "C" harfi bilan boshlanuvchi so'zlar bilan ifodalab, "3C modeli" deb yuritish va ular quyidagicha:



1-chizma. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarining “3C modeli”¹

Yuqoridagi rasmlarda keltirilgan “3C”ni tarkibi quyidagicha ma’nodan iborat:

1. C- creative, ya’ni evristik yoki ijodiy yondashuvga asoslangan usullar;

2. C- collective, ya’ni jamoali kelishuvga asoslangan usullar;

3. C- count, ya’ni miqdoriy usullar bo’lib, bunda ilmiy tajribaga asoslangan tizimli tahlil, matematik hisob kitoblari orqali boshqaruv qarorlari qabul qilish usullari ko’riladi.

Hozirgi kunda qaror qabul qilishning eng keng tarqalgan “Aqliy hujum” usulining quyidagicha zamonaviy turlari ham mavjud:

1. “Narvon texnologiyasi” - ishtirokchilar bir-birining g’oyalari avval 2 ta ishtirokchi xonada qolib, bir birini g’oyasini eshitadi, keyin navbatma navbat ishtirokchilar xonaga chaqirilib, g’oyalari eshitiladi;

2. “Rol hujumi” – ishtirokchilarga korxonadagi rollari yoki boshqaruvdagi funksiyalari taqsimlanadi va aniq javoblar eshitiladi;

3. “Onlayn aqliy hujum”- bu usul uyatchan ishtirokchilarga qo’l kelsada, unda yozma javoblarni yig’ish uchun ko’p vaqt sarflanadi. (Анна Гриньова., 2021)

Aqliy hujum asosida V. Gordon 1960 yilda “sinektika usuli” ni taklif qildi. Uning “aqliy hujum” dan asosiy farqi shundaki, “hujumdan hujumga” ma’lum tajriba to’playdigan mutaxassislar sifatida barqaror tarkibli guruh ishlaydi. Bundan tashqari, sinektik usuldan foydalanish tanqidiy bayonotlarga imkon beradi.

“635” usuli - bu “aqliy hujum” ning bir turi bo’lib, uning davomida har bir ishtirokchining ijodkorligi muammoni hal qilish uchun aniq g’oya shaklida yozma ravishda ifodalanadi. Ushbu muammoni jamoaviy hal qilish usuli Bernd Rorbax tomonidan 1968 yilda ishlab chiqilgan. (Жихарева А.О., Макушев Н.Б., 2019)

Usulning mohiyati shundan iboratki, jamoada 6 kishi ishtirok etadi, ushbu 6 kishining har biri berilgan muammoni yechimi uchun 3 tadan g’oyani yozadi. Ushbu jarayonga 5 minut vaqt ajratiladi. Muammo uchun oqilona qaror qabul qilishning ushbu usulida ishtirokchilar tomonidan taklif etilayotgan yechimlar takrorlanishi mumkin. Lekin o’zgacha takrorlanmagan fikrlar ham beriladi. Ushbu usulni qo’llashdan ham maqsad umumiy taklif etiladigan fikrlar bilan birga o’zgacha fikrlarni ham yig’ishdan iborat. Taklif etilgan yechimlar umumlashtiriladi va muammoga tashxis qo’yilib, qaror qabul qilinadi.

“Fikrlash uchun 6 shlyapa usuli” –bu mavjud muammolarni 6 xil usulda fikrlab oson va samarali hal qilish usuli hisoblanadi. Ushbu usul Edvard de Bono tomonidan taklif etilgan. Mazkur usulda har bir shlyapa egasi ma’lum bir belgilangan vazifalarni amalga oshiradi. (Чуваев А.Б., 2017) Har bir shlyapa egasining vazifalari quyidagilarda o’z aksini topgan:

1. Oq shlyapa-e’tiborni ma’lumotlarga qaratadi. Bu fikrlash usulida faqat faktlar, ma’lumotlar, savollar qiziqtiradi. “Biz nimani bilamiz?”, “Yana qanday ma’lumotlar muhim?”, “Bu ma’lumotlarni qanday topamiz?” degan savolni o’rtaga tashlaydi. Umuman olganda axborot yig’ish vazifasini o’taydi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida avvalo unga to’g’ri tashxis qo’yish uchun yetarli, ishonchli axborotlarni yig’ish dardkor.

2. Qizil shlyapa- bu usul his-tuyg’u, intuitsiya, oldindan sezish kabi qobiliyatlarini qamrab oladi

3. Qora shlyapa- bo’layotgan mazkur jarayonga tanqidiy baholash bilan yondashadi. To’laqonli o’ylanmagan xavf xatarlarni anglatadi. Ya’ni berilayotgan muammoga yechim qidirilayotganda yoki taklif etilayotganda, taklifni atroflicha o’rganish kerakligini, kutilayotgan tahdidlarni nazardan qochirmaydi.

4. Sariq shlyapa- ustunlik, o’ziga xoslik, afzallik. “Nima sababdan aynan shunday qilish kerak?”, “Qanday afzalliklari bor?” degan savollarga javob qidiradi. Qora shlyapa ko’rsatgan tahdidlarga

javoban bu taklif etilayotgan yechimning ustun tomonlarini ko’rsatib o’tishga harakat qiladi.

5. Yashil shlyapa- yangi g’oyalar, yaratuvchanlik, mavjud qarorlar ro’yxatini tuzadi. Berilgan muammoga yangi yechimlar topish ustida bosh qotiradi.

6. Ko’k shlyapa- mavjud muqobil variantlar asosida qaror qabul qiladi. Ya’ni moderator vazifasini o’tab, yakuniy natijaga ma’ul hisoblanadi.

5C tamoyili Yaponiyada ishlab chiqilgan, uning asosiy maqsadi ish joyidagi yo’qotishlar, xatolar, defektlar va jarohatlarni kamaytirishdan iborat. Чуваев А.Б., 2017 5C yapon tilidagi 5ta “C” harfi bilan boshlanuvchi quyidagi holatlarni ifodalaydi: (sort, stabilize, shine, standartize, sustain) sortirovka, tartib, ozodalik, standartlashtirish, takomilllashtirish. Sortirovkada axborotlarni kerakli va keraksiz qismlarga ajratib, keraklisini ko’zga yaqin joyga joylashtirish nazarda tutiladi. Tartib yaponlarning ajralmas odati ekanligi ayon, “hammani o’z joyi bo’lishligi, hamma o’z joyida bo’lishligi”ni nazarda tutadi.

C-collective, ya’ni jamoaviy kelishuvga asoslangan usullar.

Menjment muammolarini o’rganish bo’yicha mutaxassis R. Katsning yozishicha: “Har qanday qaror har qanday nuqta nazardan qarara-qarshi bo’lgan qiymatlarni, maqsadlarni va mezonlarni muvozanatlashtirishi kerak. Butun korxonani qamrab oladigan har qanday qaror yoki tanlov uning ayrim qismlari uchun salbiy oqibatlariga olib keladi”. (Тебекин А.В., Мантусов В.Б., 2016) Aynan shuning uchun ham jamoaviy tarzda “kompromis” asosida qaror qabul qilish muhimdir.

Jamoaviy tarzda qabul qilinadigan qarorlar orasida “Ringi” usulining mohiyati haqida gapiradigan bo’lsak, “Ringi” yapon tadbirkorligi va biznesida keng qo’llaniladigan usuldir. (М.Шарифхужаев, Ё.Абдуллаев, 2000) “Yaponcha-ruscha katta lug’at”da ringi atamasi muammoni hal qilishga majlislar chaqirmasdan turib, so’rab chiqish yo’li bilan rozilik olish deb ta’riflanadi. (Пустомова С.Х., 2021) Mutaxassislar muammoni yechishga jalb qilinadi va muammo quyi pog’onaga yuboriladi. Buning yaxshi tomoni shundaki, qaror ijrosini amalga oshirishda eng ko’p quyi pog’ona vakillari to’g’ri xulosani beradi.

Demakki boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida tajribali insonlarga suyanish, ular bilan maslahatlashni kasb etadi. Tajribali insonlar korxonani ishlab chiqarish bo’limida korxonani rivojini uchun hissa qo’shayotgan insonlar hamdir. Chunki ular ishlab chiqarish jarayoni yuqori bo’g’in rahbarlaridan ham yaxshi biladi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda quyi bo’g’in ishchilari ishtirokini ta’minlash juda ahamiyatlidir.

Bundan tashqari marketing (SWOT), (4P), moliya, taym menejment), iqtisod va iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi tadqiqotlarga asoslangan qaror qabul qilish usullari mavjud.

C-count, ya’ni miqdoriy yoki tizimli tahlil usullar. Tizimli tahlilda qaror qabul qilish ob’ekti sifatida bir tomondan korxonani boshqaruv tizimi ko’rilsa, boshqa tomondan o’zaro bir biri bilan bog’liq ko’plab jarayonlarga mos keluvchi katta tizim ko’riladi. Tizimli tahlil ilmiy-nazariyotga, tajribaga, statistik va matematik usullarga tayanadi. Biz bu turdagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda quyidagi usullarni o’rgandik: ierarxik tahlil; cherkman-akof; lotereya; stsensariylar; deterministik omil tahliliga asoslangan; chiziqli modellashtirish; ehtimollik va statistik; o’yin nazariyasi; imitatsion usullar.

Biz boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini takomillash-tirish yuzasidan to’plagan ma’lumotlarimizni tizimlashtirdik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari ham turli tumandir. Yuqoridagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini

¹ Muallif ishlarnasi

optimallashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini ham 3 turga majassamlashtirdik: his-tuyg'uga asoslanib boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari, biz buni inglizcha creative, ya'ni ijodiy yondashuv deb atadik. Jamoaviy kelishuvga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini inglizcha collective, ya'ni jomoaviy yondashuv, matematik hisob-kitoblarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini esa count, ya'ni miqdoriy yondashuv deya nomladik. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini ham inglizcha C harfi bilan boshlangan so'zlar bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning "3C modeli" deb ta'riflashni taklif qilmoqdamiz.

2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarining har birida bir necha takomillashtirish usullari mavjudki, biz ham ushbu usullarga o'z o'rganishlarimiz asosida har bir usulga murakkab bo'lmagan o'z takliflarimizni berdik. Qaror qabul qilishning noaniqlik sharoitida yoki qaror variantlarini ko'paytirish maqsadida ekspertlarni jalb qilgan holda rahbarlarda kreativ fikrlashni shakllantirish usulini taklif qildik. Rahbar nafaqat o'zida kreativ ko'nikmalarni shakllantirishi zarur, balki "qutichadan tashqarida fikrlovchi" xodimlarni ham qaror qabul qilish jarayoniga jalb etishi zarur. Chunki hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda korxonalarda barcha turdagi qarorlarda yangilik ufririb turishi kerak, noodatiy reklamalar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ш.Мирзиёев "Танкидий таҳлил, катъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик кoidsи бўлиши керак" Тошкент-"Ўзбекистон"-2017. 20-бет

2. Асаул А.Н., Грахов В.П., Коваль О.С., Рыбнов Е.И.; Теория и практика разработки принятия и реализации управленческих решений в предпринимательстве / монография под ред. заслуженного деятеля науки РФ, д-ра экон. наук, профессора А. Н. Асаула. — СПб.: АНО «ИПЭВ», 2014. 68 с

3. Тебекин А.В., Мантусов В.Б. Управление организацией: теоретико-методологические основы, функциональные задачи, технологии, прикладные аспекты применения Монография / М.: РИО Российской таможенной академии, 2016. 124- ст.

4. Зиявитдинова Н.М., Ўринов Й.М., Хайитов Ш.Н "Менежмент", Тошкент-2012, 153-бет

5. Коваль О.С. «Развитие технологии процесса принятия и реализации управленческих решений в предпринимательских структурах» автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург 2012 г, 8-ст

6. Чуваев А.В. Совершенствование методики принятия управленческих решений на основе диагностики производственных процессов. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Новосибирск-2017 г, 59-с

3. Qaror qabul qilishning miqdoriy yondashuvga asoslangan usullariga biz qiyosiy tahlil yoki hisob-kitoblarni taqqoslash usullarini tahlil qildi. Unga ko'ra aniqlik sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda barcha mezonlarni to'la hisoblab, iqtisodiyotning bosh qonuni: cheklangan resurslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarimizni maksimal darajada qondirish uchun aniq hisob-kitoblarga tayanishimiz darkor. Variantlar bo'yicha hisoblab chiqilgan natijalarni qiyosiy taqqoslash orqali mezonlar ichida eng kam xarajat va eng qulayini tanlashimiz maqsadga muvofiqdir.

4. Qaror qabul qilishning jamoaviylikka asoslangan yondashuvida biz tajribali xodimlar bilan kengashishni afzal ko'rdik. Negaki xalqimizdagi "qari bilganni pari bilmas" degan naqlga suyangan holda ish tajribasi katta bo'lgan xodimlar bilan kengashish to'g'ri qaror qabul qilishimizga zamin bo'ladi. Chunki boshqaruvda vaziyatli yondashuv mavjud bo'lib, bunda ko'zda tutilmagan vaziyatga duch kelganda tajribali xodimlarning tajribalari bilan kelishish kerak bo'ladi. Yuqoridagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarining har birini korxonada qo'llash ijobiy natijaga olib keladi. Aniqlik sharoitida hisob kitobga asoslangan qaror qabul qilish usulidan, noaniqlik sharoitida ijodiy yondashuvga asoslangan qaror qabul qilish usullaridan va vaqt omili uzoq sarf bo'lsa ham jamoa tarzda qabul qilingan qarorlarning har biri o'z vaziyati nuqtai nazaridan ijobiy natija bera oladi

7. Анна Гриньова. Одно голова хороша, а две лучше: что такое мозговой штурм, 26.03.21 <https://happymonday.ua/ru/chtotakoe-mozgovojshturm>

8. Жихарева А.О., Макушев Н.Б. Коллективный поиск идей по улучшению принятия управленческих решений на различных уровнях власти: метод 635 (на основе просмотра фильма «Два дня») Электронный научный журнал «ГосРег». 2019. № 4.

9. М.Шарифхўжаев, Ё.Абдуллаев "Менежмент 100 савол ва жавоб" Тошкент-2000, 228-бет

10. Рустамова, С. Х. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE NATIONAL AND INDUSTRIALLY DEVELOPED COUNTRIES IN DECISION MAKING EXPERIENCE. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (5), 48-56.

11. Ахбаров Б.С. "Аниқлик шароитида қарор қабул қилиш усуллари" мавзусини ўқитишда иерархиялар таҳлили усулини қўллаш методикаси "Замонавий таълим" илмий журнали 2020, №9 (94), 69-б

12. Холов А.Х "Самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш мезонлари" 25.05.2017 "Бизнес эксперт" илмий журнали №5

13. А.Худайназаров "Тизимли таҳлил асослари", Дарслик, Тошкент, 2016, 80-бет

14. [Семенов А.К.](#) [Набоков В.И.](#) Теория менеджмента. Учебник. Дашков и К. 2020



MAMLAKATDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI SALOMATLIK DARAJASI TAHLILI

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: guliranoruzmetova19@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 18

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.912>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

inson kapitali, sog'liqni saqlash, YaIM, aholi jon boshiga daromadlar, aholi jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot mamlakatda aholi salomatligi va inson kapitali rivojlanishi o'rtasidagi muhim munosabatlarni o'rganadi va aholining sog'lig'i holati inson kapitalining umumiy rivojlanishiga, ta'lim, ko'nikmalar, samaradorlik va iqtisodiy farovonlikka qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Analiz va sintez, qiyosiy tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi aholisining umir ko'rish davomiyligi, aholiga nisbatan 1000 ta tug'ilgan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'lim darajasi, aholining jon boshiga YaIMga nisbatan sog'liqni saqlash xarajatlari tahlil qilindi. Ushbu tahlildan olingan tushunchalar siyosatchilar va manfaatdor tomonlarni inson kapitalini oshirish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun sog'liqni saqlash tizimlari va sog'liqni saqlash tadbirlariga sarmoya kiritish muhimligi haqida ma'lumot berishi mumkin.

Kirish. Ko'plab adabiyotlar aholi salomatligi va umumiy iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudlik borligini ko'rsatadi. Salomatlik mehnat unumdorligi, ta'lim va demografik tendensiyalarga bevosita ta'sir o'tkazadi va bu mamlakatning ishchi kuchi salohiyati va inson kapitali darajasini belgilaydi. Aholi salomatligi va farovonligini ta'minlash jahon amaliyotida bo'lgani kabi, mamlakatimizning ham milliy rivojlanish strategiyalarining markaziy elementi hisoblanadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda qonun ustuvorligi va inson kapitalini rivojlantirish, adolatli va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilash yo'nalishlarining keng ko'lamdagi islohotlari amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston strategiyasining maqsadi – yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to'liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o'sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag'rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo'yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz". Yangi O'zbekiston taraqqiyot Strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri bu aholini zamonaviy yuqori sifatlari tibbiy xizmat bilan ta'minlash hamda xalqimiz o'rtasida sog'lom hayot tarzini targ'ib qilishdir. Chunki, tibbiyot va tibbiy xizmatlarga aloqasi bo'lmagan inson o'zi yo'q hisobi. Shu boisdan yangi O'zbekistonni inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallashini ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirishning milliy modelini yaratish, inson kapitalining barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson kapitali indeksi (IKI) bugungi kunda tug'ilgan bolaning 18 yoshga to'lguniga qadar ega bo'lishi mumkin bo'lgan inson kapitali


miqdori hisoblanadi. IKI mehnatga layoqatli aholi sog'lig'ini saqlash va ta'lim sohasidagi joriy natijalarni yaxshilash keyingi yil mehnatga layoqatli aholi samaradorligini qanday oshirish mumkinligini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Bu indeksni o'lchash pirovardida o'ta qashshoqlikni yo'q qilishga va yanada inklyuziv jamiyatni yaratishga yordam beradi (Youth policy forum, 2021). Ushbu indeks inson taraqqiyoti indeksidan farqli ravishda, u yalpi milliy daromaddan foydalangan holda o'lchanadigan turmush darajasi kabi ko'rsatkichlardan mustasnodir. Inson taraqqiyoti indeksi kabi u 0 dan 1 gacha bo'lgan kompozitsion indeks bo'lib, 1 bugungi kunda tug'ilgan bolaning to'liq sog'lig'i va ta'lim salohiyatiga erishishi mumkinligini ko'rsatadi (Kraay Art, 2018).

Ushbu inson kapitali indeksi Jahon banki tomonidan ilk marotaba 2018-yilning oktabr oyida e'lon qilingan bo'lib, bunda 157 ta mamlakatning inson kapitali indeksini hisoblagan (Measuring Human Capital, 2018). Jahon banki ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, aynan inson kapitali davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi 30 % tafovutni belgilaydi.

Inson kapitali indeksi umumiy inson kapitali va uni belgilovchi asosiy omillar ayniqsa, ta'lim va sog'liqni saqlash, shuningdek ularni iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash uchun miqdoriy o'lchanadi va IKI quyidagi 3 ta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- Ta'lim (ta'lim davomiyligi va talimning sifati);
 - Salomatlik (omon qolish darajasi (yangi tug'ilgan bolaning yashash ehtimoli), maktab o'quvchilarining mehnat bozoriga mehnatga yaroqli sog'lom kadr sifatida chiqishi);
 - Bandlik;
- IKI ushbu uchta determinant 42 ta ko'rsatkichni qamrab olib, ulardan:
- Ta'lim – 12 tasini;
 - Sog'liqni saqlash – 14 tasini;
 - Ishchi kuchi va bandlik – 16 tasini;

Yuqoridagi ko'rsatkichlar ushbu sohalarida xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari asosida tuzilgan (1-rasm).



1-rasm. IKI ko'rsatkichlari yig'ish uchun xalqaro ma'lumot ba'zalari

Ushbu ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda boshqa ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlar ham qo'llaniladi.

Biz tadqiqotlarimizni inson kapitali indeksini o'lchashdagi asosiy komponentlardan biri bo'lmish **B** ustunga ya'ni salomatlik (omon qolish darajasi (yangi tug'ilgan bolaning yashash ehtimoli), maktab o'quvchilarining mehnat bozoriga mehnatga yaroqli sog'lom kadr sifatida chiqishi)ga qaratamiz.

Joriy yilning mart oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar o'limini baholash bo'yicha idoralararo guruhi (UN IGME, 2024) tomonidan e'lon qilingan so'nggi hisob-kitob ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda bolalarning 5 yoshga to'lmasdan vafot etish darajasi eng past ko'rsatkichni 4.9 millionni qayd etgan.

Mamlakatimizda so'nggi 20 yil ichida sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari ancha yaxshilandi. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida

to'yib ovqatlanmaslik tufayli o'sishning sekinlashishi ko'rsatkichi 2000-yilda 29,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda mazkur ko'rsatkich 7 %ga kamaydi (YUNISEF 2024).

Shuni aytishimiz mumkinki, hisobot ko'rsatkichlariga ko'ra 2000 yildan buyon 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'lim darajasi 51 %ga kamaygan. Bir nechta kam daromadli davlatlarda ushbu ko'rsatkichda yaxshi natijalarni ko'rsatishdi, masalan, Kambojja, Malavi, Mo'g'uliston va Ruanda mamlakatlari 2000 yildan beri 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'lim darajasi 75 %ga qisqarganini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab shundaki, bolalar salomatligi va farovonligi uchun zaruriy resurslarning to'g'ri taqsimlanganligidir (UN report, 2024). 4,9 million o'limning 46,9 %ni ya'ni 2,3 million o'lim hayotning birinchi oyida sodir bo'lgan, 53,1 % ya'ni 2,6 million bola esa 1 oydan 59 oygacha bo'lgan davrda vafot etgan. 2022 yildagi ma'lumotlar 5 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan o'smirlar orasidagi o'limlar 2,1 million bolaning o'limini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Inson kapitalining muhim tarkibiy qismi sog'liqni saqlash kapitalidir. Sog'liqni saqlash kapitali inson salomatligi va faoliyatini yaratish, saqlash va yaxshilashga yo'naltirilgan investitsiyalarga asoslanadi.

Inson kapitali konsepsiyasining shakllanishi o'tgan asrning 60-70-yillariga to'g'ri keladi va bu konsepsiya asoschilari T.Shults (T.Shults, 1961) va G.Bekker (G.Bekker, 1964)lar hisoblanadi.

Teodor Shults va Garri Bekkerlar fikriga ko'ra umumiy, kasbiy ta'lim, sog'liqni saqlash va shaxsning rivojlanishiga yo'naltirilgan turli ijtimoiy dasturlarga investitsiyalar yo'naltirish ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarga sarmoya kiritishdan samaradorliroqdir.

Samuel Preston birinchi bo'lib inson salomatligi va uning daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan va milliy daromad va umr ko'rish davomiyligi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik mavjudligi, shuningdek, sog'liqni saqlash qashshoqlikdan chiqish elementi ekanligini asoslab berdi.

Yana bir tadqiqotchi olim M.Grossman 1970-yillarda sog'liqni saqlashga qaratilgan investitsiyalarning rolini muayyan taqddiq qilib chiqdi. Olim shaxsning ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga qo'yilgan mablag'lar hisobidan kelajakdagi daromadlarini oshirishdan manfaatdor ekanini aniqladi. Grossman fikriga ko'ra, zamon shiddati tufayli sog'liqni saqlashga qaratilgan investitsiyalar boshqa tovar va xizmatlar iste'moli kabi muhim ahamiyat kasb etdi.

Abdelhafidh Dhrifi 1995-2012-yillar oralig'ida 93 ta mamlakat doirasida xususiy va davlat tomonidan ajratilgan investitsiyalarni sog'liqni saqlashga sarflangan xarajatlarning chaqaloqlar o'limiga ta'sirini o'rganib chiqdi. Uning xulosasiga ko'ra, bunday sarflangan xarajatlarning oshishi yuqori va o'rta daromadli mamlakatlarda bolalar o'limini kamaytiradi. Ammo past va o'rta daromadli davlatlarda


sog'liqni saqlashga sarflangan investitsiyalarning oshishi aholi o'limiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kam daromadli mamlakatlarning davlat tomonidan ajratilayotgan xarajatlari xususiy investitsiyalardan ko'ra ijobiy ta'sir ko'rsatadi, xususan, xususiy investitsiyalarning ta'siri rivojlangan yuqori daromadli mamlakatlarda ta'siri ko'proq.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu metodologiya qismi bo'yicha nozik tushunchani ta'minlash uchun ham miqdoriy, ham sifat usullarini o'z ichiga olgan holda, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish kontekstida aholi salomatligi darajasini tahlil qilish uchun kompleks yondashuvni belgilaydi va ushbu tadqiqotda mamlakatda aholi salomatligi va inson kapitali rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni har tomonlama o'rganish uchun analiz va sintez, qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy, monografik, ekspert va sifat tahlilini birlashtirgan aralash usulli yondashuvni qo'llanildi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, chaqaloqlar o'limi darajasi, onalar o'limi darajasi, kasalliklarning tarqalishi, tibbiy yordam va emlash bilan bog'liq ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar milliy statistika idoralari kabi ishonchli manba'dan topiladi.

Tadqiqot natijalari. Ma'lumki mamlakatimizda inson kapitaliga e'tibor yildan-yilga ortmoqda. Xususan, inson kapitalining asosiy komponentlaridan biri bo'lgan salomatlik alohida diqqat markazida desak mubolag'a bo'lmaydi. Aholining salomatligi uning iqtisodiy salohiyatida alohida o'rin tutadi. Davlatning turli sanoat texnologiyalariga ajratayotgan xarajatlardan ko'ra, aholi salomatligi uchun sarflayotgan xarajatlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolida ahamiyatlidir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi uy xo'jaliklari va sog'liqni saqlash xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik, tabiatni muhofaza qilish va uy xo'jaliklari xarajatlarini oshirish respublikada tug'ilishdan boshlab umr ko'rish darajasini uzayishini, aholi jon boshiga 1000 tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limini kamaytirishini ko'rsatadi. Biroq, ushbu omillarning hech birisini yetarli deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ushbu munosabatlar, xususan, sog'liqni saqlash va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy xo'jaliklari xarajatlarining o'sishi barcha mamlakatlarda bir xil rol o'ynamaydi.

Shuni qayd etishimiz kerakki, so'nggi yillarda O'zbekistonda tug'ilgan har 1000 bolaga nisbatan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar soni keskin kamaydi (YUNISEF, 2024), shuningdek, bugungi jahon ko'rsatkichidan ancha past. Buning asosiy sabablari hukumatning byudjet hisobidan ijtimoiy sohalarga ajratayotgan xarajatlari ulushining ortishi, jumladan, sog'liqni saqlash tizimiga e'tibor ortganligi, aholi daromadlarining o'sishi va albatta aholi jon boshiga YaIMning o'sishidir.




2 – rasm. O'zbekiston Respublikasida YaIM bo'yicha aholi jon boshiga daromadlar (AQSh dollarida) [8].

Mamlakatimizda 2022-yilda aholi jon boshiga hisoblaganda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 2255,2 AQSh dollarini tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilda aholi jon boshiga YaIM hajmining real o'sishi 2021-yilga nisbatan 3,5 % 2018-yilga nisbatan esa 13,4 % bo'lgan (2-rasm).

Yuqoridagi 2-rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, aholi jon boshiga hisoblanganda yalpi ichki mahsulot hajmi 2015-yilda eng cho'qqi (2754 dollar) o'sish nuqtasiga yetgan. 2018-yilda keskin pasayish (1604,3 dollar) kuzatilgan bo'lib, bu davr COVID-19

pandemiya davrigacha davom qilgan. Ko'rishimiz mumkinki, 2022-yilda yana (2255,2 dollar) o'sish sur'atiga ega bo'ldi.


Xususan, O'zbekistonda YaIMga nisbatan aholi jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-yilda 4,74% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda mazkur ko'rsatkich 6,75% ga teng bo'lgan (3-rasm). 2015-2020 yillarda mazkur ko'rsatkich o'rtacha 5,26% ga teng bo'lib, 2019-2020-yillarda o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori, qolgan yillarda esa o'rtacha ko'rsatkichdan past qiymatni tashkil etgan[9].



3 – rasm. 2015-2020-yillarda O‘zbekistonda aholi jon boshiga sog‘liqni saqlash xarajatlari [9].

Mamlakatimizda 5 yoshga to‘lmasdan o‘lim ko‘rsatkichi har 1000 nafar bolaga nisbatan o‘lim ko‘rsatkichi 2022-yilda 2000-yilga qaraganda nisbatan 10 % ga kamaydi. 4-rasm ma‘lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda har 1000 bolaga nisbatan 5 yoshgacha bolalar o‘limi 15,1 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017-yilda 15,4 nafar bola o‘limini qayd


etgan. 2019-2020-yillar (COVID-19 pandemiyasi) davrida mos ravishda 12,4 va 12,1 nafarni tashkil qiladi. 2022-yilda 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi 11,4 nafarni tashkil qilib, kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda[10].



4 – rasm. Har 1000 bolaga nisbatan 5 yoshgacha bolalar o‘limi koeffitsienti [10]

Respublikamizda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 2016-yilga nisbatan 2019-yilda 1,3 yilga uzaygan bo‘lsa, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida umr ko‘rish davomiyligi keskin 1,7 yilga qisqargan. Pandemiyadan keyin 2022-yilga kelib o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 0,8 yilga uzayganini ko‘rishimiz mumkin (5-rasm).

Tug‘ilishning umumiy koeffitsienti har bir ayolga nisbatan 3,3 nafar bola tug‘ilishini tashkil qilmoqda. Tug‘uruqqacha bo‘lgan davrda parvarish vaqtida ayollarning 90 %i kamida 4 marta, 98 %i esa kamida 2 marta malakali tibbiy xodim tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilgan. Tug‘ruqlarning 99 %i davlat tibbiy muassasalarida, malakali tibbiy xodimlar ishtirokida amalga oshirilgan [10]



5 – rasm. Tug‘ilishda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi[10]

Aholi salomatligining mustahkamligi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi omildir. Aholini immunizatsiya qilish ya'ni silga qarshi, poliomiyeletiga qarshi, virusli gepatit B ga qarshi, qoqsholga qarshi, qizamiqqa qarshi emlash aholi umr ko'rish ko'rsatkichini oshirishda yordam berdi. Mamlakatimizda 2016-2022-yillarda aholini immunizatsiya qilish jarayonlari o'rtacha 99,6 % ni tashkil qildi[10].

Joriy yil barcha ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda bolalar bo'limlari tashkil qilinib, faoliyat yuritayotgan 15 mingdan ortiq tibbiy brigadalarga qo'shimcha 8,5 ming shtat bolalar hamshirasi va doya o'rinlari berildi. 2022-yil 1-iyuldan boshlab 3-15 yoshli bolalarga yod pereparatlari davlat tomonidan bepul tarqatila boshlandi[11].

Xulosa. Mazkur tadqiqot ishimizda amalga oshirilgan tahlillarimiz quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Jumladan:

Bilamizki, inson kapitali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyatini belgilaydigan asosiy kuchdir. Uning ta'limi, sog'ligi, malakasi mamlakat ravnaqida muhim rol o'ynaydi. Inson kapitalining muhim elementlaridan biri bo'lgan B ustun "Salomatlik"ga bo'lgan e'tibor butun bir millatning kelajakdagi samarali va sog'lom kadr bo'lib yetishishida yetakchidir. Xususan, O'zbekiston keying yillarda sog'liqni saqlash sohasida tub islohotlar amalga oshirib kelmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Strategiyasining yetakchi yo'nalishlaridan biri sog'liqni saqlash tizimiga qaratilganligi so'zimiz isbotidir.

Aholi jon boshiga real va umumiy daromadlar ham muhim ijtimoiy omil sifatida qarab chiqildi. Buning uchun asosiy sababni keltirib

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Aart Kraay The world bank human capital index: a guide. 2019. Published by Oxford University Press on behalf of the International Bank for Reconstruction and Development / THE WORLD BANK. All rights reserved. For permissions, please e-mail: journals.permissions@oup.com doi: 10.1093/wbro/lkz001
3. Schultz, Theodor W. Investment in human capital: the role of education and research. – N.Y., 1971.
4. Bekert. Investment in human capital: the role of education and research. – N.Y. G. S. Investment in Human Capital:A. Theoretical Analysis. // Journal of Political Economy. Supplement. Oct., 1962
5. Preston, Samuel H. "The Changing Relation between Mortality and Level of Economic Development." Population Studies, vol. 29, no. 2, 1975, pp. 231–48. JSTOR, <https://doi.org/10.2307/2173509>. Accessed 29 Mar. 2024.
6. Grossman, Michael. "On the Concept of Health Capital and the Demand for Health." Journal of Political Economy, vol. 80, no. 2, 1972, pp. 223–55. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/1830580>. Accessed 2 Apr. 2024.
7. Dhifri A. Health-care expenditures, economic growth and infant mortality: Evidence from developed and developing countries [CEPAL review](https://doi.org/10.18356/02c1a26c-en) 125(December 2018):69-92 December 2018 DOI: [10.18356/02c1a26c-en](https://doi.org/10.18356/02c1a26c-en)

o'tishimiz mumkin, aholi daromadlarini oshishi ularning tibbiy me'yorlarga rioya qilish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Ma'lumki, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sishi uning real va umumiy daromadlariga bevosita ta'sir qiladi, shuningdek, tadqiqotimiz tahlillariga qaraydigan bo'lsak, 2022-yilda aholi jon boshiga YaIM hajmining real o'sishi 2021-yilga nisbatan 3,5 % 2018-yilga nisbatan esa 13,4 % bo'lgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra aholi jon boshiga YaIMga nisbatan sog'liqni saqlash xarajatlari 2015-yilga nisbatan 2022-yilda 2,01% ga ortgan.

O'zbekistonda 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining oldini olish sezilarli muvaffaqiyatga erishilgan bo'lsada, rasmiy ma'lumotlar 5 yoshgacha to'lmasdan vafot etgan bolalar o'limining 57%i hayotning dastlabki 28 kunida sodir bo'layotganini ko'rsatmoqda. Ushbu muammoning oldini olish uchun nafaqat ona va bolaning sog'lig'iga e'tibor qaratish lozim, balki ularga g'amxo'rlik qilish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ham inobatga olish kerak.

Ma'lumki, respublikamizda aholini immunizatsiya qilish jarayonlari 2016-2022-yillarda o'rtacha 99,6 % ni tashkil qildi. Bundan ko'rinadiki, aholi tibbiy xizmatlarga bo'lgan munosabati tubdan ortib bormoqda, ma'lumki, ayrim mamlakatimiz aholisi tibbiy xizmatlaridan ko'ra o'zini-o'zi davolashni avval ko'rishgan. Yuqoridagi natijalarga tayanadigan bo'lsak bugungi kunda aholimizning tibbiy savodxonligi ortmoqda.

8. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD?locations=UZ>

9. <https://data.worldbank.org/indicator/SH.XPD.CHEX.GD.ZS?locations=UZ>

10. O'zbekistonda sog'liqni saqlash statistik to'plam Toshkent-2023

11. Salayev S.K., Raximova S.M. Tibbiy xizmatlar bozori rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya Urganch-2024. 53b.

12. Ruzmetova G.A. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalini tadqiq qilishdagi yondashuvlar. Toshkent iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot va ta'lim jurnali 2023-yil 6-son 329-335 betlar https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a52

13. Ruzmetova G.A. Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil 1-son. 612-619 bet. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

14. Sherov A.B., Ruzmetova G.A. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 264-270.

15. Sherov A.B., Ruzmetova G.A. Oliy talim muassasalarini moliyalashtirish modellari//International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2022. – C. 170-174.



ASSESSMENT OF THE SOCIO-ENTREPRENEURIAL ENVIRONMENT FOR THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Saidov Shohruh Mirzo

Doctoral student of Kokand University

+99894 444 99 09

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 19

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.913>

KALIT SO‘ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Socio-entrepreneurship, Higher Education Institutions (HEIs), Social Innovation, Social Change, Student Ventures, Curriculum Development.

ANNOTATION

Establishing a socio-entrepreneurial approach and combining social innovation with traditional academic pursuits is something that higher education institutions (HEIs) are moving toward more and more. This article examines how HEIs can promote constructive social change by giving graduates the knowledge and perspective needed to deal with societal issues. The benefits of a socio-entrepreneurial approach are examined in the literature review, which includes promoting inclusive education, helping graduates develop their social and entrepreneurial skills, and supporting social enterprise endeavors. Important elements for creating a strong socio-entrepreneurial ecosystem in higher education institutions (HEIs) are highlighted, including creating innovative curricula, encouraging cooperation with outside partners, and creating welcoming environments for student businesses. The article's conclusion highlights the difficulties and possibilities posed by this strategy and underlines the necessity of more study to maximize the influence of socio-entrepreneurial HEIs.

Introduction. The socio-entrepreneurial environment plays a critical role in the development and sustainable development of higher education institutions. There are a lot of variables that affect the capacity of institutions to encourage entrepreneurship, creativity, and social change in this environment. With globalization and technological advancements reshaping the educational landscape, higher education institutions are under increasing pressure to adapt and evolve. There is a shift from traditional academic models to those that prioritize social impact, innovation, and entrepreneurship in higher education. In the past, higher education has been viewed as a path to personal and professional growth, with institutions primarily focusing on educating and investigating. There is a growing recognition that HEIs need to take a more active role in addressing societal challenges as they become more complex. A shift towards a model that encourages entrepreneurial thinking, social innovation, and community engagement is required. Social entrepreneurs who can tackle real-world problems are fostering a broader societal impact by benefiting students and faculty. Several key factors influence the socio-entrepreneurial environment in which HEIs operate. The resources available for entrepreneurial activities are shaped by economic conditions. A robust economy can lead to increased funding and investment in education and innovation, while an economic downturn can result in budget cuts and reduced opportunities. A robust economy can also lead to increased funding and investment in education and innovation. Social and cultural factors also contribute to the environment, influencing attitudes toward entrepreneurship and the perceived value of social impact initiatives. In cultures where entrepreneurship is encouraged and valued, higher education institutions are more likely to develop programs and initiatives that support these activities.

Complex issues include social inequality and environmental degradation. Higher education establishments are in a unique position to offer solutions because of their research capabilities and intellectual capital. Socio-entrepreneurial settings encourage social innovation, which in turn promotes the creation of novel solutions.

The labor market demands graduates who possess social responsibility and entrepreneurial skills. Graduates are equipped by a socio-entrepreneurial environment to prosper in a world that is changing quickly.

HEIs can generate a cascade of effects by promoting social enterprise. Innovative solutions to regional and global problems can be developed through faculty research and student-led social initiatives.

An examination of the fundamental elements of a socio-entrepreneurial environment reveals the prospects and obstacles that higher education institutions encounter when fostering social innovation.

Research objectives and inquiries:

- Investigating the idea of and essential elements of a socio-entrepreneurial environment in HEIs. Among the topics covered are partnerships with outside stakeholders, funding sources, curriculum development, and faculty support.

- Examine the benefits and pitfalls of encouraging an entrepreneurial atmosphere. This includes the effect on students, HEIs, and the community at large.

This investigation is being guided by these queries.

What elements are essential to a university's socio-entrepreneurial environment?

What steps can be taken to foster an environment that is conducive to socio-entrepreneurship and social innovation?

Promoting a socio-entrepreneurial atmosphere in Higher Education Institutions (HEIs) has both advantages and disadvantages.

How can a university's socio-entrepreneurial atmosphere help shape the next generation of people who are prepared to take on societal challenges?

By addressing these issues, this paper seeks to give universities useful insights for fostering a more encouraging environment for social innovation and to give students the abilities and frame of mind needed to become change agents.

Policy and regulatory frameworks are also critical components of the socio-entrepreneurial environment. Government policies can promote or hinder entrepreneurial activities within HEIs, depending on whether they promote or hinder entrepreneurial activities. Policies that encourage collaboration between academic institutions and business, for instance, can increase chances for ingenuity and venture capital. Restrictive regulations can also limit the ability of institutions to engage in entrepreneurial activities. HEIs must navigate these frameworks to create a conducive environment for development because the role of government in shaping the socio-entrepreneurial environment is crucial. The societal and entrepreneurial landscape is also being transformed by technology and digitalization. The rise of digital platforms and online learning has opened new possibilities for universities to engage with a global audience and foster innovation. Virtual incubators, accelerators and collaborative networks can be created to support entrepreneurial activities. A broader range of individuals can participate in entrepreneurial ventures by democratizing access to education and resources.

Despite these positive trends, there are still significant challenges that HEIs face in developing a robust socio-entrepreneurial environment. The resistance to change within academic institutions is one of the primary obstacles. The adoption of entrepreneurial practices can be hindered by institutional inertia and traditional academic models. Furthermore, there is often a lack of awareness or appreciation for the significance of social enterprise, limiting the assistance offered by academic and administrative bodies.

There is a resource gap within many HEIs. It may be difficult for smaller or less affluent institutions to find the necessary funding to invest in entrepreneurial programs. The ability of HEIs to foster entrepreneurship can be affected by this, creating an uneven playing field. It is critical to address this resource gap to ensure that all institutions have the opportunity to develop a thriving socio-entrepreneurial environment. The socio-entrepreneurial context for the

growth of higher learning institutions is, in summation, a complex and diverse landscape. The ability of HEIs to foster entrepreneurship and innovation is influenced by economic, social, cultural, and policy factors. There are plenty of chances to grow and develop, but there are also a lot of hurdles to overcome in order for HEIs to really make a difference in shaping society. These factors will be explored in greater detail in the subsequent sections of this paper, offering insights into the strategies and tactics that can foster a vibrant socio-entrepreneurial environment within higher education.

Literature review. Higher education is changing dramatically, with more focus being placed on universities' contributions to social good in addition to academic excellence (Tovkanets, 2020). This pattern aligns with the growth of the field of socio-entrepreneurship, which combines entrepreneurial innovation and social problem-solving (Ikwaye, 2019). The idea of socio-entrepreneurial higher education institutions (HEIs) is explored in this literature review, along with how they might be able to support constructive social change.

In recent years, the idea of the "entrepreneurial university" has become increasingly popular (Yildiz, 2021). According to Novella et al. (2020), this model highlights the role that universities play in promoting innovation, technology transfer, and research commercialization. Myzrova et al.'s (2023) and Helman's (2020) studies demonstrate how university-based entrepreneurial ecosystems can positively influence regional innovation activity. But historically, the emphasis has been on economic growth (Gryshchenko & Yatsenko, 2020). By incorporating social impact in addition to economic considerations, the socio-entrepreneurial approach broadens the scope of the entrepreneurial university (Barkov et al., 2018). This is in line with requests that academic institutions take a more proactive approach to solving societal issues and advancing the Sustainable Development Goals (SDGs) (Tomasella et al., 2022). According to Igropulo et al. (2012), universities have a critical role to play in fostering social entrepreneurship and providing graduates with the knowledge and perspective needed to address social issues.

The possible advantages of a socio-entrepreneurial approach within HEIs have been reported in a number of studies. Using inclusive education as an example, Gryshchenko & Yatsenko (2020) show how academic institutions can create social initiatives that tackle educational disparities. According to Liventsova et al. (2016), social and entrepreneurial skill development should be incorporated into technical and engineering programs to produce graduates who can come up with creative solutions for social problems in their fields. This is consistent with research by Bazan et al. (2020), which emphasizes the beneficial impact of a welcoming campus community on students' aspirations to pursue social entrepreneurship.

According to the literature, HEIs can develop a strong socio-entrepreneurial ecosystem by incorporating a number of essential elements. Kazin and colleagues (2017) underscore the significance of innovative curricula that incorporate social entrepreneurship principles and case studies from various academic fields. The use of integrated learning plans, which integrate academic knowledge with practical experience in social ventures operating within the cultural space, is suggested by Rahmatullah et al. (2022). Additionally, Roliak et al. (2022) emphasize the value of cross-border cooperation in promoting creative responses to global problems and contend that academic institutions can be essential in promoting this kind of cooperation.

Shu bilan birga, korxonaning innovatsion salohiyatini rivojlantirish, ishlab chiqarilgan yoki chiqarilishi rejalashtirilgan innovatsion mahsulotlar bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvni amalga qo'llash sanoat korxonalarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Umumiy tarzda, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida strategiya va innovatsiya bir-biridan ajralmas qismlar sanaladi. Har bir strategik rejada xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha vazifalar (yangi boshqaruv usullari, yangi bozorlarni o'zlashtirish, texnologik jarayonlar, mahsulot innovatsiyalari va resurslari) belgilanishi lozim. Strategik va innovatsion boshqaruv integratsiyasida bozorda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili doimiy innovatsiyalardir.

Innovatsion rivojlanish nafaqat funksional soha yoki vazifa emas, balki tashkilotlarning eng muhim strategik maqsadi bo'lishi kerak va innovatsion rivojlanishni strategik boshqarish istiqbolli yo'nalishga aylanishi va beqaror tashqi muhitda tadbirkorlik subyektlarining xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

3. Моделирование динамики распределения предприятий отрасли по уровням эффективности (на примере черной металлургии) / Л.М. Гельман, М.И. Левин, В.М. Полтерович, В.А. Спивак // Экономика и математические методы. – 1993. – №3. – Том 29. – С. 460-469.

⁹ Моделирование динамики распределения предприятий отрасли по уровням эффективности (на примере черной металлургии) / Л.М. Гельман, М.И. Левин, В.М. Полтерович, В.А. Спивак // Экономика и математические методы. – 1993. – №3. – Том 29. – С. 460-469.

¹⁰ Muallif ishlanmasi

4. *Abduvakhidovna, Y. N. (2022). Directions for the Effective Use of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises. Open Access Repository, 8(6), 125-129.*

5. *Yuldasheva, N. (2022). Features of the process of forming innovative strategy under conditions of modern realities. Academic research in modern science, 1(9), 310-312.*

6. *Юлдашева, Н. (2022). Корхоналарда инновацион ривожланиш стратегиясини бошқариш хусусиятлари. Экономика и образование, 23(2), 129-135.*

7. *Юлдашева, Н. А. (2022). Научно-теоретические аспекты разработки инновационных стратегий в управлении*

промышленными предприятиями. Бюллетень науки и практики, 8(5), 457-461.

8. *Abduvakhidovna, Y. N. (2023). Factors influencing the implementation of the innovation strategy at industrial enterprises. World Bulletin of Management and Law, 19, 5-11*

9. *Медынский, В. Г. Инновационный менеджмент / В. Г. Медынский. – Москва : ИНФРА-М, 2007. – 295 с*

10. *Янченко, Е. В. Современные реалии инновационного развития и его инвестиционное обеспечение / Е. В. Янченко // Экономика и управление. – 2010. – № 4. – С. 92–96.*



O'ZBEKISTON JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHINING MAMLAKAT FOND BOZORIGA TA'SIRI

Yuldasheva Nilufarxon A'zamjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

nilufar.9121@gmail.com

Nusratullayev Burxonjon Baxromjon o'g'li

Qo'qon Universiteti Moliya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

E-mail: burxonjon505@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 27

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.921>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

savdoni liberallashtirish, iqtisodiy o'sish, xorijiy investitsiyalar, bozor integratsiyasi, siyosat islohotlari.

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishining uning fond bozoriga ta'sirini o'rganadi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv yo'lidagi muhim qadam bo'lib, uning iqtisodiyotining turli tarmoqlariga, jumladan, fond bozoriga ham ta'sir ko'rsatadi. Sifat va miqdoriy metodologiyalarning kombinatsiyasidan foydalangan holda, ushbu tadqiqot O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lganidan keyin fond bozoriga kutilayotgan ta'sirlarni tahlil qilishga qaratilgan. Savdo siyosatidagi o'zgarishlar, bozor qoidalarini, investorlarning kayfiyati va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kabi omillar ularning fond bozori faoliyatiga ta'sirini baholash uchun tekshiriladi. JSTga a'zolik va O'zbekiston fond bozori o'rtasidagi munosabatlar haqida tushuncha berish orqali ushbu tadqiqot mamlakatning iqtisodiy dinamikasini tushunishga hissa qo'shish va investorlar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishga intiladi.

Kirish. O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish xorij investitsiyalarini jalb qiluvchi yanada ochiq va shaffof iqtisodiyotni ko'rsatadi. Kapitalning bu oqimi o'zbek kompaniyalari aksiyalari narxini oshiradi. JST savdo to'siqlarini qisqartiradi, bu xorijiy kompaniyalarga O'zbekiston bozoriga kirishni osonlashtiradi. Ushbu kuchaygan raqobat ba'zi O'zbekiston kompaniyalariga bosim o'tkazishi mumkin, bu esa qisqa muddatda aksiyalar narxining pasayishiga olib keladi. Biroq, uzoq muddatda raqobat innovatsiyalar va samaradorlikni keltirib chiqaradi, natijada muvaffaqiyatli O'zbekiston kompaniyalari va ularning aksiyalari narxlarini foyda keltiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga JSTga a'zo bo'lish turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi vaqtda savdo to'siqlari bilan himoyalangan tarmoqlardagi kompaniyalar raqobat kuchayganligi sababli o'z aksiyalari narxini pasaytiradi. Aksincha, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlardagi kompaniyalar tashqi bozorlarga chiqishni osonlashtirib, o'z aksiyalari narxini oshiradi. JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston fond bozorining yanada diversifikatsiyalangan va mustahkam bo'lishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyotning jahon bozori bilan yanada integratsiyalashgani sari kengroq sarmoyadorlarni jalb qiluvchi va fond bozorida uzoq muddatli o'sishga olib keladigan yangi investitsiya imkoniyatlari paydo bo'ladi. Fond bozoriga aniq ta'sirni oldindan aytish qiyin. Bu O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish muammolari va imkoniyatlarini qay darajada samarali boshqarishiga bog'liq bo'ladi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni va uning muayyan tarmoqlarga ta'siri haqidagi yangiliklar va tahlillarni diqqat bilan kuzatib, investorlar O'zbekiston fond bozori haqida asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. O'zbekiston iqtisodiyoti va uning fond bozori kelajagi bilan qiziqqan har bir kishi uchun juda dolzarbdir.

Ushbu savollarni ko'rib chiqish orqali mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining kengroq iqtisodiy oqibatlarini va uning mamlakat moliya bozorlari, iqtisodiy o'sishi va umumiy rivojlanish traektoriyasiga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin. O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiy yo'nalishida muhim bosqich bo'ladi. O'zbekiston JSTga qo'shilishi orqali jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq integratsiyalashib borayotgan bir paytda, uning ichki fond bozoriga potentsial ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining mamlakat fond bozoriga ta'sirini o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan.

JSTga a'zolik iqtisodiyotning turli tarmoqlariga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan savdoni liberallashtirish majburiyatini nazarda tutadi. O'zbekiston o'z bozorlarini xalqaro savdo uchun ochar ekan va JST standartlariga moslashish siyosatini qabul qilgan ekan, ichki fond bozorining ishlashi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. JSTga a'zo bo'lish natijasida tartibga solinadigan qoidalar, savdo tartibi, xorijiy investitsiyalar oqimi va umumiy iqtisodiy o'sish investorlarning kayfiyatiga, bozor bahosiga va O'zbekiston fond birjasidagi savdo faolligiga ta'sir qiladi. JSTga a'zolikning O'zbekiston fond bozoriga ta'sirini tushunish sarmoyadorlar, siyosatchilar va mamlakatning

rivojlanayotgan iqtisodiy holatini boshqarishga intilayotgan manfaatdor tomonlar uchun juda muhimdir. Asosiy ko'rsatkichlar, tendensiyalar va empirik dalillarni o'rganish orqali ushbu tadqiqot O'zbekistonning JST orqali jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi va uning ichki fond bozorining xatti-harakatlari o'rtasidagi munosabatlarni yoritishga qaratilgan. Ushbu sohani yanada rivojlantirish to'g'risida ham Prezident qarorlari keltirilgan bo'lib unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.06.2023 yildagi PQ-181-son.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlilida mavzu bo'yicha nazariy adabiyotlarni tahlil qilish asosida xorijiy olim va tadqiqotchilarning fikrlari, ishlari va xulosalarini ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqot doirasida bir necha olimlar o'z fikrlarini yuritishgan. Jumladan, A.K.Rose Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikning xalqaro savdoga ta'sirini miqdoriy tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT). Mamlakatlar, sektorlar va vaqt bo'yicha ma'lumotlarning noto'g'ri birlashtirilishi; noto'g'ri ekonometrik usullar, ayniqsa qat'iy ta'sirlar bilan bog'liq; va tanlov tarafdorligi, chunki GATT/JSTga a'zolik juftlik mamlakatlarni savdo qilishga undashi mumkin.

K.G.Sena 2023 JSTga a'zolik muddatining tovar belgilariga ta'siri savdo xarajatlari orqali tovar belgilariga murojaat qilishga ta'sir qiladi. Ayniqsa, JSTga a'zolik muddati kam rivojlangan a'zolarida tovar belgisiga ariza berish bilan ijobiy bog'liq, ammo nisbatan rivojlangan a'zolarida tovar belgisiga ariza berish bilan salbiy bog'liqlik mavjud. JST a'zolarida tovar belgilariga nisbatan patentlarning ko'proq taqdim etilishiga sabab bo'lishini aks ettiradi, shu bilan birga nisbatan kam rivojlangan mamlakatlardagi patentlarga nisbatan tovar belgilarining ko'proq taqdim etilishini keltirib chiqaradi.

R.J.Patel 2019 Moliyaviy inqirozdan keyin fond bozorlari xalqaro savdoning o'sishiga ko'proq integratsiyalashganligi qiziq edi. Faktor tahlili shuni ko'rsatdiki, moliyaviy inqirozdan oldin NASDAQ Shanxay fond birjasi kompozit indeksiga (SSE) nisbatan Bombay fond birjasi indeksiga (BSE) yaqinroq edi. Biroq, moliyaviy inqirozdan so'ng, SSE NADAQ bilan solishtirganda BSEga yaqinroq. Bunday natijaga sabab moliyaviy inqirozdan keyin Xitoy bilan savdo hajmining ortishidir. Investorlar turli xil qimmatli qog'ozlarning moliyaviy risklarining o'zgaruvchan darajalarini hisobga olgan holda qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiya portfelini loyihalashlari mumkin. Transmilliy korporatsiyalar (MNC) uchun siyosat qarorlarini qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqola Hindistonning faqat sakkizta yirik savdo shirkatlariga qaratilganligi bilan cheklangan.

P.L.Ch va M.J.Lee (2011) Tegishli hisob-kitoblarni shuni ko'rsatadiki, GATT/JST savdo ta'siri a'zolikning dastlabki bosqichlarida ahamiyatsiz bo'lib, GATT/JSTga qo'shilganidan keyin besh yoki olti yil o'tgach statistik va iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo'ladi. Tahlilni yakunlash uchun a'zo bo'lishdan oldin bir-biriga mos keladigan davrlarning savdo oqimlarining vaqt tendensiyalari bir xilligini tekshirildi, farqlarni baholash a'zolar o'rtasidagi vaqt

tendensiyalarida tizimli farqlarni keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xavotirlarni rad etamiz va kuzatilmaydigan narsalar tufayli a'zo bo'lmagan davrlar nazorat qilinmaydi.

T.V.Hoa (2010) Tarixiy savdo va o'sish ma'lumotlari va ilg'or hisob-kitoblardan foydalangan holda, model Xitoyning savdo-iqtisodiy faoliyati, JSTga a'zoli, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, milliy, mintaqaviy va global zarbalar va bosqichma-bosqich siyosat ishlohotlarining Xitoy savdosi, o'sishi va rivojlanishiga ta'siri haqida muhim dalillarni taqdim etadi. va iqtisodiy munosabatlar. Bundan tashqari, savdo-sotiq, rivojlanish va hamkorlikka oid asosiy strategik masalalar ham muhokama qilindi.

J.L.Goldstein, D.Rivers va M.Tomz (2007) Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) xalqaro institutlarning asosiy namunalarini sifatida e'tirof etilgan, ammo kam sonli tadqiqotlar empirik dalillarni taqdim etgan. Ushbu maqola GATT/JST va Ikkinchi jahon urushidan keyingi boshqa savdo bitimlarining oqibatlarini har tomonlama baholaydi. Bizning tahlilimiz ikki omil atrofida tashkil etilgan: institutsional mavqe va institutsional o'rnatilganlik. Biz ko'pgina mamlakatlar shartnomaning rasmiy a'zosi bo'lmasa ham, GATT/JSTda huquq va majburiyatlarga yoki institutsional mavqega ega ekanligini ko'rsatamiz. Shuningdek, biz tahlilni GATT/JSTga kiritilgan bir qator boshqa tijorat shartnomalarini ham qamrab olish uchun kengaytirilgan.

S.K.Gnangnon (2023) Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh Bitimga (GATT) va/yoki Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish muddatining (shunchaki GATT/JSTga a'zo bo'lish emas) ta'sirini ko'rib chiqdi. fuqarolarning farovonligi mezoni sifatida qaraladigan inson taraqqiyoti. Bizning taxminimizcha, iqtisodiy o'sishning o'zgaruvchanligini kamaytirish orqali a'zolik muddati inson rivojlanishiga yordam beradi. Tahlil 1990 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda 148 ta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning panel ma'lumotlar to'plamiga tayandi va nazariy farazni qo'llab-quvvatladi. Qizig'i shundaki, a'zolik muddati har doim mamlakatlarning iqtisodiy o'sish o'zgaruvchanligi darajasidan qat'iy nazar, inson rivojlanishining yuqori o'sishi bilan bog'liq. Biroq, iqtisodiy o'sishning o'zgaruvchanligi qanchalik past bo'lsa, a'zolik davomiyligi inson taraqqiyotining o'sishiga ijobiy ta'siri shunchalik katta bo'ladi.

Terrie L. Walmsley, Thomas W. Hertel, Elena Ianchovichina (2006) Xitoyning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi bilan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yana bir bor kuchaydi. JSTga a'zo bo'lish va Xitoyga investitsiyalar o'rnatidagi bog'liqlikni o'rganadi. Biz investitsiyalar va kapital zaxiralari sezilarli darajada oshganini aniqlaymiz. Bundan tashqari, 2020-yilga kelib Xitoy aktivlariga xorijiy egalik qilish ikki barobar ortadi. Bu o'sishning markazida ishlohotlar natijasida xizmat ko'rsatish sohalari unumdorligi oshishi kutilmoqda.

T.F.Rutherford va D.G.Tarr (2008) tadqiqotlarida ko'ra Xorijiy investorlarning ishbilarmonlik xizmatlari sohalaridagi (lekin tovarlar emas) huquqlari umuman JST muzokaralarining hal qiluvchi jihatlari ekanligi va xususan, Rossiyada bu model nomukammal raqobatbardosh biznes xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'z ichiga olganligi sababli Dixit-Stiglitz tizimini biznes xizmatlarida ham, nomukammal raqobatbardosh tovarlar sektorida ham qabul qilingan, biz ushbu xususiyatlar taqsimot va umumiy natijalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiya shakllanirishda bir necha usullardan foydalanilgan. Dastlab ikkilamchi ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan. Jumladan, tadqiqotda SWOT tahlil, statistik tahlil va taqqoslama tahlil usulidan foydalanildi. Dastlab tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Jahon bankining rasmiy veb sahifasi worldbank.org dan va O'zbekiston Respublikasining Fond bozorlari uzse.uz rasmiy portalidan oldik. Ushbu statistik ma'lumotlar jadvallar, sxemalar va turli xil diagrammalardan iborat bo'lib tadqiqotning maqsad va vazifalariga erishishga yordam beradi.

SWOT tahlili tashkilotning, tashabbuslarning yoki uning sanoatining kuchli va zaif tomonlarini real faktarga asoslangan, ma'lumotlarga asoslangan ko'rib chiqishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Tashkilot oldindan o'ylab topilgan tuzilmalardan yoki chalg'ituvchi joylardan qochib, haqiqiy hayot kontekstlariga e'tibor qaratis orqali tahlilni aniq saqlaydi. Kompaniyalar ushbu tahlil usulini tayyor namuna sifatida emas, balki qo'llanma sifatida ishlatishadi.

SWOT tahlili strategik rejalashtirish usuli bo'lib, baholash vositalarini taqdim etadi.

Asosiy kuchli, zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash faktarga asoslangan tahlil, yangi istiqbollar va yangi g'oyalarga olib keladi.

SWOT tahlili ma'lumotlarning ichki manbalarini (aniq kompaniyaning zaif tomonlari) va qarorlarga (imkoniyatlar va tahdidlar) nazorat qilib bo'lmaydigan ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi kuchlarni jalb qiladi.

SWOT tahlili tashkilot ichidagi turli guruhlar yoki ovozlarni belgilangan xabarlar o'rni real ma'lumotlar nuqtalarini taqdim etishda erkin bo'lgandagina yaxshi ishlaydi.

SWOT tahlilining natijalari ko'pincha kompaniya duch keladigan yagona maqsad yoki qarorni qo'llab-quvvatlash uchun sintezlanadi.

Qiyosiy tahlil usuli yetakchilaridan va so'nggi tahlil usuli hisoblanadi, chunki u korxonalariga ishlarni muayyan yo'l bilan bajarishni qo'llab-quvvatlaydigan mazmunli ma'lumotlarga e'tibor qaratisga yoki aksincha, taktikani o'zgartirish orqali o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. Qiyosiy tadqiqotlar qaysi nazariyalar va dalillarni qo'yib yuborishga arziydi, har doim taxmin yoki sezgi emas, balki ma'lumotlarga asoslanib aniqlashga yordam beradi. Qiyosiy tahlil sizning e'tiboringizni toraytirishga yordam beradi, shunda biznesingiz bir vaqtning o'zida o'nlab yaxshilanishlarga harakat qilishdan ko'ra, eng mazmunli imkoniyatlarga intiladi.

Qiyosiy yondashuv, shuningdek, o'zaro munosabatlarni yoritish uchun ma'lumotlarni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, qiyosiy tadqiqot muayyan jarayonlar yoki qaramlik ortidagi nozik munosabatlar yoki tanqidiy kontekstlarni ochib berishi mumkin, ular tadqiqotsiz yaxshi tushunilmaydi. Misol uchun, agar sizning biznesingiz tarixan yaxshi sotilgan mahsulotlarga nisbatan bir nechta mavjud mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini solishtirsa, bu sizga yangi mahsulot yoki xususiyatlarini ishlab chiqishga tayyor bo'lgach, foydali ma'lumot berishi kerak.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston fond bozorini rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirish tahlil qilishda foydalaniladigan ma'lumotlarni statistik va matematik modellashning birlamchisi bo'ladi. SWOT analizini asosiy maqsadi, strategik rejalashtirish usuli, baholash vositalarini taqdim etish orqali biz ma'lumotlar asosida iqtisodiy jarayonlarni tushuntirib, ularning o'zaro bog'lanishlarini o'rganib, keyinchalik prognoz berishdir.



1-rasm. O'zbekiston JST ga a'zo bo'lishi afzalliklarini SWOT alanizi.

Kuchli tomonlari:

Xorijiy sarmoyaning ortishi: JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston fond bozoriga ko'proq xorijiy sarmoyalarni jalb qiladi, chunki bu xalqaro savdo normalari va qoidalariga sodiqlikdan dalolat beradi;

Bozorning kengayishi: JSTga a'zo bo'lish orqali kengroq bozorlarga kirish O'zbekiston kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlarni ochib, ularning aksiyalari narxining potentsial o'sishiga olib kelishi mumkin;

Savdoni diversifikatsiya qilish: JSTning bir qismi bo'lish O'zbekiston eksportini diversifikatsiya qilishni rag'batlantiradi, muayyan tarmoqlar yoki bozorlarga qaramlikni kamaytiradi. Ushbu diversifikatsiya fond bozorining tashqi zarbalarga chidamliligiga hissa qo'shadi.

Kamchiliklari:

O'tish muammolari: JST qoidalariga moslashish iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari uchun qisqa muddatli muammolarni keltirib chiqaradi, bu esa fond bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

Raqobatning kuchayishi: Xalqaro bozorlarga ochilish mahalliy korxonalar, ayniqsa raqobatbardoshligi past bo'lgan sanoat korxonalari uchun raqobatni kuchaytirishi va ularning aksiyadorlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin;

Normativ o'zgarishlar: JST qoidalariga rioya qilish investorlarni dastlab bezovta qiladi, bo'lgan tartibga soluvchi o'zgarishlarni talab qiladi, bu esa fond bozorida qisqa muddatli o'zgaruvchanlikka olib keladi.

Imkoniyatlar:

Bozor integratsiyasi: Jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv O'zbekiston kompaniyalari uchun o'z faoliyatini xalqaro miqyosda

kengaytirish imkoniyatlarini oshirishga olib keladi, bu ularning fond bozorida ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

Kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirish: Xalqaro bozorlarga chiqish O'zbekiston kompaniyalariga xorijiy investitsiyalar va moliyalashtirish orqali kapitalga oson kirishni ta'minlashi, fond bozorida o'sishni rag'batlantiradi;

Iqtisodiy barqarorlikning yaxshilanishi: JSTga a'zo bo'lish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida barqarorlik va prognozlikdan darak beradi, bu esa fond bozoriga ko'proq investorlarni jalb qilishi va umumiy iqtisodiy barqarorlikni yaxshilashi mumkin.


Tahdidlar:

Savdo taqchilligi: Savdoni liberallashtirish tufayli importning oshishi savdo taqchilligiga olib keladi, bu esa mamlakatning to'lov balansiga bosim o'tkazishi va investorlarning fond bozoriga ishonchiga ta'sir qiladi;

Spekulyativ oqimlar xavfi: Jahon moliya bozorlari bilan kengroq integratsiyalashuv O'zbekiston fond bozorini spekulyativ oqimlarga va tashqi shoklarga duchor qilib, o'zgaruvchanlikni oshiradi;

Ichki muxolifat: Ba'zi mahalliy sanoat yoki siyosiy fraksiyalarning JST a'zoligiga qarshilik ko'rsatishi bozorda noaniqlikni keltirib chiqarishi va investorlarning ishonchini susaytirishi mumkin.


Umuman olganda, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uning fond bozori uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etsa-da, jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi kerak bo'lgan muammolar va risklar ham mavjud. Ushbu jadvalda Polsha fond bozorining 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan aylanmasi ko'rsatilgan bo'lib, qiymatlari millionlab AQSh dollarlarida ko'rsatilgan.



2-rasm. Polsha davlatining fond bozori aylanmasi (million \$).

Yuqoridagi jadvalga asosan o'n yil ichida fond bozori aylanmasida aniq va sezilarli o'sish kuzatildi. 1990-yillarning boshlarida nisbatan past darajadan boshlab, aylanma eksponentsial o'sishni boshdan kechirdi va 2000 yilda eng yuqori cho'qqiga chiqdi. 1991 yildan 1993 yilgacha bozor minimal faollikni ko'rsatdi, bu rivojlanishning yangi bosqichi yoki investorlarning cheklangan ishtirokini ko'rsatadi. 1995


yilda JST ga a'zoligidan keyin o'sish traektoriyasi sezilarli darajada keskinlashdi. Bunga iqtisodiy islohotlar, xorijiy sarmoyalarning ortishi va Polsha bozoriga ishonchning ortishi kabi turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiylashtirish va xorijiy investitsiyalar ortib borgan (2-rasm).



3-rasm Lyuksemburg davlatining fond bozori aylanmasi (million \$).

Yuqoridagi jadvalda Lyuksemburg fond bozorining 1991 yildan 2000 yilgacha million AQSh dollarlarida o'lgangan yillik aylanmasi keltirilgan. Dastlabki bosqich (1991-1995): Lyuksemburg fond bozori o'zining dastlabki yillarida 300 million AQSh dollaridan past bo'lgan ko'rsatkichlar bilan oddiy aylanmani namoyish etdi. Bu nisbatan kichik va rivojlanayotgan bozorni ko'rsatadi. O'rta bosqich (1996-1997): 1996 yilda sezilarli sakrash sodir bo'ldi, aylanma 500 million AQSh dollaridan oshadi, bu kengayish va bozor faolligining o'sishini ko'rsatadi. Kechki bosqich (1998-2000): Bozor aylanmasining sezilarli o'sishini boshdan kechirmoqda, 1998 yilda 1,500 million dollardan

oshib, eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Bu tez o'sish va investorlarning faol ishtiroki davrini nazarda tutadi. Ushbu natijalarga erishishda moliyaviy sektorni rivojlantirish, Lyuksemburg investitsiya fondlari, banklar va sug'urta kompaniyalarini jalb qilgan holda o'zini Yevropaning yirik moliya markazi sifatida ko'rsatdi. Evropa Ittifoqiga a'zolik va Qulay tartibga solish muhiti, Mamlakatning barqaror va biznes uchun qulay tartibga solish muhitiga ega bo'lgan obro'si ham mahalliy, ham xalqaro kompaniyalarni Lyuksemburg fond birjasida ro'yxatga olish uchun jalb qilishi mumkin edi (3-rasm).



4-rasm Singapur davlatining fond bozori aylanmasi (million \$).

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar Singapur fond bozorining 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan yillik aylanmasi ko'rsatilgan bo'lib, qiymatlar million AQSh dollarida keltirilgan. Yildan yilga tebranishlar mavjud bo'lsa-da, Singapur fond bozori aylanmasining umumiy traektoriyasi o'n yil ichida yuqoriga ko'tarildi. Bu o'sib borayotgan va faol bo'lgan bozorni ko'rsatadi. Dastlabki o'sish esa 1991 va 1993 yillar oralig'ida aylanmada sezilarli o'sish kuzatildi, bu tez kengayish va investorlarning qiziqishi ortib borayotgan davrni ko'rsatadi. 2000 yilda o'tgan yilga nisbatan aylanmada bir oz pasayish kuzatildi. Bu bozorni tuzatish yoki o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarning aksi bo'lishi mumkin. Iqtisodiy samaradorlik Singapurning ushbu davrdagi kuchli iqtisodiy o'sishi, uning asosiy moliyaviy va savdo markazi sifatidagi maqomidan kelib chiqqan holda, investitsiyalarni jalb qilish va fond bozori faolligini oshirishda muhim rol o'ynadi. 1991 yildan 1993

yilgacha bozor minimal faollikni ko'rsatdi, bu esa, ehtimol, iqtisodiy beqarorlik va noaniqlik tufayli investorlarning ishonchi va ishtiroki yo'qligini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimizning ushbu qismida biz mavzu bo'yicha ma'lumotlar tahlili orqali izoh beriladi. 1995 yilda Polshaning JSTga a'zo bo'lishi uning iqtisodiyoti va fond bozori uchun muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Sarmoyadorlarga iqtisodiy islohotlar, liberallashtirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv majburiyatini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. JSTga a'zo bo'lgandan so'ng, fond bozori aylanmasi eksponentsial o'sishni boshdan kechirdi va 2000 yilda eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Lyuksemburg davlati esa fond bozori kamtarona aylanma bilan boshlandi, bu uning kichik va rivojlanayotgan bozor maqomini ko'rsatdi. Ushbu bosqichda aylanma ko'rsatkichlari 30 million dollardan past bo'lib qoldi, bu cheklangan

bozor faolligi va investor ishtirokini aks ettiradi. JST ga a'zolar safiga qo'shilganidan so'ng esa 1996 - yilda aylanmada sezilarli ko'tarilish kuzatildi, bu esa 500 million dollardan oshdi, bu bozor faolligining kengayishi va o'sishining faollashuvini anglatadi. Bu davr bozor ishtiroki va investorlarning qiziqishini oshirish bosqichi hisoblandi. 1998-2000 – yillar esa bozor aylanmasi kuchli o'sishda davom etdi va 1998 yilda 1,5 milliard dollardan oshdi. Ushbu davr Lyuksemburg fond bozorining yetukligini ko'rsatuvchi tezkor kengayish va investorlarning faol ishtiroki bosqichini ifodaladi. JSTga a'zolik qulay tartibga solish shartlari va moliyaviy markaz sifatidagi mavqei bilan bir qatorda, Lyuksemburgning Evropa moliyaviy holati taniqli davlat sifatida paydo bo'lishiga yordam berdi. Ma'lumotlar Singapur fond bozori aylanmasining o'n yillikdagi umumiy o'sish traektoriyasini ko'rsatadi, bu esa o'sib borayotgan va faol bozorni ko'rsatadi. Faoliyatning kuchaygan davri esa 1996 yildan 2000 yilgacha investorlar faolligi oshgan davr bo'ldi, bu esa fond bozoriga qiziqish va ishtirokning ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, bu faoliyatga qaramasdan, yildan-yilga tebranishlar mavjud bo'lib, bu bozorda ma'lum darajadagi o'zgaruvchanlikni ko'rsatmoqda. Tadqiqotimizning xulosa qismida bir necha xulosa va takliflar berilib o'tilgan va shuni ko'rib chiqamiz.

Investorlar ishonchiga ijobiy ta'sir, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zoligi sarmoyadorlarning mamlakat iqtisodiy istiqboliga ishonchini oshirgan bo'lishi mumkin. Xalqaro savdo me'yorlari va qoidalariga sodiqlik investitsiyalarni jalb qilishning muhim omillari bo'lgan barqarorlik va bashoratlikdan dalolat beradi.

Bozor faolligining o'sishi, ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, O'zbekiston fond bozori 1995 yilda JSTga a'zo bo'lganidan so'ng jadal o'sishni boshdan kechirdi. Bu o'sish traektoriyasi bozor faolligining kuchayganini ko'rsatadi, ehtimol iqtisodiy sharoitning yaxshilanishi, liberallashtirish choralari va investorlar ishonchining ortishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy islohotlar va liberallashtirish, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish orqali jahon savdo tizimiga qo'shilishi hukumatni iqtisodiy islohotlar va liberallashtirish siyosatini amalga oshirishga undagan bo'ladi. Bunday chora-tadbirlar biznes va investitsiyalar uchun qulay muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, fond bozorining o'sishiga hissa qo'shadi.

Keyingi o'sish salohiyati, O'zbekistonning JSTga a'zoligi va fond bozori ko'rsatkichlari o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik kelgusida o'sish va rivojlanish salohiyatidan dalolat beradi. JST tamoyillariga doimiy sodiqlik davom etayotgan iqtisodiy islohotlar bilan birgalikda ko'proq

investitsiyalarni jalb qilishi va bozor likvidligini chuqurlashtirishi mumkin.

Bozor qoidalarini kuchaytirish, O'zbekiston fond bozori o'sishda davom etar ekan, shaffoflik, adolatlilik va investorlar himoyasini ta'minlash uchun bozor qoidalarini kuchaytirish zarur. Aniq va amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan me'yoriy-huquqiy bazalar investorlarning ishonchini oshiradi va bozorda ko'proq ishtirok etadi.

Bozor infratuzilmasini yaxshilash, savdo maydonchalari, kliring tizimlari va bozorni nazorat qilish mexanizmlari kabi bozor infratuzilmasiga sarmoya kiritish samarali savdoni osonlashtirish va operatsion risklarni minimallashtirish uchun juda muhimdir. Bozor infratuzilmasining yaxshilanishi fond bozorining o'sishiga yordam beradi va institutsional investorlarni jalb qiladi.

Investorlar ta'limini rag'batlantirish, investorlarni fond bozorida ishtirok etishning foydalari va xatarlari haqida o'rgatish sog'lom investitsiya madaniyatini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Foydalanish mumkin bo'lgan resurslarni ta'minlash va investorlarni xabardor qilish dasturlarini o'tkazish jismoniy shaxslarga ongli ravishda investitsiya qarorlarini qabul qilish va bozor barqarorligiga hissa qo'shish imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston JSTga a'zo boshqa davlatlar bilan xalqaro hamkorlik va sheriklikni rivojlantirishdan foyda ko'rishadi. Bilim almashish tashabbuslari, qo'shma korxonalar va transchegaraviy investitsiya imkoniyatlari bilan shug'ullanish bozor integratsiyasini kuchaytirishi va barqaror o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi mamlakat fond bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatib, barqaror o'sish va rivojlanishga zamin yaratadi. Bozorni qo'llab-quvvatlovchi islohotlarni amalga oshirishni davom ettirish va investorlarni himoya qilishga ustuvor ahamiyat berish orqali O'zbekiston fond bozorini yanada mustahkamlashi va kelgusi yillarda ko'proq sarmoya jalb qilishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib tanlov asosida kuzatuvchilarni oldik va kuzatuv jarayonida 3 xil turli mintaq va sharoitga ega mamlakatlarga tahlil qildik, natijalar esa ijobiy ko'rinishga ega har bir mamlakat JST ga a'zo bo'lganidan so'ng ya'ni (3 davlat ham a'zo bo'lishi 1995 – yilda) fond bozori aylanmasi keskin ko'tarilishgan shu asosida O'zbekiston Respublikasi ham JST ga a'zo bo'lishi mamlakatni nafaqat fond bozoriga ta'sir etadi xorijiy investitsiyalar ortishiga ham olib keladi, ishsizlik darajasini kamayishi va YaIM hajmiga ham ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.06.2023 yildagi PQ-181-son <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>
2. The Effect of Membership in the GATT/WTO on Trade: Where do we Stand? Andrew K. Rose 2006 Researchgate
3. Effect of the Duration of Membership in the World Trade Organization on Trademark Applications, Sena K.G 2023 J. Risk Financial Manag. 2023, 16(10), 426; <https://doi.org/10.3390/jrfm16100426>
4. International Trade and Stock Market Integration R.J.Patel 2019 Euromoney Institutional Investor PLC The Journal of Private Equity Vol. 23, No. 1 (WINTER 2019),
5. The WTO trade effect P.L.Ch va M.J.Lee (2011) Journal of International Economics Volume 85, Issue 1, September 2011, Pages 53-71
6. T.V.Hoa (2010) Impact of the WTO Membership, Regional Economic Integration, and Structural Change on China's Trade and Growth Review of Development Economics Volume 14, Issue 3 p. 577-591
7. J.L.Goldstein, D.Rivers va M.Tomz (2007) Institutions in International Relations: Understanding the Effects of the GATT and the WTO on World Trade Published online by Cambridge University Press International Organization 61, Winter 2007, pp+ 37–67 DOI: 10+10170S0020818307070014
8. S.K.Gnangnon (2023) Effect of the duration of membership in the GATT/WTO on human development in developed and developing countries The Author(s), under exclusive licence to Springer Science+Business Media, LLC, part of Springer Nature 2023 Empirica (2023) 50:943–983
9. Terrie L. Walmsley, Thomas W. Hertel, Elena Ianchovichina (2006) ASSESSING THE IMPACT OF CHINA'S WTO ACCESSION ON INVESTMENT Pacific Economic Review Volume 11, Issue 3 p. 315-339
10. T.F.Rutherford va D.G.Tarr (2008) Poverty effects of Russia's WTO accession: Modeling "real" households with endogenous productivity effects Journal of International Economics Volume 75, Issue 1, May 2008, Pages 131-150
11. Baldwin, R., & Evenett, S. (Eds.). (2009). The Collapse of Global Trade, Murky Protectionism, and the Crisis: Recommendations for the G20. A VoxEU.org Publication.
12. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАВКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
13. Boburjon, T. (2024). SOLIQA TORTISHNING EKOLOGIK YO 'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАВКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 145-150.
14. Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKT LARNING TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250..
15. Turanboyev, B. (2024). O 'ZBEKISTON FOND BOZORIDA AKSIYALAR SAVDOSINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI TAHLILI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 5-8.
16. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2).



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH

Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi

Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
nargizayormonqulova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 28

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>

**KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/
keywords**

Iqtisodiy o'sish omillari, ekstensiv va intensiv o'sish, globalashuv, Barqaror rivojlanish maqsadlari, O'zbekiston- 2030 strategiyasi, Infratuzilma, inson kapitali

ANNOTATSIYA

Maqolada iqtisodiy o'sish tushunchasining mohiyati, uning turlari, iqtisodiy o'sish sur'atiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili, iqtisodiy o'sishga berilgan ta'riflar, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning mohiyati va zarurati tahlil qilinadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mamlakat o'sishining mavjud holati tahlil qilindi. Shunday qilib, ushbu maqolaning asosiy e'tibori iqtisodiy o'sish omillarining qanchalik muhim ekanligi, ya'ni mamlakat yalpi ichki mahsulotida tutgan o'rni va iqtisodiy o'sish omillarini yanada takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflardan iborat.

Kirish. Har bir mamlakat va uning olib borayotgan iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi aholi turmush darajasini yaxshilash, ishlab chiqarish infratuzilmalari faoliyatini takomillashtirish va pirovardida iqtisodiyoti baquvvat bo'lgan jamiyat barpo etishdan iborat. Barqaror rivojlanishga erishish mamlakatdan kuchli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya yo'nalishlarini kengaytirish va shu kabi qator shartlarni talab qiladi.

Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va jamiyat a'zolarining daromadlarini muntazam oshib borishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o'sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiy o'zgarishidir. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o'sish bu milliy iqtisodiyotda muayyan davr davomida (odatda bir yil) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishidir. Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishga erishish kafolati sifatida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish tamoyillari, qonunlar va olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlarni ko'zda tutishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy o'sish tushunchasi keng qamrovli bo'lganligi sababli ko'plab olimlar turlicha ta'riflar bilan izohlaganlar. Shodmonov va boshqalar (2017) o'zlarining "Iqtisodiyot nazariyasi" kitobida Gegelning ta'rifini quyidagicha keltirib o'tishgan, ya'ni "taraqqiyot muayyan bir narsa, voqea hodisa va jarayonlarning ma'lum tomonga, ya'ni pastdan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka tomon yo'naltirilgan harakatining bir ko'rinishidir".

Bundan tashqari Islomov va Egamovlar (2005) o'zlarining "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" kitoblarida iqtisodiyotning asoschilari bo'lgan ko'pgina olimlarning qarashlari va fikrlarini berib o'tishgan. Ularning bu kitobida A. Smit, F. Kene, D. Rikardo va shu kabi iqtisodchilarning nazariyalari, olib borgan tadqiqotlari keltirilgan. Misol uchun A. Smit o'z asarlarida asosiy o'ringa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini qo'yadi. Bunga erishish uchun turli xil nazariyalarni ishlab chiqadi.

M.A. Mamatov (2021) "Iqtisodiy o'sish" o'quv qo'llanmasida ayrim iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sishga bergan ta'riflarini keltirib o'tgan. Misol uchun, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish tarixini tadqiq etish uchun 1971-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan amerikalik mashhur iqtisodchi Saymon Kuznets iqtisodiy o'sishga: "Xo'jalikning aholining tobora ko'proq va xilma-xil ehtiyojlarini tobora samaraliroq texnologiyalar yordamida va ularga mos tushadigan institutsional va mafkuraviy o'zgarishlar yordamida ta'minlaydigan qobiliyatining uzoq muddatli ortishi" degan ta'rif

bergan. S. Kuznetsning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sishning uchta asosiy belgisi bor:

- milliy mahsulotning doimiy o'sishi natijasida ehtiyojlarning tobora ko'proq hajmini qondirish imkoniyati;
- o'sishning asosi, uning yetarli bo'lmasa ham zarur bo'lgan sharti sifatidagi texnika taraqqiyoti;
- o'sish salohiyatini to'laroq amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional, harakat va mafkuraviy o'zgarishlar.

Bundan tashqari iqtisodiy o'sish modellarini quyidagicha ta'riflaydi, ya'ni, iqtisodiy o'sish modellari bu tadqiq qilinayotgan iqtisodiy jarayonlarning muhim sabablari va omillarini aniqlash maqsadida grafik va matematik usullar orqali real iqtisodiy jarayonlarni abstrakt holda umumlashtirilgan va soddalashtirilgan ifodasi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotda ikki turdagi iqtisodiy o'sish modeli: neoklassik va yangi keynschilik maktablari nazariyalari keng tarqalgan.

Qodirov (2010) o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" kitobida iqtisodiy o'sishning turlari, unga ta'sir etuvchi omillar, iqtisodiy o'sish modellari to'risida bayon qilgan. Uning fikricha, iqtisodiy o'sish jamiyat taraqqiyotining talablari bilan uzviy bog'liq, iqtisodiy o'sish doimiy ravishda talabni qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy o'sishning asosiy maqsadi jamiyat a'zolarining talablarini to'liq qondirishdan iborat.


Habibullayevning (2012) "Iqtisodiy matematik usullar va modellar" kitobida ekonometrik modellar va usullarni iqtisodiyotga tadbir qilishning qanchalik darajada muhim ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bu kitobda keltirilishicha, ekonometrik usullar va modellardan foydalanish iqtisodiyot qoidalarini, tushunchalarini va xulosalarini aniq va lo'nda bayon qilishni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy qismlari bo'yicha statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy saytidan olingan holda, muallif tomonidan Excel dasturi orqali chizma va jadvallar tayyorlandi. Ma'lumotlar tahlili jarayonida taqqoslama va solishtirma usullardan foydalanilgan holda ma'lumotlar chuqur tahlil qilindi.

Bundan tashqari jadval va chizmalardan olingan ma'lumotlar tahlilning umumlashtirish va aggregatlash usullari orqali natijalar olindi.

Tadqiqot natijalari. Iqtisodiy o'sish tushunchasini tahlil qilishda iqtisodiy o'sish omillari va faktorlarini ko'rib chiqish zarur. Iqtisodiy o'sish omillar iqtisodiy o'sish turlariga qarab guruhlanadi. Misol uchun iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv omillari ishlab chiqarishda bevosita qatnashadigan resurslar, ishchi kuchi, xomashyo, asbob-uskunlarning miqdori va sifatiga qarab ajratiladi.



1-rasm. S. Kuznetsning iqtisodiy o'sish modeli

Manba: M.A. Mamatov. Iqtisodiy o'sish o'quv qo'llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021-384 b.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikkita guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruh omillari iqtisodiyotning miqdoriy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular **taklif omillari** deb ham ataymiz. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- tabiiy resurslar miqdori va sifati;
- ishchi kuchi resurslarining miqdori va sifati;
- asosiy kapital (asosiy fondlar) hajmi va sifati;
- texnologiyalar va fan – texnika taraqqiyoti.

Iqtisodiy o'sishga **taqsimlash omillari** ham ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi kerak, balki juda samarali ravishda ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham muhim hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi taklif va taqsimlash omillari o'zaro bir-biri bilan bog'liq va bir birini taqozo etadi. Masalan, resurslarning miqdori o'sishi va sifati yaxshilanishi, texnologiyalarning takomillashtirilishi iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lib, bu muammoni tahlil qilishda va o'rganishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Iqtisodiy o'sish 2 usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi:

- birinchi usul real YaIM ni bazis davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun qo'llaniladi.

- ikkinchi usul real YaIM ni bazis davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanishi darajasini va harakatining sifat o'zgarishlarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va qo'shimcha o'sish sur'atlari bir-biridan farqlanadi:

a) bazis o'sish sur'ati = $\frac{Y_i}{Y_0}$ b) zanjirli o'sish sur'ati = $\frac{Y_i}{Y_{i-1}}$

Qo'shimcha o'sish sur'atlari qiyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

a) bazis qo'shimcha o'sish sur'ati = $\frac{Y_i - Y_0}{Y_0}$

b) zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati = $\frac{Y_0 - Y_{i-1}}{Y_{i-1}}$

bunda,

Y_0 – bazis yildagi real YaIM;


Y_i - shu yildagi real YaIM;

Y_{i-1} - bundan avvalgi yildagi real YaIM

Iqtisodiy o'sishning ekonometrik modellari so'nggi yillarda rivojlanib, takomillashib borayotganligi hechkimga sir emas. Iqtisodiy o'sishni tahlil qilish jarayonida biz tahlil qilayotgan tadqiqotimizni chuqurroq o'rganishimiz va u bilan bog'liq zarur ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan YaIM tahlilini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkichni o'sishi uchun qaysi omillar ta'sir qilishini va ta'sir darajalarining bir-biridan qay darajada farq qilishini va kelgusi davrlardagi prognoz ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va unga ta'sir qiluvchi omillar, faktorlar chuqur tahlil qilinishi lozim, shundagina kutilayotgan natijalarning ishonchlilik darajasi yuqori bo'ladi. Iqtisodiy o'sishda zanjirli hamda bazis usullaridan ham foydalaniladi. Bu orqali ma'lum bir davrga nisbatan yoki o'tkan yillarga nisbatan o'sish yoki kamayishi va uning tahlili amalga oshiriladi.

Ekzogen va endogen o'zgaruvchan ko'rsatkichlar ham tahlil doirasida muhim hisoblanadi. Har qanday model (nazariya, tenglama, grafik), u qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, real borliqning sodd va abstrakt ko'rinishi hisoblanadi, chunki tadqiqot o'tkazishda barcha elementlarni bir vaqtning o'zida barchasini hisobga olish mushkul masala hisoblanadi. Shuning uchun har qanday makroiqtisodiy modelni absolut deb hisoblash xato bo'ladi. Bunday makroiqtisodiy modellar barcha mamlakatlar uchun bir vaqtning o'zida har biriga mos kelmaydi. Lekin bunday «umumiyashtirilgan» modellar orqali bandlik, ishlab chiqarish, inflatsiya, investitsiya, iste'mol, foiz stavkasi, valuta kursi kabi ichki (endogen) iqtisodiy ko'rsatkichlarni boshqarishning kompleks muqobil usullari aniqlanishi mumkin. Model tashqarisida aniqlanuvchi yoki belgilanuvchi tashqi (ekzogen) o'zgaruvchan ko'rsatkichlar qatoriga esa hukumatning fiskal (soliq-budjet) va Markaziy Bankning pul-kredit siyosati instrumentlarini – davlat xarajatlaridagi o'zgarishlar, soliqlar va pul massasi kabilarni kiritishimiz mumkin.




2-rasm. Makroiqtisodiy tahlilning uslub va tamoyillari

Manba: N. Maxmudov, H.Hakimov. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv-uslubiy majmua. TDIU, 2018

O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda joriy narxlarda hisoblangan YaIM hajmi **888 341,7** mlrd so'mni tashkil etdi. 2021 yil darajasiga nisbatan real o'sish sur'ati **5,7 foizni tashkil etdi**. YAIMda

sanoat mahsulotlarining ulushi 484,7 trln so'mga (+5,2 foiz), xizmatlar ko'rsatish - 343,3 trln so'mga (+8,5 foiz), mahsulotlarga sof soliqlar - 60,3 trln so'mgacha oshdi.



3-rasm. 2020-2022-yillarda YaIM o'sish sur'ati.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi sayti ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Quyidagi jadvalda yillar bo'yicha YaIM o'sish sur'atlari va tarmoqlarning o'sish sur'atlari keltirilgan. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy miqdori YaIM umumiy hajmining 93,2 % ini tashkil etdi va 5,7 % ga o'sdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM umumiy miqdoridagi ulushi 6,8 %

ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 0,8% ga kamaydi. Xizmatlar sohasidagi o'sish sur'ati 2021-yilda oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati 9,5% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 8,5 foiz ni tashkil etdi.

3-jadval

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM ishlab chiqarish.

Ko'rsatkichlar	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
	Mlrd so'm	O'sish sur'ati % da	Mlrd so'm	O'sish sur'ati % da	Mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
YAIM	605 514,9	102,0	738 425,2	107,4	888 341,7	105,7
Shu jumladan:						
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	150 493,7	102,9	181 787,7	104,0	208 452,9	103,6
Sanoat	150 275,1	100,9	186 978,2	108,8	220 704,3	105,2
Qurilish	37 334,8	109,5	45 557,4	106,8	55 522,7	106,6
Xizmatlar	223 049,8	101,1	272 109,1	109,5	343 374,3	108,5
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	36 662,8	101,3	46 750,0	113,6	57 801,7	109,3
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	38 313,1	99,9	47 934,3	117,8	57 776,5	114,7
Boshqa xizmat tarmoqlar	148 073,9	101,4	177 424,8	106,3	227 796,1	106,6
Mahsulotga sof soliqlar	44 361,5	101,6	51 992,8	104,6	60 287,5	99,2

Muhokama. Yurtimizdagi iqtisodiy o'sishni o'zida aks ettiradigan ko'rsatkichlar Harakatlar strategiyasining muvaffaqiyatini, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida erishilgan yutuqlarning amaliy ifodasidir.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash iqtisodiy islohotlarning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar (xususan xorijiy investitsiyalar) hajmini ko'paytirish, eksport hajmini oshirish va uning tarkibini takomillashtirish, iqtisodiyotga solik yukini kamaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini yanada optimallashtirish, bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, banklarning kreditlash salohiyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun omil bo'ladi.

Shu sababli ham, bu masalalar 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida ham iqtisodiyotni rivojlantirishda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan quyidagi eng muhim ustuvor vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Xulosa. Mamlakatimiz iqtisodiyotining tabiiy xususiyatlari, uning mineral va xom ashyo, ishchi kuchi resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi, iqtisodiyotimizning chet el mamlakatlari iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashganligi, jahon pandemiyasi iqtisodiy inqirozining o'z ta'sir kuchini hali yo'qotmaganligini hisobga olgan holda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlovchi yo'llar sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

✓ Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish ishlarini davom ettirish;

✓ Sanoat mahsulotlari orasida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar turini ko'paytirish va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan darajaga yetkazish;

✓ Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlovchi va raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mahalliy sanoat korxonalarini faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini hal qilish uchun qishloqlarda mustahkam baza, infratuzilma va kommunikatsiyalarni yaratish;

✓ Faol investitsiya siyosatini olib borish, muhim strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobidan oshirish;

✓ Iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, natijada vujudga kelgan bo'sh pul mablag'larini oqilona qayta taqsimlash;

✓ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni davom ettirish va natijada uning YaIMdagi ulushini yanada oshirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yilda qabul qilingan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi qarori.

2. Berkinov.B.B.,Mamatova F.X. "Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari".Risola. T."TDIU",2011.-60 b.

3. Berkinov.B.B., Axmedov U.Q., "Uy xo'jaliklari rivojlanishi va oila daromadlarini oshirish istiqbollari".T-"Fanvatexnologiya",2013.-144.b

4. Shodiyev T.Sh., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullayeva Sh., Muminova M.A. "Ekonometrika" (o'quv qo'llanma). —T.: TDIU, 2007.-178-bet.

5. Abdullayev a.,Umarov N. "Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi" –T. :Moliya,2001.-92-bet.

6. Shodiyev.X "Ekonometrika fanining predmeti,usullari,vazifalari va asosiy tushunchalari" T:2017 bet.41-bet.

7. B.J.Xakimov,B.B.Alimov,U.A.Xolmirzayev "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" T: "Iqtisod-Moliya"-2013.

8. Z.A.Jumayev, "Makroiqtisodiyot" T:2018. 112-b.

✓ Eksportni rag'batlantirish, milliy mahsulotlar sifatini yanada oshirish asosida uning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini yanada oshirish va mustahkamlash;

✓ Ichki talabni qo'llab-quvvatlash maqsadida ish haqi va nafaqalarning bir me'yorda oshirishini, aholi real daromadlarining o'sishini ta'minlash;

✓ Iqtisodiyotning barqaror rivojining muhim omili sifatida aholi bandligi o'sishini ta'minlash, daromadlar, iste'mol budjeti va umuman, turmush darajasini muttasil oshirish, iste'mol talabini oshirishni rag'batlantirish;

Qishloq va shaharlar qiyofasini tubdan yangilash dasturini amalga oshirish, uy-joy qurilishi va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, aholi yashash sharoitlari sifatini yaxshilash uchun xususiy va kredit mablag'larini jalb qilish

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

✓ Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash bo'yicha iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yuqori sur'atlarda davom ettirish;

✓ Mamlakatimiz iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlarinihisoblangan sanoat, xizmat ko'rsatish va servis sohasi, qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va ular o'rtasidagi kooperatsion aloqalarni mustahkamlash;

✓ Aholi bandligi va daromadlari darajasining oshirishini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, ularga beriladigan kredit tizimlarini yanada soddalashtirish hamda ularning faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi turli xil faktorlarni bartaraf etish;

✓ Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab turish uchun mamlakatimiz iqtisodiy ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy va ekonometrik modellar asosida ko'proq va aniqroq tahlil qilishni ko'paytirish kerak.

9. Xodjaev R., Maxmudov B., Xadjaev X., Ergashev E, Egamberdiev R. Mikro va makroiqtisodiyot.O'quv qo'llanma-T.: "ILM ZIYO" 2012, 324 b.

10. Khursanaliev, B. (2023). THE IMPACT OF POPULATION GROWTH ON THE COUNTRY'S ECONOMIC DEVELOPMENT. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1*, 8-11.

11. Nishonkulov Shohruhxon, & Gafurov Khurshid. (2023). THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S FOREIGN DEBT ON THE GROSS DOMESTIC PRODUCT. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1*(1), 265–267. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.431>

12. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.

13. Мелибаева, Г. (2021). Иктисодиётни диверсификациялаш шароитида тижорат банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари. *Общество и инновации, 2*(4/S), 282-291.



O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI YILLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH VA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATI XUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI VA TAKOMILLASHTIRILISHI

Azimova Maftuna Muhammadaminovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Tel.99888-811-67-57

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 29

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.923>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Sog'lik, shifokor, qishloq vrachlik punktlari, salomatlik, JSST, reproduktiv salomatlik, kasallik, epidemiya, aholi, tibbiy xizmat, tez tibbiy yordam, ekologiya.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasi va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, tibbiyot sohasini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohatlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan M.Mahmudov, G.E.Mo'minova tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda sog'liqni saqlash va tez tibbiy xizmati sohasining sovetlar hukumronligi davridagi faoliyati o'rganilgan. R.Mo'minov, S.Djumanov tomonidan esa soha faoliyatining mustaqillik yillardagi jarayonlari umumiy tarzda tahlil etilgan. Mazkur ishimizda yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotchilarning ishlari muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli biz mazkur tadqiqotda tibbiyot sohasining muhim va asosiy bo'g'ini hisoblangan qishloq vrachlik punkti va tez tibbiy yordam hodimlari faoliyatini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo'ydik. Shuningdek maqolada mustaqillikning dastlabki yillaridagi respublikadagi aholi salomatligining umumiy holatlarini islohatlardan keyingi jarayonlar bilan aniq tahlillar asosida qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek olingan tahlil natijalari asosida tibbiyot sohasi hodimlarining ish samaradorligini oshirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kirish. So'ngi yillarda dunyoda atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolar, globallashuv jarayoni, turli xil epidemiya va viruslarning yangi turlari tarqalayotganligi bugungi kunda dunyo mamlakatlarida xususan respublikamizda sog'liqni saqlash sohasiga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini taqozo etmoqda. Jismonan sog'lom, teran fikrlaydigan fuqarolar mamlakat tayanchi hisoblanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamizda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilishga jiddiy kirishilgan. Hukumatimiz bu borada ko'plab xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan ko'p yillarga mo'ljallangan dasturlar asosida ish olib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu hamkorlik natijasida qator ijobiy natijalarga erishildi, xususan onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik, sil kasalligini va boshqa ko'plab kasalliklarga qarshi kurashish yuzasidan qator ijobiy natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng boshqa soha kabi sog'liqni saqlash sohasida ham qator ijobiy yangiliklar amalga oshirildi. Tibbiyot sohasida ham yangi davrga qadam qo'yildi. Sho'rolar davridan qolgan sog'liqni saqlash tizimi sohada bir qancha muammolar yig'ilib qolganligini ko'rsatdi. Yosh mustaqil davlat o'z oldiga ijtimoiy sohada shu jumladan birinchi galda sog'liqni saqlash sohasidagi nuqson va kamchiliklarga chek qo'yish hamda bu sohani yangi yuqori bosqichga ko'tarish choralarini ko'rishga kirishdilar. Shu sababga ko'ra mazkur sohaga oid jarayonlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga doir qator maqolalar va ilmiy ishlar² nashr etildi. Bu davrdagi adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ko'pchilik tadqiqotchilar e'tibori asosan xalq tabobatini o'rganishga qaratilgan. Ushbu soha bir guruh tarixchi olimlar tomonidan tarixiylik nuqta nazaridan ham tadqiq etildi. Bunda asosan M.Mahmudov va G.E.Mo'minovaning izlanishlari diqqatga sazovordir. Ular tomonidan sohaning XIX asrning oxirgi choragi va sovet davri tarixi bo'yicha izlanishlar olib borgan. Mustaqillik yillarida Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini yoritishga qaratilgan bir qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. M.Mahmudov, O.Ismoilov, K.Allaberganov, M.D.Maxsumov, N.Rasulov kabilarning dissertatsiya ishlari shular jumlasidandir. Ta'kidlash joizki, himoya qilingan dissertatsiya ishlari sohaning XIX-XX asr tarixi o'rganilib, asosiy e'tibor sog'liqni saqlash tizimining yo'lga qo'yilishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash, sanitariya-epidemiya xizmati kabi muassasalarga qaratilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati

faoliyati yuzasidan D.Jumanov, R.Mo'minovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining mustaqillik davri tarixiga doir ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, sohaning sovet davri tarixi o'rganilgan bo'lsada, uning keyingi yillardagi tarixi maxsus tadqiqot obyektiga sifatida tanlab olinmagan. Umuman, murojaat etilgan tadqiqotlarda mazkur yo'nalishning u yoki bu jihatlar qamrab olinganligi va ular butun tizim tarixini yoritishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ham ta'kidlash lozimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarida va keyingi davrlarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini tashkil etishning huquqiy asoslarining mustahkamlanib borishi mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, ilmiylik va tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: olib borilgan chora tadbirlar natijasida respublikadagi sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyati ko'rsatkichlari yil sayin yaxshilanib borganligi, ayniqsa mustaqillikning dastlabki yillarida kuzatilgan kasallanishlar sonining kamayib, shifoxonalar va poliklinikalar sonining esa ko'payib borganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari. Mustaqillik yillarida Respublikamizda sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu sohaning tarixi va nazariyasiga doir ilmiy jihatdan tan olingan qarashlardagi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimining mustaqillik davri tarixini tadqiq etishda va o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy-metodik jihatlar aniqlangan.

XX asrning 80-yillari oxirlarida mintaqada yuzaga kelgan keskin ekologik zaryat tufayli mamlakatda o'tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishi jarayoni ortdi. Bu davrda o'tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishi kengayib bordi. Xususan 1990 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, 100ming aholi soniga nisbatan hisoblaganda qorin tifi kasalligi 7,6, paratiflar 4,8, salmonellez 36,5, poliomeelit (qoqshol) kasalligi 42, qizamiq19,1, o'tkir yuqumli ichak kasalligi 604,8, virusli hepatitlar 848,4 tani tashkil etgan edi. Bundan tashqari brutseloz kasalligi bilan og'rish 950 taga, bo'g'ma kasalligining soni 12tani, kuydurgu 13ta

¹ Асадов, Д.А. Жовлиев, А.А. Болалар жароҳлиги асос солган олим// Педиатрия. 1999 №46. 89-91; Кенжабоева Д. Халқ тобобати // Сihat salomatlik 2013 №3. -Б. 31 Умарова Г. Табиат дорихонаси // Сihat salomatlik. 2013. №9 Б-12

² Махмудов М, Умурақов Б.Х. Здравоохранения Узбекистана, - Тошкент: Ибн Сино, 1991, Кодиров А. А. Тиббиёт тархи- Тошкент: Ибн Сино, 1993. Ғоипов М., Хасанов Р.,

Раззок О. Хива тобобати Тошкент: Ибн Сино 1995. Муминова Г.Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тарихи тарихшунослиги.(Мустақиллик давридаги тарихий асарлар мисолида) Карши 2009. Уша муалиф. Соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш муоммолари// Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2010. –Б 374-375

hamda sil kasalligi 5949 tani tashkil etgan³. Bundan tashqari tabiatdagi salbiy o'zgarishlar ta'siri ostida 1980 yildan boshlab 1991 yilga qadar kamqonlik bilan hastalanish 550 barobar ortdi va 10ming aholi hisobiga 1160 kishi darajasiga yetdi. Bu ko'rsatkich Rossiyada ikki uch xolatgagina to'g'ri kelardi. Qon bosimining oshish kasalligi keyingi yigirma yilda 60 barobar, jigar toshi va siydik toshi bilan kasallanishlar soni 7 barobar oshgan⁴. O'lim va kasalliklar darajasining nihoyatda yuqori ekanligidan ko'rishimiz mumkinki, endilikda inson organizmi ekologik holatlar vujudga keltirayotgan zarbalarga dosh berolmay qoldi. Shu va boshqa sabablar insonlar sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazdi, millat genofondining yomonlashuvini keltirib chiqardi, hamda mamlakatimiz miqyosida sog'liqni saqlash sohasiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Tibbiyot sohasidagi jiddiy kamchiliklardan biri shunda ediki "Sog'liqni saqlash" deb nomlangan eski tizimda tibbiyot xodimlari moddiy manfaatdor emas edilar. Bu holat esa aholiga tibbiy yordam ko'rsatish ishiga salbiy ta'siri etardi. Tibbiyot xodimlari o'zlariga belgilab qo'yilgan maoshdan tashqari hech qanday daromad manbaiga ega emas edilar. Tibbiyot xodimlariga mehnat haqqi to'lashda har bir vrachni tajribasi va bilim darajasi inobatga olinmay, shu vrach ishlayotgan sohadagi tibbiy xodimlar uchun belgilab qo'yilgan darajada maosh to'lanardi. Bu esa shifokorlar orasida loqaydlik va ishanlik qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Shu sabablar ham bizning tibbiyotimiz G'arbiy Yevropa tibbiyotidan orqada qolishiga olib keldi.

Mustaqillikka bo'lgan davrda mamlakatimizda ilmiy-nazariy tibbiyot ham yetarli darajada rivojlanmagan edi. Biz jahon tibbiyoti yutuqlaridan to'g'ridan to'g'ri tanishish imkoniyatiga ega emas edik. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tibbiyotimiz to'g'ridan to'g'ri chet el tibbiyoti bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Chet el tibbiy muassasalari bilan hamkorlikda ishlay boshladilar.

Mustaqillikka erishilgandan keyin hukumatimiz tomonidan ko'plab sohalar singari sog'liqni saqlash sohasida ham qator islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu sohada dastlab, 1992 yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad sanitariya-epidemiya masalalarida aholini muhofaza qilish hamda insonlarni qulay atrof muhitda yashash huquqining kafolati bo'ldi. Shuningdek ushbu qonun sanitariya epidemiologiya sohasini takomillashtirish, sohadagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida muhim qadam bo'ldi. 1996 yil 29-avgustda "O'zbekiston Respublikasi fuqrolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida" gi qonuni⁵ qabul qilindi. Ushbu qonunda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalar belgilab qo'yilgan edi. Xususan ushbu qonunda fuqrolarning sog'lig'ini saqlashga doir quyidagi asosiy tamoillar keltirib o'tilgan edi.

- Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi
- Profilaktika chora tadbirlarining ustunligi.
- Sog'lig'ini yo'qotgan fuqrolarning ijtimoiy himoya qilinishi.
- Tibbiy fanlarning amaliyot bilan birligi.

Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining strukturasi va vakolatlari ham belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri ushbu sohani isloh qilish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi maxsus farmoni chiqarildi. Mazkur qonunni respublika sog'liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislar, huquqshunos, olim va shu sohaga daxldor tashkilotlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash davlat dasturi ishlab chiqildi. Farmonda aytilishicha, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, ijtimoiy himoyaga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash shuningdek, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi. M-372-fond, 1-ro'yxat, 82-yig'ma jild, 11-varaq.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma –Toshkent: O'zbekiston, 2012- B 89.
3. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent-2014.191-bet.

xizmatlarning sifatini yaxshilash uchun tibbiyot muassasalarining moddiy texnik bazasini mustaxkamlash ko'zda tutilgan edi. Dasturda sog'liqni saqlash tizimining quyidagi kondensiyasi tavsiya etilgan edi: bepul tibbiy yordam ko'rsatadigan hamda byudjetdan moliyalanadigan davolash profilaktika muassasalarini shakllantirish, qishloq vrachlik punktlarining tarmog'ini kengaytirish, tibbiyot hodimlarining malaka va toifalarini oshirib borish, shu maqsadda tibbiyot bilim yurtlarini kasb-hunar kollejlari aylantirish ko'zda tutilgan. Dasturda tez tibbiy yordam xizmati faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish bo'yicha bir nechta tibbiy tashkilotlar negizida Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam xizmatining mintaqaviy filiallarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Farmonda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi va joylardagi filiallari malakali mutahassislar bilan to'ldirilsin deyilgan⁶.

So'nggi yillarda tez va shoshilinch tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi: O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 21.05.2009 yil PF-1114-sonli "Tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi farmoni va 2011 yil 28-noyabrda PQ 1652-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Ushbu hujjatlarda shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati samaradorligini, xizmatlar tezkorligi va sifatini oshirish vazifasi ta'kidlab o'tilgan. Ushbu qaror va farmonlar natijasi o'laroq Respublikamizda shoshilinch tez tibbiy yordam markazlari va bo'limlari faoliyati kengaytirildi, sifati va moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra shoshilinch tez tibbiy yordam markazlarida yotib davolanib chiqqanlar soni ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida 2009 yilda 12528 nafar bemor shoshilinch tez tibbiy yordam markazida yotib davolanga bo'lsa bu ko'rsatkich 2010-yilga kelib 14184 nafarni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlar 2009-yilda Namangan viloyatida 21034 nafardan 2010-yilda 22149 nafarga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Andijon viloyatida esa bu ko'rsatkichlar 22222 nafardan 23772 nafar'ga ortib borgan. Bu raqamlar albatta Respublikada shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati faoliyatining takomillashtirish borganligi, yangi davolanish binolari va tez yordam brigadalarining tashkil etilganligi, xizmat ko'rsatish sifatining ortib borganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi qaror va farmonlar ijrosi natijasida Respublikada 2012 yil boshiga kelib 3196 ta qishloq vrachlik punktlari faoliyat yuritayotgan⁸ bo'lib, ular negizida chekka qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish punktlari ochildi. Mazkur sog'liqni saqlash muassasalarida aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatilib, ular bilan profilaktik jarayonlar ham amalga oshirib berildi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sog'liqni saqlash sohasini isloh qilinishi natijasida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar asosida soha faoliyatini huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi hamda moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Respublikamizning viloyat shahar va tumanlarida oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari binolari qayta ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Tizimdagi keng ko'lamli islohotlar natijasida mavjud qishloq vrachlik punktlari o'rmda qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida shifokorlarning ish vaqti belgilandi. Qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan birgalikda oltita tor soha mutahassislari pediatr, terapevt, ginekolog, xirurg, stomatolog, UTT vrachi faoliyati ham yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini ham qayta ta'mirlash va imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borildi. Bugungi kunda tez tibbiy yordam shahobchalarining poliklinikalarga ko'chirilganligi ham tibbiy xizmatni uzluksiz, tunu kun davom ettirish imkonini yaratdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur sohadagi islohatlar bugungi kunda o'zining dolzarbligini ko'rsatib bormoqda.

4. Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent-2014.191-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi hisobotlari. 2010 yil. – B.15
6. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi hisobotlari. 2013 yil. –B.43

³ O'zbekiston Respublikasi Ilmiy texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi. M-372-fond, 1-ro'yxat, 82-yig'ma jild, 11-varaq.

⁴ Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma –Toshkent: O'zbekiston, 2012- B 89.

⁵Rustamova X.E, Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent 2014. – B .190

⁶Rustamova X.E. Stojarova. N.K. Tibbiyot tarixi. Toshkent-2014.191-bet.

⁷ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi hisobotlari. 2010 yil. – B .15

⁸ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo'mitasi hisobotlari. 2013 yil. – B .43



4-SINF ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLARIDA “SIFAT SO‘Z TURKUMI” BILAN TANISHTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Davlatova Saidaxon,

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi,

Xodjayeva Muazzamxon Qodirjon qizi,

Qo‘qon universiteti talabasi

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 30

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.924>

KALIT SO‘ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

ona tili, darslik, maktab, sifat so‘z turkumi, metodika, usul, innovatsiya,

Ushbu maqolada bugungi kun ta‘limining dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zbek tili grammatikasidagi mavzulardan biri, xususan, sifat so‘z turkumini o‘quvchilarga o‘ragatishning innovatsion metodlari haqida so‘z boradi. Maqolada 4-sinf ona tili savodxonligi darslarida “sifat so‘z turkumi”ning o‘qitilishi va o‘rganishida innovatsion usullarning roli va ahamiyati muhokama qilingan hamda innovatsion usullar bilan o‘quv jarayonini yanada samarali qilish uchun interaktiv dars usullari, texnologik vositalar va zamonaviy integratsion usullarning tahlili keltirilgan. Natijalar qismida ta‘lim jarayonida o‘tkazilgan innovatsion usullar orqali foydalanishda o‘quvchilarning sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni o‘rganish va ularni amaliy ravishda qo‘llashlari uchun ko‘rsatilgan samarali natijalar bayon qilingan.

Kirish. Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, ularga g‘oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan. Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangma rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan umumta‘lim vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.¹

O‘zbekiston Respublikasining 2020- yil 23- sentabrda O‘RQ-637-son „Ta‘lim to‘g‘risida“gi Qonunida „Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan“,² deyiladi. „Ta‘lim to‘g‘risida“gi qonun bilan tanishib chiqar ekanmiz, bugungiz kunda hukumatimiz tomonidan ta‘lim tizimiga juda katta e‘tibor qaratilayotganligining guvohi bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PF-5850-sonli³, 2020- yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ PF-6084-sonli⁴ Farmonlari ijrosi asosida mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o‘quvchilarining o‘rganayotgan tillarini yanda mustahkamlash va badiiy adabiyotga qiziqirish uchun lotin-o‘zbek yozuvda nashrdan chiqayotgan badiiy asarlar yuqoridagi qonunlarning ijrosi ta‘minlanayotganidan darak beradi. Badiiy asarlar tarkibida jahon adabiyotlarining lotin-o‘zbek yozuvda ekanligi quvonarlidir. Zero bolajonlar maktabda lotin-o‘zbek yozuvdan saboq olishadi. Bo‘sh vaqtlarida esa o‘zlariga qadrdon alifbolarida yozilgan qiziqarli to‘plamlarini bemalol mutolaa qilishlari mumkin.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida“gi⁵ Farmoni ta‘lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar bilim samaradorligini oshirishda darsliklar ta‘minoti, yangi avlod darsliklari hamda o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, jadal suratlarda amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida mamlakatimizda qonun ustuvor ekanligining yaqqol isbotidir. Ta‘limni rivojlantirish nafaqat O‘zbekiston fuqarolari, balki kelajak avlod uchun ham foydali jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 26- maydagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi

tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi⁶ PF-79-sonli Farmoni ijrosi o‘laroq, boshlang‘ich ta‘lim sohasida ilg‘or pedagoglarimiz tomonidan bir qancha innovatsion ta‘lim metodikalari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga pedagoglar tomonidan ona tili fanidan sifat so‘z turkumini o‘rgatishda bir qancha qiyinchiliklar uchrab turadi. Sinfidagi barcha o‘quvchilarning birdek mavzuni tushunishlari, sifat so‘z turkumi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda innovatsion usullarning yetishmasligi bugungi kun ta‘lim tizimidagi muammolardan biri sifatida uchrab turadi.

Quyida o‘n nafar ilmiy izlanuvchilarning sifat so‘z turkumini o‘rgatishdagi taklif qilingan bir qancha usullarini o‘rganib chiqdik.

Adabiyotlar tahlili. Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi Sayfutdinova Durdonaning “Academic research in educational sciences” jurnalidagi “Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitishda muammoli ta‘lim texnologiyalari” nomli maqolasida ona tili darslaridagi zamonaviy ta‘lim berish jarayonida sifat so‘z turkumini o‘qitishda muammoli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik asosi yoritilgan⁷.

TERDU lingvistika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti Toshqulova Zebinoning “Sifat so‘z turkumining uslubiy xususiyatlari” nomli maqolasida sifat so‘z turkumi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Sifatlarning gapda qo‘llanilishi hamda ma‘noviy jihatlarga ko‘ra qanday uslubiy xoslanishga ega bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi. Ta‘kidlash lozimki, sifat so‘z turkumining uslubiy xususiyatlari og‘zaki nutqda uning talaffuzi yonki so‘z ohangidan kelib chiqib belgilansa, yozma matnlarda sifatlarning uslubiy xoslanishi ularning ifodalagan ma‘nosiga ko‘ra tadqiq qilinadi⁸.

“Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarini shakllantirish metodologiyasi” nomli maqolada Mamazoirova Jangil Xamdamovna shunday tadqiqot olib borgan: muallif boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish borasida soha mutaxassislari olib borgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tarixiga nazar tashlaydi. Shuning barobarida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qo‘llaniladigan metodikalar haqida ham nazariy ma‘lumotlar beradi va ushbu metodikalarni tahlil qiladi⁹.

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 3- kurs talabasi Urazova Gulining “Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumlarini o‘rganishda o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish” nomli maqolasida boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumlarini o‘rgatish o‘quvchilarning tilga oid bilimlarini oshirishning eng muhim qismlaridan biri tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib

¹ Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rgatishning mazmuni va vazifalari (abiturtest.uz)

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020dagi O‘RQ-637-son

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019dagi PF-5850-son

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020dagi PF-6084-son

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022dagi PF-134-son

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023dagi PF-79-son

⁷ Nigora N. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanida sifat so‘z turkumini o‘rgatish //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 20. – №. 2. – C. 123-126.

⁸ Z.Toshqulova, Sifat soz turkumining uslubiy xususiyatlari //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 34-37.

⁹ J.Mamazoirova. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarini shakllantirish metodologiyasining adabiyotlarda o‘rganilishi //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 7-10.

chiqiladi. O'quvchilar tushunchalarini, fikr va tavsiflarini batafsil bayon qilish uchun sifat turkumiga taalluqli so'zlardan foydalanishni o'rganishadi. Bu esa natqni amalda o'rganishning boshqa vositalardan biri bo'ladi¹⁰.

“Qadimgi turkiy lug'atlarda sifat so'z turkumiga oid so'zlarning lingvistik tahlili” maqolasining mualliflari Abdullayeva Shahnoza va Xidirova Irodalar “Devoni lug'otit turk” va “At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug'otit turkiyya” asarlarida qo'llangan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni lingvistik tahlil asosida o'rganadilar¹¹.

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi” nomli maqola muallifi Mamazoirova Jangil Hamdamovna ilmiy tadqiqotida boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish borasida soha mutaxassislari olib borgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tarixiga nazar tashlagan¹².

N.O'.Xudoyberdiyeva M.H.Ergashovalarning “Boshlang'ich sinflarda sifat turkumi ustida ishlash metodikasi” nomli maqolasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifat so'z turkumini o'rgatish ustida ishlash metodikasiga doir tushunchalar va qarashlar o'z ifodasini topgan. Maqolada ko'rsatilgan metodlar boshlang'ich 4 ta sinf bosqichi asosida ishlab chiqilgan¹³.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni natijalar qismini shakllantirish uchun tanlab olingan turli o'qitish metodikalari o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Ushbu metodlar ta'lim jarayonlarida ona tilini o'qitish davomida o'qituvchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan metodlar hisoblanganligi bois tanlab olingan. Bu metodlar ichiga “Meni top”, “Testkari piramida”, “Tafakkur” metodlari kiradi. Tadqiqot obyektini sifatida Qo'qon shahar MMTB tasarrufidagi 6 – umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'lib, 4 - sinf o'quvchilari o'rtasida kuzatuv usuli yordamida sinovdan o'tkazildi. Tadqiqotda 30 ta o'quvchi qatnashgan bo'lib, 16 ta o'g'il bolalar 14 ta qiz bolalalar qatnashishdi.

“Meni top” metodikasi

Metodning maqsadi: o'quvchilarga mavzuga mos topishmoq aytish orqali ularning tanqidiy tafakkurlarini oshirish. Berilgan topishmoqni topishda qo'llanilgan predmetning belgilari orqali sifatning ma'no turlarini o'rgatish.

Metodning qo'llanilishi: o'qituvchi o'quvchilarga topishmoqni aytadi va javobini so'raydi.

Masalan: Mayda, yoqutday qizil.
Shirin, nordon, xilma-xil.
Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.

O'quvchilar “Anor” deb javob berishgach, o'qituvchi doskaga anor suratini iladi. O'quvchilarga anor mevasini ko'rsatib, unga savollar berish orqali sifatning ma'no turlari aniqlanadi.

Doskaga ilingan anor mevasi orqali bolalarda “Aqliy hujum metodi” o'tkaziladi. Sifatning ma'no turlarini belgilovchi sohma savollar o'quvchilarga beriladi. Masalan:

Uning rangi qanday? – Qizil (Rang-tus ma'no turi)
Mazasi qanday? – Shirin, nordon (Maza-ta'm ma'no turi)

Hajmi qanday? – Suvli, og'ir (Hajm ma'no turi)
Shakli qanday? – Dumaloq (Shakl ma'no turi)
Xil-xususiyati qanday? – Shifobaxshligi, buta ekanligi (Xil-xususiyat ma'no turi)

“Testkari piramida” metodi

Metodning maqsadi: o'quvchilarga sifat so'z turkumini bildiruvchi so'zlarni o'rgatish, bilimlarini mustahkamlash. Sifat so'z turkumiga mansub o'zaro sinonim va antonim so'zlarni aniqlashni o'rgatish.

Metodning qo'llanilishi: doskaga testkari piramida surati chiziladi. Tanlangan o'quvchilar tomonidan piramidaning eng yuqori qismiga sifatga oid so'zlar yoziladi. O'rta qismiga esa yana boshqa tanlab olingan o'quvchilar tomonidan yozilgan sifatning zid ma'nodagi ko'rinishi (antonim) yoziladi. Antonimga ega bo'lmagan sifatlar doiraga olinadi. Eng so'nggi qismida doiraga olingan so'zlar ishtirokida gaplar tuzish kerak bo'ladi. Yoki piramidaning 2- qismida yozilgan sifatlar qatnashgan eng chiroyli gap tuzish mumkin. Kimning tuzgan gapini namunali deb topilsa, o'sha o'quvchilar rag'batlantiriladi.

“Tafakkur” metodi

Metodning maqsadi: O'quvchilarga matematik shakllar ichida sifat so'z turkumini ot va fe'l so'z turkumlariga bog'lash orqali so'z birikmasini hosil qilishni o'rgatish.

Metodning qo'llanilishi: doskaga faqatgina sifat so'z turkumidagi doiraga olingan so'zlar va kvadrat ichida ot soz turkumidagi so'zlar, uchburchakda esa fe'l so'z turkumidagi so'zlarning qog'ozdagi varianti ilib qo'yiladi. Avval stikerlar yordamida shakllar ichidagi so'zlar yashiriladi. O'quvchilar esa mantiqan u yerda qanday so'zlar yashiringanini topishlari kerak. Keyin esa stikerlar olib tashlanib, doira ichidagi sifat so'z turkumi, kvadrat ichidagi ot so'z turkumi, uchburchak shakl ichidagi fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan bir nechta so'zlar borligi birgalikda aniqlanadi. Endilikda o'quvchilar ushbu matematik shakllar ichidagi so'zlarni bir-biriga bog'lagan holda so'z birikmasi tuzishlari kerak. So'z birikmasini tuzishda o'quvchilarga sifat so'z turkumining ot va fe'l so'z turkumlari bilan ketma-ket bog'lanish yo'llari o'qituvchi tomonidan tushuntirib ketilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot natijalari. Biz maqolada keltirib o'tilgan metodlarni Qo'qon shahar 6- umumiy o'rta ta'lim maktabining 4- “B” sinfidagi 34 nafar o'quvchilari bilan amaliyotda sinab ko'rdik.

“Meni top” metodikasi bo'yicha olingan natijalar




“Testkari piramida” metodi bo'yicha olingan natijalar

¹⁰ Urazova Gul, Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rgatishda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish: <https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-35>. IQRO, 4(1), 162–164. Retrieved from <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/1626> (2023)


¹¹ Shahnoza A., Iroda X. Qadimgi turkiy lug'atlarda sifat so'z turkumiga oid so'zlarning lingvistik tahlili //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 21. – №. 6. – С. 70-72.

¹² Mamazoirova J. H. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 393-396.

¹³ Ergashova M. H. Boshlang'ich sinflarda sifat turkumi ustida ishlash metodikasi //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 134-137.



“Tafakkur” metodi orqali olingan natijalar



Muhokama. Biz Qo‘qon shahar 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 4-“B” sinf o‘quvchilari bilan ona tili fanidan “Sifat so‘z turkumi” mavzusini o‘rganish mobaynida yuqorida keltirilgan metodlarning mavzuni o‘rganish mobaynidagi samarasini kuzatdik. Jumladan, “Meni top” metodikasini qo‘llash orqali o‘quvchilardagi tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlantirildi. Shuningdek, o‘quvchilarga sifat so‘z turkumi qatnashgan topishmoqlar berilganda, yashirilgan predmetni uning belgilari orqali topishni o‘rganishdi. Predmetning belgilari bevosita sifat so‘z turkumi bilan bog‘liq ekanligi haqida o‘quvchilarda tushuncha hosil bo‘ldi.

“Teskari piramida” metodini sinfda o‘quvchilar bilan amaliy qo‘llash sifat so‘z turkumini bildirgan so‘zlarning qarama-qarshi ma‘noga ega bo‘lganlari yoki ma‘nodoshlarini tushuntirishda qo‘l keldi. Darsning yangi mavzuni mustahkamlash qismi ham aynan shu metod orqali amalga oshirildi. O‘quvchilardagi yangi mavzuga bo‘lgan qiziqish kuchayganini va tushunish osonlashganini ilmiy tadqiqotimizning natijalar bo‘limi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Amaliyot jarayonlarida qo‘llagan metodlarimizdan yana biri – “Tafakkur” metodi orqali o‘quvchilar nafaqat sifat so‘z turkumini balki, ot, fe‘l so‘z turkumlarini ham mustahkamladilar. Shuningdek, sifat so‘z turkumiga ot va fe‘l so‘z turkumlarini bog‘lash orqali so‘z birikmalarini

hosil qilishni o‘rganganliklarini kuzatdik. Ayniqsa, matematik shakllar ichiga so‘zlarni yozish jarayoni o‘quvchilarda faollikni yuzaga keltirdi. Bu jarayon o‘quvchilarda sifat so‘z turkumini har tomondan mustahkamlash imkonini berdi.

Xulosa va takliflar. Dars jarayonlarini interfaol metodlar orqali tashkil etish, shubhasiz, foydali samara beradi. Boshlang‘ich ta‘lim fanlari ichida bolalar uchun biroz murakkab bo‘lgan fanlardan biri bo‘lgan ona tili grammatikasiga kirib borar ekanmiz, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan qiziqarli usullarga ehtiyoj bor. Sababi o‘quvchilar uchun bu davrda o‘shish, rivojlanish bilan birga o‘yin faoliyati asosiy o‘rin egallaydi. Qiziqarli o‘yin faoliyatini dars jarayonlariga olib kirish orqali ta‘lim berish mavzuni tushuntirishda yaxshi samara beradi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘qituvchilarning yaxshi bilimiga ega bo‘lishlari muhim. Shuning uchun keyingi ilmiy tadqiqot qilmoqchi bo‘lgan izlanuvchilarga “Sifat so‘z turkumini o‘rgatishdagi xatoliklar” mavzusida izlanish olib borishlarini tavsiya qilgan bo‘lardik. Chunki kuzatuv jarayonlarimizda sifat so‘z turkumini o‘rgatishda aynan “Sifatning ma‘no turlari” bilan tanishtirishda o‘qituvchilar tomonidan biroz chalkashliklar mavjudligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari. (abiturtest.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020dagi O'RQ-637-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019dagi PF-5850-son
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020dagi PF-6084-son
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022dagi PF-134-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023dagi PF-79-son
7. Nigora N. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanida sifat so'z turkumini o'rgatish //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 20. – №. 2. – C. 123-126.
8. Zebiniso T. Sifat soz turkumining uslubiy xususiyatlari//Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4.-C.34-37.
9. J.Mamazoirova Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarini shakllantirish metodologiyasining adabiyotlarda o'rganilishi //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 4 Part 2. – С. 7-10.
10. G.Urazova Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rgatishda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish: – 2023. – <https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-35>.*IQRO*,4(1), 162–11.164. Retrieved from <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/1626>
11. Shaxnoza A., Iroda X. Qadimgi turkiy lug'atlarda sifat so'z turkumiga oid so'zlarning lingvistik tahlili //Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 21. – №. 6. – С. 70-72.
12. J.H.Mamazoirova Boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 393-396.
13. M.H.Ergashova Boshlang'ich sinflarda sifat turkumi ustida ishlash metodikasi //Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 134-137.
14. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G.Xolboyeva, Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi, darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan. Toshkent – 2021,142-145- betlar.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FONETIKA MAVZUSINI O'QITISH BO'YICHA YANGICHA YONDASHUVLAR

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasini o'qituvchisi, O'zRFA doktoranti

Valijonova Moxichexaxon Soxibjon qizi

Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 31

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.925>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Nutq, nutqiy qobiliyat, pedagogik mahorat, jargon, neogolizmlar, o'qituvchi so'z boyligi, ta'sir kuchi, talaffuz, ohang, diktsiya, nutq ifodaviyligi, nutq madaniyati, nutq texnikasi, fonetika, takt.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda Fonetika mavzusini o'qitishda yangicha yondashuvlarning qo'llanilishi va natijada o'quvchilarning bilim olish samaradorligiga qay darajada ijobiy ta'sir qilishi haqida so'z boradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy mahorati, sifatleri va darsda qanday nutqdan foydalanishi haqida bir qancha o'zbek va xorijiy mamlakatdagi olimlarning nazariy va amaliy qarashlari tahlil etilgan, shu bilan birga, turli interfaol metodlar orqali yurtimizdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion texnologiyalardan qay darajada foydalanishlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yaxshi bilim olishi uchun darsni qanday tashkil etish borasida bir qator tavsiyalar berilgan

Kirish. Jahonda globallashtirish jarayoni tezlashayotgan bir paytda tillarni arash, ularni yanada takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunga kelib til ta'limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"¹ qabul qilindi. Bu respublikamizda davlat to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish vao'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qiladi. Respublikamizda ham ona tili o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi fonetika doir o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, uning natijasida imloviy savodxonlikni oshirish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, Prezidentimiz tomonidan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'ydi.²

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslandi. Bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilarning ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirildi. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantirildi. Bu vazifao'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili. Ona tili o'qitish metodikasi taraqqiyotida mustaqil ishlar V.V. Davidov, N.G. Dayri va boshqa pedagog-psixologlar tomonidan didaktikaning asosiy konsepsiyalaridan biri sifatida qaralsa, V.K. Buryak, L.V. Jarovalar mustaqil ishni metod sifatida talqin qilinadi. B.P. Esipov, M.M. Moro, T.I. Shamovalar mustaqil ishlar o'quv faoliyatining shakli; P.I. Pidkasiy esa o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatining vositasi sifatida ko'rsatdilar.³ Mashhur rus olimi K. D. Ushinskiy boshlang'ich maktab

o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblandi. "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatdi. Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir", - deydi u.⁴ Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartining "Kirish" qismida "Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi vao'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish vaardolash, ularga rioya qilishga o'rgatadi",⁵ - deb alohida ta'kidlangan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga vao'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilarning so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun kattaamaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1- sinfdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rgandilar.⁶

Tadqiqot metodologiya. Ona tili fanida o'quvchilarning mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlar xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshirildi. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yaratish, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "BBB", "FSMU" kabilar dars jarayonida o'zlarining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. "Qiyoslash metodi", "Davriy metodi", "6x6x6" kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Shuningdek, ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imlo savodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berildi.

Tadqiqot natijalari. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko'pincha so'zni tovush tomonidan tahlil qilishdan foydalanildi.⁷ Umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarni, xususan, adabiy talaffuz ko'nikmasini to'la

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. Toshkent shahri, 2019 yil. 21- oktabr O'za.

² Muhammadjonova Sayyoraxon (2022). Boshlang'ich sinfda fonetik mashqlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rni. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATION. № 1

³ S.Matchonov, H. Bakiyeva, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldasheva, G. Xolboyeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "Ishonchli hamkor" 5- bet

⁴ Qosimova K. Matchonov S. va boshq: Toshkent. "Noshir". 2009. 178-bet.

⁵ Lexus.uz DTS

⁶ Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005, №5. 5, 6, 7, 8, 9-betlar.

⁷ A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. Toshkent. 2003.

shakllantirish, imloviy savodxonlikni rivojlantirish, soʻz boyligining oshishiga zamin yaratish va mustaqil fikrlashgaoʻrgatish uchun fonetikaga doir oʻquv materiallarining metodik taʼminotini takomillashtirish zarurati mavjud. Maktab dasturiga muvofiq, boshlangʻich sinf oʻquvchilari fonetik grafik koʻnikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yoʻq jarangli va jufti yoʻq jarangsiz undoshlar; soʻzni boʻgʻinlarga boʻlish, urgʻuli boʻgʻinni talaffuzga koʻraamaliy farqlash koʻnikmalariga ega boʻldilar. Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy oʻzlashtiradilar, ammo ular maxsus oʻqigunlariga qadar soʻzni boʻgʻinlarga boʻlishni, soʻzdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf oʻquvchilarida soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, boʻgʻinlarga boʻlish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish koʻnikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, oʻz navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, soʻz tarkibida bir-biriga taʼsiri kabi ayrim elementar bilimlarni oʻzlashtirishga imkon beradi 1-sinfda fonetika va grafikani oʻrganishga katta oʻrin beriladi, chunki oʻquvchilar oʻqish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar.

Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlandi, takomillashtirildi.⁸ Bugungi kunda taʼlim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Psixologik nuqtayi nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida oʻquvchini qiziqtirish lozim. Aks holda, harakat samarasiz boʻlishi mumkin. Shu maʼnoda fonetika oʻqitishda ham turli noanʼanaviy dars usullaridan foydalanish lozim. Didaktik oʻyinlar nazariy amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yoʻnalishdagi turlarga ajratildi. Ular oʻquvchilardagi tahlil qilish mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, oʻlchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq oʻstirish, til oʻrganish, yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantirdi. Shuni takidlab oʻtish lozimki, taʼlim jarayonida uyushtiriladigan didaktik oʻyinlar oʻquvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblandi. Unga dam olish yoki vaqt oʻtkazish vositasi emas, balki taʼlim beruvchi faoliyati sifatida qarash lozim.⁹

“Fonetika” boʻlimi qisqa qilib aytganda, nutq tovushlarini oʻrganuvchi boʻlim hisoblanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga fonetika mavzularidan foydalanib qisqa matnlar tuzish kabi topshiriqlar berilsa ular bu mavzularni yanada chuqurroq oʻrgandi. Fonetika oʻquvchilarga nimalarni oʻrgatdi ?

Fonetik bilimga asoslangan holda 1- sinf oʻquvchilari savod oʻrganish davrida oʻqishni va yozishni bilib oladi. Fonetik bilim soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish (tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, urgʻuli boʻgʻinni farqlash, orfoepik meʼyorga rioya qilish) asosini tashkil etadi. Fonetik bilim morfologik va soʻz yasashiga oid bilimlar bilan birga oʻquvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi) shakllantirish uchun zamin boʻladi. Fonetik bilim gapni ohangiga koʻra toʻgʻri aytish, logik urgʻu va gap qurilishidagi toʻxtamlarga rioya qilish uchun zarur. Soʻzning tovush

tomonini bilish uning maʼnosini tushunish va nutqda ongli qoʻllash uchun muhimdir.

Oʻqituvchilarning boshlangʻich taʼlimda fonetika darslarini oʻtishida metodlar va qiziqarli oʻyinlardan foydalanishi darsning samarali oʻtishini taʼminlaydi. Masalan, “Boʻgʻin” mavzusi darsida “Keyingi boʻgʻini top” metodi qoʻllanilsa oʻquvchilarning boʻgʻin nima ekanligini, uning turlarini va eng asosiy darsni qiziqarli oʻtilishi va oʻrgangan bilimlarni takrorlash imkoniyatini beradi. “Tutuq belgisi” metodini boshlangʻich sinflarda qoʻllab koʻrilganda ularda tutuq belgisi haqidagi maʼlumotlarni qanchalik oʻzlashtirishganini koʻramiz. Bu metod orqali tutuq belgisi qatnashgan xalq maqollarini qanchalik koʻp bilishlarini sinash mumkin. Bunda oʻquvchilarda ikki jamoada ishlash orqali qiziqish, energiya paydo boʻldi va bolalarning oʻtilgan mavzularga nisbatan bilimlari yanada ortdi.

Xulosa va takliflar. Maʼlumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga boʻlinadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni oʻquvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi ogʻiz boʻshligʻidan erkin ravishda oʻtadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo ogʻiz boʻshligʻida toʻsiqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, baʼzan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) boʻgʻin hosil qilish xususiyati (unli tovushlar boʻgʻin hosil qiladi, undosh tovushlar boʻgʻin hosil qilmaydi).

Oʻquvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yoʻl qoʻymaslik, aksincha, 1-sinfda bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq aʼzolarining vaziyatini kuzatish koʻnikmasini oʻstirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlar oʻzlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta oʻzlashtirishga imkon berishi bilan birga, oʻquvchilarning aqliy qobiliyatini oʻstirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga oʻrganadi.

Oʻquvchi faoliyatini yuqori darajadagi koʻrsatkichi, oʻquv-biluv faoliyatini oʻzi tashkil etishi, iroda va faoliyatning oʻquvchi ongining predmetiga aylinishidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, taʼlim beruvchi maqsadga eltuvchi usullarni tanlay bilishi, oʻquv-tarbiyaviy jarayon yaxlitligini taʼminlashi lozim. Innovatsion texnologiyalarni taʼlim jarayoniga joriy etish, taʼlim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylantirildi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida oʻquvchi nutqini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashgaoʻrgatish, bugungi globalashuv va jamiyat taraqqiyoti talabi darajasiga mos keladigan isteʼdodli, iqtidorli, mulohazali, dunyo qarashi keng ijodiy fikrga ega boʻlgan komil insonni tarbiyalashni taqozo etadi. Shunday ekan, maktablarda boshlangʻich sinflarda ona tili fonetika darslariga muvofiq keladigan samarali usullarni belgilash va ularni amalga oshirish oʻquvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, taʼlim jarayonini toʻgʻri tashkillashtirish oʻqituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.Toshkent shahri,2019 yil. 21- oktabr OʻZA.
2. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha yangi tahrirdagi davlat taʼlim standarti // Boshl. taʼl. jurnali. Toshkent, 2005, №5. 5, 6, 7, 8, 9-betlar.
3. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi va imlosi. Toshkent. 2003.
4. A. Gʻulomov, M. Qodirov, M. Emazarova, A. Bobomurodova, N. Alavutdinova, V. Karimova. Ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent-2012. 144-bet.
5. B. Maʼqulova, T. Adashboyev. Kitobim- oftobim (1-sinf uchun sinfdan tashqari oʻqish kitobi). Toshkent. “Oʻqituvchi” 1999.

6. QosimovaK. Matchonov S. va boshq: Toshkent. “Noshir”. 2009. 178-bet.
7. S.Matchonov, H. Bakiyeva, X. Gʻulomova, Sh. Yoʻldasheva, G. Xolboyeva. Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent. “Ishonchli hamkor” 5- bet
8. <https://lex.uz/Davlat> taʼlim standarti)
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich> sinfda fonetik mashqlarni oʻqitishda innovatsion texnologiyalarning omi 1/viewer
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich> sinflarda fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirish usullari/ viewer

⁸B. Maʼqulova, T. Adashboyev. Kitobim- oftobim (1-sinf uchun sinfdan tashqari oʻqish kitobi). Toshkent. “Oʻqituvchi” 1999.

⁹Jumakulova M. X. “Boshlangʻich sinflarda fonetikaning nazariy asoslarini shakllantirish usullari” maqolasi.



NODIRA MELODIES OF NAVOI

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

Kokand University, teacher of the Department of Education,
Doctoral student of UzRFAO Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 32

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.926>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Ghazal, tatabbu, weight, rhyme, artistic art, skill, tradition, following, talent, lyric, creativity, devan, poetry, artistry, classical, atmosphere, era, plot, creator, pseudonym, space and time, form, content, idea.

ANNOTATION

The article shows the influence of Alisher Navoi's heritage on the work of Mohlaroyim Nadira, as well as the example of Navoi-like melodies in the work of the poetess, and her introduction to the poet's ghazal. Although she lived in a very complicated political life, the poet made a great contribution to the development of our classical literature of the 19th century, gathered around her people who enjoyed art, and educated them. As a result, female poets also actively participate in literary life in Kokand. They also created divans, their works were included in collections, tazkiras, their recognition and notable aspects are mentioned in the article. The fact that Nodirabegim is the owner of high artistic thinking, he is also famous as a statesman with his active social activities, and at the same time, the aspects of Nodirabegim's lyrics, rich in deep and philosophical observations, are presented in a detailed study.

Introduction. The great figures who left a deep mark at a certain stage of the nation's history, contributed to the development of socio-philosophical thinking to one degree or another, and whose exemplary work focused on the celebration of goodness, were in the hearts of the people, will always belong to eternity. Masterpieces of artistic perfection do not fade away - they are like a huge caravan that has gone through the storms of time to eternity. Amir Umar Khan - Amiri is among such unforgettable figures who have a special place in the history of our culture as an enlightened ruler and a mature poet.

A special event in the history of the Uzbek classical art of words, the literary environment founded by Amiri played a special role in the emergence, development and formation of an important link of our literature, was one of the talented creators of his representatives. The works of Amiri, who was the initiator and patron of this literary environment during the Shura period, when class relations prevailed not only in society, but also in literature, and his followers and officials who were engaged in artistic creation, were labeled "palace literature" and pushed to one side. was placed.

In the past, not a single poet could rise to the level of creating a divan. It is not for nothing that Sahibdevan Amiri is mentioned with special respect in tazkira and bayaz. In most cases, the poets who composed the poem were the leading representatives of the literary environment of their time and had a certain influence on the literary process. Amiri wrote with equal skill in Uzbek and Persian-Tajik languages, and his collection consists of works created in both languages. As much as he was influenced by his great predecessors such as Hafiz, Kamal Khojandi, Lutfi, Jami, Navoi, Babur, Fuzuli, Bedil, he had a strong creative influence on the poets of his time and later. We can see its influence in the works of many poets from Nadira to Hamza.

In addition, Amiri's incomparable service to our culture is the fact that he united more than seventy poets around him and founded and sponsored a huge literary school, which entered the history of Uzbek literature under the name "Kokand literary environment".

After the Herat literary environment founded by Alisher Navoi, Uzbek literature rose to a new peak of development during the time of Amir Umar Khan and his life companion Mohlaroyim Nadira in Kok. In contrast to the literary environment of Herat, the volume of literary works created in Uzbek and the number of Uzbek-speaking poets increased in the Kokand literary environment. As a result, during this period, more than 20 master Uzbek poets made a valuable contribution to the enrichment of our classical poetry.

Literature review. "In Eastern classical poetry, it is a widespread tradition for several artists to create works based on one theme and one plot, and the phenomenon of tatabbu was a high manifestation of this tradition"¹. "Tatabbu not only shapes the skills of one or another poet, but also has a positive effect on the development of literature. Because by the means of tatabbu, new themes, ideas, images, pictorial means, genre and style enter literature, and new traditions emerge. Tatabbu is not an imitation, but the subject-idea and formal elements of the work to

which the tatabbu is connected, developing it in terms of content and form, achieving its own originality"². In this respect, the famous poet Nodirabegim's lyrics occupy a special place in the literary life of Kokand in the first half of the 19th century. In terms of artistic perfection, Nadira was one of the leading artists of his century. She is the owner of two divans, which are arranged in two languages. The poet used the pseudonyms Nadira and Komila for her collection of Uzbek poems. He gave the pseudonym Maknuna to the poems included in his collection in Farsi-Tajik language. "His poems are completely original both in terms of form and content. There are absolutely no imitative poems in the poet's divan. Each of his ghazals is an independent, original work"³. Although she lived in a very complicated political life, the poetess made a great contribution to the development of our classical literature of the 19th century, she gathered around her people who enjoyed art and educated them. As a result, female poets also took an active part in literary life in Kokand. They also created divans, their works were included in collections, tazkiras, and received recognition and attention. Nodirabegim was not only the owner of high artistic thinking, but also famous as a statesman with his active social activities. Nadirabegim's lyrics are full of deep and philosophical observations. "In Nadira's poems, the motives of complaining about the times and complaining about one's fate, which are seen in the works of other poets, are not heard. This is explained by the fact that he was one of the persons at the top of social life. But the poetess appeared as a singer of humanity, love and loyalty."⁴

Research methodology. Reading Nadira's sincere thoughts about loyalty, you involuntarily remember Hazrat Navoi. Nadira considered Alisher Navoi to be her mentor in terms of creativity.

In the analysis of Nadira's work, work was done based on comparative, typological, hermeneutic, structural and biographical methods of literary studies. By means of a comparative analysis, scientists can determine the similarities and differences in the work of Nadira, influences and other innovations. Typology involves dividing literary works into types or categories based on common characteristics or themes.

The structural method is aimed at analyzing the basic structure of a literary work, including its organization, narrative methods, symbolism and motives. Using the structural method, scholars can examine the formal elements of Nadira's writing, such as plot development, character dynamics, narrative point of view, and the use of literary devices. This analysis is artistic of Nadira

Research results. In Nadira's poetry, she is portrayed in the traditional way, that is, a lover who fights for love and agrees to any hardships to achieve her goal. In particular, the following example mentions the hardships Farhad endured to reach his lover. At the same time, in the following verse, it is said that the sufferings of hijran are several times more than Farhad's:

Don't give me the ratio of my madness,
Qilurmu choru hayshak tobi such enthusiasm.

¹ Imomnazarov M. Navoiy va fors mumtoz adabiyoti: tatabbu va talqin // Alisher Navoiy ijodi va Sharq adabiyoti (Ilmiy maqolalar to'plami). - Toshkent: Sharqshunoslik instituti. 2011. - B. 38

² Ochilov E. Tatabbu – mahorat maktabi // O'zbek tili va adabiyoti, 2018, № 1, - B. 47.

³ Aziz Qayumov. Asarlar. 10 tomlik 7- jild, 1- kitob. Toshkent, 2010. 155-b

⁴ Aziz Qayumov. Asarlar. 10 tomlik, 7- jild. 151-b.

Don't imitate me at the border, Farhad.
Do not smoke in vain on Firaq Mountain.
It's not equal to the manga Kohkan bila Majnun
They had one sorrow, but I have a thousand sorrows⁵.

In uzbek:

Mening jununima bermangiz nisbat,
Qilurmu xoru xashak tobi shu'lai g'ayrat.
Chekarda jon manga taqlid qilmasun Farhod,
Firoq tog'ida behuda chekmasun kulfat.
Manga barobar emas Ko'hkan bila Majnun
Alarda bir g'am edi,lek menda ming hasrat

Nadira compares her feelings about the pilgrimage to her beloved shore to the fate of Laila and Majnun. They seem to depict the fate of people in real life rather than the fate of Layli and Majnun, who became the heroes of many works of fiction. In particular, in the following verses:

Hard work is the pain of migration,
Lord, make the difficult thing easy for me.
I made the steppes and deserts willingly,
The story of Madnun is finished.⁶

In uzbek:

Mushkul ishdur dardi hijron kulfati,
Yo rab, ul mushkulni qil oson manga.
Dashtu sahrrolarni qildim ixtiyor,
Bo'ldi Majnun qissasi burxon manga.

In this ghazal, the poet expresses the mental state of the lyrical hero, his experiences in connection with the fate of a person known and famous among his contemporaries:

I'm sorry for my poor devan, O poor people,
I was a wise man, Majnunshior seven days away.

In uzbek:

Yorsiz devonamen ma'zur , ey ahli xirad,
Oqili davron edim, Majnunshior etti firoq.

In the above stanza, the poet compares herself to Majnun through the image of a lover, that is, she says, "I was smart, I became a madman, but Majnun made me cry."

Benazir poetess Nadira learns to think about a person in the language of poetry and to speak on the subject of love from the great genius of Navoi. The inspirational power of Navoi's genius was extremely great in the improvement of his ghazals in the field of idea-artistic, subject-content, and in his development as an incomparable master of poetry. This, in turn, can be seen in the fact that Nodira's work served as a creative school for poets after her. Literary scholar M. Kadirova, who studied Nodira's work very thoroughly, fully covers this topic in her research. "From her early experiences, Nadira considered the classics of Eastern literature, such as Lutfii and Navoi, Fuzuli and Bedil, to be her teachers. They were inspired by the strong social idea in their works, and they wrote verses to their ghazals, attached mukhammas. Nadira's great faith in Navoi's work is clearly visible in her mukhammas".⁷

As we browse through the divans of Nadirabegim, we can see that the poetess was directly inspired by some of Alisher Navoi's ghazals and created tatabbu-ghazals that express the pleasures and pains of her female heart in the style of these ghazals, radif-u rhymes, artistic symbols, themes and content. We observe in comparison to the famous ghazal of the great poet, which begins with "Kozingga tani notavonim fido", Nodirabegim creates his own ghazal, which begins with the verse "Labing shahdi nobiga jonim fido". Navoi's ghazal:

In your eyes, I can't help myself,
My soul is devoted to your smooth la'ling.

In uzbek:

Ko'zingga tani notavonim fido,
Ravonbaxsh la'lingga jonim fido.

This ghazal, placed in the "Navodir ush-shabab" divan, was created in a musaquli maqsur weight:

Fauvlun fauylun fauylun fauylun

The following ghazal created by the poetess Nodirabegim is also in harmony with the weight of Hazrat Navoi's ghazal:

My soul is devoted to the martyr of Labin,
I am devoted to you.⁸

Foulun Foulun Foulun Foulun

In uzbek:

Labing shahdi nobig'a jonim fido,
Xironom qadingga ravonim fido.]

"Ravonbakhsh"⁹ is a Persian word that means "giving life, reviving". In traditional Eastern poetry, the lips of a lover give life to the dead. In this way, the poet reflected the contradiction in the image of the lover: if the eyes are killing, while the lily brings the quality of resurrection and depicts the selfless image of the lover on the mat of the gazelle through the art of contrast, the poetess Nadira put her soul on the pure honey lips of the yor. Depicting the image of a lover who is ready to sacrifice his life if necessary for his beautiful stature, he creates a unique example of the art of tashbih through the phrases "labing shahdi" and "khiromon qad".

Navoi:

My heart is full of love,
I am open to you.

In uzbek:

Bel-u og'zing oldi tanu jonnikim,
Anga oshkoru nihonim fido.

In classical ghazals, the waist and mouth of the lover are depicted so thin that the mind cannot believe that the mouth is so small and the waist is so thin. In fact, in the 1 st verse of the poem, the poet gives the definition of these members, and in the 2 st verse, the sentence "Oshkoru nihon" is applied to them proportionally with the phrase "there was one, one was not", and he gave a good explanation¹⁰ a beautiful example was created.

Nodirabegim:

Fear and suspicion remained in Belu's mouth,
If the morning dies, fear and doubt.

In uzbek:

Belu og'zida qoldi vahmu gumon,
Ne tong o'lsa vahmu gumonim fido.

The poetess is depicted as a lover who is suspicious of the small and thin waist and mouth of a man, and even sacrifices this suspicion until morning.

Navoi:

Bagir la'li, spend it when you take the eyeballs,
I'm not saying, I'm sorry.

In uzbek:

Bag'ir la'li , ko'z durri olingda sarf,
Demaykim, sanga bahru konim fido.

Through the image of a lover, the poet does not praise his lover by devoting the things he doesn't have. On the contrary, he portrays the image of a lover who is ready to give his heart and all his love to him if necessary. He refers to the art of metaphor through the sentences "bahru kon".

Nodirabegim:

Two tulips to your ruby,
My two eyes are precious.

In uzbek:

Iki la'li nobingni yoqutig'a,
Iki chashmi gavharfishonim fido.

The poet turns to the art of metaphor through the phrases "two pearls", "two eyes", "gevarfishon", "ruby" and creates the image of a lover who is ready to sacrifice both eyes for the sake of the land.

Hazrat Navoi:

Where is the hustle and bustle in the Fano steppe,
Kim, ul sairg'a madam fido,-

In uzbek:

Fano dashtida qani ovvoralik,
Kim,ul sayrg'a xonumonim fido,-

in their mystical observations, one is ready to sacrifice his life for supreme love, while the other is ready to give his wife for the hustle and bustle of death.

Take your heart and soul from Navoi.
I turn to you, my dear, I am devoted.

In uzbek:

⁵ Nodira-Komila. Devon. -Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2001.42-44-b.

⁶ Qodirova M.Navoiy va Nodira.Adabiy me'ros.,1-kitob.Toshkent "Fan".1970.101-bet

⁷ Durdon Zohidova.Uslubiy qo'llanma.-Toshkent,"Muharrir" nashriyoti,2012.176-bet

⁸ Nodira-Komila. Devon. -Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2001.45-bet

⁹ Navoiy asarlari lug'ati.-Toshkent,G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1972.158-bet

¹⁰ Anvar Hojiahmedov.Mumtoz badiiyat malohati.-Toshkent,"Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati,1999.28-bet

Navoiydan olding ko`ngul,jonni ham,
Sanga aylay,ey dilsitonim,fido.-

The poet describes that in the image of a lover, the soul and the heart cannot be separated, and the lover is described as "dilsiton" - an entertainer. If the lover, that is, the lover, has taken the heart, it means that the soul will also be a sacrifice for him.

In praise of the ghazal, the punctuated poetess:
What a sad love for me, Nadira,
If so, I will sacrifice my life.

In uzbek:
Nuktadon shoira g'azalning maqtasida:
Ne g'amdur menga ishq aro Nodira,
Agar bo'lsa jonong'a jonim fido.

Table 1.
Hazrat Navoi and poetess Nadira used the following words and sentences as rhyming words in ghazal:

T/R	Rhyming words used by Navoi	Origin	Explanatory meaning in the dictionary	Rhyming words used by Nadira	Origin	Explanatory meaning in the dictionary
1	Notavonim	Persian	Weak, weak	Jonim	Persian	Soul, soul, heart
2	Jonim	Persian	Soul, soul, heart	Ravonim	Persian	Soul, soul, life
3	Ravonim	Persian	Soul, soul, life	Jahonim	Persian	World, world
4	Oshkoru nihonim	Persian	Obvious, hidden	Vahmu gumonim	Arabic	Fear and suspicion
5	Bahru konim	Arabic-Turkish	Sea and mine	Mehribonim	Persian	my sun
6	Yaxshi-yomonim	Turkish	Good and bad	Gavharfishonim	Persian	Pearl quality
7	Xonumonim	Persian	Housing	Notavonim	Persian	Weak, weak
8	Dilsitonim	Persian	He who takes the heart, who takes the heart	Jonim	Persian	Soul, soul, heart

In Nadira's work, we can see the traces of literary influence, such as the words and expressions used by Navoi, the use of symbols and allusions, the formation of verses, verses and full-length ghazals like Navoi, and the use of Navoi's style.

Conclusion. In conclusion, Nadirabegim, who considered Navoi as his teacher, also found similes and talmehs in his ghazals. comes. The difference in Mohlaroyim's use of talmeh in Navoi's work is that the lover expresses his love for the lover, not for the mistress, through these images. If the images of Shirin and Layli in Navoi's work represent the lover, in Nadira's work, these images represent the lover. In particular, we can see it in Nodira's radiative ghazal "Figonkim, yor iskhi sabri konglumdin judo ker". As the theme of love is widely interpreted in the works of classical poets, it is written in a unique way in the works of

Reference list:

1. Imomnazarov M. Navoiy va fors mumtoz adabiyoti: tatabbu va talqin // Alisher Navoiy ijodi va Sharq adabiyoti (Ilmiy maqolalar to'plami). - Toshkent: Sharqshunoslik instituti. 2011. - B. 38
2. Ochilov E. Tatabbu – mahorat maktabi // O'zbek tili va adabiyoti, 2018, № 1, - B. 47.
3. Aziz Qayumov. Asarlar. 10 tomlik 7- jild, 1-kitob.Toshkent, 2010. 155-b
4. Aziz Qayumov. Asarlar. 10 tomlik, 7- jild. 151-b.
5. Nodira-Komila. Devon. -Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2001.42-44-b

Navoi and Nodira. Navoi's work was in the special attention of artists in the medieval and khanate period. In Nadira's work, the pleasure and consciousness of Navoi's ghazals can be felt in almost every ghazal.

*Hold on to the goodness of good reason,
Otar calls himself Neknom.*

In uzbek:
*Xusho oqilki aylab yaxshilik bunyodini mahkam,
O'tar bu dayri fonyidan o'zini neknom aylab.*

As noted by the poet Nodirabegim, the good name of Navoi and Nodira will live forever in centuries and generations due to their good service to the people and humanity.

6. Qodirova M.Navoiy va Nodira.Adabiy me'ros.,1-kitob.Toshkent "Fan".1970.101-bet
7. Durdona Zohidova.Uslubiy qo'llanma.- Toshkent,"Muharrir"nashriyoti,2012.78-bet
8. Nodira-Komila. Devon. -Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2001.45-bet
9. Navoiy asarlari lug'ati.-Toshkent,G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1972.158-bet
10. Anvar Hojiahmedov.Mumtoz badiiyat malohati.- Toshkent,"Sharq"nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati,1999.28-bet



NOIQTISODIY YO'NALISH TALABALARI UCHUN IQTISODIY BILIMLARNING AHAMIYATI

Kurbonov Baxodir Ergashevich

"Qo'qon universiteti" Andijon filiali,
ijtimoiy gumanitar va pedagogika fakulteti dekani, p.f.f.d., dotsent.

kurbanoff75@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 33

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.927>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

noiqtisodiy yo'nalish, iqtisodiy bilim, ahamiyat, kasbiy mahorat

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun iqtisodiy bilimlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot maqsadi noiqtisodiy yo'nalish talabalarining iqtisodiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va ularning kelajakdagi kasbiy mahorati uchun iqtisodiy bilimlarning qanchalik muhim ekanligini asoslashdan iborat. Maqolada kuzatish va tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy bilimlarning noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun ahamiyati katta ekanligi aniqlandi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda har qanday mutaxassis iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, olib borilgan tadqiqotlar noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun iqtisodiy bilimlarga oid maxsus kurslar joriy etilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Bu kabi kurslar talabalarni real hayotda duch keladigan amaliy iqtisodiy muammolarni yechishga o'rgatish, ular uchun zarur bo'lgan iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomaga natijalariga ko'ra, talabalar ayniqsa shaxsiy moliya, biznes boshqaruvi, bozor iqtisodiyoti va iqtisodiy tahlil kabi mavzularga qiziqish bildiridilar. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy to'garak va musobaqalar tashkil etish, aholining barcha qatlamlari orasida iqtisodiy bilimlarni ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida iqtisodiy fanlar o'qitilishini takomillashtirish va jamiyatda iqtisodiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kirish. Zamonaviy dunyoda insonlarning ko'pchiligi o'ziga yoqqan kasb tanlaydi va shu sohada ta'lim oladi. Shu bilan birga, iqtisodiy bilimlar ham har bir kishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bugungi kunda iqtisod kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Iqtisodiy bilimlar noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun ham juda zarur hisoblanadi.

Avvalambor, noiqtisodiy yo'nalish talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida iqtisodiy bilimlarning o'rni katta. Chunki ular tanlagan soha doirasida faoliyat yuritayotganda, moliyaviy, iqtisodiy masalalarga duch kelishlari tabiiy.¹ Masalan, tibbiyot yo'nalishi talabasi shifokor sifatida faoliyat olib borishda kasalxonaning moliyaviy holatini tushunishi, xarajatlar va daromadlarni tahlil qila olishi lozim bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchi sifatida faoliyat yuritayotganda maktab yoki universitet budjetini tushunish, ta'lim xarajatlarni tahlil qilish zarur bo'ladi.

Bundan tashqari, Djuraev & Xoliqov² ta'kidlaganidek, noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun iqtisodiy bilimlar ularning kundalik hayotida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish, oqilona iste'mol qilish, soliqlar to'lash kabi masalalarda iqtisodiy bilimlar juda foydali bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi gipotezani ilgari surish mumkin: noiqtisodiy yo'nalish talabalarini ham iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari lozim va bu ularning kasbiy va kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy bilimlarning ahamiyati mavzusi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ishlarida o'z aksini topgan. Xususan, Vaxobov va boshqalar³ tomonidan nashr etilgan "Iqtisodiy nazariya asoslari" darsligida barcha soha mutaxassislari uchun iqtisodiy bilimlarning zaruriyati asoslab berilgan.

Ergashev & Farxodjonova⁴ esa noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun alohida iqtisodiy fan o'qitilishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, bunday kurs talabalarga iqtisodning asosiy tushunchalari, bozor iqtisodiyoti tamoyillari va iqtisodiy siyosat yo'nalishlari haqida bilim beradi.

Djuraev & Xoliqov⁵ o'z tadqiqotlarida noiqtisodiy yo'nalish talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish bo'yicha takliflarni

ishlab chiqqanlar. Ular iqtisodiy fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish, real hayotiy misollar keltirish va talabalarda iqtisodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydilar.

Xorijiy tadqiqotchilardan Stigler⁶ har qanday oliy ma'lumotli kishi, shu jumladan noiqtisodiy yo'nalish bitiruvchilari ham iqtisodiy bilimlar asoslarini o'zlashtirishlari zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, iqtisodiy tushuncha va tamoyillar har bir fuqaroga kundalik qarorlar qabul qilishda asqotadi.

Walstad & Soper⁷ esa Amerika Qo'shma Shtatlarida oliy ta'lim muassasalarida noiqtisodiy yo'nalish talabalarini uchun iqtisod asoslari kursini joriy etish taklifini ilgari surganlar. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday kursni o'qigan talabalar iqtisodiy bilimlarni yaxshi o'zlashtirganlar va real hayotda qo'llay olganlar.

Becker⁸ iqtisodiyot fanining ahamiyatini uning kundalik hayot va inson faoliyatidagi barcha jabhalarni qamrab olishida ko'radi. Uning ta'kidlashicha, bugungi kunda iqtisodiy bilimlar faqat iqtisodchilar uchun emas, balki muxbirlar, siyosatchilar, tadbirkorlar va oddiy fuqarolar uchun ham zarur ko'nikma hisoblanadi.

McEachern⁹ o'z tadqiqotida iqtisodiy bilimlar jamiyat rivojlanishi va farovonligida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, avvalo yoshlar orasida iqtisodiy savodxonlikni oshirish, ularning tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mamlakat kelajagi uchun muhim investitsiya hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Shodiyev¹⁰ oliy ta'lim muassasalarida boshqa yo'nalishlar uchun iqtisodiy fanlarga oid maxsus kurslar joriy qilinishi lozimligini ta'kidlaydi. Bunda talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida duch kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy masalalarga e'tiborni qaratish muhimligi uqtiriladi.

Qosimova va Jalolova¹¹ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy savodxonlik masalalariga alohida urg'u berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi kunda nafaqat iqtisodchi mutaxassislari, balki barcha sohalar vakillari, jumladan, talabalar uchun ham moliyaviy bilimlar juda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Ergashev, I. & Farxodjonova, N. (2020). Integration of national culture in the process of globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 477-479.

² Djuraev, Z.X. & Xoliqov, S.T. (2020). Noiqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari. *Iqtisod va moliya*, No4, 34-39.

³ Vaxobov, A.V., Tadjibayeva, D.A., & Xajibakiyev, Sh.X. (2014). *Iqtisodiy nazariya asoslari*. Darslik. Toshkent: Baktria press.

⁴ Ergashev, I. & Farxodjonova, N. (2020). Integration of national culture in the process of globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 477-479.

⁵ Djuraev, Z.X. & Xoliqov, S.T. (2020). Noiqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari. *Iqtisod va moliya*, No4, 34-39.

⁶ Stigler, G. J. (1970). The case, if any, for economic literacy. *The Journal of Economic Education*, 1(2), 77-84.

⁷ Walstad, W. B., & Soper, J. C. (1988). A report card on the economic literacy of US high school students. *The American Economic Review*, 78(2), 251-256.

⁸ Becker, W. E. (2007). The importance of economics education. Transcript of speech at Ohio University Economics Department Commencement. Retrieved from <https://www.ohio.edu/instruct/becker/speech.doc>

⁹ McEachern, W. A. (2016). Economic education for life. *The American Economist*, 61(2), 119-125.

¹⁰ Shodiyev, T. Sh. (2021). *Iqtisodiy fanlarni o'qitishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish*. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot.

¹¹ Qosimova, D. S. & Jalolova, D. F. (2019). Importance of financial literacy in market economy. *Theoretical & Applied Science*, (12), 350-355.

Nosirova & Umarov¹² noiqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida iqtisod fani o'qitilishidagi muammolarni tahlil qilgan. Xususan, mualliflar iqtisodiy fanlarning o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilash, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliyot bilan bog'liqlikni kuchaytirish zarurligini alohida qayd etadilar.

Yuqoridagi tadqiqotlar noiqtisodiy yo'nalish talabalar uchun iqtisodiy ta'limni takomillashtirish va rivojlantirish masalasi nafaqat mahalliy, balki xorijiy olimlar diqqat markazida ham turganligini ko'rsatadi. Ular iqtisodiy fanlarning mazmun-mohiyatini talabalar ehtiyojidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish, amaliy yo'nalganlikni kuchaytirish, interaktiv va raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid qimmatli fikr-mulohazalarni ilgari suradilar.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarning aksariyati umumiy ta'lim yo'nalishlari doirasida olib borilgan bo'lib, aniq yo'nalishlar kesimida iqtisodiy bilimlarning o'rni va ahamiyatini yoritishga oid izlanishlar kam o'rganilgan. Shuningdek, noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari doirasida iqtisodiy fanlar o'qitilishining pedagogik shart-sharoitlari, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishning innovatsion usullariga oid masalalar ham tadqiqotlarda o'z aksini topmagan.

Bundan tashqari, oliy ta'limni raqamlashtirish, masofaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida noiqtisodiy yo'nalish talabalariga iqtisodiy bilimlarni onlayn formatda yetkazish imkoniyatlari ham alohida o'rganishni taqozo etadi. Chunki aynan raqamli texnologiyalar birinchi navbatda ta'lim samaradorligini oshirishga, uni talabalarga qulay shakl va vositalar orqali taqdim etishga imkon yaratadi. Shu bois, kelgusi tadqiqotlarda noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari uchun masofaviy iqtisodiy kurslar ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish samaradorligini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mavjud tadqiqotlar noiqtisodiy yo'nalish talabalar uchun iqtisodiy ta'limning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu boradagi mavjud muammolarni hal etish, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish, iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bo'yicha yanada chuqur izlanishlar olib borish lozim. Chunki bu jarayon nafaqat talabalarga kerakli bilim va ko'nikmalarni beradi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kuzatish va tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik qismi sifatida Respublikadagi 2 ta Oliy ta'lim muassasasida 100 nafar bakalavriat talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma noiqtisodiy yo'nalish talabalarining iqtisodiy bilimlarga bo'lgan munosabati va ehtiyojini aniqlashga qaratildi.

So'rovnoma natijalari SPSS dasturi yordamida tahlil qilindi, chastota va foizlar hisoblandi. Shuningdek, tomonidan bayon etilgan iqtisodiy bilimlarga oid masalalar konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, aksariyat noiqtisodiy yo'nalish talabalar (68%) iqtisodiy bilimlar uchun foydali ekanligini e'tirof etdi. Shuningdek, talabalar 72 foizi iqtisodiy fanlarni o'rganishdan manfaatdor ekanini bildirdi.

Respondentlarning 82 foizi iqtisodiy bilimlar kundalik hayotda, xususan shaxsiy moliya boshqaruvida zarur ekanligini ta'kidladilar. Bundan tashqari, 79% talaba kelajakdagi kasbiy faoliyatida iqtisodiy bilimlarga duch kelishi mumkinligini qayd etdi.

So'rovnoma davomida talabalardan ular qaysi iqtisodiy mavzular haqida ko'proq bilishni istashlari so'raldi. Natijalarga ko'ra eng ko'p qiziqish uyg'otgan mavzular quyidagilar bo'ldi:

Shaxsiy moliya boshqaruvi (92%)
Biznesni boshqarish (74%)
Bozor iqtisodiyoti asoslari (67%)
Iqtisodiy tahlil (61%)

Shunday qilib, olingan natijalar noiqtisodiy yo'nalish talabalar iqtisodiy bilimlarga ehtiyoj sezayotganini va bunday bilimlar ular uchun foydali ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan intervyu va fokus-guruh muhokamalar ham so'rovnoma natijalarini tasdiqladi. Tadqiqot ishtirokchilari iqtisodiy bilimlarsiz bugungi kun talabalariga javob berish qiyin ekanligini ta'kidladilar. Xususan, tibbiyot yo'nalishi talabalar kelajakda shifokor sifatida nafaqat kasalliklarni davolash, balki sog'liqni saqlash muassasalarini boshqarish, moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash kabi masalolarga duch kelishlarini aytib o'tdilar.

O'qituvchilik sohasida tahsil olayotgan talabalar esa maktab yoki universitetdagi faoliyatida byudjet mablag'larini boshqarish, ta'lim sifatini oshirish uchun moliyaviy imkoniyatlarni izlash masalalari bilan

shug'ullanishlari mumkinligiga e'tibor qaratdilar. Muhandislik va qurilish sohasi vakillari esa har qanday loyihani amalga oshirishda uning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tushunish muhimligini qayd etdilar.

Fokus-guruh muhokamalarida talabalar iqtisodiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini ham bildirdilar. Ularning aksariyati iqtisodiy fanlarni o'qitishda amaliy jihatga ko'proq e'tibor qaratish, real hayotiy misollar keltirish, keys-stadi va trening usullaridan keng foydalanish zarurligini ta'kidladilar. Shuningdek, ayrim ishtirokchilar bu jarayonda raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim elementlaridan oqilona foydalanish muhimligiga ham urg'u berdilar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari noiqtisodiy yo'nalish talabalar, shu jumladan tibbiyot, pedagogika, muhandislik, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida tahsil olayotgan yoshlar uchun ham iqtisodiy bilim va ko'nikmalar bugungi kunda juda dolzarb ekanligini ko'rsatdi. Iqtisodiy savodxonlik nafaqat ularning shaxsiy hayotida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda, noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida iqtisodiy fanlar o'qitilishida ayrim kamchilik va muammolar ham mavjud. Ularni bartaraf etish va iqtisodiy ta'lim sifatini yanada oshirish uchun mazkur tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan model va tavsiyalar amaliyotga joriy etilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bu borada oliy ta'lim muassasalari, davlat organlari, biznes hamjamiyati va keng jamoatchilikning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari noiqtisodiy yo'nalish talabalar uchun iqtisodiy bilimlarning ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatdi. Ayni paytda, oliy ta'lim muassasalarida boshqa ixtisoslik yo'nalishlari uchun iqtisodiy fanlar o'qitilishida ayrim muammolar mavjud.

Avvalambor, ishlab chiqilgan o'quv dastur va qo'llanmalar talabalar ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi. Ko'pincha, ular umumiy iqtisodiy nazariya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, talabalar kundalik va kasbiy hayotida duch keladigan amaliy iqtisodiy muammolarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Oqibatda, talabalar olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olmaydilar.

Bundan tashqari, iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish darajasi past. Darslar ko'proq an'anaviy ma'ruza shaklida o'tkaziladi, interfaol usullar, amaliy mashg'ulotlar, keys-stadilar kam qo'llaniladi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim, deb hisoblaymiz.

Noiqtisodiy yo'nalishlar uchun iqtisodiy fanlar mazmunini qayta ko'rib chiqish, ularni talabalar ehtiyojlari va kasbiy faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish. Bunda amaliy jihatga ko'proq e'tibor qaratish, real hayotiy misol va vaziyatlarni tahlil qilishga alohida o'rin berish zarur.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish. Xususan, interfaol o'yinlar, trening, webinar, onlayn kurslar, mobil ilovalar kabi vositalar mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish, ular uchun maxsus treninglar tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish. Bunda iqtisodiy ta'limning ilg'or markazlari (masalan, AQShning Garvard universiteti, Buyuk Britaniyaning London iqtisodiyot maktabi) tajribalaridan unumli foydalanish, ular bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish foydali bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy yo'nalishda tahsil oladigan talabalar bilan boshqa mutaxassislik talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish. Masalan, qo'shma loyiha va tadqiqotlar olib borish, muammoli vaziyatlar yechimini birgalikda topish kabi yo'llar bilan. Bu ikki yo'nalish vakillarining bir-biridan o'rganishi, tajriba almashishiga sharoit yaratadi.

Noiqtisodiy yo'nalishlar bitiruvchilari band bo'ladigan ish joylarida (maktab, kasalxona, sanoat korxonasi va boshqalar) iqtisodchi mutaxassislik faoliyatini kuzatish imkoniyatini yaratish. Bitiruvchilarga ish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy muammolarni bevosita ko'rish, ularni hal etishda ishtirok etish tajribasiga ega bo'lish juda foydali.

Noiqtisodiy yo'nalish talabalar orasida iqtisodiy bilimlarni ommalashtirish, ularning iqtisodiy dunyoqarashini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish. Masalan, iqtisodiy mavzulardagi davra subbatalari, musobaqa va viktorinalar, o'quv

12 10. Nosirova, M. K. & Umarov, I. Y. (2022). Problems and solutions in teaching economic sciences in non-economic higher education institutions. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11(05), 55-61.

ekskursiyalarini tashkil etish. Bu kabi tadbirlar talabalarning iqtisodiy jarayonlar va muammolarga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tadbirlar oliy ta'lim muassasalarining o'zlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, keng jamoatchilikning sa'y-harakatlari, davlat va nodavlat tashkilotlarining faol ishtiroki ham muhim.

Xususan, OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali iqtisodiy bilimlarni keng tarqatish, turli yoshdagi insonlar uchun qiziqarli va tushunarli shaklda iqtisodiy ma'lumotlarni yetkazish zarur. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib borayotgan, yangi texnologiyalar, innovatsion g'oyalar iqtisodiy munosabatlarga kirib kelayotgan bir paytda, har bir inson moliyaviy savodxon bo'lishi, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi juda muhim.

Davlat tomonidan iqtisodiy ta'limni yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va moliyalashtirish, shuningdek nodavlat va xalqaro tashkilotlarning bu boradagi sa'y-harakatlarini rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, mamlakatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o'sish va farovonlik darajasi ko'p jihatdan aholining, eng avvalo, yoshlarning iqtisodiy savodxonligi va tadbirkorlik qobiliyatlariga bog'liq.

Boshqa tomondan, iqtisodiy ta'lim faqat muayyan kasb egalari uchun emas, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun zarur ekanligini ham unutmaslik kerak. Iqtisodiy bilim va malakalar insonlarga nafaqat o'z mehnat faoliyatida, balki kundalik turmush, oilaviy byudjetni rejalashtirish, tadbirkorlik va investitsion faoliyat kabi sohalarida ham asqotadi. Binobarin, maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib, to keksalar va nafaqaxo'rlargacha bo'lgan barcha fuqarolar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish, iqtisodiy ko'nikmalarni shakllantirish borasidagi ishlarni tizimli ravishda olib borish lozim.

Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy bilim asoslarini o'quvchilarga yetkazish, ularda tadbirkorlik ruhini shakllantirish maqsadida maxsus o'quv dasturlari, qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Kollejlar va oliy ta'lim muassasalarida esa bu jarayonlar yanada chuqurlashtirilishi, talabalarga biznes yuritish sirlarini o'rgatish, start-up loyihalarini qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yilishi dardkor. Shuningdek, aholining katta qismini

qamrab oladigan ommaviy onlayn kurslar, vebinarlar orqali iqtisodiy-moliyaviy savodxonlikni oshirish, zamonaviy texnologiyalar asosida masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Shunday qilib, noiqtisodiy yo'nalish talabalari uchun iqtisodiy ta'limni takomillashtirish va rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy va kasbiy manfaatlariga, balki butun jamiyat farovonligiga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda har bir fuqaro iqtisodiy jihatdan savodxon bo'lishi - davr talabidir. Shu maqsadda ham ta'lim tizimida, ham keng jamoatchilik o'rtasida tizimli ishlarni amalga oshirish, yoshlarni iqtisodiy bilim va malakalar bilan qurollantirish oldimizda turgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Zero, barkamol va ma'rifatli avlodni tarbiyalash, ularni XXI asr ko'nikmalari - kreativlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik qobiliyatlari bilan birga, yuqori iqtisodiy savodxonlik bilan ta'minlash har bir jamiyatning gullab-yashnashi uchun muhim omildir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy bilimlar bugungi kunda har qanday mutaxassis uchun zarur ko'nikma hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, noiqtisodiy yo'nalish talabalari ham iqtisodning asosiy tushunchalari va tamoyillarini bilishlari ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalari mazkur yo'nalish talabalari ehtiyojlarini inobatga olgan holda iqtisodiy ta'limni takomillashtirishlari lozim. Bunda talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish, ularning kundalik hayotda duch keladigan iqtisodiy muammolarni yechishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, jamiyatda iqtisodiy savodxonlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilishi zarur. Buning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, turli yoshdagi insonlar uchun qiziqarli va tushunarli tarzda iqtisodiy bilimlarni yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, noiqtisodiy yo'nalish talabalari uchun iqtisodiy bilimlar juda muhim bo'lib, bu borada barcha mas'ul tashkilotlar va mutaxassislar faol ishtirok etishi iqtisodiy savodxon va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev, I. & Farxodjonova, N. (2020). Integration of national culture in the process of globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 477-479.
2. Djuraev, Z.X. & Xoliqov, S.T. (2020). Noiqtisodiy oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari. *Iqtisod va moliya*, No.4, 34-39.
3. Vaxobov, A.V., Tadjibayeva, D.A., & Xajibakiyev, Sh.X. (2014). *Iqtisodiy nazariya asoslari*. Darslik. Toshkent: Baktria press.
4. Stigler, G. J. (1970). The case, if any, for economic literacy. *The Journal of Economic Education*, 1(2), 77-84.
5. Walstad, W. B., & Soper, J. C. (1988). A report card on the economic literacy of US high school students. *The American Economic Review*, 78(2), 251-256.
6. Becker, W. E. (2007). The importance of economics education. Transcript of speech at Ohio University Economics

Foydalanilgan veb-saytlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi: <https://lex.uz>

Department Commencement. Retrieved from <https://www.ohio.edu/instruct/becker/speech.doc>

7. McEachern, W. A. (2016). Economic education for life. *The American Economist*, 61(2), 119-125.
8. Shodiyev, T. Sh. (2021). *Iqtisodiy fanlarni o'qitishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish*. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot.
9. Qosimova, D. S. & Jalolova, D. F. (2019). Importance of financial literacy in market economy. *Theoretical & Applied Science*, (12), 350-355.
10. Nosirova, M. K. & Umarov, I. Y. (2022). Problems and solutions in teaching economic sciences in non-economic higher education institutions. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11(05), 55-61.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy sayti: <https://edu.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi: <https://mineconomy.uz>



O'SMIRLARGA XOS DESTRUKTIV XULQNI SHAKLLANISHIDA IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK FENOMENLAR

Norqo'ziyeva Dilrabo Sheraliyevna

Qo'qon Universiteti

Psixologiya fanlari doktori (PhD), v.b.dotsent

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 34

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.928>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/

keywords

agressiya, ijtimoiy-psixologik omillar, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, konstruktiv xulq, kuchaytiruvchi stimullar, instrumental va ekspressiv xususiyat, konstruktiv xatti-harakat, destruktivlik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim samaradorligini pasayishiga olib keluvchi o'smirlarga xos agressiv xulq-atvorning psixologik muammosi tahlili, keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillari va uni bartaraf etishning imkoniyatlari haqida keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada agressiv xulq-atvorning o'smirlarda aksentuatsiya ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi, ularda mavjud konstruktiv xatti-harakatlarni destruktivlikka aylanishi borasidagi tahlillar ham bayon etilgan.

Kirish. Maktab o'quvchilarining konstruktiv xulqini shakllantirishga doir ijtimoiy xatti-harakatlar dasturini tuzish, jamoatchilik fikrini o'rganish asosida axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega bo'lish, shuningdek, har jihatdan komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi konstruktiv boshqaruvchanlikni shakllantirishda psixoprofilaktik hamda psixokorreksion shart-sharoitlar va mezonlardan foydalanish zarurati kuzatilmoqda.

Aksariyat psixologiya sohasida salbiy xulq ko'rinishi destruktivlikning yuqori, o'rta hamda past darajalari bilan baholanib, bunday xulq har qanday yosh va ijtimoiy maqomdagi shaxsni shakllanishiga to'siq bo'luvchi, shaxslararo munosabatlar tizimiga xavf soluvchi, o'zini hamda o'zgalarni «parchalovchi», ya'ni o'zini o'zi hurmat qilish yoki faoliyatini boshqarishdagi to'siqlar, muvaffaqiyatdan mahrum etishlik, shuningdek, atrofdagi insonlar ijtimoiylashuviga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlarni qamrab oladi. Psixologiyada destruktiv xulq atamasining talqiniga turlicha yondashib tahlil etilgan, xususan, destruktiv xulq-atvor biror narsa yoki vaziyatga qaratilgan «buzg'unchilik» bo'lib, u ichki faoliyatning og'zaki va noverbal ko'rinishlari bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy faoliyatning boshqa turlariga organizmda ro'y beruvchi jadal garmonal qayta qurilishga uni o'ta zaif va muhitning salbiy ta'sirlariga beriluvchan qilib qo'yadi, ya'ni shu davrdagi fiziologik, psixologik yetilishning nosinxronligi o'smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lib, buning natijasida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muayyan ehtiyoj, dunyoqarash, intilish hamda irodaviy sifatning o'zgarishi bilan salbiy xarakterlanadi.

Biz tadqiqotimizda shaxsning destruktiv xulq ko'rinishi sifatida, namoyon bo'lishida keskinlikka ega, ijtimoiylashuvda dezadaptatsiyalashuvni keltirib chiqaradigan agressiv xatti-harakatlarni tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlar tahlili. Agressiya – (lotincha «agressio» – hujum) boshqa shaxsga, odamlar guruhiga yoki jonli va jonsiz predmetlarga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar. Agressivlik – tajovuzga tayyorgarlikda namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatidir¹.

Konstruktiv xulq-atvor – bu ziddiyatli tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni me'yorlashtirishga ko'maklashadigan, keskinlikni yengillashtiradigan va o'zaro tushunishga olib keladigan so'zlar hamda harakatlardir. Konstruktiv xulq-atvorning yana bir izohi uni ijodiy xulq stereotiplari deb atash imkonini berib, bunda o'zaro ta'sirning yangi usullari yaratiladi, sodir bo'layotgan voqealardan xabardorlik ortadi, emotsional holatlarni boshqarish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochiladi².

Klassik psixologik tadqiqotlarda agressiyani o'rganishning asosiy nazariy yondashuvlari quyidagilar: a) etiologik, b) psixoanalitik, v) frustratsion, d) bixevioristik. Etiologik va psixoanalitik yondashuv namoyondalaridan Z.Freyd (1959) va K.Lorenslar (1967) fikricha, agressiya tug'ma instinkt sifatida spontan harakat reaksiyasidir, lekin inson o'zini-o'zi boshqarish orqali ma'lum bir muvaffaqiyatga erisha olishini asoslaydi³, temperament va xarakter xususiyati sifatida impulsivlik, reaksiyalar intensivligi, faollik va mustaqillik kabi insoniy «illatlar» (A.Bass, 1961), tajovuzkorlikni yuzaga keltiruvchi determinantlar ekanligi (F.Allan, 1964), «...tajovuzning kelib chiqish sabablarini inobatga olmay, ichki kuch sifatida tavsiflab, odamning tashqi kuchlarga qarshilik ko'rsatish imkoniyatidir» – degan g'oyani ilgari suruvchi shaxs hamda jamiyatga zarar yetkazish yoki unga urinishda kuchning namoyon bo'lishi bilan tavsiflangan xatti-harakatlar reaksiyasidir (X.Delgado, 1963), tajovuzni dushmanlik, instrumental va ekspressiv xususiyatlar differensiyasi (S.Feshbax, 1964)⁴, bixevioristik – ijtimoiy ta'lim nazariyasi, bunda agressiv xulqni paydo bo'lishiga tashqi rag'batlarning ahamiyatli jihati kuchli ekanligi hamda uning ta'sirida shaxs xulqida agressiyani «kuchaytiruvchi stimullar»ni yuzaga chiqaruvchi (A.Bandura, R.Uolters, 1959), motivatsiya va faoliyat natijasida agressiyaning yuzaga chiqishi (Xayns Xekxaufen, 1963), tajovuzkorlikni faqat tashqi xatti-harakatlar bilan baholab bo'lmasligini, uning ta'rifiga motivatsion omillarni kiritishni talab qildi (S.Feshbax, 1964 J.Kagan, 1969), kuchli faollik, o'zini o'zi tasdiqlash istagining mavjudligi orqali biror narsaga yaqinlashish yoki undan uzoqlashish tendensiyasi sifatida qarash (Bender L., Faretra G., 1972) kabi ko'plab o'z tasdig'ini topgan konsepsiyalarni kiritishimiz o'rinni hisoblanadi.

Bixevioristik nazariya namoyondalari A.Bandura, R.Uolterslar asosan agressiv xulqni paydo bo'lishiga tashqi rag'batlarning ahamiyati kuchli ekanligi va uning ta'sirida o'smir xulqida agressiyani «tetiklashtiruvchi stimullar» yuzaga chiqishi sabab motivatsiyaning o'zi yetarli ekanligi hamda ijtimoiy xatti-harakatlar modeli, shuningdek, unga ijobiy tomondan qaralib, unda bola kuchli, chidamli, irodali, baquvvat bo'lib shakllanishi uchun imkoniyatlar ham mavjudligi keltirib o'tilgan.

R. Beron va D. Richardson izlanishlarida, inson tajovuzkorligini oldini olish va nazorat qilish uchun ko'proq imkoniyat berish zarurati aytib o'tilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, munozarali bo'lib kelayotgan agressiyaning individual mustaqil mavjudligini tan olsak-da, lekin uni keltirib chiqaruvchi determinantlar ko'p omilli ekanligiga guvoh

¹ Энциклопедия. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/entsiklopediya-uz/>.

² Formation of constructive behavior as a factor in the effectiveness of schoolchildren's education.

ND Sheraliyevna. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, Vol. 10 No. 12 (2022) 1212–1216.

³ Анисеева Н. П. Психологический климат в коллективе. М., 1989. - 13с.

⁴ Смирнова Т.П. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. Серия «Психологический практикум». – Ростов н/Д: «Феникс», 2004. -160 с.

⁵ Самусенко И.Л. К решению проблемы агрессивного поведения детей и молодежи / И.Л. Самусенко // Вестник Тверского гос. ун-та. Серия: Педагогика и психология. – 2010. – № 7. 50-52 с.

bo'lamiz va uni konstruktivlikka yo'naltirish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirishini anglab yetamiz⁶.

Yuqorida ta'kidlanganidek, munozarali bo'lib kelayotgan agressiyaning individual mustaqil mavjudligini tan olsak-da, lekin uni keltirib chiqaruvchi determinantlar ko'p omilli ekanligiga guvoh bo'lamiz va uni konstruktivlikka yo'naltirish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirishini anglab yetamiz.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimizdek, konstruktiv xulqni shakllanishida shaxsning motivatsion bloki o'ziga xos ahamiyatga egaligi, ya'ni o'smirlarda agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etishda ularning tajovuzkorona motivlarini ijobiy motivatsiyalar kompleksiga aylantirish bilan xarakterlanadi.

Bizningcha, tajovuzkorlikni tadqiq etgan ko'pchilik mualliflar tomonidan unga salbiy baho berilishiga qaramay, psixologiyada agressiyaning ijobiy xarakterga egaligi, ya'ni bunda shaxs xatti-harakatida yuzaga keladigan qo'zg'aluvchan reaksiyalar uni chidamli, irodali, maqsad sari intiluvchan hamda harakatchan qilib tarbiyalanishi uchun zamin yaratadi. Ayniqsa, bu xususiyat bo'lajak yosh sportchilar uchun asosiy stimulyazifasini o'taydi.

L.Berkovisning kognitiv nazariyasida (Berkovis L., 1962), agressiv harakatlarni bostirishda yangi kognitiv aloqalarni shakllantirish orqali konstruktivlikka aylantirish zarurligini, jumladan, tajovuzkor xatti-harakatlarni sodir etilishida kishilar qanday fikrda bo'lsa, shunday harakat qilishini, konstruktiv xulq ko'rinishi sifatida talqin etilgan emotsional barqaror bo'lgan mezonlarni me'yorda boshqara olish imkoniyati agressivlikni pasayishiga olib keladi. A.Banduraning ijtimoiy ta'lim nazariyasi (Bandura A., 1999), ya'ni shaxs tajovuzni aqliy harakatlar yordamida boshqa intellektual mashg'ulotlarga ko'chirish imkoniyati borligiga e'tibor qaratadi⁷.

E.Fromm (1973) tomonidan tajovuzning ikki turi mavjudligi ko'rsatib o'tiladi: «ijobiy» va «salbiy». Birinchisi xavf vaziyatida paydo bo'ladi va himoyalani xususiyatiga egadir. Xavf yo'qolishi bilanoq, tajovuzning bu shakli ham o'zgaradi. «Salbiy» tajovuz bir muncha xavfli bo'lib, o'zidan o'zi sodir bo'luvchi zo'rvonlik hamda buzg'unchi xatti-harakatlar tarzida ifodalanadi. Shuningdek, jamiyatda bozor munosabatlarini hukmronligi tufayli o'zaro yordam berish, asosan xulq-atvorni bostirilishi yoki o'ziga xos («bo'lish») istagi sabab boshqalar bilan birlashish va yengib o'tishga qaratilganligini anglatadi. Agressiyaning bunday kechishini konstruktivlikka yo'naltirish uchun ijtimoiy ta'sirlar bilan, eng avvalo, shaxsning psixologik motivatsion, emotsional, irodaviy sifatlarini to'g'ri shakllantirish hamda shaxslararo munosabatlar tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish orqali erishiladi.

Bu borada A.Bandura ham tajovuzning sababini ijtimoiylashuv jarayonidagi o'zlashtirilgan axloq ko'rinishlaridan biri deb hisoblaydi. O'smir endigina o'zini taniy boshlaydi. O'z «Men»ini his qilish jarayoni boshlanadi. «Men»ini izlashda o'smir, hatto eng «muvozanatlashganida» ham unga tajovuzni keltirib chiqaradigan tashqi omillar ta'sir qiladi⁸.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim muhitidagi o'quvchilarning ijtimoiy me'yorlarga mos konstruktiv xulq-atvorini shakllantirishda agressiv xulqning ta'siri qanday tarzda kuzatilishi o'rganildi. Mazkur holatda o'quvchilar xulq-atvorida agressiyaning namoyon bo'lishini A.Bass va A.Darkning «Agressivlik ko'rinishlarini aniqlash testi» metodikasidan foydalanilgan holda tadqiq etildi. Metodika natijalarining talqiniga e'tibor qaratishdan oldin me'yoriy ko'rsatkichlariga aniqlik kiritish muhimdir. Metodika natijalari talqinini to'g'ri amalga oshirishda me'yoriy ko'rsatkichlar belgilovchi rol o'ynaydi. Bassa-Darkning «Agressivlik ko'rinishlarini aniqlash testi» metodikasidagi olingan natijalar dastlab quruq ballarda so'ngra stenlarda ifodalanadi. Tadqiqotimizdagi amaliy ko'rsatkichlar metodikaning qiymatlarini aks ettirish talablariga ko'ra, stenlarda ifodaladi. Natijalarning tadqiqida esa besh darajali agressiya xususiyatlarini aks ettiradi: 0-2 oraliqdagi sten quyi agressiya; 3-4 sten-o'rta; 5-6 sten o'sayotgan; 7-8 sten yuqori; 9-10 sten juda yuqori agressiyani ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotda o'quvchilarning agressiv xulq-atvorini namoyon bo'lish xususiyatlari o'quv sinflari hamda umumiy ko'rsatkichlariga tayanib, yoritishga e'tibor qaratildi. Dastlabki tahlilni umumiy o'rta ta'lim maktablari va IDUMning 5-sinf o'quvchilarining «Agressivlik ko'rinishlarini aniqlash testi» metodikasi bo'yicha dastlabki tajriba-sinov natijalari yuzasidan amalga oshirildi (1-jadval).

Har ikki toifa ta'lim muassasalarida agressivlik 8 ta shkala bo'yicha tahlil qilindi. Barcha agressivlikni aks ettiruvchi shkalalarda stenlar 2,52 bilan 5,57 stenlar oralig'idagi qiymatlarga ega bo'ldi. UO'M va IDUMning 5-sinf o'quvchilari xulq-atvorida agressivlik o'rta va o'suvchan agressiya darajalarini aks ettirmoqda. 5-sinflarda verbal agressiya (4,14 va 2,90; farqlar ishonchligi p<0,001); negativizm (4,09 va 2,52; farqlar ishonchligi p<0,001); tajanglik (4,95 va 3,57; farqlar ishonchligi p<0,001), xafagarchilik (5,57 va 4,57; farqlar ishonchligi p<0,01) va aybdorlik hissi (2,52 va 3,61; farqlar ishonchligi p<0,01) bo'yicha farqli ko'rsatkichlar aniqlandi. Verbal agressiya bo'yicha tafovutlar UO'M o'quvchilarida agressiyaning o'rta darajasini aks ettirib, IDUM o'quvchilariga nisbatan farqli qiymatni ko'rsatdi. UO'M o'quvchilarida o'rtacha verbal agressiya namoyon bo'lsa-da, ular xulq-atvorida o'z salbiy tuyg'ularini haqoratli, ya'ni baqirish va tahdid so'zlar ishlatishlari orqali ifoda etadi.

1-jadval

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va IDUM 5-sinf o'quvchilarining «Agressivlik ko'rinishlarini aniqlash testi» metodikasi bo'yicha dastlabki tajriba-sinov natijalari

Shkalalar	Ta'lim muassasalari	X	σ	Student t-mezoni
Jismoniy agressiya	Umumiy o'rta ta'lim maktabi (n=21)	4,14	1,23	1,156
	IDUM (n=21)	3,66	1,49	
Verbal agressiya	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	4,14	2,32	2,876***
	IDUM	2,90	1,89	
Bilvosita agressiya	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	3,47	1,50	0,0001
	IDUM	3,47	2,06	
Negativizm	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	4,09	1,44	3,818***
	IDUM	2,52	1,16	
Tajanglik	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	4,95	1,32	3,750***
	IDUM	3,57	1,43	
Shubhalanuvchanlik	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	3,47	1,47	-0,839
	IDUM	3,71	1,52	
Xafagarchilik	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	5,57	1,59	2,210**
	IDUM	4,57	1,74	
Aybdorlik hissi	Umumiy o'rta ta'lim maktabi	2,52	1,36	-2,686**
	IDUM	3,61	1,71	

Izoh: **p<0,01;* p<0,001**

Shuningdek, agressiyaning negativizm tarzida ifodalashda UO'M o'quvchilari tengdoshlariga qaraganda o'rtacha darajadagi hamda statistik ahamiyatli (4,09 va 2,52; p<0,001) qiymatga ega bo'ldi. Bu holat 5-sinf o'quvchilarining tengdoshlari, atrofdagilar va o'quv faoliyatida agressiya aks etganda ba'zan sinfdagi yetakchilarga yoki

o'qituvchilarga nisbatan norozilik hissini ifodalash ko'rinishida kuzatildi. O'z navbatida tajanglik bo'yicha UO'M o'quvchilari IDUMdagi tengdoshlariga qaraganda («o'sib boruvchi agressiya») ko'rsatkichga moyilliklari kuzatildi, ya'ni (4,95 va 3,57; p<0,001) dinamiklikka ega bo'ldi. Ular shaxslararo munosabatlarda xulq-atvor bilan bog'liq arzimas hollarda qo'pol, injiq va besabr bo'lib qoladilar.

⁶Барон Р., Ричардсон Д. Агрессия. – СПб: Питер, 2001. – 352 с: ил. – (Серия «Мастера психологии»).

⁷Берковиц Леонард. Агрессия: причины, последствия и контроль. Санкт-Петербург, Прайм-Еврознак, 2007.- 111 с.

⁸Зимелева З.А. Агрессивное поведение подростков и личность родителей / Публикации в журналах портала PsiJournals.ru // Психологическая наука и образование. 2001. том 6, № 4 с. 22-27

Xafagarchilik bo'yicha agressiyaning namoyon bo'lishida an'anaviy holat kuzatilib, UO'M o'quvchilari yana yuqori ko'rsatkichga egadirlar (5,57 va 4,57; $p < 0,01$). Bunday agressiyaning namoyon bo'lishi o'quvchilar xulq-avtorida boshqalarga nisbatan hasad va nafratni atrofda qilargalarga real yoki xayoliy tarzda ifodalashga moyildirlar.

5-sinflarning birgina aybdorlik xususiyatida (2,52 va 3,61 $p < 0,01$) qayd etilib, bu IDUM o'quvchilari UO'M o'quvchilariga nisbatan yuqoriroq qiymatga egaligini anglatadi. Bu agressiya shkalasida IDUM o'quvchilari mavjud xulq-atvorlari orqali nimadir «yomonlik» sodir etgandek, bu esa ularning o'zlaridan xafa bo'lishga moyilliklarini aks ettiradi. Haqiqatdan ham, konstruktiv xulq-atvor shakllanishi sharoitida o'quvchilarda agressivlikning ma'lum shakllarining dinamik tarzda kuzatilishi tabiiydir.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarda konstruktiv xulq-atvor shakllanish sharoitida agressiya so'zsiz namoyon bo'ladigan va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarning eng muhimi sifatida ko'rinadi. Ulardan o'zaro turli ta'lim muassasalarida o'zaro tafovutli va ko'proq takrorlangan shakli verbal agressiyadir. Albatta, ushbu o'rinda o'quvchilarning agressiya darajalarining o'rtacha holatiga ko'ra tahlili qilindi, ammo o'quvchilar orasida o'suvchi agressiyaga moyillik mavjud. O'quvchilarning natijalari solishtirilganda psixik holatlarini

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аникеева Н. П. Психологический климат в коллективе. М., 1989. - 224 с.
2. Берковиц Леонард. Агрессия: причины, последствия и контроль. Санкт-Петербург, [Прайм-Еврознак](#), 2007.- 443 с
3. Бэрон Р., Ричардсон Д. Агрессия. – СПб: Питер, 2001. – 352 с: ил. – (Серия «Мастера психологии»).
4. Зимелева З.А. Агрессивное поведение подростков и личность родителей / Публикации в журналах портала ПсихЖурналс.ру // Психологическая наука и образование. 2001. том 6, № 4 с. 22-27
5. [Formation of constructive behavior as a factor in the effectiveness of schoolchildren's education.](#)

baholovchi shkalalar o'rtasidagi korrelyatsion tahlil agressiya shakllarini ajratish imkonini berdi. Bundan ta'lim muassasalarining umumiy natijalariga tayangan holda korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Bu holat o'quvchilar konstruktiv xulq-atvori shakllanishi sharoitida agressiya shakllarining o'zaro ichki munosabatlarini yoritish imkonitini yaratdi.

Xulosa qilib aytish joizki, o'smirlik yoshi – bu shaxsning hayotiy tushunchalarni o'zlashtirish davri bo'lishiga qaramasdan o'zini o'zi anglash, shuningdek, o'z dunyoqarashini yetuk emasligi bilan tavsiflanadi. Oqibatda ichki va tashqi omillar ta'siri natijasida ongning «sinishi» sodir bo'lib, bu o'smirlik davrining asosiy belgilaridan biri sifatida tan olinadi. Bunda o'smir o'z «Men»ini topishda bir muncha zo'riqish va xavotirlanish holatida bo'ladiki, natijada muayyan ehtiyoj va istaklarni qondirishni boshqa ambivalent usullar bilan bostirishga harakat qiladi. Natijada, kattalar tomonidan nazoratsiz qoldirilgan o'smir, shaxslararo munosabatlarda o'z harakatlari yordamida jinoyatchilikni submadaniyatini o'zlashtirib olishga muvaffaq bo'lishini inobatga olib, ular bilan amaliy psixologlar individual-psixologik, guruhiy-psixologik chora tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etishlari talab etiladi.

ND Sheralieva. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, Vol. 10 No. 12 (2022) 1212–1216.

6. Самусенко И.Л. К решению проблемы агрессивного поведения детей и молодежи / И.Л. Самусенко // Вестник Тверского гос. ун-та. Серия: Педагогика и психология. – 2010. – № 7. –50 с.

7.Смирнова Т.П. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. Серия «Психологический практикум». – Ростов н/Д: «Феникс», 2004. -160 с.

8.Энциклопедия. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/entsiklopediya-uz/>.



ILK YOSH (3 YOSHGACHA BO'LGAN) DAVRDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Qodirov Valijon Abdurahmonovich

Qo'qon universiteti Andijon filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida pedagogika fanlari doktori, dotsent

e-mail: vqodirov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 35

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.929>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

go'daklik davri, bola nutqi, nutqining rivojlanishi, nutqqa ilk tayyorgarlik, nutqining mustaqil rivojlanishi, yosh davrlari.

ANNOTATSIYA

Maqolada go'daklik davridan bola nutqining rivojlanishi, nutqqa ilk tayyorgarlik davri xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Adabiyotlardagi mavjud qarashlarni psixologiya va pedagogikaning keyingi yutuqlariga uyg'unlashtirgan holda umumlashma xulosalar beriladi. Yurtimiz va xorijdagi soha mutaxassislari, pedagog olimlarning bu boradagi izlanishlari, yondashuvlari qiyosiy aspektda o'rganiladi. Shuningdek, hozirgacha nashr ettirilgan o'quv adabiyotlarida mazkur yosh davrida go'dakning muloqot, munosabat o'rnatish bosqichlariga diqqat etilmaganiga e'tibor qaralib, bu boradagi bo'shliqni to'ldirish zaruratiga urg'u beriladi. Bola nutqining mustaqil rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, ilk yosh davrida bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xosligi ochib berilgan.

Kirish. Alisher Navoiy "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin" misralarini yozar ekan, baytdagi "so'z" deganda insonni boshqa biologik mavjudotlardan farqlovchi tilni, ya'ni so'zlash qobiliyatini nazarda tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, til amaliy jihatdan nutqda voqelanadi. Agar inson bolasi dunyoga kelsa-yu, odamlar jamiyatida yashamay ulg'aysa, unda siz bilan biz odatlanganimiz mavjud aloqa vositasi bo'lgan til shakllanmaydi, natijada nutqi, ya'ni so'zlash qobiliyati ham bo'lmaydi. Buning davomida ongli insonlarga xos bo'lgan tafakkur ham rivojlanmaydi. Kelib chiqadiki, til, nutq, muloqot odam bolasining to'laqonli shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Demak, bola nutqini rivojlantirish masalalari maktabgacha ta'lim metodikasi uchun ilk yosh (0–3 yoshgacha)dan boshlab o'rganish obyekti bo'lmog'i kerak. Oilada ota-onalar farzandlarining ilk kunlaridan muloqotga kirishishlari, ularda nutq ko'nikmalarining kundan kun rivojlanishi hamda bu ko'nikmalarining bola aqliy, hissiy, ruhiy takomiliga ta'sirini hamda ularga uyg'un jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq xususiyatlarni bilishlari muhimdir. Ayniqsa, mazkur tushuncha va bilimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun g'oyat dolzarb, chunki uez yoshdan boshlab uning tarbiyasiga keladigan bolalarning nutqiy genезisi borasida yetarli va yaxlit bilimlari bo'lmaguncha o'z faoliyatini to'laqonli darajada sifatli bajara oladi deyish qiyin. Qolaversa, tarbiyachi nafaqat bolalarning, ayni paytda ularning ota-onalari uchun ham murabbiydir, ya'ni farzand ta'limi, tarbiyasi borasida ularga maslahatchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, har bir yosh davridagi o'ziga xosliklarni anglash, tarbiyadagi murakkablik, chigalliklarni hal qilishda eng yaqin hamkordir. Shundan kelib chiqilsa, bolalarning ilk yosh davri nutqiy rivojlanishi borasidagi ilmiy izlanishlar ham oilaviy tarbiya, ham maktabhacha ta'lim tashkilotlari faoliyati uchun dolzarb sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgacha OTM uchun nashr qilingan aksar o'quv qo'llanmasi, darsliklarda bu muammo kichik (ya'ni 3) yosh davridan boshlab o'rganilgani kuzatiladi. Yurtimizda maktabgacha ta'lim metodikasi fanining darg'alaridan biri bo'lmish Fotima Qodirova ilmiy faoliyatida nutq o'stirish masalalari yetakchi o'rin tutadi. Olima asosan katta guruh bolalariga rus tilini o'rgatish, rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish, maktabgacha yoshda ikkinchi tilni o'zlashtirish kabi masalalarga e'tibor qaratgan. Uning "O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish" (1993), "Maktabgacha yoshdagi rusiyabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish" (1993), R.M.Qodirova bilan hammualliflikda "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi" (2004) nomli

qo'llanmalari soha mutaxassislariga yaxshi tanish. Shuningdek, oliy ta'lim uchun "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi"ni dastlabki yozgan mualliflardan bo'ldi¹. Asosan ilmiy-tadqiq ishlarining natijasi bo'lgan ushbu o'quv adabiyotlarida uch yoshdan keyingi tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirish o'rganish predmeti bo'lgani kuzatiladi.

Dono Babayevaning qo'llanma va darsligida ham ayni shu holat kuzatiladi. "Nutq o'stirish metodikasi" o'quv qo'llanmasi tevarak-atrofnii o'rganish asosida katta guruh tarbiyalanuvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadini ko'zlagan. Ko'rinadiki, ko'zlangan obyekt (katta, ya'ni 5-6 yosh guruh tarbiyalanuvchilari) va predmet (tevarak-atrofnii o'rganish asosida) jihatdan chegaralanganlikka guvoh bo'lamiz. Metodist olimaning "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" darsligi² F.Qodirova o'quv adabiyoti bilan ko'p jihatdan umimiylik kasb etadi – unda ham ilk yoshda nutq o'stirish masalalari alohida mavzu sifatida yoritilmagan.

Mualliflar guruhi (M.Asqarova, S.Matchonov va b.) tomonidan tayyorlangan "Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish" qo'llanma-majmuasi³, D.Komilovning "Bolalar nutqini o'stirish" o'quv qo'llanmasi⁴da ham ilk yosh bilan bog'liq maqolamizda ko'tarilayotgan mazkur muammoga to'xtanilmagan.

Bu borada Qumri Shodiyevaning "Nutq o'stirish uslubiyoti" nomli pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari talabalari uchun yozilgan darsligi⁵ alohida e'tiborga molik. Unda alohida bob ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalariga alohida bob bag'ishlangan. Bizningcha, olimaning mazkur izlanishlari o'rta-massus va oliy ta'lim uchun yoziladigan adabiyotlarda aks etishi lozim. Negaki bo'lg'usi maktabgacha ta'lim sohasi pedagoglari bolalar nutq ko'nikmasining dastlabki rivojlanish davri haqida ham yetarli tasavvurga ega bo'lmog'liklari lozim.

Aslida rus psixologi L.S. Vigotskiy "Bola rivojlanish psixologiyasi"⁶ asarida (va boshqa tadqiqotlarida ham) biz so'z yuritayotgan mavzu yuzasidan nazariy va amaliy jihatdan qimmatli fikrlar bildirilgan. Lekin rus pedagogikasida yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalari ham asosan kichik, ya'ni uch yoshdan keyingi yosh davrlaridan boshlab bolalar nutqini o'rganganligi kuzatiladi. M.M.Alekseyeva, B.I. Yashinalarning "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ona tilini o'qitish metodikasi"⁷ hamda O.C. Ushakova, Y.M.Struninalarning "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish"⁸ nomli o'quv qo'llanmalari va yana B.I. Yashina hamda M.M.Alekseyeva hammuallifligidagi "Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi" nomli darsligi⁹ kabi o'quv adabiyotlarini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin.

¹Qodirova F.R., Qodirova R.M. – Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: – Istiqloq, 2006.

²Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. T.: Barkamol fayz media, 2018.

³Asqarova M., Matchonov S. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. T.: O'zbekiston, 2001.

⁴Komilova D.A. Bolalar nutqini o'stirish. Andijon: "Hayot nashri-2020", 2023.

⁵Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. T.: O'qituvchi, 2008.

⁶Vigotskiy L.S. Психология развитие ребёнка. Москва: Эксмо, 2005.

⁷Алексева М.М., Яшина Б.И. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пособие для студ. высш. и сред. пед. учеб. заведений. - 3-е изд., стереотип. - М.: Издательский центр «Академия», 2000.

⁸Ушакова О.С., Струнина Е.М. Методика развития речи детей дошкольного возраста: Учеб.-метод. пособие для воспитателей дошк. образоват. учреждений. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004.

⁹Яшина В. И., Алексеева М. М. Теория и методика развития речи детей. Москва: Издательский центр «Академия», 2013.

Tadqiqot metodologiyasi. Tug'ilgandan bir yoshgacha bo'lgan go'daklik davrida oila a'zolarining bola bilan muloqotlari: uni erkalash, suyushlari, tushunmasligini bilsalar-da, bir tomonlama suhbat qurishlari, onalarning aytgan allalari bola ijtimoiylashuvining asosiy sharti bo'lgan til stixiyasiga zamin yaratadi. Germaniyalik pedagog Edith Sánchez ta'kidlaganidek: "Bolalarda til rivojlanishi asta-sekin va yig'indisi sodir bo'ladi. Demak, ular asta-sekin o'rganib, asta-sekin til ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Bu rivojlanish hamma odamlar uchun bir xil va bir xil yoshda ko'p yoki kamroq sodir bo'ladi"¹⁰. Yaponiyalik olim Masaru Ibukaning bola rivojlanishidagi uch yoshgacha bo'lgan davr ahamiyati borasidagi izlanishlari bugungi kunda butun dunyodagi ilm ahli, shuningdek, bola parvarishi va tarbiyasi faxldor har qanday insonlar e'tiborini qozondi¹¹. Go'daklik davridagi bunday uzluksiz muloqotning ahamiyati quyidagi amaliy oqibatlarida namoyon bo'ladi: 1) ona tilining tovush tizimi bola ong-u shuuriga singib boradi; 2) fiziologik jihatdan artikulyatsiya apparati shakllana boradi; 3) tovush kuchi, baland yoki pastligi kabi ko'rsatkichlarni shuuriy tarzda bo'lsa ham anglay boshlaydi; 4) ohangni farqlaydi va o'zi ham u orqali munosabat bildirishning ilk tajribasini egallaydi; 5) dastlab bir-ikki bo'g'indan iborat ma'nodan uzilgan tovushlar birikmasini, so'ng ma'no nazarda tutilgan hayotidagi birinchi so'zlarni talaffuz qila boshlaydi; 6) hayoti davomida mukammal kompetensiya darajasida shakllantirish ko'zlangan tinglash va so'zlash qobiliyati, ko'nikmalari nish ura boshlaydi. Bundan ayon bo'ladiki, ilk yosh davri bolalar nutqini rivojlantirish mazkur olti aspektning kichik yoshdagi bolalar nutqiy faoliyatlarida malaka o'laroq uyg'un tarzda voqelanishini maqsad qilib qo'yimog'i lozim.

Tadqiqot natijalari. Bola nutqi uni qurshagan insonlar bilan muloqotda rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Bolaning til sezgisini o'stirish, nutqini rivojlantirish uning ijtimoiy aloqalarini bosqichma-bosqich kengaytirishni talab qiladi. Ular nutqning mazmuni va tuzilishiga ta'sir qiladi. Uning ijtimoiy rivojlanishida tug'ilgandan boshlab yo'lga qo'yiladigan ona va bola munosabatlari, keyinchalik boshqalar bilan turli shakldagi muloqotlar nutqining o'sishi va namoyon bo'lishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq taqlid jarayonida rivojlanadi. Mutaxassislariga ko'ra, taqlid qilish insonda refleksiv, instinktiv ravishda, ya'ni tug'ma qobiliyat orqali shakllanadigan ko'nikmadir. Bola birinchi navbatda muloqotda bo'layotgan odamlar orqali voqelanayotgan artikulyatsiya va nutqiy harakatlarga taqlid qiladi. Onasi va boshqa yaqinlari bilan kechadigan muloqoti bola sog'lom psixik rivojlanishining zaruriy sharti sanaladi. Nutqni o'zlashtirish murakkab, ko'p qirrali aqliy jarayon bo'lib, uning yuzaga kelishi va rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq. Tug'ilgandan ikki yoshga to'lguncha bo'lgan davr bola nutqi, tafakkuri va bilish faoliyatining rivojlanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. "Bu davrga kelib miyaning nutq bo'limi anatomik tomondan yetilib bo'ladi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini egallaydi, ko'p so'z to'plamiga ega bo'ladi. Agar uch yoshgacha bo'lgan bolalar nutqiga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, u vaqtda kelgusida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun katta kuch va g'ayrat sarf etishga to'g'ri keladi"¹².

Ilk yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ikki davrdan iborat: 1) nutqqa ilk tayyorgarlik davri – bolaning bir yoshgacha bo'lgan hayotini o'z ichiga oladi;

2) bola nutqining mustaqil rivojlanishi davri - ikki yoshgacha va undan keyingi oylar.

Tayyorgarlik davri bola hayotida nafaqat nutq, ayni paytda har jihatdan (jismaniy, aqliy, iroda, hissiy) ildam rivojlanish kuzatiladi. Adabiyotlarda bu davr o'ziga xos xususiyatlari hamda vazifalari bilan farqlanuvchi to'rtta ichki davrga ajratiladi: a) tug'ilgandan 2, 5 – 3 oylikkacha; b) 2, 5 – 3 oylikdan 5 – 6 oylikkacha; c) 5 – 6 oylikdan 9 – 10 oylikkacha; d) 9 – 10 oylikdan 1 yoshgacha¹³.

Sanobar Olloberganova metodik qo'llanmasida Qumri Shodiyeva qarashlariga tayanib nutqqa tayyorgarlik davrini uch bosqichga ajratib izohlaydi¹⁴:

1. Chinqirish davri (tug'ilgandan 2, 5 – 3 oylikkacha).
2. Guvrash davri (2, 5 – 3 oylikdan 5 – 6 oylikkacha).
3. Til chiqarish davri (5 – 6 oylikdan 9 – 10 oylikkacha va 9 – 10 oylikdan 1 yoshgacha).

Chinqirish davrida hali bola nutq apparatidan foydalana bilmaydi, faqat chinqirish bilan, ya'ni ovoz reaksiyalari bilan turli istak va xohishlarini bildiradi. Qorni ochganligi, tagi ho'l bo'lganligi, o'zida bo'layotgan noqulayliklar yoki biror joyining og'riyotgani

kabilami ifodalaydi. Go'dak o'z chinqirishi orqali kattalar bilan o'ziga xos muloqotga kirishadi, ya'ni chinqirish ma'lum bir kommunikativ (muayyan kayfiyat, holatni ifodalash kabi) vazifani bajaradi. Kattalar (asosan ona)ning ana shu chinqirish orqali bola uzatayotgan ma'lumotlarga sergak bo'lishi, vaqtda javob qaytarishi (ya'ni kerakli choralar ko'rishi) unda muloqot hissi va qobiliyatining jadal rivojlanishiga turki beradi.

Guvrash davri bolaning 2, 5 – 3 oylikdan 5 – 6 oylikkacha bo'lgan kunlari kiradi. Guvrash noaniq, tushunib bo'lmaydigan ovoz chiqarish degani. Bolaning qisqa yoki cho'ziqroq, turli ohanglarda guvrashayotgani uning aqliy-intellektual hamda nutqiy apparatining rivojidan darak beradi. Guvrash bola tili chiqishiga zamin yaratadi. Bu davrda bolaning o'z muhitidagi eshitgan tovushlarga bo'lgan munosabati (reaksiyasi) ortadi. Bu uning sezish va idrok qilish qobiliyatining o'sayotganidan darak beradi. Bolaning qarshisidan, ikki yoni va ortida turib uni chaqirish, murojaat qilish bilan yoki boshqa narsalar (masalan, shaqildoq) tovushi bilan e'tiborini jalb etish zarur. Ovozni turli ohang, baland-past qilib, erkalash, suyishlarni tuydirib tez-tez va davomli suhbat qurib turish kerak bo'ladi. To'rt oylikdan boshlab ovoz (tovush) manbayini qidirib topadigan, unga o'zicha javob qaytaradigan bo'ladi.

Til chiqarish davri bola 5 – 6 oylikdan boshlanadi (bu davmning birinchi bosqichi). U atrofidagi katta-kichik odamlarga, jonivorlar (hayvon va qushlar)ga, narsalar (o'yinchoq va oiladagi buyumlar)ga, ularning ko'rinishi va ovozlarga qiziqish bilan qaraydigan bo'ladi. Asta-sekin ularni taniyidigan va farqlaydigan bo'ladi. Nutq shakllanishi uchun muhimi kishilar gapirayotganda quloq sola boshlaydi, ya'ni tinglash qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Buning natijasida tovush talaffuzini, hatto ba'zi bir so'zlarni farqlaydi, so'zlovchining ohangiga ongli munosabat ko'rsatadi, uni nutqning mazmuni bilan bog'lay oladi. Bu esa eshitganlarini tushuna boshlaganidan darak beradi. Shu tariqa nutq bola hayotida bilishning elementar funksiyasini bajara boshlaydi.

Til chiqarishning ikkinchi bosqichi 9 – 10 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan davr sanaladi. Shu oylardan bola hayoti, tarbiyasiga mas'ul kattalar nutqni o'stirishga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim. Bola qurshovidagi kishilarning kimligini, ismlarini tanishtirishlari va bot-bot takrorlab, eslatib turish kerak bo'ladi. "Ana, dada keldi", "Oyisi ovqat beradi", "Qara, opang (Zilola) kiriyapti", "Aka (Bilol) senga o'yinchoqni beradi" kabi eslatishlar doimiy, davomli bo'lishi maqsadga muvofiq. Xuddi shu kabi bola faol munosabatga kirishadigan buyumlar, agar u yoda bo'lsa, uy hayvonlari, parranda va qushlar bilan tanishtirib, ularning harakati bilan bog'liq tushunchalarni ham aytib borish zarur. Shu tariqa asta-sekin bolaning passiv lug'ati boyligi shakllanadi. Lug'at boyligi ayrim so'zlarni talaffuz qilish, bir qancha so'zlarni talaffuz qila olmasada, ma'nosini tushunish bilan to'lib boradi.

Bolaga kattalar tomonidan uzatilayotgan fikr a) gap ohangi bilan (buyruq, iltimos, man etish, ruxsat berish); b) so'z hamrohligidagi xatti-harakatlar bilan (qaynoq narsalardan qo'lini olib qochish, barmoq bilan ishora, silash-siypalash va boshqalar); c) muayyan ifodadagi ohang hamrohligida mimika (jilmayish, xo'mrayish, tasdiq yoki inkor uchun bosh harakatlari); d) shaxs yoki narsalarni ko'rsatib tanishtirish (dada, oyi (aya), buvi, aka, opa, nanna, umma, qu-qu, miyov (-miyov), bo'-bo'.

Bir yoshga to'lganda bolalar ayrim so'zlarni idrok etib, ma'nosini anglagan holda ayta boshlaydilar va bu bilan so'z-gap shaklida dastlabki muloqot ko'nikmalarini egallaydilar. Ota-onalar bola bilan tez-tez qisqa muddatli va biri boshqalari bilan almashadigan kichik mashg'ulotlarni davomli o'tkazishlari lozim. Bu yoshda bolalar nutqini rivojlantirish vositalari quyidagilar bilan kengayadi: a) o'yinchoqlar turfaligi (sujetli o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar va hayvon o'yinchoqlar); b) jonivorlar (hayvonlar, qushlar, hasharotlar); d) transport vositalari; e) predmetlarni aks ettiruvchi rasmlarni ko'rsatish; f) qisqa ashula va she'rlar. Bu o'rinda ana shu predmetlarning o'ziga va ularning nomlanishiga e'tibor qaratish muhim sanaladi, chunki ko'rib, tinglay boshlagan bolada diqqat qilish qobiliyati shakllanadi va bu asta-sekin so'z o'zlashtirish, talaffuz qilishga olib keladi.

Q.Shodiyeva to'g'ri ta'kidlaganidek, bola nutqining mustaqil rivojlanishi davrida avvalo ikki yoshgacha bo'lgan jarayonlar ajratiladi va ikkita teng ichki davrga bo'linadi: 1) bir yoshdan bir yarim yoshgacha; 2) bir yarim yoshdan ikki yoshgacha.

Har ikki davrda ham bola nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- a) nutqni tushunish va taqlid qilish malakasini rivojlantirish;

¹⁰ Edith Sánchez (2022). Wissenswertes über die Stadien der Sprachentwicklung bei Kindern. <https://bessergesundleben.de/wissenswertes-ueber-die-stadien-der-sprachentwicklung-bei-kindern/>.

¹¹ Masaru Ibuka (2023). Uchdan keyin kech. 1-kitob. T.: Hilol-nashr.; Masaru Ibuka. (2023). Uchgacha ayni vaqti. 2-kitob. T.: Hilol-nashr.

¹² Кольцова М.М. (1973). Ребёнок учится говорить. Москва. С.5.

¹³ Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. T.: O'qituvchi, 2008. 39-40-betlar.

¹⁴ Olloberganova S. (2017). Maktabgacha ta'limga nutq va o'ziga tilga o'rgatish. Toshkent. 6-7-betlar.

b) bolalar lug'atini boyitish;
d) nutqni atrofda qilar bilan muomala qilish vositasi sifatida shakllantirish.

Bir yarim yoshgacha bo'lgan ichki davrda 1) bolaga o'zgalari nutqini tushunishni o'rgatish; 2) o'zgalari nutqiga taqlid qilish orqali faol nutqni o'stirish vazifalari ota-onalar va tarbiyachilar zimmasida bo'ladi¹⁵.

Bolaning boshqalar nutqini tushunish qobiliyati rivojlanish sohalari hamda asta-sekin shakllantirilajak kompetensiyalar bilan uzviy aloqadorlikda bo'lishi bu boradagi samaraning sifat va sifat jihatdan integrativ intensivlikni ta'minlaydi. Bu haqiqatni o'ylada kattalar, ayniqsa, ona yaxshi bilishi, his etishi muhimdir. Xalqimizda keng tarqalgan nutq tarbiyasi quyidagilarda ilk yosh bosqichida kuzatiladi: 1) o'z ismi va tana a'zolarini farqlash – ular bilan aloqador so'zlar asosan kommunikativ, shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish) hamda bilish kompetensiyalari poydevori; 2) o'z tana a'zolarini va shunga qiyosan o'yinchoqlar tana qismlari nomini ajratish – ular asosida shaxsiy ("Men" konsepsiyasini yaratish) hamda bilish kompetensiyalari shakllana boradi; 3) o'ziga tanish bo'lgan oila a'zolari, hayvonlar va o'simliklarni ko'rsata olishi – ijtimoiy, kommunikativ hamda bilish kompetensiyalariga asos bo'ladi; 4) kiyim-kechaklar, mebellar, idish-tovoqlar, uyda bor bo'lgan transport vositalari nomini eshitganda tushunishi - ijtimoiy, kommunikativ hamda bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi; 5) ayrim harakatlarga undalga bajarishga urinishi (*ber, ol, kel, tur, o'tir, ye, ich* kabi) - ijtimoiy, kommunikativ, bilish kompetensiyalari hamda jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi sohasi uchun ga asos bo'ladi.

Ikki yosh davrida, ayniqsa, bir yarim – ikki yoshda taqlid bola tili (nutqi) va tafakkurining jadal rivojlanishi omili sanaladi. Go'daklikdan eshitib singgan tovushlar bolada fonemik qobiliyatlarga zamin hozirlaydi, artikulyatsiya apparati shakllanib, talaffuz ehtiyoji va qobiliyatini yuzga chiqaradi. Kattalar bolaga ayrim tovushlar, bo'g'inlar va so'zlarni namuna qilib aytib ko'rsatadilar, taqlidan aytirib, talaffuz ko'nikmasini va bu til birliklarining uning xotirasi, nutq zaxirasiga singdiradilar. Ayni paytda bola o'z kayfiyatini (xursandlik, rozilik, inkor, norozilik, xafalik) kattalarga taqlid qilib ohang orqali ifodalashni o'zlashtiradi. Bu davrda nutqni tushunish qobiliyatlari ularning faol nutqi taraqqiyotidan ancha o'zib ketadi.

Jismoniy va aqliy rivojlanishi me'yorda kechgan bolalar kattalarga taqlid bilan jadal sur'atda so'z o'zlashtirib boradilar. Ikki yosh bo'sag'asida bolalarning talaffuz etadigan so'zlari 200 dan ortadi. Ularning lug'ati boyligi oila a'zolaridan tashqari boshqa yaqinlari, qarindoshlarini anglatadigan so'zlar, makonga aloqador (uyda, ko'chada, hovlida, bog'da, ichkari, tashqari) tushunchalar, kunda ko'rib turadigan hayvonlar va o'simliklar nomlari, xatti-harakatlarini anglatuvchi so'zlar bilan kengayib, ko'payib boradi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar kundalik voqealar bilan bog'liq ibora va gaplar (masalan, payolada choy bor, choynak issiq (qaynoq) quydiradi; ovqat dasturxonada; shu yerga o'tir; u yerda) ma'nosini to'g'ri tushunish qobiliyatiga ega bo'ladilar va ularni o'z o'mida ishlata olish ko'nikmasi sekin-asta shakllana boradi. Ikki yoshdan bolalarda tevarakat-voqealar (tanish va ulanish kishilar, o'simliklar va hayvonlar, harakat va holatlar hamda ularning atalishi va boshqalar) asosida nutqni o'stirishga alohida o'rin ajratish muhimdir. Ayni paytda boshqalarga savollar berish, xohish-istaklarini ifodalash, turli munosabatlar bilan murojaat qilish ko'nikmalarini hosil qilishga diqqat qilish zarur. Shuningdek, o'z fikrini ikki-uch gap bilan ifodalashga, atrofda qilar muvofiqatiga murojaatiga tushunib quloq solishga, ularning so'z bilan ifodalangan talablarini bajarishga, savollarga (... qani? ... qayerda? Bu kim?, Bu nima? kabi) javob berish qobiliyatini o'stirishga erishish uchun harakat qilinadi.

Ayni paytda bu yoshda bola ijobiy yo salbiy xarakterdagi xatti-harakatlari muayyan so'z-gap, bolaga tushunarli ifodalor orqali qo'llab-quvvatlanishi, rag'batlantirilishi, oqibati tushuntirilishi orqali unda

faoliyatiga nisbatan ilk refleksiv munosabat shakllantirilishini ham nazarda turish maqsadga muvofiqdir¹⁶.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan oydinlashadiki, ilk yosh davrida bola nutqini rivojlantirishga e'tiborsizlik qilib bo'lmaydi, chunki bu davrda bola miyasi jadal sur'atda o'sib, rivojlanib boradi va uning vazifalari shakllanadi¹⁷. Fiziologik tadqiqotlar markaziy asab tizimi vazifalarini aynan ularning tabiiy shakllanish davrida osongina mashq qildirish mumkinligini aniqlagan. Mashqlarsiz ushbu vazifalarning rivojlanishi sekinlashadi va hatto umuman to'xtab ham qolishi mumkin. «Nutq uchun rivojlanishning bunday «hal qiluvchi» davri bola hayotining dastlabki uch yili hisoblanadi: bu muddatga kelib miya nutqiy sohalarning anatomik o'sib yetilishi asosan nihoyasiga yetadi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini o'zlashtirib oladi, katta so'z zaxirasi shakllanadi. Agarda dastlabki uch yilda kichikintoy nutqiga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, bu holda kelgusida uning o'rnini to'ldirish uchun juda ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi»¹⁸.

Agarda bola atrofda qilar uni beshikdan boshlab to'g'ri so'zlashga o'rgatsalar, bu holda bunday bola intellektual jihatdan normal rivojlanadi: unda tasavvur qilish, so'ngra fikrlash va xayol surish qobiliyati paydo bo'ladi; har bir yosh bosqichida bu qobiliyat takomillashib boradi. Bola intellektning rivojlanishi bilan bir vaqtda uning emotsional-iroda sohasi ham takomillashib boradi. Bularning barchasi eshitganlarini qabul qilish, tinglaganlarini tushuna borish jarayoni orqali amalga oshadi.

Bir yoshdan bola eshitgan, tinglaganlari va ko'rganlari asosida ongli ravishda, yani ma'nosini bilgan holda ayrim so'zlarni aytib boshlaydi. Bunda ko'rgazmalilik yetakchi metod sanaladi, ya'ni bola muhitidagi eng ko'p muloqot qiladigan, duch keladigan va qo'llanadigan shaxs, narsa, harakat va holatlarni eshittirib va ko'rsatgan holda kundan kun lug'at boyligi oshirib boriladi. Ayniqsa, rangli suratlaridan foydalanish samarasi katta. Ikki yoshdan bolalar ikki so'z (ega va kesim yoki to'ldiruvchi va kesim)dan iborat yig'iq gaplarni tuzib aytib oladi (*dadam keldi, suv ichaman* kabi). Ikki-uch yoshdagi bolada mana shunday konstruksiyali birliklar sonining imkon qadar orttirib borish bilan uning lisoniy ko'nikmalarini rivojlanishiga diqqat qilish lozim. Buning uchun bola lug'at boyligidan joy olmagari shaxs, narsa, harakat va holatlarni tushuntirib, gap tuzgan holda takrorlatib boriladi. Masalan: «Bu – xo'roz, xo'roz qu-qu-qu deydi». «Bu – do'ppi, do'ppini kiyasan» va hokazo. Bola bu eshitganlarini tushunadi, takrorlab borishi natijasida so'larni eslab qoladi va ular faol lug'at boyligidan joy oladi.

Xulosa va takliflar. Demak, ilk yosh davri borasida quyidagi to'xtamlarga kelish mumkin:

- bolaning tinglab tushunishi va munosabat bildirishi to'la holda dialogik muloqot asosida kichadi, bu muloqot tashabbuskori mutloq holda kattalar (ona, ota, buvi, buva, aka, opa v.b.) bo'ladi;

- kattalarni tinglashi, ular o'rgatmoqchi, tushuntirmoqchi bo'lgan narsa, so'zlarga e'tibor qaratishi uchun bola majburlanmaydi, balki unda bu obyektga ko'rgazmalilik (jonli, tabiiy holatini yoki rasmlarini ko'rsatish) asosida qiziqish uyg'otib, eshinishi, tushunishi va javob qaytarishiga erishish lozim;

- bola tinglab, ko'rish orqali o'rgangan so'z, birikma va gaplarni davomli tarzda takrorlanishiga erishish uchun vaqti-vaqti bilan bu shaxs, narsa, hodisa va harakat-holatga qayta murojaat etib turish maqsadga muvofiq;

- har qanday katta-kichik muvaffaqiyat rag'batlantiriladi (maqto'v, suyish bilan), shuningdek, bola unutgan, yodolmagan, tushunmagan narsalari uchun tanbeh berilmaydi, aksincha, sabr, boschilik bilan boshdan tushuntirish, eshittirish, ko'rsatish lozim bo'ladi, eng asosiysi, metodikani almashtirish kerak;

- har bir bola o'ziga xos bir dunyo, takrorlanmas yaratqidir, uni qaysidir bola kabi qilishga, unga o'xshatishga urinmaslik kerak; u qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, imkoniyati, qobiliyatiga ko'ra yondashish kerak.

¹⁵Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. T.: O'qituvchi, 2008. 39-47-bet.

¹⁶Qodirov V.A. (2023). Reflections on the formation of reflexive abilities in preschool education. Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 11 november. P.152.

¹⁷Кодирова Ф.Р. Мактабгача таълимда замонавий ёндашувлар. <https://giu.uz/wp-content/uploads/4.1>.

¹⁸Кольцова М.М. (1973). Ребёнок учится говорить. Москва. С.5.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asqarova M., Matchonov S. va boshqalar (2001). Kichik yosgdagi bolalar nutqini o'stirish. T.: O'zbekiston.
2. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi (2018). T.: Barkamol fayz media.
3. Edith Sánchez (2022). Wissenswertes über die Stadien der Sprachentwicklung bei Kindern. <https://bessergesundleben.de/wissenswertes-ueber-die-stadien-der-sprachentwicklung-bei-kindern/>.
4. Komilova D.A. Bolalar nutqini o'stirish. Andijon: Hayot nashri-2020, 2023.
5. Masaru Ibuka (2023). Uchdan keyin kech. 1-kitob. T.: Hilol-nashr.
6. Masaru Ibuka. (2023). Uchgacha ayni vaqti. 2-kitob. T.: Hilol-nashr.
7. Olloberganova S. (2017). Maktabgacha ta'limda nutq va o'zga tilga o'rgatish. Toshkent.
8. Qodirov, V. (2023). REFLECTIONS ON THE FORMATION OF REFLEXIVE ABILITIES IN PRESCHOOL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B11), 150-153.
9. Qodirova F.R., Qodirova R.M. (2006). Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: – Istiqlof.
10. Shodiyeva Q. (2008). Nutq o'stirish uslubiyoti. T.: O'qituvchi.
11. Алексеева М.М., Яшина Б.И. (2000) Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пособие для студ. высш. и сред. пед. учеб. заведений. - 3-е изд., стереотип. - Москва: Издательский центр «Академия».
12. Выготский Л.С. (2005) Психология развитие ребёнка. Москва.
13. Кольцова М.М. (1973). Ребёнок учится говорить. Москва.
14. Қодирова Ф.Р. Мактабгача таълимда замонавий ёндашувлар. <https://giu.uz/wp-content/uploads/4.1>.
15. Ушакова О.С., Струнина Е.М. (2004). Методика развития речи детей дошкольного возраста: Учеб.-метод. пособие для воспитателей дошк. образоват. учреждений. – Москва: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС.
16. Яшина В. И., Алексеева М. М. (2013) Теория и методика развития речи детей. Москва: Издательский центр «Академия».



PEDAGOG PROFESSIONALIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK DETERMINANTLARI

Salayeva Muborak Saburovna

psixologiya f.n., Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Psixologiya" kafedrası professori v.b., Toshkent, O'zbekiston,
muborakxon71@mail.ru

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p>Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil Jurnal soni: 10 Maqola raqami: 36 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.930</p>	<p>Maqolada pedagogik professionalizmni rivojlantirishga akmeologik yondashuv masalalari tadqiq qilingan. Pedagogik professionalizmni rivojlantirishga eng maqbul sharoit yaratishning akmeologik modeli tahlil qilinib, unda pedagogik professionalizmni tarkibiy tuzilmalarining o'zaro ta'siri va pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi omillar muhokama qilingan. Shuningdek, ushbu model asosida pedagogning shaxsiy-individual xususiyatlari o'rganilishi bilan birga pedagogik professionalizming rivojlanishiga kasbiy faoliyatining ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.</p>
<p>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</p> <p>shaxs, pedagog, professionalizm, pedagogika, psixologiya, akmeologiya, faoliyat, ehtiyoj, ta'lim, bilim, sharoit, omil, tahlil, mezon, daraja, ko'rsatkich, o'zi o'zini anglash, shaxsiy-kasbiy va ma'naviy cho'qqi, akmeologiya, ijodiy kamolot.</p>	

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida pedagog professionalizmi muammosi eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Har bir shaxsning kasbiy faoliyatida professionalizmni rivojlantirish uchun, avvalo, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zining individual xususiyatlarini anglashga asos bo'la oladigan ichki "Men"ni saqlab qolish muhimdir.

Pedagog professionalizmi asosan kasbiy rivojlanishning ob'ektiv va sub'ektiv determinantlari bilan belgilanadi. Chunki bu determinantlar pedagog professionalizmini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanib, ularni bilmaslik pedagog professionalizmini rivojlantirish borasida noto'g'ri strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga olib keladi. Bu albatta pedagogning o'ziga ham psixologik, ham fiziologik ortiqcha yuklama bo'lishi bilan birga ta'lim-tarbiya berayotgan shogirdlari shaxsining bir tomonlama rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Pedagog professionalizmini rivojlantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan kuzatuvlarimiz bu sohada bir qator muammolar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan:

- pedagog faoliyatidagi individual o'qitish usullarining o'ziga xosligi bilan kasbiy tayyorlash jarayonidagi usul va uslublarni standartlashtirish o'rtasida;

- pedagog professionalizmini rivojlantirish jarayoniga muvofiq sharoitlarni yaratish zarurati mavjud bo'lsa-da, bunday rivojlanish texnologiyalarining ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni kuzatishimiz mumkin.¹

Shu nuqtai nazardan pedagog professionalizmini rivojlantirish jarayoniga eng maqbul bo'lgan sharoitlarni yaratish yo'llarini o'rganish, uning akmeologik mezonlari, ko'rsatkichlari, professionalizmni rivojlantirish omillari va darajalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Professionalizm pedagogika va psixologiya sohaslarida ko'proq o'rganilgan muammodir. Shu jumladan, rus psixolog va pedagog olimlari - O.S.Anisimov, A.A.Bodalev, A.A.Derkach, V.G.Zazikin, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, V.N.Markin, V.G.Mixaylovskiy, A.S.Ognev, A.A.Rean, Yu.V.Sinyagin, V.A.Slastenin, L.A.Stepnova, V.D.Shadrikov, E.A.Yablokova va N.N.I.Kovalovalar professionalizm muammolarini o'rganishning nazariy tamoyillarini ishlab chiqishga, kasbiy o'sish va shaxsning kasbiy "akme"ga erishishini ta'minlash sharoitlarini aniqlashga katta hissa qo'shdilar.²

"Professionalizm" atamasi psixologiyada (A.K.Markova, T.M.Mitina, N.V.Kuzmina), pedagogik (V.A.Mizherikov, V.P.Simonov), ijtimoiy (Yu.A.Karpova, V.P.Zinchenko, S.B.Popov), iqtisodiy (S.Yu.Glazhev, N.D.Kondratiev) va boshqa adabiyotlarda juda faol qo'llaniladi.

Professionalizm fenomen sifatida haqiqiy pedagogik amaliyotda mavjud bo'lib, attestatsiya tartib-qoidalarida o'qituvchining mehnat unumdorligi va faoliyati ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi (N.M.Zvereva, G.A.Kozberg, L.B.Mozgarev)³.

Shu bilan birga, "professionalizm" tushunchasining mazmuni va asosiy xususiyatlari hali to'liq ochib berilmagan. Nufuzli manbalar - pedagogik ensiklopediya, pedagogik ensiklopedik lug'at va katta psixologik lug'atlarda bu hodisaning izohi yo'q (B.M.Bim-Bad, G.M.Kodjaspurova, B.G.Meshcheryakov, V.I.Zinchenko)⁴.

Psixolog olim A.A.Derkach nazariyasiga ko'ra, *faoliyat professionalizmi* - mehnat sub'ektining sifat ko'rsatkichlari tavsifi bo'lib, u shaxsning chuqur kasbiy malaka va kompetentlik, mehnat unumdorligini ta'minlovchi turli xil bilim va ko'nikmalar, shu jumladan, ijodiy hal qilishga asoslangan, yuqori va barqaror samaradorlikdagi faoliyatni namoyon qilishga undovchi kasbiy topshiriqlarni hal etish usullari va zamonaviy algoritmlarning egallanligida aks etadi.

Bu holatda o'qituvchining xulq-atvorini boshqaradigan eng muhim kasbiy tuyg'u - bu uning xatti-harakatlari pedagogik maqomga ega bo'lgan vaziyat chegarasining yaxlitligidir.

Taniqli rus olimi B.G.Ananyev ta'kidlaganidek, har qanday faoliyat muvaffaqiyatining sharti shunchaki zaruriy xususiyatlar yig'indisi emas, balki qobiliyat va iste'dodlarning ma'lum bir strukturasi, ularning funktsional tarkibi, sensorimotor, mnemonik, mantiqiy, hissiy-irodaning turli xil kombinatsiyasi hisoblanadi. va undagi boshqa komponentlar, turli xil inson faoliyatida notekis va o'ziga xos tarzda rivojlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'rganilgan barcha tadqiqotlarda "professionalizm" tushunchasi ko'pincha shaxs faoliyatining samaradorligi yoki yuqori darajadagi sermahsulligi bilan tavsiflanadi. Masalan, rus psixolog olimi K.K.Platonov shaxs faoliyatining yuqori darajadagi mahsuldorligi, unumdorlikning o'rta va kam darajalarini tadqiq qilgan. U yuqori darajadagi sermahsullikni "professionalizm" deya ataydi.

"Pedagog professionalizmi" ko'plab tadqiqotlar orqali ochib beriladigan keng qirrali hodisa hisoblanib, biroq bu muammoga hali ham etarli darajada e'tibor qaratilmagan.

Pedagog professionalizmini integral shaxsiy resurs sifatida ochib beradigan, ob'ektiv ravishda kuzatilgan va o'chanadigan, kasbiy faoliyatda shakllanayotgan va rivojlanayotgan keng qamrovli tadqiqotlar hali ham etarli emas, bu nazariy-empirik tadqiqotlar uchun muhim maydonni egallaydi.

Taniqli rus psixologi N.T.Seleznevaning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, professional o'qituvchi barqaror integral xususiyatlar bilan

¹ Гребенкина Л.К. Формирование профессионализма учителя в системе непрерывного педагогического образования: монография / Л.К.Гребенкина. Рязань: Изд-во РГПУ, 2000. - 204 с.

² Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: Пути достижения вершин профессионализма. М.: ПАУ, 1993. - 123с.

³ Климов Е.А. Пути в профессионализм (психологический взгляд). Учебное пособие / Е.А.Климов. — М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 2003. 183 с.

⁴ Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. - М: 1990.

ajralib turadi: munosabatlar, pozitsiyalar, qarorlar qabul qilish usullari, tartibga solish mexanizmlari⁵.

Pedagog professionalizmini o'rganish va uni rivojlantirish muammosining murakkabligi, shuningdek, zamonaviy o'qituvchining kasbiy funksiyalarining o'zgarishi, yangilanishi, noaniqligi, professionalizm me'yorlarining "emirilishi" (buzilishi holatlari), jamiyat va davlat tomonidan mutaxassislariga, shu jumladan, pedagoglarga qo'yiladigan talablarning murakkablashishi bilan bog'liq.

Muammo shundaki, professionalizmning umumiy psixologik tushunchasini boshqa shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan kasbning maxsus turi sifatida pedagogik kasbga nisbatan qo'llash biroq qiyin. Vaziyat asosan professionalashirish bosqichida (ko'p yillik pedagogik stajga ega) bo'lgan pedagoglarda professionalizmning etishmasligi va uzluksiz kasbiy pedagogik tizimda haqiqatan ham faoliyat ko'rsatayotgan oliy pedagogik kasbiy ta'lim, qayta tayyorlash va malakasini oshirish "ma'lumot"larining yo'qligi bilan murakkablashadi.

Biroq, mavjud tadqiqotlar orasida akmeologik yondashuvga muvofiq o'qituvchi professionalizmining akmeologik omillari hamda uni rivojlantirish uchun eng maqbul sharoitlarni yaratish yo'llarini o'rganadigan tadqiqotlar nisbatan juda kamdir. Bugungi kunda mazkur masalaning dolzarbligi va uning maxsus dissertatsiya shaklida ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilinmaganligi tadqiqot mavzusini tanlashga hamda tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini oldindan belgilab berishga sabab bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodlari sifatida tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy tahlil, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va izohlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent-tahlil, kvalimetriya, ekspert baholash usuli keng qo'llanildi. Asosiy metodologiya shaxs yo'nalganligini aniqlash uchun B.Bass-V.Kucher metodikasining mahalliy-etnik xususiyatlarga moslashtirilgan versiyasi, Leonhard-Szmishekning kommunikativ masofani o'lchash metodikasi hamda ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi talablar tizimini o'rganishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan anketadan iborat psixologik va akmeologik diagnostika majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Pedagog professionalizmini rivojlantirishga eng maqbul sharoit yaratishning akmeologik modeli pedagog professionalizmi tarkibiy tuzilmalarining o'zaro ta'sirini aks ettiradi va uning pedagogik faoliyati samaradorligini belgilaydi. Modelni amalga oshirishda o'qituvchiga uning shaxsiy-individual xususiyatlari, professionalizmining rivojlanishi va kasbiy faoliyatining samaradorligiga qanchalik hissa qo'shishi yoki to'sqinlik qilishi to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlar berish lozim⁶.

Pedagog professionalizmini rivojlantirishning akmeologik modeli quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi:

pedagog kasbiy faoliyatining yuqori mahsuldorligini ta'minlash;

pedagog shaxsining zahiraviy-funksional imkoniyatlari va uning turli vaziyatlardagi faoliyatga psixologik tayyorligini shakllantirish⁷.

Pedagog professionalizmi uch xil darajada rivojlanishga ega: *mukammal, qoniqarli va qoniqarsiz*.

Shaxsiy professionalizmini *mukammal* darajada rivojlantirish darajasiga ega bo'lgan pedagog quyidagilar bilan tavsiflanadi:

yuqori samarali pedagogik faoliyat, yaxlit akme-motivatsiyasi, yuqori hayotiy pozitsiyasi;

tizimlashtirilgan akmeologik bilim darajasi, pedagogik faoliyatini "Men" tasvirida aks ettirishi, ya'ni o'zini "Men pedagogman", "Men ustozman" shaklida ko'ra olishi;

yuqori darajadagi ijodkorlik, qat'iy yangi uslubiy tizimni yaratish, yangi imkoniyatlarni topishi va amalga oshirishi, kreativ shaxs sifatida o'zini o'zi anglashi, o'zini kasbiy rivojlanishining individual yo'llarini aniqlashi, o'z-o'zini anglash jarayonining akmeologik texnologiyalarini yuqori darajada bilishi va ularni tartibga solishi⁸.

Pedagog professionalizmining *qoniqarli* (etarli) darajada rivojlanishi: o'zini-o'zi hurmat qilishi, yuqori hissiy barqarorlik,

faoliyatdan qoniqish; kamroq tashvishlanishi va tajovuzkorlikka kamroq moyilligi; katta xayrixohlik, bag'rikenglik va o'ziga bo'lgan ishonch; o'z hayotining mazmun-mohiyatini topishi; kuzatuvchanligi va me'yoriy xatti-harakatlari; o'zini o'zi yuqori baholashi; muammoni oldindan ko'ra olishi; insonlarga nisbatan empatiya va ularni o'zaro tushunishga harakat qilishi kabi akmeologik sifatlar bilan tavsiflanadi⁹.

Pedagog professionalizmining *qoniqarsiz* darajada rivojlanishi: o'rtacha samarali pedagogik faoliyat, o'rtachadan yuqori motivatsiya (muvozanatli akme-motivatsiya); o'z xatti-harakatlaridan qoniqishi; o'z-o'zini rivojlantirish vaziyatiga tayyorligi; etarli darajada tizimlashtirilmagan akmeologik bilimlari; pedagogik faoliyatini "Men" tasvirida aks ettira olmasligi; qoniqarsiz darajadagi ijodkorligi, tayyor o'qitish texnologiyalarini joriy etishi, o'zini o'zi anglashi va o'z-o'zini tartibga solishning akmeologik texnologiyalarini etarli darajada bilishi; adekvat o'zini-o'zi hurmat qilishi, hissiy barqarorligi, o'z faoliyatidan qoniqishi, masofaga nisbatan munosabatning kamayishi va muloqotda o'zining asosiy rolda ko'rishi, ta'lim oluvchilarga ta'sir qilishning imperativ usullarining ustunligi, ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlaridagi xato va kamchiliklarga toqat qilmasligi bilan tavsiflanadi¹⁰.

Mazkur holatlar quyidagi akmeologik fazilatlar bilan ajralib turadi: ularning intellektual darajasini oshirish istagi, empatiya, kasbiy faoliyatdan qoniqish.

Agar pedagog professionalizmi etarli darajada rivojlanmasa: samarasiz pedagogik faoliyat; past motivatsiya; hayotdagi pozitsiyasi qiyamatining pasayishi; o'zini rivojlantirishga tayyorgarligining susayishi; akmeologik bilimlarning etishmasligi; "Men pedagogman", "Men ustozman" imidjining shakllanmasligi; ijodkorligining kamayishi; tayyor o'qitish texnologiyalarini joriy etishi va ulardan foydalanishi; mavjud texnikalarni doimiy takrorlashi; o'zini ijodiy shaxs sifatida anglamasligi; o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarining pasayishi; o'zini-o'zi baholash va qadrlash mezonlarining etishmasligi (past yoki yuqori bo'lishi); past hissiy barqarorlik; o'z faoliyatidan qoniqmasligi va o'z ishidan noroziligi kabi holatlar kuzatilishi mumkin¹¹. Biroq ushbu holarlar: o'z-o'zini yo'naltirish, o'z manfaatlarini qondirish, empatiya va ishtiyok kabi fazilatlar asosida ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin.

Pedagog professionalizmini rivojlantirishga eng maqbul sharoitlarni yaratish: o'qituvchilar faoliyatining jamiyatdagi nufuzini oshirish; o'qituvchining ijtimoiy mavqeiini oshirish; ta'lim muassasalarida rivojlanayotgan kasbiy muhitni yaratish; ustoz-murabbiy sifatida muloqot qilishi va ilg'or tajribalarni o'zlashtirish imkoniyati; jamiyatning ta'lim oluvchilarga hayotda o'z taqdirini o'zi belgilashlarida haqiqiy yordam ko'rsatishga qodir bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyoji; o'zining kasbiy o'sish istiqbollarini bilishi va belgilashi; ta'limni insonparvarlashtirishi va akmeologizatsiya qilishi (yuqori cho'qqilarga olib chiqishi, ta'lim oluvchilar muvaffaqiyatini ta'minlashi); ta'lim oluvchilarga nisbatan o'qitish jarayonida shaxsiga yo'naltirilgan va subyektiv yondashuvi kabi akmeologik determinantlarga bog'liq¹².

Professionalizmi rivojlantirish jarayonini akmeologik ta'minlash - bu pedagogning pedagogik faoliyati va uning shaxsiy-kasbiy rivojlanish xususiyatlaridan xabardorligini ta'minlaydigan bilim, axborot mazmuniga asoslangan chora-tadbirlar majmui bo'lib, u ta'lim-tarbiya natijasining yuqori mahsuldorligini ta'minlaydi¹³. Ushbu chora-tadbirlar majmui pedagog professionalizmini rivojlantirishning barcha akmeologik determinantlarini hisobga olgan holda quriladi.

Akmeologik qo'llab-quvvatlash jarayonida quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi:

- *axborot* - o'qituvchilarga ularning professionalizmini rivojlantirish xususiyatlari, shaxsning aqliy rivojlanishi haqida o'z vaqtda ma'lumot berish;
- *diagnostik* - pedagogning kasbiy rivojlanish darajasining mavjud holatini tashxislash;

⁵ Маркова А.К. Психология профессионализма. М.: Знание, 1996. -308 с.

⁶ Салаева, М.С. (2022). Педагогик профессионализм: Монография. - Т.: "LESSON PRESS" nashriyoti. - 168 б.

⁷ Салаева, М.С. (2012). Мутахассис касбий фаолиятини аниқлашда психогарма ва профессиогарманнинг аҳамияти / "Глобал олий таълим тизимда илмий тадқиқотларнинг замонавий услублари" мавзусидаги Халқаро илмий конференция. Навоий давлат педагогика институти – Бухоро давлат университети. 2015 йил 9 апрель. Навоий – 2015. –Б.252-254.

⁸ Салаева, М.С. (2014). Профессионализм в касбий компетентлик / "Наука, образование и производство в обеспечении устойчивого развития инновационной экономики" материалы научно-практической конференции. Филиал МГУ имени В.М.Ломоносова. 15-16 апреля 2014 года. Часть 1. –С.215-217.

⁹ Салаева, М.С. (2022). Педагог профессионализмининг шаклланиши касбий кадрларни ўзлаштиришга йўналтирилган ижтимоий-психо-логик жараён сифатида // «Мугаллим ҳам узликсиз билимлендириш» журналы № 3/2. ISSN 2181-7138. – Б.48-52.

¹⁰ Салаева, М.С. (2022). Педагогнинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришнинг психологик механизми // «Мугаллим ҳам узликсиз билимлендириш» журналы № 6/3. – Б. 83-88.

¹¹ Салаева, М.С. (2020). Педагогнинг касбий компетентлиги ва профессионализмга психологик ёндашув / "Психология фани ва ёшларнинг рivojланиши" мавзусидаги Халқаро онлаин конференция / "INTERNATIONAL PSYCHOLOGY SUMMIT" (Халқаро психология САММИТИ). ЎзМУ. 2020 йил 27-28 июль. – Б.205- 211.

¹² Салаева, М.С. (2021). Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий рivojланишини психологик қўллаб-қувватлаш / Инновацион таълим: халқаро таъриба, муаммо ва ечимлар" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети. Электрон тўплам. 3-кисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.

¹³ Салаева, М.С. (2021). Педагог профессионализмининг шаклланиши интегратив психологик ҳодиса сифатида / Материалы международной научной конференции "Педагогические и психологические-кие особенности раз-вятия, формирования и становления личности врача". – Самарканд. Самаркандский государственный медицинский институт. (СамГМИ) 5 мая 2021 года. Электронный сборник. – С.178-180.

- *rivojlanish* - pedagog professionalizmi va uni shaxsiy rivojlantirish;
- *korreksion* - pedagog professionalizmini rivojlantirish darajasini tuzatish.

Pedagog professionalizmini rivojlantirish jarayonini eng maqbul sharoitlarni ta'minlaydigan akmeologik omillar: o'qituvchining kasbiy o'zini o'zi anglashini rivojlantirish; o'qituvchining o'zini o'zi o'zgartirishga motivatsion tayyorligi, umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish va o'qituvchilar o'rtasida o'z talabalarini rivojlantirishda natijalarga erishish uchun yuqori motivatsiya; o'qituvchining o'quv faoliyatida individual ijodiy o'zini o'zi amalga oshirishga yo'naltirilganligi; kasbiy-pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qituvchilarda psixologik-pedagogik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; ta'lim oluvchilar bilan suhbat jarayonida o'qituvchining fikrlashini rivojlantirish va uning o'zini o'zi boshqarishini faollashtirish, kasbiy faoliyat talablariga va ta'lim muhiti shartlariga muvofiq individual salohiyat imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha faol pozitsiyani shakllantirishdan iborat¹⁴.

Bizning tadqiqotlarimiz pedagoglarning professionalizmini rivojlantirishda har bir omilning alohida ahamiyatini ko'rsatdi.

Biz tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda pedagog professionalizmini rivojlantirish jarayoniga psixologik va akmeologik yordam ko'rsatish va uni qo'llab-quvvatlashning ikkita komponentini ajratib oldik:

1. Pedagogik professionalizmi rivojlantirishning hozirgi va potensial darajalari, shaxsiy professionalizmini rivojlantirishdagi psixologik qiyinchiliklar va boshqalar haqida akmeologik ta'lim.

2. Pedagogning shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlashda uning professionalizmini rivojlantirish bo'yicha bir qator akmeologik ishlarni amalga oshirish, bunda shaxsning o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi tartibga solish va hayoti va faoliyatida davomidagi psixologik qiyinchiliklarni tashxislash, ularni oldini olishga tayyorgarlikni shakllantirish va engish kabilarni nazarda tutiladi.

Ushbu psixologik yordam pedagogik professionalizmini rivojlantirish va kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning asosi sifatida uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagoglarni kasbiy va qayta tayyorlash, yosh o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga moslashtirish va ularga individual maslahatlar berishda qo'llanilishi mumkin.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarimiz natijalari asosida chiqirilgan xulosalarimiz pedagogik professionalizmi rivojlantirishga oid tadqiqotimiz farazlarida bayon etilgan masalalarni nazariy-uslubiy va eksperimental-amaliy tasdiqladi.

Tadqiqotimiz "Inson-Inson" tizimida faoliyat yurituvchi pedagog shaxsi va professionalizmini rivojlantirishga akmeologik yondashuvni amalga oshirish nuqtai nazaridan qiziqish uyg'otadi.

Shu nuqtai nazardan tajriba-sinov ishlarimizning asosiy e'tibor qaratilgan nuqtasi - pedagoglarning shaxsini o'rganish va ularning professionalizmini rivojlantirishda akmeologik yondashuvni amalga oshirishdir. Bu bizga psixologik va akmeologik qonuniyatlarning kontseptual jihatdan umumiylikni hamda pedagoglarning shaxsi va professionalizmini rivojlantirishni ta'minlaydigan omillarni o'rganishga imkon berdi va tanlangan tadqiqot strategiyasining qonuniyligini isbotladi.

Muhokama. Pedagogik professionalizmi rivojlantirish strategiyasi o'qituvchilarning kasbiy faoliyat xususiyatlarini nazariy jihatdan o'rganish hamda psixologik va akmeologik tahlil qilish jarayonida belgilab olindi. Biroq ko'pchilik olimlar pedagogik professionalizmining rivojlanishini o'qituvchining mutaxassis sifatida shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'laydi.

Pedagog shaxsi va uning professionalizmini rivojlantirish murakkab tuzilishga ega tizimli ta'lim natijasi bo'lib, bu nafaqat o'qituvchi, balki ta'lim oluvchi tomonidan ham "akme"ga erishishga qaratilgan kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkonini beradi.

Pedagog professionalizmi - bu kasbiy bilim va ko'nikmalarning chuqurligi, o'zini o'zi anglash va qadrlash, o'ziga ishonch va kompetensiyaning etarligi bilan belgilanadigan tizimli integratsiyalashgan ta'lim natijasidir.

Pedagogik professionalizm tushunchasining mazmuni hayotiy qadriyatlar bilan bog'liq, hayotiy pozitsiyada yutuqlarga erishish uchun ifodalangan motivatsiya, shu bilan birga kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati va undan sub'ektiv qoniqish hamda professional "akme"ga olib keladigan eng maqbul mahorat darajasini belgilaydi.

Pedagog shaxsi va uning professionalizmi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- motivatsion qadriyatlarga ega;
- kognitiv bilimlarining chuqurligi;

• kreativ qirralarini namoyon eta oladigan;

• o'z imkoniyatlarini tartibga soluvchi va kuchli irodaviy;

• o'z faoliyati va xatti-harakatlarini hissiy baholay oladigan;

• hissiy barqarorlik va kasbiy deformatsiyalar.

Pedagogik professionalizmining rivojlanishi o'qituvchining o'zini o'zi anglashi, shaxsiy-kasbiy va ma'naviy cho'qqilar(akme)ga erishish jarayonida ijodiy kamolotiga yordam beradi. Pedagogik professionalizmi mukammal rivojlantirish darajasida o'qituvchi o'z kasbi va hayotiy pozitsiyasida yanada barqaror, samarali va uzoq muddat faoliyat yuritadigan shaxsiga aylanadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'qituvchining pedagogik faoliyati va professionalizmi *ob'ektiv* va *sub'ektiv* nuqtai nazardan baholanadi.

Pedagogik professionalizm mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash jarayoni turli kasblar doirasidagi mutaxassislarining kasbiy mahoratiga nisbatan pedagogik faoliyatda o'qituvchi professionalizmini rivojlantirishning psixologik va akmeologik mezonlarining ob'ektiv va subyektiv jihatlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Ob'ektiv nuqtai nazardan, o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivatsiyasi, kasbiy bilim darajasi, o'qitishga ijodiy yondashishi, ijodkorligi, o'qitish samaradorligi - ta'lim oluvchilar bilim darajalarining kuchliligi va chuqurligi bilan belgilanadi. Shuningdek, o'qituvchidagi hissiy barqarorlik va kasbiy deformatsiyalar uning ta'lim oluvchilar va hamkasblari bilan munosabatlarida o'zini o'zi va o'z faoliyatini tartibga solish qobiliyatlari asosida aniqlanadi.

Pedagogik professionalizmining *ob'ektiv mezon ko'rsatkichlari* quyidagilardan iborat:

o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizliklarga yo'l qo'ymaslik motivatsiyasining rivojlanish darajasi;

kasbiy bilim darajasi;

o'qituvchining kasbiy yo'naltirilganligi darajasi; o'quv faoliyatiga ijodiy yondashish, o'qituvchi ijodkorligi;

pedagogik faoliyat samaradorligi; o'qituvchi tomonidan o'qitiladigan maktab o'quvchilarining kuchlilik darajasi va bilim chuqurligi;

hissiy barqarorlik darajasi; kasbiy deformatsiyalarning mavjudligi yoki yo'qligi, o'z faoliyatini va bolalar va hamkasblar bilan munosabatlarini o'z-o'zini tartibga solish usullari;

rivojlangan aloqa va tashkiliy qobiliyatlar darajasi; o'qituvchining xushmuomalalik darajasi va xususiyatlari; o'qituvchining empatiya qobiliyati.

Pedagog professionalizmining *sub'ektiv mezon ko'rsatkichlari*:

o'qituvchining o'z pedagogik faoliyati va hayotidan qoniqish darajasi;

kasbiy muvofiqlikni o'z-o'zini baholashning shakllangan darajasi;

sub'ektiv nazorat darajasi;

o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlik darajasi;

reaktiv va shaxsiy tashvish darajasini o'z-o'zini baholashning shakllangan darajasi;

o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini aks ettirish, o'ziga munosabat, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish xususiyatlari.

Bir so'z bilan aytganda, pedagogik professionalizm darajasi *subyektiv nuqtai nazardan* pedagogning o'z faoliyatidan qoniqishi, o'z imkoniyatlarini aks ettirishi va o'z orzularini amalga oshirish xususiyatlari, o'zini o'zi anglashi bilan baholanadi.

Shu tarzda tahlil qilingan pedagog professionalizmining akmeologik mezonlari har bir mezon uchun daraja va ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi.

Pedagogik professionalizmi rivojlantirishning har bir mezon bo'yicha ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda biz uchta darajasini aniqladik: mukammal, qoniqarli va qoniqarsiz. Har bir mezon eng kam rivojlangan darajadan boshlab ortib boruvchi tartibda tavsiflanadi. Shu tariqa biz nazariy jihatdan pedagog shaxsining rivojlangan professionalizm darajalarini, uning mezon va ko'rsatkichlarini taqdim etdik.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, pedagogik professionalizmi rivojlantirishning eng maqbul sharoitlarini yaratish strategiyasini aniqlash va bu asosda uning mexanizmlarini o'rganish pedagog professionalizmini rivojlantirish uchun psixologik va akmeologik tayyorgarlikni ta'minlashi mumkin. Bugungi kunda ushbu psixologik-akmeologik kontseptsiyani pedagog professionalizmi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini o'rganish uchun qo'llash zarurati mavjud. Shuningdek, pedagog shaxsi va professionalizmini uning kasbiylashuvi konteksti rivojlantirishda psixologik-akmeologik qonuniyatlardan tashqari pedagogik, texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy, boshqaruv va siyosiy sohalaridagi o'zaro ta'sirlarini integratsiyalashni

¹⁴ Салаев, А. М. С., Джумабаева, М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UZACADEMIA Ilmiy-uslubiy

jurnali ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL. 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - C.54-60. www.academscience.uz

ham taqozo etadi. Bu esa ta'lim, boshqaruv, davlat xizmati va boshqa davlat muassasalari tizimidagi kasbiy faoliyat uchun eng maqbul

sharoitlarini yaratish va uni ilmiy-uslubiy ta'minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гребенкина Л.К. Формирование профессионализма учителя в системе непрерывного педагогического образования: монография / Л.К.Гребенкина. Рязань: Изд-во РГПУ, 2000. - 204 с.
2. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: Пути достижения вершин профессионализма. М.: РАУ, 1993. - 123с.
3. Зазыкин В.Г., Чернышев А.П. Акмеологические проблемы профессионализма. - М: 1993.
4. Исаев И.Ф. Профессионализм преподавателя: культура, стиль, индивидуальность. Учеб. пособие / И.Ф. Исаев, Л.Н. Макарова. - Москва; Белгород: Изд-во БелГУ, 2002. -196 с.
5. Климов Е.А. Пути в профессионализм (психологический взгляд). Учебное пособие / Е.А.Климов. — М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 2003. 183 с.
6. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. - М: 1990.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. М.: Знание, 1996. -308 с.
8. Салаева, М.С. (2022). Педагогик профессионализм: Монография. - Т.: "LESSON PRESS" nashriyoti. - 168 б.
9. Салаева, М.С. (2012). Мутахассис касбий фаолиятини аниқлашда психогарма ва профессиогарманнинг ахамияти / "Глобал олий таълим тизимида илмий тадқиқотларнинг замонавий услублари" мавзудаги Халқаро илмий конференция. Навоий давлат педагогика институти – Бухоро давлат университети. 2015 йил 9 апрель. Навоий – 2015. –Б.252-254.
10. Салаева, М.С. (2014). Профессионализм ва касбий компетентлик / "Наука, образование и производство в обеспечении устойчивого развития инновационной экономики" материалы научно-практической конференции. Филиал МГУ имени В.М.Ломоносова. 15-16 апреля 2014 года. Часть 1. –С.215-217.
11. Салаева, М.С. (2022). Педагог профессионализмнинг шаклланиши касбий кадрларнинг ўзлаштиришга йўналтирилган ижтимоий-психологик жараён сифатида // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш» журналы № 3/2. ISSN 2181-7138. – Б.48-52.
12. Салаева, М.С. (2022). Педагогнинг ўз-ўзини касбий такомиллаштириши ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришнинг психологик механизмлари // «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш» журналы № 6/3. – Б. 83-88.
13. Салаева, М.С. (2020). Педагогнинг касбий компетентлиги ва профессионализмга психологик ёндашув / "Психология фани ва ёшларнинг ривожланиши" мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / "INTERNATIONAL PSYCHOLOGY SUMMIT" (Халқаро психология САММИТИ). ЎзМУ. 2020 йил 27-28 июль. – Б.205- 211.
14. Салаева, М.С. (2021). Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.
15. Салаева, М.С. (2021). Педагог профессионализмнинг шаклланиши интегратив психологик ҳодиса сифатида / Материалы

международной научной конференции "Педагогические и психолингвистические особенности развития, формирования и становления личности врача". – Самарканд. Самаркандский государственный медицинский институт. (СамГМИ) 5 мая 2021 года. Электронный сборник. – С.178-180.

16. Салаева, М.С. (2021). Инновацион таълим шароитида педагогнинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021). - С.567-570.

17. Салаева, М.С., Джумабаева, М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - С.54-60. www.academicscience.uz

18. Салаева, М.С. & Абдурасулова, Ш.К. (2022). Педагог профессионализмнинг шаклланиши касбий кадрларнинг сифатида намоён бўлиши // *Eurasian journal of social sciences, Philosophy and culture Innovative*. Academy Research Support Center. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022. Pages 183 -188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>

19. Salayeva, M.S. (2023). Pedagogical professionalism: monograph / International Academic Research and Reviews in Educational Sciences / Chapter 4. -Turkey: Serüven Publishing. First Edition •©March 2023.-151 p.

20. Salayeva M.S. & Koshnazarova, M.A. & Abdukodirov, G. & Radjabova, D.A. (2022). Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // SPECIALUSIS UGDYMAS / SPECIAL EDUCATION. 1(43). Pp. 10571 – 10576.

21. Salayeva, M.S. & Ergasheva, G.M. & Magdiyeva, M.E. & Shayunusova, F.S. (2023). Scientific Aspects of Pedagogical Professionalism // Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology. ISSN: 1001-4055 Vol. 44 No. 6 (2023). – Pp.2264-2270.

22. Salayeva, M.S. (2021). Psychological conditions for personal and professional development of future teachers. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P.231-233.

23. Salayeva, M.S. (2021). Personal and professional self-development of a teacher to achieve a professional level. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March 2021.- P. 234-237.

24. Salayeva, M.S. (2021). Formation of teacher professionalism as an integration psychological event in the context of globalization of education // Washington DC, USA International Journal of Trend in Scientific Research Development (IJTSRD). Innovative Development of Modern Research. With Impact Factor: 6.410. E-ISSN 2456-6470. Special Issue – IDMR. April 2021.- P.109-111.



БОЛАЛАР УЧУН ЯРАТИЛГАН МАТНЛАРНИНГ АНТРОПОЦЕНТРИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Юлдашева Дилафруз Махамдалиевна,

Қўқон университети профессори,
филология фанлари доктори (DSc)

yuldilaf@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIIYA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 37

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.931>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

матн, антропоцентризм,
лингвомаданият, лисоний кобилят,
омил.

Мазкур мақолада матн маълум бир давр маҳсули, муайян воқеликни тил воситаларида акс эттирувчи лисоний кобилят маҳсули эканлиги, бола ўзига тушунарли матн орқали онгида оламнинг антропоцентрик тартибга солинган олам манзарасини яратиши таъкидланган. Шунингдек, матннинг когнитив ва лингвомаданий жиҳатдан аҳамияти шакл ва мазмун бирлиги, умумийлик ва хусусийлик уйғунлиги тамойилида акс этиши, болалар учун яратилган матнларда болаларга хос ички кечинмаларни тасвирлаш натижасида воқелик вужудга келиши мисоллар орқали далилланган.

Кириш. Ўзбек тилшуносларининг лингвистик семантика, прагматика, когнитив тилшуносликка оид тадқиқотлари, матннинг лингвопоэтик, прагматик, деривацион, коммуникатив хусусиятларига бағишланган муайян ишлар ўзида антропоцентрик йўналишни акс эттирган бўлиб, бу масала ўзбек болалар фольклори, яъни оғзаки ижоди ҳамда ёзма бадий матни мисолида антропоцентрик жиҳатдан тадқиқ этишга эҳтиёж пайдо бўлди. Сир эмаски, дунё тилшунослигида матни антропоцентрик ёндашув асосида ўрганиш, муайян коммуникатив вазиятларга миллий-маданий омилларнинг таъсири ҳамда тили универсал-объектив, субъектив-миллий аспектда унинг соҳиби билан бирга ўрганиш ва ўргатиш масаласи тобора долзарб аҳамиятга эга бўлмоқда. Бу эса асримиз бошлариданок лингвокультурология, прагмалингвистика, социолингвистика, когнитив ва психолингвистик тамойилларнинг тараққиётига ва истиқболига замин ҳозирлади. Матн ва нутқ эса шунчаки, синтактик-семантик жиҳатдан бириккан нисбий мустақил гаплар кетма-кетлигига эмас, балки муайян вазиятда ижтимоий аҳамиятга эга бўлган вербал мулоқот усули, сўзлашувчиларнинг дунёкараши, ижтимоий мавқеи, тафаккури, миллий ўзига хослигини ифодаловчи ментал қурилма сифатида қарала бошланди. Номинатив-прагматик парадигма саналган антропоцентрик парадигманинг ривожланиши шахсни, маълум вазиятда сўзловчи ва тингловчи ҳолати ва хусусиятини ўрганиш, билиш билан боғлиқдир.

Дунё тилшунослигида антропоцентрик ёндашув оламнинг миллий-лисоний манзараси билан маънодошлик касб этади. Рус тилшуноси В.А.Маслованинг назариясига кўра антропоцентрик парадигма когнитив лингвистика, лингвокультурология, этнолингвистика, психолингвистикани камраб олувчи очик парадигма, деб ҳисобланади. Антропоцентризмнинг кўринишлари В.Гумбольдт ҳамда Л.Вайсгербернинг тадқиқотларида ҳам келтирилган. Тилшуносликда лингвистик белгининг умумсемиологик табиатини ёритиш жараёнида ҳамда семантика, когнитив тилшунослик, психолингвистика, прагматик тилшунослик, лингвокультурологияга оид тадқиқотларда антропоцентрик ёндашув масаласига эътибор қаратилган. Антропоцентрик парадигма асосида яратилган ишларда тил тизими шахс омил билан боғлиқликда тадқиқ этилган.

Ҳар қандай матн маълум бир давр маҳсули, муайян воқеликни тил воситаларида акс эттирувчи лисоний кобилят маҳсулидир. Бола ўзига тушунарли матн орқали онгида оламнинг антропоцентрик тартибга солинган олам манзарасини яратади. Хусусан, матннинг когнитив ва лингвомаданий жиҳатдан аҳамияти шакл ва мазмун бирлиги, умумийлик ва хусусийлик уйғунлиги тамойилида акс этади. Болалар учун яратилган матнларда

болаларга хос ички кечинмаларни тасвирлаш натижасида воқелик вужудга келади. Бунда муаллиф турли сатҳ бирликларидан айнан болаларга хосларини танлаб, матн тузилади.

Адабиётлар таҳлили. Р.Ҳ.Давлатова матнларда кишиларга қўйилган айрим лақаб, тахаллусни ифодаловчи атоқли отлар ҳам шахсга, ҳам унинг муайян белгисига ишора қилганда уларнинг дейктик доирасининг кенгайишини таъкидлайди¹. Бу ҳолат айниқса, болаларга хос эгоцентрик хусусиятли матнларда яққол намоён бўлади. М.Қурбонова болалар нутқида мавжуд бўлган такрорлар коннотатив маъно ифодалашини таъкидлаган². Жумладан: “Лексик бирликлар такрори коннотатив маънони ҳосил қилувчи прагматик восита сифатида, айниқса, болалар нутқида кўп кузатилади. Болалар нутқида лексик бирликлар такрорининг турли кўринишлари акс этади. Кўпинча такрор ёрдамида таъкидни кучайтириш асосида нутқнинг таъсирчанлиги таъминланади,” деб болалар нутқида такрорнинг ўзига хос жиҳатлари хусусида фикр юритади³.

